

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**Shermuxammad AMONOV**

**AHMAD TABIBIY TURKIY  
DEVONLARI QO‘LYOZMALARINING  
QIYOSIY-MATNIY TADQIQI**

**Monografiya**

**“BOOKMANY PRINT”  
TOSHKENT – 2023**

**UO‘K: 894.375**  
**KBK: 83.3(50‘z)**  
**A 49**

Amonov Shermuxammad

Ahmad Tabibiy turkiy devonlari qo‘lyozmalarining qiyosiy-matniy tadqiqi [Matn] : monografiya / Sh. Amonov. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 258 b.

Ushbu monografiyada tarixiy, adabiy, ilmiy manbalardagi birlamchi ma‘lumotlar asosida xorazmlik iste‘dodli shoir Ahmad Tabibiy biografiyasiga aniqlik kiritilgan. Shuningdek, respublikamiz hamda xorijiy kutubxona va fondlarda saqlanayotgan shoirning turkiy devonlari qo‘lyozma nusxalari tadqiq etilib, ularning monografik tavsifi, shoir devonlari genealogiyasi va matn tarixi muammosi yoritilib, “Munisul-ushshoq” va “Hayratul-ushshoq” devonlari matniy jihatdan tahlil etilgan.

Monografiyada Tabibiyning ilm ahliga ma‘lum bo‘lmagan yangi asarlari, janrlar va mavzu ko‘lami haqida ma‘lumot berilgan, shoirning ilm-fan ahliga ma‘lum bo‘lmagan lirik asarlaridan namunalar ilmiy ilmiy iste‘molga olib kirilgan, manbalar orasidagi matniy tafovutlar qiyosiy ochib berilgan, kelgusida shoir devonlari nashrini amalga oshirish yuzasidan vazifalar belgilab berilgan.

Monografiya filolog mutaxassislar, tadqiqotchilar hamda oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakulteti magistratura va bakalavriat talabalariga mo‘ljallangan.

**Mas‘ul muharrir:**

**Nurboy JABBOROV** – filologiya fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

**Dilshod G‘AYIPOV** – filologiya fanlari doktori, professor

**Qo‘ldosh PARDAYEV** – filologiya fanlari doktori, professor

Monografiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2023-yil 31-oktyabrdagi 3-sonli majlisi bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

**ISBN 978-9910-761-00-3**

© Amonov Sh.

© “Bookmany print” nashriyoti, 2023.

## KIRISH

Jahon xalqlari tarixida millat hayotida yorqin iz qoldirgan iste'dodli shaxslarning hayoti, faoliyatini o'rganish, ular qoldirgan adabiy meros manbalarini aniqlash, ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlash orqali muallifning dastxat matni va unga yaqin variantini belgilash jarayoni muhim vazifalardandir. Zero, bunday matn muallifning adabiy-estetik tafakkuri taraqqiyoti, asar orqali aytmoqchi bo'lgan maqsad-muddaosini to'g'ri tushunish va talqin qilish, asarga davr kitobxonlarining munosabati, jamiyat va siyosiy qarashlarning ta'siri natijasida yuzaga kelgan matnning mohiyatini anglashda dolzarblik kasb etadi.

Dunyo matnshunosligi va adabiy manbashunosligida ma'lum bir millat ma'naviyati rivojida muhim ahamiyat kasb etgan adabiy asarning g'oyaviy asoslari, uni yaratishga turtki bo'lgan omillar, yaratilgan davri, mazkur asar bunyodga kelgan davr badiiy tafakkurining mahsuli sifatidagi qimmatini ko'rsatishga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu boradagi ilmiy ishlarning xulosalari, filologiya yo'nalishlaridan tashqari tarix, falsafa, pedagogika kabi yondosh sohalar uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qilishi bilan ilmiy qimmatga ega.

So'nggi yillarda vatanimizda ajdodlarimiz qoldirgan adabiy, ilmiy asarlarning mukammal matnini tiklash, ularda ilgari surilgan umuminsoniy g'oyalarni jamiyatga, eng avvalo, yosh avlodga yetkazishga katta e'tibor qaratilmoqda. "... avvalo xalqimizning yaratuvchilik dahosi bilan bunyod etilgan noyob merosni har tomonlama chuqur o'rganish, yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqida yaxlit tasavvur uyg'otish, yosh avlodni gumanistik g'oyalar, milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalashdek ezgu maqsadlar ko'zda tutilgan"<sup>1</sup>. Shu ma'noda Xorazm adabiy muhitining yirik vakili – Ahmad Tabibiy ham turkiy va fors-tojik tilida devonlar tartib bergan iste'dodli shoir, mohir tazkiranavis, tarjimon va tarixchi, o'zidan boy adabiy meros qoldirgan adib sifatida XIX asr oxiri – XX asr

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. Prezident Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi / Xalq so'zi. – Toshkent, 2017-yil, 4-avgust.

boshlari o‘zbek adabiyoti tarixida alohida o‘rin tutadi. Hozirga qadar Ahmad Tabibiy hayoti va ijodi yuzasidan ayrim tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, shoirning tarjimai holiga oid ma’lumotlarda turli chalkashliklar kuzatiladi. Qolaversa, turkiy devonlari qo‘lyozma va toshbosma manbalari, qo‘lyozmalar o‘rtasidagi matniy farqlar, devonlarga kirgan she’rlarining hajmi, janri va mavzu ko‘lami bo‘yicha yaxlit bir tadqiqot yakunlangan emas. Zero, qisqa umr ko‘rsa-da, o‘zidan katta adabiy meros qoldirgan serqirra ijodkor – Ahmadjon Tabibiy hayoti, faoliyati, asarlari manbalarini tadqiq etib, ilmiy iste’molga olib kirish manbashunoslik va matnshunoslik yo‘nalishining ustuvor vazifalari sirasiga kiradi. Qayd qilinganlarga ko‘ra, Tabibiy ilmiy biografiyasini tiklash, turkiy devonlari va ularning nomlariga aniqlik kiritish, dunyo qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgan nusxalarini aniqlash, ular o‘rtasidagi matniy tafovutlar va bu farqlarning yuzaga kelish sabablari, devonlarga kirgan janr va mavzularni aniqlash, devonlarning joriy alifbodagi tabdilini amalga oshirish kabi vazifalar mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-sonli “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiqi va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu monografiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tabibiy ijodiga qiziqish uning hayotlik chog‘idanoq boshlangan<sup>2</sup>. Jumladan, rus olimi A.N.Samoylovichning Tabibiy haqidagi

---

<sup>2</sup> O‘zR FASHI. Asosiy fond. 9596 raqamli qo‘lyozma. 500<sup>ab</sup>-sahifalar. O‘zR FASHI. Asosiy fond. 12561 raqamli qo‘lyozma. 56<sup>a</sup>-57<sup>b</sup>-sahifalar.

qaydlari<sup>3</sup> alohida diqqatga sazovor. A.N.Samoylovichning Turkistondagi faoliyati, xususan, uning Tabibiy bilan uchrashuvi tafsilotlari o‘zbek olimlari tadqiqotlarida ham qayd etilgan<sup>4</sup>. Ushbu ishlarda shoirning tazkiranavislik (“Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy”) faoliyatiga asosiy e’tibor qaratilgan.

O‘zbek olimlaridan F.G‘anixo‘jayevning dissertatsiyasida Tabibiy hayoti, ijodiy merosi va manbalari ma’lum darajada o‘rganilgan. Tadqiqotda olim Tabibiyning faoliyati, asarlari, ularning manbalari, shoir ijodining janrlar ko‘lami, mavzu mundariyasi, izdoshlik masalalari haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Ayniqsa, olimning Tabibiy asarlari mavjud 20 ga yaqin qo‘lyozma va toshbosma manbalarni aniqlagani<sup>5</sup>, she’rlaridan ayrimlarini tabdil qilib, nashr ettirgani e’tirofqa loyiqdir<sup>6</sup>. Tabibiyning tazkiranavislik faoliyatiga adabiyotshunos S.Matkarimova dissertatsiyasida ko‘plab yangi ma’lumotlar berilgan va badiiy mahorati baholangan<sup>7</sup>. Qo‘lyozma asarlar kataloglari<sup>8</sup>da ham Tabibiy asarlari

---

<sup>3</sup> Самойлович А.Н. Записки Восточного отделения Императорского Русского археологического общества, Т. XIX, Санкт-Петербург, 1909.

<sup>4</sup> Ганихўжаев Ф. Аҳмаджон Табибийнинг ҳаёти ва ижоди. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1969; Аҳмад Табибий (ҳаёти ва ижоди). – Тошкент: Фан, 1978; Қосимов Б. Инқилобий шеърят саҳифалари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1977; Излай-излай тошганим. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983; Қосимов Б. ва бошқ. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004; Маткаримова С. Табибий – тазкиранавис (“Мажмуаи си шуарои пайрави Ферузшоҳий” асосида). Филол. фан. ном... дисс. – Тошкент, 2007; Эркинов А. Поездка А.Н.Самойловича в Хивинское ханство в 1908 году и оценка им литературной среды. II Востоковедческие чтения памяти Н.П.Остроумова. Сборник материалов. – Ташкент, 2010; «Российская империя и Хивинское ханство (русские: ученый А.Н. Самойлович и путешественник В.Г.Ян в Хивинском дворце в начале XX в.)». // Проблемы востоковедения. Научный журнал. 3(61) 2013.

<sup>5</sup> Табибий. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи – Фатхулла Ганихўжаев). – Тошкент: Бадий адабиёт. 1968.

<sup>6</sup> Ганихўжаев Ф. Аҳмаджон Табибийнинг ҳаёти ва ижоди. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1969.

<sup>7</sup> Маткаримова С. Табибий – тазкиранавис (“Мажмуаи си шуарои пайрави Ферузшоҳий” асосида). Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2007.

<sup>8</sup> Иванов П.П. Архив Хивинских ханов XIX в. – Ленинград. Издание государственной публичной библиотеки, 1940; Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР. Том VI. Ташкент. Издательство Академии наук УзССР. 1963; Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР. Том VII. – Ташкент: Наука, УзССР. 1964; Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР. Том XI. – Ташкент: Фан УзССР. 1987; Эркинов А.С., Полвонов Н. Т., Аминов Ҳ.А. Мухаммад Раҳимхон II-Феруз даври феҳристи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. Хоразмда битилган қўлёзмалар (Тузувчи Г.Машарипова). – Тошкент: Шарқшунослик институти, 1997; Санкт-Петербург

manbalarining saqlanish o'рни va inventar raqamlari haqida ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari, Ahmad Tabibiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan bir qator darslik<sup>9</sup>, antologiyalar, monografiya va dissertatsiya<sup>10</sup>, risola<sup>11</sup> hamda maqolalarda<sup>12</sup> bir-birini

---

ва Тошкент фондларидаги Хоразм туркий-адабий манбалари (Нашрга тайёрловчилар: Г.Халлиева ва бошқ.). – Тошкент: Муҳаррир, 2018.

<sup>9</sup> Ўзбек адабиёти тарихи хрестоматияси. II том. – Тошкент, 1945; Ўзбек адабиёти. IV томлик. I китоб. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1960; Каримов Ф. Ўзбек адабиёти тарихи. III китоб. – Тошкент, 1966; Ўзбек адабиёти. V томлик. II китоб. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1968; Қосимов Б. ва бошқ. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004.

<sup>10</sup> Хажиева И. Хоразм миллий-маънавий мероси дурдоналари. – Тошкент: “Турон замин зиё”, 1991; Исмоилова Г. Феруз даври адабий муҳити. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1995; Самандарова С. XX аср ўзбек тазкиралари. Филол. фан. ном... дисс. – Тошкент, 1996; Ғанихўжаев Ф. Огаҳийнинг “Таъвиз ул-ошиқин” девони ва унинг илмий-танқидий матни. Филол. фан. док... дисс. – Тошкент, 1998; Адамбаева Н. Инглиз, рус ва ўзбек адабиётшунослигида Хоразм адабий манбалари тадқиқи. Фиология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Бухоро, 2021; Махаммадиева Ю. Ферузнинг бадиий маҳорати. Фиология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2021.

<sup>11</sup> Юнусов М. Комил Хоразмий. – Тошкент, 1960; Мирзаев В. Аваз Ўтар ўғли. – Тошкент, 1961; Юсупов Ю. Хоразм шоирлари. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1967; Садыков А. Россия и Хива в конце XIX – в начале XX вв. – Тошкент: Фан, 1972; Ғанихўжаев Ф. Аҳмад Табибий (ҳаёти ва ижоди). – Тошкент: Фан, 1978; Нагиева Ж. Ўзбек шоири Табибий ва унинг дастхати // Адабий мерос. – Тошкент, 1991. – № 4. – Б. 19-24; Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул. Феруз: шох ва шоир қисмати. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 1993; Жумахўжа Н. Феруз – маданият ва санъат ҳомийси. – Тошкент: Фан, 1995; Жумахўжа Н., Адизова И. Сўздин бақолироқ ёдгор йўқдур. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995; Абдурасулов А. Хива (тарихий-этнографик очерклар). – Тошкент: Ўзбекистон, 1997; Каримова Ф. Навоийдан кейинги даврда яратилган дебочалар. – Наманган. 2007; Феруз гулшани. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2016; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Тошкент: Тафаккур, 2020.

<sup>12</sup> Ғанихўжаев Ф. Табибий // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1962, №6. – Б. 8-13; Табибий тузган икки мажмуа // Адабий мерос. – 1971. – №2. – Б. 211-219; Мухаммаси мустазод // Адабий мерос. – Тошкент, 1981. №3(19). – Б. 87-93; Ҳамроев У., Каримов У. Хива шоирлари тазкирасининг нусхалари // Адабий мерос. – Тошкент, 1981. №4. – Б. 77-80; Мўминова В. Аҳмад Табибий // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1982. №1. – Б. 69-71; Erkinov A. “Timurid mannerism in the literary context of Khiva under Muhammad Rahim-khan II (Based on the anthology Majmu‘a-yi shu‘ara-yi Firuz-shahi) /Тимуридский маньеризм в литературной среде Хивы при Мухаммад Рахим-хане II (на примере антологии “Маджму‘а-йи шу‘ара-йи Фируз-шахи)”. Bulletin of ICAS. Volume 8. / Вестник МИТСАИ. Выпуск 8, 2008. – P. 58-65. Эркинов А. “Эпоха поздних Тимуридов как культурная модель в Хивинском ханстве при Мухаммад Рахим-хане II (1864–1910)” // XXV International conference on source studies and Historiography of Asia and Africa: “Asian and African Studies in the Dialogue of Civilizations”. April 22-24, 2009. Abstracts / XXV Международная конференция источниковедение и историография стран Азии и Африки: “Востоковедение и Африканистика в диалоге цивилизаций”. 22-24 апреля 2009. Тезисы докладов. Санкт-Петербург, 2009, – С. 349-350; “Мухаммад Раҳимхон II (1864–1910) ва унинг сарой адабий муҳити” // Антик давр цивилизацияси тараққиётида Хоразмнинг ўрни. Республика илмий анжумани материаллари (2011 йил 20 май, Урганч-Ҳазорасп). – Хива,

takrorlovchi ma'lumotlar uchraydi. Amalga oshirilgan tadqiqotlarda shoir biografiyasiga oid manbalarni tahlil qilish, turkiy devonlarining hajmi va mavzu doirasini belgilash asosiy maqsad qilib olingan emas. Shuningdek, o'tgan yillar davomida shoirning turkiy devonlaridan juda kam namunalar nashr etilgan bo'lib, ularning soni 50 dan oshmaydi. Shu sababli mazkur tadqiqot va nashrlar Tabibiy shaxsiyati, turkiy devonlari qo'lyozma nusxalari, lirik asarlari badiiyati yuzasidan to'liq tasavvur bera olmaydi.

Yuqoridagi ishlardan farqli o'laroq, mazkur monografiya Tabibiy ilmiy biografiyasiga aniqlik kiritish, tarjimai holi va ijodiy merosi ko'lamini belgilash, turkiy devonlari qo'lyozmalarining matniy qiyosini amalga oshirishga qaratilgani bilan ustuvorlik kasb etadi hamda kelgusidagi tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

---

2011. –Б. 104-106; How Muhammad Rahim Khan II of Khiva (1864—1910) cultivated his Court Library as a means of resistance against the Russian Empire // Journal of Islamic Manuscripts. 2011. №2. – P. 36-49; Культурный перфекционизм в Хивинской придворной среде при Мухаммаде Рахим-хане II как способ противостояния режиму российского протектората // History and Culture of Central Asia / История и культура Средней Азии / В. Babadjanov, Y. Kawahara (eds.). Tokyo, 2012. С.35-69; «Хафт шу'ара-йи Фируз- шахи» (Семь поэтов из окружения шаха Фируза) – поэтическая антология принцев-поэтов династии Конграт (Хива, 1906 г.). // XXVIII International Conference on Historiography and Source Studies of Asia and Africa. “Asia and Africa in the Changing World”. April 22-24, 2015. Abstracts. St.Petersburg, 2015. – P. 126-127. Мухаммад Раҳимхон II (1864 – 1910) сарой маданият муҳитида перфекционизмга интилиш. – Россия протекторатига қарши восита // Ўзбек давлатчилиги тизимида даргоҳ ва девонлар. – Тошкент: Академнашр, 2019. – Б. 255-260. “Маджмуа-йи шоирон” тазкирами ёки баёз?” // – Анкара: Аксағ Ҳауиёвӣ, 2021. – Б. 356-368; Каримова Ф. Хоразм адабий муҳитида дебочанавислик // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2004. №3. – Б. 36-37.

## **I BOB. SHOIR ILMIY BIOGRAFIYASINI YARATISHNING MANBAVIY ASOSLARI VA ADABIY MEROSI KO‘LAMI**

### **1.1. Ilmiy biografiya yaratishda manbalarning o‘rni**

Ijodkor ilmiy biografiyasini aniq ma’lumotlar asosida tiklash nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki dunyo adabiyotshunosligida ham muhim masalalardan biri sanaladi. Jahon adabiyotshunosligi qatorida o‘zbek adabiyotshunosligida ham keyingi yillarda mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar ko‘lami kengayib bormoqda. Ijodkor ilmiy biografiyasini yaratish tadqiqotchidan ko‘p vaqt va sa’y-harakat, chuqur izlanish, bilim va sinchkovlikni talab etadigan jarayondir. Muayyan adib ijodi bilan bog‘liq tadqiqotlar, avvalo, uning tarjimai holi, biografiyasi, ijodiy laboratoriyasi haqida yaxlit ma’lumot berishiga ko‘ra ham ahamiyatli hisoblanadi. Masalaga bunday yondashuv ayni paytda adabiy-estetik tafakkur rivojiga ta’sir ko‘rsatgan omillar, ijodkor shaxsiyati, adabiy jarayon va davr kabi masalalarni o‘rganishga keng yo‘l ochadi. Kishilik jamiyati tarixida ziyolilar, ijod ahli o‘sha millat tafakkurida o‘zlarining ilg‘or fikrlari bilan yetakchilik qilgani, davrni taraqqiyotga boshlagani barchaga ma’lum. Shu ma’noda qo‘lyozma manbalarda saqlanayotgan adabiy merosni o‘rganish va adiblarning tarjimai holini tiklab, ijod mahsullarini keng ilm ommasiga taqdim etish bugungi adabiyotshunoslikning ustuvor vazifalaridan biridir.

Milliy adabiyotimiz va ma’naviyatimiz taraqqiyotida har bir davr o‘ziga xos o‘ringa ega. XIX asr oxiri – XX asr boshlari nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki ma’naviy-adabiy hayotda ham muhim iz qoldirgani bilan alohida ajralib turadi. Adabiyot sohasidagi yangiliklar Xiva adabiy muhitida o‘ziga xos tarzda, qizg‘in kechgani yaxshi ma’lum. Ushbu adabiy muhit rivojiga sermahsul ijod namunalari bilan salmoqli hissa qo‘shgan ijodkorlardan biri Ahmadjon Tabibiydir. Ilm ahli Tabibiy shaxsiyati, ijodi haqida muayyan tasavvurga ega, biroq shoir biografiyasi, ijodiy faoliyati va adabiy merosi hanuzgacha to‘laqonli tadqiq etilgan emas.

Shoir biografiyasi va adabiy merosi adabiyotshunos Fathulla G‘anixo‘jayevning nomzodlik dissertatsiyasida ma’lum darajada



tadqiq etilgan<sup>13</sup>. Olim ushbu tadqiqot asosida monografiya e'lon qilgan va shoirning "Tanlangan asarlar"ini nashr ettirgan<sup>14</sup>. Shuningdek, Tabibiyning hayot yo'li, asarlari, ularning manbalari, shoir ijodining janrlar ko'lami, mavzu mundariyasi, an'ana va izdoshlik kabi masalalar bo'yicha ma'lumotlar beradi. Jumladan, olim bergan Tabibiy biografiyasiga oid quyidagi ma'lumot e'tiborga molik:

*"Tabibiy 1869-yilda Xiva shahrida tug'ildi. Shoirning otasi Ali Muhammad Xivadagi mashhur tabiblardan edi. U asli afg'onistonlik bo'lib, Xorazmga kelib turg'un bo'lib qolgan va Muhammad Rahimxon soniyning qaynisi Otajon to'ra xizmatida bo'lgan. Shu boisdan "Ali Mahram" nomini olgan..."*<sup>15</sup>. Ahmad Tabibiy hayoti va ijodiga doir shu paytgacha yaratilgan barcha adabiyotlarda mana shu ma'lumot asos qilib olingan. Albatta, shoir yashagan davrda ijodkorlar maxsus tarjimayi hol bitmagan. Ayrimlarining faqat taxallusi saqlanib qolgan bo'lib, hayoti, faoliyatiga doir ortiqcha ma'lumotlar uchramaydi. Ayrim ijodkorlar biografiyasiga oid ma'lumotlarni esa asosan, tazkira va tarixiy asarlar orqali bilish mumkin.

Ahmad Tabibiy biografiyasini yaratishda shoirning zamondoshlari tomonidan bildirilgan fikrlar ham muhim hisoblanadi. Shuningdek, ijodkor asarlarida ham o'zining ijtimoiy ahvoli haqida ma'lumotlar uchraydi. Shunga ko'ra shoir biografiyasiga oid manbalar va ilmiy adabiyotlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Shoir zamondoshlari tomonidan tuzilgan tarixiy asarlar va tazkiralar.

2. Ijodkorning o'z asarlari.

3. Antologiyalar, risola, darslik va dissertatsiyalar.

**1. Shoir zamondoshlari tomonidan tuzilgan tarixiy va tazkira asarlardagi ma'lumotlar.** Tabibiy va u tuzgan tazkira haqidagi dastlabki ma'lumot Bayoniyning "Shajarai Xorazmshohiy" asarida uchraydi. Bayoniy o'z asarida quyidagi fikrlarni keltiradi:

---

<sup>13</sup> Ганихўжаев Ф. Аҳмаджон Табибийнинг ҳаёти ва ижоди. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1969.

<sup>14</sup> Ганихўжаев Ф. Аҳмад Табибий (ҳаёти ва ижоди). – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 80; Табибий. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи – Фатхулла Ганихўжаев). – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1968. 227-бет.

<sup>15</sup> Ганихўжаев Ф. Аҳмад Табибий (ҳаёти ва ижоди). – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 9.

*“Xon hazratlari she’rga ko‘b zavq qildilar va o‘zlari ham burundin Feruz taxallusi birla mutaxallis bo‘lub, she’r oytur erdilar. So‘ngroq she’rg‘a ko‘broq haris bo‘ldilar. Har kishining she’r oytmoqg‘a sahl qobiliyati bo‘lsa, nav‘i she’rlarini oytib, dargohi oliyg‘a olib bora berdilar. Shoirlarning adadi kami besh qirg‘a yovuq bordi. Ali mahramning Ahmad otlig‘ bir o‘g‘li bor erdi. Ul ham o‘zini “Tabibiy” taxallus birla mutaxallis etib oytmoq boshladi. Xon hazratlari o‘z g‘azallaridin yuz g‘azalni shoirlarg‘a berib buyurdilar: “Munga payravlik etib, g‘azal oytinglar”. Har biri onga payravlik etib, yuz g‘azal oytidilar. Xon hazratlari Tabibiyg‘a amr etdilar, tokim, ul g‘azallarni masnaviy zimnida jam‘ qilib bir kitob etgay. Tabibiy farmon mujibi bila amal qilib, ul g‘azallarni jam‘ qilib, yuz g‘azalni yozmoqchi bo‘lg‘onda, masnaviy bila ul g‘azalni oytg‘on kim erkonin bayon etib, bu tariqada tamomi g‘azallarni jam‘ qilib, tamom etib, ul kitobg‘a “Majmuatu-sh-shuaro” ot qo‘yuldi. Oning itmomi ham ushbu yil voqe‘ bo‘lub erdi. Faqir ongo bu ta’rixni aytdim. Ta’rix:*

*Iloho, shahanshoi kishvarpanoh -  
Kim, uldur karamli, adolatli shoh.*

*Oning dam-badam umrin aylab ziyod,  
Davom ayla taxti adolatda shod.*

*Chu bordur ulumu funun ma’dani,  
Karam ilmu fan ahligadur fani.*

*Etib ilmu fazl ahliga iltifot,  
Olarg‘a chiqordi jahon ichra ot.*

*Tabibiykidur, shoiri muhtaram,  
Netay oni atvorin aylab raqam.*

*Ma’orifda o‘zni tutar ko‘b orif,  
Majolisda dog‘i harifi zarif.*

*Har oyinadur so‘zlari sarbasar,  
Ramuz oni aksidadur jilvagar.*

*Onga amr etib ul shahi bebadal,  
O‘z ash‘oridin topshurub yuz g‘azal,*

*Dedilar: “Munga kimki payrav o‘lub,  
G‘azal oytmish fikrat ila to‘lub,*

*Oni oytg‘onlar kim erkonin bil,  
Borin masnaviy zimnida jam‘ qil”.*

*Bo‘lub shodmon yuvdi ul muhtaram  
Hazin ko‘ngli mir‘otidin zangi g‘am.*

*Bu xizmat izida etib ihtimom,  
Kamu besh ikki yilda etdi tamom.*

*Bayoniy qilib fikri ta‘rix bot,  
Dedim: “She‘rdin qoldi olamda ot”<sup>16</sup>.*

Ta‘rix moddasi hijriy 1326, milodiy 1908-yilga to‘g‘ri keladi. Ko‘rinadiki, Bayoniy “*Majmuatu-sh-shuaro*” tazkirasining yozilishidan tortib yakunlanishiga qadar bo‘lgan barcha jarayonlardan xabardor bo‘lgan. Ushbu tazkira o‘zbek adabiyotida katta ahamiyatga ega manba hisoblanadi.

A.N.Samoylovich Xorazmga madaniy-adabiy hayotdagi yangiliklar bilan tanishish maqsadida borib, Tabibiy tazkisasi bilan to‘liq tanishib chiqadi, shoir bilan suhbatlashadi. Safar taassurotlari, adabiy jarayondagi o‘zgarishlar haqida o‘zining qaydlarini e‘lon qiladi<sup>17</sup>. Turkshunos olim saroy kutubxonasi bilan ham tanishadi va Ahmad Tabibiy bilan shu yerda uchrashadi. Samoylovich fikricha, saroy shoirlari Alisher Navoiychalik iqtidorga ega bo‘lmasa-da, ijodda unga ergashadilar. Olim, shuningdek, Markaziy Osiyoda yangiliklar davri boshlangani, Tabibiy Xiva shoirlarining yo‘lboshchisi ekanligi, uning o‘sha paytdagi chig‘atoy adabiyotidan ko‘ngli to‘lmasligini ta‘kidlaydi. A.N.Samoylovich Tabibiy bilan

---

<sup>16</sup> O‘zR FASHI. Asosiy fond. 9596 raqamli qo‘lyozma. 500<sup>ab</sup>-sahifalar. بیانی. شجره خوارزمشاهی

<sup>17</sup> Самойлович А.Н. Записки Восточного отделения Императорского Русского археологического общества, т. XIX. – Санкт-Петербург, 1909. – С.200.

uchrashgach o‘zining quyidagi fikrlarini bildiradi: “*Ahmad Tabibiy va ba’zi boshqa xivaliklarning va umuman ... O‘rta Osiyoga ham, boshqa musulmon-turk mamlakatlari va viloyatlariga kirib ulgurgan yoki yuzaga kelish jarayonida bo‘lgan yangi adabiy davr kirib kelishi dalilini ko‘rishga moyilman. Bundan kutiladigan narsa shuki, xalqqa o‘zining tili va mazmuni bilan yaqin, jonli va navqiron poeziyaning gullab-yashnashi endilikda maxsus yuqori lavozimdagilarning qo‘llab-quvvatlashi va rag‘batlantirishiga bog‘liq bo‘lmaydi, chunki xizmat martabasi va saroy sadaqasi emas, xalq maqtovi va xayrixohligi yangi she‘riyat fidoyilarini ilhomlantiradi va ma‘naviy oziqlantiradi*”<sup>18</sup>. Ushbu tarixiy ma‘lumotlar bevosita Ahmad Tabibiy biografiyasi, uning davr madaniy-adabiy hayotida tutgan o‘rnini ko‘rsatadi.

Ma‘lumki, XIX – XX asrlar Xorazm adabiy muhiti ijodkorlari haqida qimmatli ma‘lumotlar beruvchi bir qancha tazkiralari yaratilgan. Ularda Ahmad Tabibiy biografiyasiga oid muhim ma‘lumotlar jamlangan. Hasanmurodqori Laffasiyning “Tazkirai shuaro” va Bobojon Tarroh – Xodimning “Xorazm shoir va navozandalari” tazkiralari<sup>19</sup> shular jumlasidandir. Xorazm adabiy muhiti ijodkorlari hayoti va ijodiga doir ilk tazkiralardan biri – Hasanmurodqori Laffasiy (1880-1945)ning “*Tazkirai shuaro*” asaridir. O‘zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida 11499, 9494, 12561 raqamlari bilan ushbu tazkira asarning bir necha nodir nusxalari saqlanadi. Bular orasida 12561 raqamli manba nisbatan mukammal. Laffasiy mazkur tazkirasida 37-tartib raqami bilan Tabibiyga oid ma‘lumotlarni keltirishdan oldan quyidagi masnaviyini keltiradi:

*Tabibiy ajab suxandon erur,  
Tabiblik ila mashhuri davron erur –*

*Ki, asli nasabi afg‘oni bo‘lib,  
Ul Ali Mahramning joni bo‘lib.*

---

<sup>18</sup> Самойлович А.Н. Записки Восточного отделения Императорского Русского археологического общества, т. XIX. – Санкт-Петербург, 1909. – С. 200.

<sup>19</sup>Ходим. Хоразм шоир ва навозандалари (Нашрга тайёрловчилар: А.Отамуродова, О.Абдурахимов). – Тошкент: Tafakkur qanoti, 2011. – Б. 140-147.

*Tabibiy surub oncha maqol,  
Damo-dam erur oshufta hol.*

*Adabiyot ilmida ustod bo'lub,  
Dedi oncha she'r Farhod bo'lub<sup>20</sup>.*

Ushbu masnaviydan so'ng "*Ahmadjon Tabibiyning ahvoloti*" degan sarlavha qo'yilib, shoir tarjimayi holiga doir ma'lumotlar keltirilgan. Uning "*osli afg'onistonli Ali Mahramning o'g'li ekani, boshlang'ich ta'limni eski maktabda olib, savodli bo'lgani, fors tilini otasidan o'rganib, mukammal egallagani, tib ilmig'a alohida qiziqib, Yaxshimurodbek ismli tabibdan tahsil ko'rgani, ana shu fazilatlarini tufayli Muhammad Rahimxon Feruz nazariga tushib, yaqin mahramiga aylangani*" aytiladi. Forsiy tilni mukammal bilishi hamda adabiyotga, badiiy ijodga muhabbati balandligini bilgan xon unga she'r yozishni buyuradi. Xonning farmoniga ko'ra, u Tabibiy taxallusi bilan ijod qila boshlaydi. Kunlardan birida xon huzurida ikki soatda yigirma besh satrli bir qasida yozadi. Uning qisqa muddatda mahorat bilan qasida ijod qilgani Feruzga xush kelib, shohona iltifot bilan zarrin kamarli sarpo va ellik tilla sovg'a qiladi. Shundan so'ng xon unga ijodni muttasil davom ettirishni amr etadi. Bunday rag'batdan ko'ngli ko'tarilgan Tabibiy turli janrlarda she'rlar yozishda davom etadi va to'rt devon tuzadi. Ulardan ikki jildi turkiy tilda bo'lib, ikki jildi esa fors tilida bitilgan. Bundan tashqari, bir qancha nasriy asarlarni ham nazmga aylantiradi. Uning ijodiy salohiyatini munosib darajada e'tirof etgan Feruzxon "*Majmuat ush-shuaro*"ni tuzishga amr qiladi. U juda tez fursatda – bir yil ichida ushbu tazkirani nihoyasiga yetkazadi. Laffasiy shoirning tashqi qiyofasini "*kalta bo'ylik, ko'sa, qo'tir, chechak toblig*", deya tasvirlaydi. Salomatligi yaxshi emasligi, "*yoshlig'din o'fka xastalig'ig'a muhtalo bo'lg'onidan hamisha doru-ma'junlar iste'mol etib*" o'zini muhofaza qilib yurgani haqida ma'lumot bergan.

Bundan tashqari, tazkira muallifi Tabibiyning adabiy davrasi haqida, xususan, Avaz O'tar bilan yaqin do'st bo'lgani, "*...aksar Avaz O'tar bilan ham ulfat bo'lub, oning bilan rozu dil oytushib,*

<sup>20</sup> O'ZR FASHI. Asosiy fond. 12561 raqamli qo'lyozma. 56<sup>a</sup>-57<sup>b</sup>-sahifalar. اثر تذكرة شعرا. حسنمرااد قاری. خیوه.

*Feruzning vuzarolarin mazammatu shikoyatlar qilib, shohmot bilan mashg‘ullig‘ etib, goh-gohi tanburu g‘ijjak mashqi bilan ikki rafiqi mehribon shikasta dillarig‘a xursandlig‘” yetkazib turishi haqida yozadi.*

Tabibiyning vafoti haqida Laffasiy quyidagi ma’lumotni keltiradi: *“Ammo Ahmadjon Tabibiy dog‘i Feruz – Muhammad Rahimxon vafotidin muddati uch oy so‘ngra 1910nchi yil o‘ktabr oyida o‘fka xastalig‘i kuchayib, kullu nafsini zoiqatu-l-mavt nidosiga vobasta bo‘lub, ushbu falaki zolim jafokordin ko‘ngil uzub, oxirat safari qilib, jannat bo‘stonida manzil qiladur”*. Ushbu ma’lumotlardan so‘ng shoir ijodidan ikki masnaviy va *“Zihi bor qudrating osoridin kavnu makon paydo, Nabotu ham jamodu ham jami‘i insu jon paydo”*, *“Oqil ersang, ahli olam birla qilma imtizoj, Kim olarning ixtilotidin etushmas ibtihaj”*<sup>21</sup> matla’li ikki g‘azalini keltiradi. Ushbu g‘azallardan birinchisining matni shoirning *“Munisu-l-ushshoq”* devoniga kirgan. Ammo ikkinchi g‘azal na *“Munisu-l-ushshoq”*da uchraydi va na *“Hayratu-l-ushshoq”* devonida.

Mavjud ilmiy va o‘quv adabiyotlardagi shoir tarjimai holi bilan bog‘liq ma’lumotlarda Laffasiy bergan ma’lumotlar asos qilib olingan. Vaholanki, Feruz davri ijodkorlari hayoti va ijodiga doir ma’lumotlar beruvchi yana bir tazkira mavjud bo‘lib, unda Ahmad Tabibiy hayotiga doir boshqa ma’lumotlar ham berilgan. Bu manba Bobojon Tarroh – Xodimning *“Xorazm shoir va navozandalari”* tazkirasidir<sup>22</sup>. Ushbu manbadagi ma’lumotlarning har biri tazkira muallifi tomonidan *“to‘g‘ri javob berildi”* tarzida ta’kidlab ko‘rsatilgan. Mazkur tazkirada Ahmad Tabibiy hayoti va ijodiga doir nisbatan to‘liqroq ma’lumotlarni uchratish mumkin. Jumladan, Xodim shoirning *ismi va nasabi, adabiy taxallusi, tug‘ilgan joyi, ijtimoiy kelib chiqishi, ilmdagi darajasi, devon tartib bergani, “mansabdor bo‘lg‘onmu, agar mansabdor bo‘lg‘on bo‘lsa, xalq bila aloqasi qanday”ligi, “shoir shoirliqg‘a qancha yoshda shug‘ullang‘on, shug‘ullanishiga sabab nima bo‘lgan”i, “soz*

<sup>21</sup> O‘zR FASHI. Asosiy fond. 12561 raqamli qo‘lyozma. 56<sup>a</sup>-57<sup>b</sup>-sahifalar. اثر حسنمراد تذكرة شعرا قارى. خيوه.

<sup>22</sup> Ходим. Хоразм шоир ва навозандалари (Нашрга тайёрловчилар: А.Отамуродова, О.Абдурахимов). – Тошкент: Tafakkur qanoti, 2011.

*ilmidan xabardormu yoki soz ilmidan bexabarmu?” ekani, axloqiy sifatлари, “qancha yoshda vafot etgan, vafoti o‘z joyidamu yoki boshqa joydamu” ekani, jasadi qaysi qabristonda qo‘yilgani kabi 12 ta savolga javob berib o‘tadi. Aytish mumkinki, ushbu tazkira ijodkorlar biografiyasiga oid nisbatan mufassal ma‘lumotlarni o‘zida jamlagani bilan ahamiyatlidir.*

*Xodim asarida Tabibiy haqidagi ma‘lumotni “nomi Ahmadjon, otasini nomi Ali mahram degan kishi bo‘lg‘on”, – deb boshlaydi. “Shoirni(ng) adabiy taxallusi “Tabibiy” bo‘lg‘on. Bu nomni Muhammad Rahim Ikkinji qo‘yg‘on emas. Muni sababi shoir Ahmadjonning otasi Ali mahram degan kishi eski saroyda charchilik qilar edi. Ahmadjon otasining charchi do‘konida xalqg‘a dori tayorlab berar edi. Ali mahram Ahmadjonni, Yaxshimurodbek degan kishi bor edi va bu Yaxshimurodbek yaxshi tabib edi, Ahmadjonni shu kishiga shogird qilib, bu Yaxshimurodbek ham yaxshi tabib edi, ham ramal ilmini biladi. Shu sababli taxallusini Tabibiy qo‘yg‘on. Bu taxallusni Muhammad Rahim Ikkinji ham qabul qilg‘on edi”, – degan ma‘lumot beriladi. Asarda shoirning tug‘ilgan joyi haqida “shoir Ahmadjon Tabibiyni tug‘ulg‘on joyi Xiva shahrini tashqari qal‘asida Yusuf Yasavulboshi qavmida<sup>23</sup>, Xiva shahrini ichidin o‘tgan kichik ariq bo‘yidog‘i otasini joyida tug‘ulg‘on” deydi, tug‘ilgan sanasini ko‘rsatmaydi. Tabibiyning ijtimoiy kelib chiqishi haqida Xodimning quyidagi fikrlari e‘tiborga loyiq: “Ahmadjon Tabibiyning otasining otasini Eron mamlakatidin Xorazm turkman bosmachilari o‘g‘urlab olib qochib, Xorazmga kelturub, qul qilib sotg‘on. Xorazm podshosi Muhammad Rahim Ikkinjini bir ota-bir onadan tug‘ulg‘on inisini Otajon to‘ra sotib olib, qul qilib saqlag‘on. Keyin Xorazmni Nikolay urushib olg‘andan keyin qullarni ozod qilg‘ondan keyin shoirning otasi Ali mahram eski saroyda charchilik do‘koni ochib, dori-darmon tuzatib sotishga shug‘ullang‘on. Shuning uchun ham shoir Ahmadjon*

---

<sup>23</sup> Xodim tazkirasi noshirlari “Yusuf yasavulboshining qizi Guljonbeka (1905-1990) shoir Tabibiy hayoti haqida ko‘p ma‘lumot biladi. Uning aytishicha, Tabibiyning hovlisi Yusuf yasavulboshi hovlisiga yaqin bo‘lgan. Shoirning xotini Saodatxon yolg‘iz o‘g‘li Ro‘zimuhammad bilan Tabibiy vafotidan keyin juda og‘ir hayot kechirgan. Guljonbeka Tabibiyning o‘g‘li Ro‘zimuhammad, Matmurod devonbening o‘g‘li Shayxnazarboy, Isfandiyorxonning qizi Kinshoxbeka, o‘g‘li Temir G‘oziy to‘ralar bilan birga katta bo‘lgan”, – degan ma‘lumotni keltiradilar.

*Tabibiyini ijtimoiy chiqishi ezilgan kambag'al oilada tug'ulg'on deb baho berilsa bo'ladi*"<sup>24</sup>. Laffasiy va Xodim shoirga zamondosh bo'lsalar-da, ular bergan ma'lumot bir-biridan farq qiladi. Bizningcha, Xodim keltirgan ma'lumotlarda ma'lum darajada mafkura ta'siri sezilsa ham, haqiqatga yaqin. Negaki, shoir devonida bir necha o'rinlarda o'zining ijtimoiy kelib chiqishiga doir ishoralar uchraydi. Xodim fikrlarini davom ettirib, Tabibiyning yaxshi shoir va mohir tabib ekanini, Feruz ko'rsatmasiga ko'ra, tazkira tuzgani, madrasada yetarlicha ilm olmagan bo'lsa ham, arabcha va forschani yaxshi bilishi hamda xalqparvar bo'lganini ta'kidlaydi.

Tabibiyning shoir sifatidagi iqtidori o'z davridayoq munosib e'tirof etilgan. Xon bilan bo'lgan suhbatlarning birida Xudoyberdi maxsum Tabibiyning yaxshi shoirligini ma'lum qiladi. Ushbu ma'lumotga ko'ra, Feruz Tabibiyini saroyga taklif qilib, shoirlik iqtidorini imtihon qilib ko'radi. Bu haqda "Xorazm shoir va navozandalari" tazkirasida quyidagicha ma'lumot berilgan: *"Xudoyberdi, sen ta'rif etganingdan ham ziyoda ekan-ku, deb, Ahmadjonni shoirlik ilmiga musallam qilib, muni shoirliqiga taslim o'qub, Muhammad Rahim Ikkinji shoir Ahmadjon Tabibiyini shu kirish bilan yubormay zalda: Birinji Xudoybergan Muhrkan devon, ikkinji Muhammad Yoqub Xarrot devon, uchinji o'rinda Ahmadjon Tabibiyini o'lturg'uzdi"*<sup>25</sup>.

Tazkira muallifi Ahmadjon Tabibiyning xon bilan o'zaro suhbat jarayonida ham she'rlar bitgani, uning turli ilmlarga mohir ekani, shoirning iqtidoriga yuksak baho beradi. Xodim ushbu ma'lumotlari isboti sifatida *"Ahmadjon Tabibiyning kuchi yetarlik bo'lmasa edi, "Majmuat ush-shuaro"ni ishlab chiqg'on bo'lmas edi"*<sup>26</sup> degan fikrni keltiradi. Tazkirada yozilishicha, Feruz 1910-yilda vafot etgach, uning o'rniga o'g'li Asfandiyorxon taxtga o'tirgan. Xon o'g'li Temur G'oziy to'raning sunnat to'yida katta ziyofat beradi. To'yboshi bo'lgan Islomxo'jaga Ahmadjon Tabibiyini she'r o'qishi uchun to'yga keltirish haqida buyruq beradi.

---

<sup>24</sup> Ходим. Хоразм шоир ва навозандалари (Нашрга тайёрловчилар: А.Отамуродова, О.Абдурахимов). – Тошкент: Tafakkur qanoti, 2011. – Б. 140-147.

<sup>25</sup> Бобожон Тарроҳ – Ходим. Хоразм шоир ва навозандалари (Нашрга тайёрловчилар: А.Отамуродова, О.Абдурахимов). – Тошкент: Tafakkur qanoti, 2011. – Б. 140-147.

<sup>26</sup> Бобожон Тарроҳ – Ходим. Хоразм шоир ва навозандалари (Нашрга тайёрловчилар: А.Отамуродова, О.Абдурахимов). – Тошкент: Tafakkur qanoti, 2011. – Б. 140-147.



Xodim Tabibiyning uyiga borib, agar tirik bo'lsa, uni olib ketishi shartligini aytganda, shoir yig'lab ko'p yillik qadrdonligi, birga ishlagani hurmati uni olib ketmasligini, ahvoli juda og'ir ekanini, borganda ham she'r o'qiy olmasligini aytadi. Uning vaziyatini to'g'ri tushungan Xodim shoirni olib ketmasdan, Islomxo'jaga vaziyatni tushuntiradi. Ertasi kuni Ahmadjon Tabibiyning vafot etgani haqida xabar tarqaladi. Shundan so'ng, Xodim yana bir bor Tabibiyning she'riy iqtidori juda yuksak bo'lganini ko'rsatish uchun quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: *“Demak, Xorazmda o'tgan shoirlar ko'p. Masalan: Birinji Munshiy degan shoir. Bu kishi men, Bobojon Tarrohning bobosi bo'lg'on, ikkinji Munis, uchinji Ogahiy, to'rtinchi Komil Xorazmiy Mirzaboshilar va boshqalar. Agar olar hayot bo'lub, Ahmadjon Tabibiyni ko'rsalar edi, olar ham muni shoirlig'ig'a taslim qilar edilar. Men Bobojon Tarroh – Xodim Ahmadjon Tabibiyga shu qadar baho berganimni aybga buyurmang. Chunki Ahmadjon Tabibiy shunday kuchli shoir edi. Chunki Muhammad Rahim Ikkinjini ham taslim qildi. Muhammad Rahim Ikkinji ham hech kimga taslim qilmas edi. Ahmadjon Tabibiyga taslim qildi. Shu gap yetarlik bo'ladi”*.

Ajablanarlisi shundaki, shoirni yaqindan bilgan Xodim Tabibiy devonlari haqida aniq bir ma'lumot aytolmaydi. Faqatgina *“Ahmadjon Tabibiy devon tartib bergan bo'lishi kerak. Bu devon kimni qo'lida qolg'oni ma'lum emas”*, degan ma'lumotni keltiradi. Ta'kidlash kerakki, Tabibiy haqida Xodim juda qimmatli fikrlar aytgan. Xodimning quyidagi fikrlari ham Tabibiyning ma'nan komil inson bo'lganini ko'rsatadi: *“shoir Ahmadjon Tabibiy mansabdor bo'lg'on emas. Shunday bo'lsa ham xalq bilan aloqasi shunday mazali so'zlashar edi. Hamma vaqt Ahmadjon Tabibiy bila so'zlashib, suhbatlashib o'ltursam ekan, deb orzu qilinar edi. Lokin o'zi ko'sa, bir tor ham soqoli yo'q edi. Lokin o'zi bilan so'zlashsangiz, juda ham mazali, qonuniy, qofiyali so'zlashar edi. Har kim bilan so'zlashsa, shu kishini o'ziga loyiq so'z bila so'zlashar edi. Savodsiz odam bilan so'zlashsa, savodsizlarga loyiq, ilimli odam bilan so'zlashsa, ilimli odamga loyiq madaniy tartibda so'zlashar edi. Bir shoirlig' emas, dunyoda bor ilmlardan xabardor odam edi. Agar shu qadar ilmga ega bo'lmasa edi, Muhammad*

*Rahim Ikkinjini taslim qilmas edi. Demak, Ahmadjon Tabibiy insonni javhari edi”.*

Shundan so‘ng, Xodim shoirning tashqi ko‘rinishini haqida “tuzilishi o‘rta bo‘yli, qorafarang, chechaktobli odam edi”, fe‘l-atvori haqida esa “so‘z bobida inson o‘rtasida kimni xushfe‘l deb ta‘rif etsangiz, shundan ham ziyoda edi” – deya ta‘riflaydi. Xodimning Tabibiy haqidagi “shoir Ahmadjon Tabibiy soz ilmiga havaskor bo‘lmag‘on. Agar havaskor bo‘lg‘on bo‘lsa edi, soz ilmidin ogoh bo‘lg‘on bo‘lar edi. Tabibiyni soz ilmidin bexabar qolg‘on desa mumkin. Lokin soz ilmiga qadam qo‘ysa, soz ilmini bilmoq Ahmadjon Tabibiyga oson bo‘lar edi” – tarzidagi fikrlari unchalik to‘g‘ri emasday. Negaki, lirik asarlari tadqiqi shoirning soz va maqom turlarining yetuk bilimdoni bo‘lganini ko‘rsatadi. Xodim Tabibiyni 45 yoshlarida vafot etgan bo‘lishi mumkinligi, 1911-yilda vafot etgani, 1867-yilda tavallud topgani, u o‘zi tug‘ilgan joyda vafot etgani, qabri “Chodirli eshon” degan qabristonda ekani haqida yozadi.

F.G‘anixo‘jayevning “Ahmadjon Tabibiyning hayoti va ijodi” nomli dissertatsiyasida quyidagi ma‘lumotlar berilgan: “Ahmadjon Tabibiy 1869-yilda Xivada tug‘ildi... Xodim – Bobojon Tarro ibn Abdulaziz maxsum hozir barhayot, yoshi 90lardan oshgan, Urgenchda turadi. Xodim Tabibiy bilan bir davrda yashagan va ijod etgan. Biz u bilan bo‘lgan suhbatda Tabibiyning hayoti haqida ayrim kerakli faktlarni yozib oldik. Shoirning hayoti haqida gapirganda ana shu material ham e‘tiborga olinadi”. Demak, F.G‘anixo‘jayev Xodim bilan ko‘rishgan, u bilan suhbatlashgan. Olim Tabibiy haqida zamondoshi bo‘lmish Xodimdan deyarli barcha ma‘lumotlarni olgan. Shunday bo‘lsa-da, Tabibiy biografiyasiga doir ma‘lumotlarni berishda F.G‘anixo‘jayev, negadir Laffasiy ma‘lumotlarini asos qilib olgan.

**2. Ijodkor asarlarida o‘z ahvoli haqidagi ma‘lumotlar.** Mumtoz ijodkorlar o‘zlarining tarjimayi hollarini to‘liq yozib qoldirishmagan. Ijodkorning qayerda tug‘ilgani, o‘zining ijtimoiy kelib chiqishi bilan bog‘liq ayrim ma‘lumotlar ularning asarlarida uchraydi.

Xorazm adabiy muhitida tazkirachilikni boshlab bergan ijodkor ham aynan Ahmad Tabibiy hisoblanadi. Garchi shoh

ko'rsatmasiga ko'ra "Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy" tazkirasida tuzilgan bo'lsa-da, majmuaning yozilishiga ilhom baxsh etgan manba, shubhasiz, "Majolisu-n-nafois"dir. Jumladan, adabiyotshunos S.Matkarimovning "Darhaqiqat, keyingi asrlarda o'zbek va tojik tillarida vujudga kelgan Malehoning "Muzakkiri as'hob" (Suhbatdoshlar zikri), Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkir ul-ahbob" (Do'stlarning zikri), Mutribiy Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro", Vozehning "Tuhfat ul-ahbob" (Do'stlarning tuhfasini), Fazliyning "Majmuayi shoiron" (Shoirlar to'plami) tazkiralarda Navoiy an'analari ijodiy davom ettirildi. Tabibiy tuzgan tazkiralarda ham bu vorisiylikning yorqin namunasidir<sup>27</sup>", - degan e'tirofi o'rinlidir.

Qo'qon va Xorazm adabiy muhiti (XIX asr boshidan to XX asr boshigacha bo'lgan davr)ga alohida e'tibor qaratgan Abdurauf Fitrat bu haqda quyidagilarni yozadi: "... Lekin shuni aytish kerakki, Farg'onada o'sgan adabiy hayot Xorazmnikini kabi fayzli va keng bo'lmadi. Xorazmda qurilgan muhim asarlarni tarjima qilish, ahamiyatli tarixlar yozish harakati Farg'ona davrida yo'q kabi. Shunday bo'lsa ham Farg'ona shoirlarining Xorazm shoirlari ustida katta ta'sirlari bo'lganini inkor etib bo'lmaydi, Farg'ona "Majmuat ush-shuaro"sig'a o'xshatib, Xorazmda ham bir "Majmuat ush-shuaro" tuzumi buni ko'rsatadi"<sup>28</sup>. Albatta, Fazliy va Tabibiy tazkiralari tuzilishiga va mazmuniga ko'ra farqlanadi. Shunday farqlardan biri – Tabibiy tazkirasida shoirlarning qaysi joydan ekani, ijtimoiy kelib chiqishi kabi jihatlarga e'tibor qaratilmagan va bunga ehtiyoj bo'lmagan. Negaki, Tabibiy tomonidan lirik asarlari jamlangan ijodkorlarning deyarli barchasi xorazmlik bo'lgan.

"Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy" tazkirasining bir qo'lyozma nusxasi O'zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida 1152 raqami bilan saqlanadi. Ushbu manba matni "*basmala*" va she'riy debocha bilan boshlanadi. Debochani hajmi 300 misrani tashkil etadi. Tazkiradagi ilk nazm 12 baytli masnaviy va Feruzning

---

<sup>27</sup> Matkarimova S. Табибий – таъкиранавис. Филол. фан. ном. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Тошкент, 2007. – Б. 14.

<sup>28</sup> Абдурауф Фитрат. XVI асрдан сўнгра ўзбек адабиётига умумий бир қараш. Танланган асарлар. II жилд. –Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 59.

“paydo” radifli g‘azali bilan boshlanadi. Ma’lumki, ushbu manbada shoirning o‘z she’rlaridan ham kiritilgan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, tazkira yuzasidan ayrim tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, ushbu manbaning matniy tadqiqi to‘la amalga oshirilgani yo‘q. Tazkirada Tabibiy shoirlar she’rlarini keltirishdan oldin ijodkor haqida tavsif (masnaviylar) berib o‘tadi. Bunday tavsiflarni shoirning o‘ziga ham yozishi ahamiyatlidir. Tazkira matnini kuzatar ekanmiz, shoirning o‘zi haqida yozgan ayrim fikrlari e’tiborni tortadi: *“Dedi bu g‘azalni Tabibiy nazor, Yurub lashkar izida misli g‘ubor”, “Tabibiy nechuk surgay uzun maqol, Ki bu xayl aro bordur oshufta hol. G‘arazkim qilib jahdlar behisob, Bo‘lub payravi Xisravi Jam janob”, “Tabibiy mahzunu zoru nazor, Ki bori payravi shoh jism iqtidor. Dedi bu g‘azalni itoat bila, Duogo‘y o‘lub sidqi niyat bila”, “Tabibiyda yo‘q garchi ilmu amal, Vale tobe‘ o‘lmoqg‘a topmish mahal. Sanoxon o‘lub ushbu dargoh aro, G‘azal degali jahd etar borho. Hama nazm ahlinidur sodasi, Oning tab‘ining bu erur zodasi”, “Tabibiyki bori nazm eli chokari, Demas nazm Haq bo‘lmasa yovari. G‘araz degusi nazmi laylu nahor, Bo‘lub payrav Xisravga komgor”*. Ushbu masnaviylardan ham ko‘rinib turibdiki, yuqorida ta’kidlanganidek, Tabibiy tazkirasida ijodkorlarning biografiyasi bilan bog‘liq ma’lumotlar berilmagan. Biroq Tabibiy o‘zining devonlariga yozgan debochada, ayrim g‘azallarida o‘zining ijtimoiy ahvoli haqidagi ma’lumotlarni keltiradi. Jumladan, shoir devoni debochasida o‘zi haqida shunday yozadi:

*“... Ori fozil kimsa fuzalo va ulamonavoz bo‘lub va ilmu ma‘rifat kunhiga yetgan kishi ulamo bila suhbat tuzub nuktaparvoz bo‘lg‘ay bovujud men ham bu xonadong‘a bandai zamim va xizmatga sarafgandai qadim bo‘lub aboanjad xonazoda g‘ulomi pok e‘tiqod erdim.*

**Nazm:**

*Otam bu borgahg‘a erdi banda,  
Onam bu ostong‘a sarfiganda.*

*Bas emdi men erurman xonazoda,  
Bu ikkidin manga nisbat ziyoda.*

*Ne tong faxr aylasam ahli jahong‘a,  
Ki bor men bandai shohi komrong‘a.*

*Chu men bekasda **qulluq nisbati bor**,  
Jahon ahlini bilkull davlati bor.*

*Angakim yor esa qulluqda mansub,  
Saodat xaylidin bo‘lg‘usi mahbub.*

*Ammo jahl va nodonlig‘ kasratidin junun va parishonlig‘ shiddatidin bu gardunnishon ostonidin yiroq tushdum, huzuru g‘ofir us-sarvarig‘a musharraff bo‘lmag‘onlig‘ hasratidin behuzurliqq‘a tushdim. Baharhol ushbu g‘ussaning dofe‘i va bu illatning nofe‘i bo‘lmoq umidi bila gohi g‘azal va gohi qasida va gohi muxammas mashqin qilib dargohi olampanohg‘a yetkurub iltifoti shohona va ‘atiyoti xusravonadin sharafyob va izzatmaob bo‘lur erdim. Kam-kam mururi ayyom va inoyoti hayyi layonom bila kimyo asar nazarig‘a manzur va kaminquillar qatorida otim mazkur bo‘lub amsol va aqronlarim arosida sarafroz balki hama fozillar ichida mumtoz bo‘ldum”.*

Ko‘rinadiki, shoir ijtimoiy kelib chiqishi haqida “**Chu men bekasda qulluq nisbati bor**” degan fikrni aytadi. Bunday fikrlar shoirning ayrim g‘azallarida ham uchraydi. Jumladan, shoir turkiy tilda tuzilgan “Munisu-l-ushshoq” devoni debochasida o‘zini “Nokomlig‘ bodasining sargardoni va beoromlig‘ zoviyasining majnuni hayroni ahqaru-l-ibod mulku-s-samad va aqsari umam hazrati Muhammad ibn hoji Ali Muhammad almutaxallis bit-Tabibiy Ahmad g‘afarollohu zunubahumo va satara uyubohumo o‘z ahvalidin bu nav‘ ajz va qusur bila takallum surar”, - tarzida tanishtiradi. Mazkur devonning bir necha o‘rnida shoir o‘zining ijtimoiy ahvoli bilan bog‘liq bir qancha baytlarni keltiradi. Jumladan, devonning 71-g‘azalida “Mani bechora miskin abo‘anjad g‘ulomiman, Ishim qilmoq duoi sidq ro‘zu shab anga, yo Rab”, 466-g‘azalida “Tabibiykim, abo‘anjad g‘ulomi kamtarinidur, Oni qil, xizmatida borho nazm ila madhxon”, 475-g‘azalida “Muruvvatdinmu solmoq emdi ko‘zdinkim abo‘anjad, Sari xoni navolingdin g‘ulomi luqmaxoringman”, 479-g‘azalida “Miskin Tabibiykim, abo‘anjad

*g‘ulomidur oning, Lutfi inoyoti sori qilg‘il oni doim qarın*” 599-g‘azalida *“Mango boqma haqorat birlakim, man ham Tabibiydek, Abo‘anjad g‘ulomi shohi davrondurman, ey soqiy”* kabi misralarni uchratish mumkin. Bunday baytlarni shoirning turkiy (o‘zbek) tildagi she‘rlari jamlangan ikkinchi devoni *“Hayratu-l-ushshoq”*da ham uchratish mumkin. Masalan, *“Hayratu-l-ushshoq”* devonidagi 510-g‘azal quyidagicha yakunlanadi:

*Tabibiykim aboi anjad g‘ulomi xonazodingdur,  
Iloho, madhinga ul shoiri vaqti shior o‘lsun.*

Ilmiy izlanishlar natijasida Ahmad Tabibiy tomonidan *“Tavorix al-xavonin”* (*“Xonlar tarixi”*) degan tarixiy asar yozilgani aniqlandi<sup>29</sup>. Asar maxsus debocha bilan boshlanadi. Jumladan, debochada quyidagilarni o‘qish mumkin: *“Bismillohir Rahmonir Rahim! Hamdi bag‘oyat va sanoye bilo nihoyat ul Podshohi alal itloq va xudoyi Razzoq dargohig‘a boistadurkim oning vujudig‘a ne ta‘rixı ibtido paydo va ne Xoliqliqig‘a zamoni intiho. Bemisl, bechun, besharik, berahnamun, avval va oxir va zohir va botin Uldur “kamo fiy qavlihi taolo huvalllohul avvalu val oxiru vaz zohiru val botin laysaka mislihi shay‘un va huvas sami‘ul basir...”*.



<sup>29</sup> Ushbu asar Xiva *“Ichan qal‘a”* davlat muzey-qo‘riqxonasi ilmiy kotibi Komil Xudoyberganov shaxsiy kutubxonasida saqlanadi. Tabibiy ijodiga doir ayrim ma‘lumotlarni taqdim etganlari uchun Komil Xudoyberganovga minnatdorlik bildiramiz.

Debochada kitob muallifi o'zini: *“Ammo bu ovoni behjat iqtironida ushbu faqiru haqiru kasiru taqsir a'jaz ibodul malikul ahad Ahmad al-mutaxallis bit-Tabibiy inb Hoji Ali Muhammad g'afarollohu zunubihimo va satara uyubihimokim, bu xonadoni oliyning abananjaddi bandai qadimiysi va bu dudmoni mutaoliyning afgandayi samimisi erdi”*<sup>30</sup> – tarzida tanishtiradi. Asarning yozilish va uning nomlanishi haqida esa quyidagilarni yozadi: *“Ongo ishorati oliya va bashorati nomutanohiya nizomul-mulku val-millat vazir sohibi tadbiri ioratdastgoh vazoratpanosida Islomxo'ja valadi arshad Ibrohimxoja marhumining vasotati bila mundoq sudur toptikim, jahon mulki xoblig' bila tav'am balki jam'i ashyo o'z vaqti bila bir-bir adamdur bas... Ammo bazoatim kam va istitoatim adab bo'lg'onliq jihatidin ko'unqlima mustaribliq voqe' bo'lsa ham alma'muru ma'zur fahvosig'a amal etib zamini ubudiyat bo'sa qildim va bu ish shuru'in o'zimga mo'jibi davlati uzmo bildim. Janobi boriyi Taolo jalla sha'nuhudin ummid ulkim bu kitob og'ozin xayriyat bila anjom tammati davlatiga musharraf qilib podishohi mamduh hazratlari tab'ig'a maqbul qilg'oy. Omin va mon tavfiqi illo billo. Mahfiy qolmog'oykim, bu kitob besh bob bila murattab bo'lib, “Tavorix ul-xavonin” ismi bila mavsum bo'ldi”*<sup>31</sup>.

Demak, ushbu asar Isfandiyorxon davrida Islom Xo'janing buyrug'iga ko'ra yozilgan. Qo'lyozma fabrika qog'oziga nasta'liq xatida ko'chirilgan. Sarlavhalar, nazmiy qismlar va muhim voqealar nomi qizil rang bilan yozilgan. Qo'lyozma o'lchami 35x22sm. Tabibiyning ko'rsatishicha, *“bu kitob besh bob bila murattab bo'lib”*<sup>32</sup>, bunda Islom Xo'ja xonadonining tarixi ham yoritilishi kerak bo'lgan. Ushbu asarda ham muallif o'zini *“Ahmad ibn Hoji Ali Muhammad”* tarzida tanishtiradi.

Ushbu ma'lumotlar Ahmad Tabibiyning ijtimoiy kelib chiqishi haqida aniq tasavvur beradi. Bu esa Xodim tazkirasidagi shoir biografiyasiga oid ma'lumotlar haqiqatga yaqin, degan taxminga asos beradi.

**3. Antologiyalar, risolalar, darslik va dissertatsiyalar.** Tabibiy biografiyasi va adabiy merosiga doir ilk ma'lumotlar

---

<sup>30</sup> Qo'lyozma. 3-sahifa.

<sup>31</sup> Qo'lyozma 4-sahifa.

<sup>32</sup> Qo'lyozma. 4-sahifa.

A.N.Samoylovich tomonidan berilgan<sup>33</sup>. Ahmad Tabibiy hayoti va ijodi to‘g‘risidagi dastlabki ma‘lumotlar Rahmat Majidiy tomonidan tuzilgan darsliklarda berib o‘tilgan<sup>34</sup>. Ushbu adabiyotlarda shoirning asli ismi Ahmadjon ekani, otasi Ali mahram asli afg‘onistonlik bo‘lib, Xorazmga kelib joylashib qolgani, Ali mahram o‘g‘lini madrasa va maktabda o‘qitgani, unga o‘zi fors tilini o‘rgatgani, Ahmadjon yoshligidan tib ilmiga qiziqib, zamonasining mashhur tabiblaridan bo‘lgan Yaxshimurodbek (shoir va tarixchi Bayoniyning akasi)dan tib ilmini o‘rganib, tabib bo‘lib yetishgani haqida ma‘lumot beriladi. Mazkur darslikda Tabibiyning yoshligidan adabiyot va san‘atga qiziqqani, mumtoz adabiyotni yaxshi o‘rganib, o‘zi ham “Tabibiy” taxallusi bilan she‘riyatda muvaffaqiyatga erishgani, u san‘at-musiqa sohasida ham ancha tajribali bo‘lgani, e‘tiborlisi, zamonasining yaxshi xattotlaridan bo‘lgani ta‘kidlanadi. Shoirning xattotligi haqidagi ma‘lumot tazkiralarda uchramaydi. Bundan tashqari, darslikda Tabibiy Feruz ko‘rsatmasiga binoan Xorazm shoirlari tazkisasi (antologiya)ni tuzib, “Majmuat ush-shuaro” nomi bilan nashr etgani, undan besh she‘riy devon yetib kelgani, undan uchtasi turkiy (o‘zbek) tilda, ikkitasi fors tilida bo‘lib, o‘sha davrda Xorazmda toshbosmada bosilgani haqida ma‘lumotlar keltiriladi. Shoirning vafoti sanasi esa 1910-yil deb ko‘rsatilgan. Shuningdek, darslikda shoir ijod namunalari misollar (12 ta g‘azal, 1 ta musaddas, 12 ta ruboiy, 2ta tojikcha g‘azal, 1 ta muxammas) keltiriladi.

Tabibiy hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot 1968-yilda nashr etilgan “O‘zbek adabiyoti tarixi”<sup>35</sup> ko‘p jildligida ham berilgan. Unda keyingi izlanishlar natijasida shoir ijodiga doir juda muhim yangi ma‘lumotlar topilgani, jumladan, Tabibiy fors shoiri Zohir Kirmoniyning nasrda yozgan “Vomiq va Azro” dostonini o‘zbek tiliga nazmda ijodiy tarjima qilgani va Tabibiyning ushbu dostoni 16200 misradan iborat ekani ta‘kidlanib, dostonidan ayrim parchalar berilgan.

---

<sup>33</sup> Записки Восточного отделения Императорского Русского археологического общества, т. XIX. – Санкт-Петербург, 1909. – С. 200.

<sup>34</sup> Ўзбек адабиёти тарихи хрестоматияси. II том. Тошкент, 1945; Ўзбек адабиёти. IV том, I китоб. –Тошкент: Бадий адабиёт, 1960. – Б.153-176.

<sup>35</sup> Ўзбек адабиёти. V том, II китоб. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1968. – Б.147-190.



Tabibiy hayoti va ijodi haqida F.G‘anixo‘jayev<sup>36</sup> tadqiqotlarida ancha batafsil ma‘lumot berib o‘tiladi. Tadqiqotda olim Tabibiyning hayot yo‘li, asarlari, ularning manbalari, shoir ijodining janrlar ko‘lami, mavzu mundariyasi, adabiy ta‘sir kabi masalalar haqida qimmatli ma‘lumotlar beradi. Ayniqsa, olimning Tabibiy asarlari mavjud 20 ga yaqin qo‘lyozma va toshbosma manbalarni aniqlagani, shoir lirik asarlaridan ayrimlarini (15 ta g‘azal, 11 banddan iborat bir murabba‘, 7 banddan iborat bir muxammas, 2 ta Navoiy g‘azaliga, Lutfiy g‘azaliga 1 ta, Fuzuliy g‘azaliga 1 ta, Munis g‘azaliga 1 ta, Ogahiy g‘azaliga 1 ta, Komil g‘azaliga 1 ta, Avaz g‘azaliga 1 ta muxammas bog‘lagani, 5 banddan iborat bir musaddas, 7 banddan iborat bir musamman, 4 banddan iborat bir muashshar, 18 ta ruboiy, 2 ta to‘rt misrali qit‘a) va “Vomiq va Azro” dostonini tabdil qilib, nashr ettirgani e‘tirofga loyiqdir<sup>37</sup>.

1966-yilda tuzilgan “O‘zbek adabiyoti tarixi” darsligida professor G‘.Karimov Tabibiy va uning “Majmuat ush-shuaro payravi Feruzshohiy” tazkirasi haqida fikr bildirib, olim Tabibiyni saroy shoiri sifatida ko‘rsatadi<sup>38</sup>.

Shoir hayoti va ijodi bilan bog‘liq keyinchalik yaratilgan o‘quv adabiyotlari va ayrim tadqiqotlarda aynan Laffasiy va F.G‘anixo‘jayev taqdim qilgan ma‘lumotlar asos qilib olingan<sup>39</sup>.

“Muhammad Rahimxon II – Feruz kutubxonasi fehrisi” nomli tadqiqotda Ahmad Tabibiy hayoti va ijodi manbalari haqida ham ma‘lumotlar uchraydi<sup>40</sup>.

1997-yilda nashr etilgan “Xiva (tarixiy-etnografik ocherklar)” risolasida Tabibiy haqida quyidagi ma‘lumotlar keltiriladi: “*Ahmadjon Tabibiy ayni kezda xon saroyining bilimli tabibi ham*

---

<sup>36</sup> Ганихўжаев Ф. Аҳмаджон Табибийнинг ҳаёти ва ижоди. Филол. фан. ном... дисс. – Тошкент, 1969. - 123-бет; Аҳмад Табибий (ҳаёти ва ижоди). – Тошкент: Фан, 1978. 80-бет.

<sup>37</sup> Ганихўжаев Ф. Аҳмад Табибий (ҳаёти ва ижоди). – Тошкент: Фан, 1978. – Б.232.

<sup>38</sup> Каримов Г. Ўзбек адабиёти тарихи. III китоб. – Тошкент, 1966. – Б. 66-67.

<sup>39</sup> Қосимов Б. Инқилобий шеърят саҳифалари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1977; Излай-излай тоғаним. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983; Қосимов Б. ва бошқ. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004; Маткаримова С. Табибий – тазкиранавис (“Мажмуат уш-шуаро пайрави Ферузшоҳий” асосида). Фил. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2007. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uygonish/ulugbek-dolimov-ahmad-tabibiy-1869-1910/>; <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/tabibiy-uz/>

<sup>40</sup> Эркинов А., Полвонов Н., Аминов Н. Муҳаммад Раҳимхон II – Феруз кутубхонаси феҳристи (Хоразмда китобат ва кутубхоначилик тарихидан). – Тошкент: Янги аср, 2010. – Б. 8, 41, 44, 45, 51, 80, 81.

*edi. U xonga yaqin kishi, uning maslahatgo‘yi va sevimli shoiri bo‘lgan. Shu bois saroy shoirlarining yetakchisi, toshbosma va xon kutubxonasi boshlig‘i bo‘ladi... U juda yosh – o‘ttiz sakkiz yoshida bevaqt vafot etadi’*<sup>41</sup>.

Eronning Tehron shahrida chop etilgan “G‘aribahoi oshno” nomli tadqiqotda<sup>42</sup> Ahmad Tabibiy biografiyasi, uning fors-tojik tilidagi adabiy merosi haqida ancha batafsil ma’lumotlar berilgan. Ushbu kitobning “Xorazmlik forsigo‘y shoirlar va ularning forscha she‘rlari” nomli ikkinchi bo‘limida XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida yashagan Xorazmda yashagan 37 nafar shoirdan 20 nafarining forsiy she‘rlari borligi aytiladi. Ushbu ijodkorlar orasidan birinchi bo‘lib Ahmad Tabibiy haqida ma’lumot berilib, uning ikkita mustaqil forsiy devon tuzgani ta’kidlanadi. Ushbu tadqiqotda Ahmad Tabibiyning 1328 - (1910) qamariy yilda vafot etgani, uning ijtimoiy kelib chiqishi eronlik, xon saroyining “Malikushu-sh-shuaro”si va hakimboshisi sifatida qayd etilib, uning ikkita forsiy devoni borligi va hajmi 13 000 bayt deb ko‘rsatiladi. Biroq bu devonlar ham hali to‘liq tadqiq etilmagan. Ushbu risolada Ahmad Tabibiy Tus musofiri deyilib, uning ismi sharifi: Tabibiy taxallusli Hoji Ali Muhammad o‘g‘li Ahmad deb ko‘rsatiladi. Shoir o‘z davrining eng buyuk va sermahsul ijodkori deya baholanadi. Ibrohim Xudoyor ham Laffasiy tazkirasidagi ma’lumotlarga tayanib, shoirning Feruz vafotidan 3 oy o‘tib, 1910-yili oktyabrda vafot etganini qayd etadi. E’tiborlisi, Ibrohim Xudoyor Laffasiy tazkirasining (9494, 11499 raqamli qo‘lyozmalar) nusxalarida shoirning 42 yoshda vafot etganini ta’kidlab, shunga ko‘ra, Ahmad Tabibiy 1286 qamariy (1868/69) Xivada tug‘ilganini tasdiqlaydi. Shu o‘rinda risola muallifi Xodimning ham ma’lumotlariga munosabat bildirib, u keltirgan ayrim ma’lumotlarni rad etadi. Lekin Ibrohim Xudoyor shoirning ijtimoiy kelib chiqishi bilan bog‘liq qarashlarda Xodim keltirgan ma’lumotni asos qilib oladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, Xodim ham, Ibrohim Xudoyor ham shoirning kelib chiqishini eronlik deydi. Biz ham shu fikrdamiz. Ibrohim

<sup>41</sup> Абдурасулов А. Хива (тарихий-этнографик очерклар). – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 98.

<sup>42</sup> غریبه های آشنا. شعر فارسی ماوراء النهر قرن بیست با تکیه بر محیط های ادبی خوقند و جوارزم. تألیف: دکتر ابراهیم خدایار. تهران. موسسه مطالعات ملی. ۱۳۸۴.

Xudoyor fikrlarini dalillashda Xivaning o'sha vaqtdagi ijtimoiy vaziyati, Eron bilan bo'lgan urushlari, Tabibiyning ota-bobosi Erondan qul bo'lib kelganini ko'rsatishini aytadi. Risoladagi quyidagi ma'lumot ham e'tiborli. Ya'ni Rizoqulixonni Hidoyat (Nosiriddinshoyi Qojorning ma'muri) o'zining "Saforatnomai Xorazm" asarida Xorazmga safar qilgani, Iydi Ramazon munosabati bilan o'sha vaqtda Xorazmga qul qilib keltirilganlarga 3 kun erkinlik berilgani, shunda Rizoqulixonni Hidoyat ushbu qullar bilan ularning nasli-nasabi haqida suhbatlashgani, ular nasli-nasabini bayot (turkiy), varzandiy, afshor (turkiy), farohoniy, iroqiy, qarogo'zli (turkiy), tabriziy ekanliklarini aytishgani va suhbat davomida Rizoqulixonni Hidoyat ularni ozod bo'lishlariga umidvor qilgani haqidagi ma'lumotni keltiradi.<sup>43</sup> Ana shu ma'lumotlarga ko'ra, Ibrohim Xudoyor shoirni eronlik deydi. Biroq yuqorida nomlari qayd etilgan elatlardan bayot, afshor, qarogo'zlilar turkiy qavmlardan ekani nazarda tutilsa, bu taxmin yana ham shubhali bo'lib qoladi. Nima bo'lgan taqdirda ham, Tabibiyning ota-bobosi Eron hududidagi shaharlardan keltirilgani aniq. Shuningdek, risolada 1285 (1868) - yilda Amir Muzaffar yengilganidan so'ng, Buxoro amirligi va Rusiya hukumati o'rtasida qullikni tugatish bo'yicha hujjat imzolangan, bu haqidagi ma'lumotlar Mirzo Azimi Somiyning "Tanzih ul-insho" kitobida mavjudligi aytib o'tiladi. Risolada shoirning yoshlik yillari haqida Tabibiy boshlang'ich va o'rta ta'limni Xiva maktablarida olgani, o'sha davrda Xiva ta'lim usuli ham xuddi Buxoronikiga o'xshash bo'lib, Buxorodagi ta'lim tizimi bugungi oliy o'quv yurtlarining oliy ta'lim tizimiga mos kelishi, Buxoroda ta'lim tizimini bitirish uchun 19 yil muddat kerakligi, Tabibiy 19 yil ta'lim olmagan uchun u mudarrislik va ustodlik maqomiga erishmagani, ammo shoir she'rlarida Qur'oniy ishoralar, irfoniy va mazhabiy nuktalar ko'plab ishlatilganidan u ijodda 19 yil tahsil olganlardan qolishmasligi ta'kidlanadi. Ibrohim Xudoyor Laffasiy va Xodim tazkiralari tayanib, Tabibiy xat va savod chiqargach tabobat ilmini o'rganishga rag'bat bildirib, o'z davrining yetuk tabibi Yaxshimurodbekka shogird tushgani haqidagi ma'lumotni keltiradi. Risoladagi "Ahmad 15 yoshida she'r va

هدایت رضاعلی خان (۱۳۵۶). سفارتنامه خوارزم. به کوشش علی حصوری. چ اول. تهران: کتابخانه طهوری. ۵۵-۵۴. <sup>43</sup>

shoirlikda tanildi. Bu 1884-yilga to'g'ri keladi", deydi. Bu ma'lumot shoirni 1869-yilda tug'ilgan, degan xulosaga olib keladi. Shuningdek, risolada xonning "Malik ush-shuaro"si sifatida 1908-yilda Tabibiyga tazkira tuzish, shuning barobarida, hakimboshilik, turli munosabatlar bilan she'rlar yozish vazifalari yuklatilgani aytiladi. Ibrohim Xudoyor shoir yoshligidan kasalmand, ya'ni o'pkasi xasta bo'lgani bois, tabobatni o'rganib, shu soha bilan shug'ullangani haqida yozadi va bunga Tabibiyning o'z ahvoli haqida yozgan baytlarini keltiradi: "Tabibiy agar chand ojiz mizoj, Kasallarg'a qilg'usi lekin iloj", "Tabibiy ki bir mardu xastadil...". "G'aribahoi oshno" risolasida aytilishicha, shoir uylangan, inqilobdan keyin uning oilasi parokanda bo'lib ketgan. F.G'anixo'jayev uning bitta o'g'il farzandi qarilik yillarini Namangan shahrida o'tkazgani haqidagi ma'lumotni beradi.

Shoirning tashqi ko'rinishini Laffasiy quyidagicha ta'riflaydi: *"Ahmadjon kalta bo'ylig', ko'sa, qo'tir, chechak toblig' bo'lub, ul yoshlig'din o'fka xastalig'ig'a muftalo bo'lg'on..."*. Xodim ta'rificha, Ahmadjon *"tuzilishi o'rta bo'yli, qorafarang, chechaktobli odam edi. Lokin so'z bobida inson o'rtasida kimni xushfe'l deb ta'rif etsangiz, shundan ham ziyoda"* inson bo'lgan. Shoirning fe'l-atvori haqida Laffasiy: *"... Aksar Avaz O'tar bilan ham ulfat bo'lub, oning bilan rozu dil oytushib Feruzning vuzarolarin mazammatu shikoyatlar qilib shoxmot bilan mashg'ullig' etib, goh-gohi tanburu g'ichchak mashqi bilan ikki rafiqi mehribon shikasta dillarig'a xursandlig' yetkuzar erdilar"* desa, Xodim esa shoir haqida: *"Ahmadjon Tabibiy mansabdor bo'lg'on emas. Shunday bo'lsa ham xalq bilan aloqasi shunday mazali so'zlashar edi. Hamma vaqt Ahmadjon Tabibiy bila so'zlashib, suhbatlashib o'ltursam ekan, deb orzu qilinar edi. Lokin o'zi ko'sa, bir tor ham soqoli yo'q edi. Lokin o'zi bilan so'zlashsangiz, juda ham mazali, qonuniy, qofiyali so'zlashar edi. Har kim bilan so'zlashsa, shu kishini o'ziga loyiq so'z bila so'zlashar edi. Savodsiz odam bilan so'zlashsa, savodsizlarga loyiq, ilmi odam bilan so'zlashsa, ilmi odamga loyiq madaniy tartibda so'zlashar edi. Bir shoirliq emas, dunyoda bor ilmlardan xabardor odam edi. Agar shu qadar ilmga ega bo'lmasa edi, Muhammad Rahim Ikkinjini taslim qilmas edi. Demak, Ahmadjon Tabibiy insonni javhari edi"* – degan ta'rifni keltiradi.

Tabibiy saroyda faoliyat olib borib xonning xos kishilaridan bo'lsa-da, boylikka, mol-dunyoga havas qo'ymagan. Oddiy faqirona hayot kechirgan. Uning Mashhadga borgani, Arabiston, Eron, Afg'oniston, Hindistondan kelgan savdogarlar bilan bemalol gaplashgani, ulardan dori-darmonlar bilan birga turli kitoblar sotib olgani haqida ma'lumotlar bor.

Tabibiy muqaddas islom dinini, arab va fors tillarini, musiqani, ayniqsa she'riyatni qunt bilan o'rgangan. Uning taniqli shoir bo'lib yetishishida turkiy (o'zbek), fors-tojik, ozarbayjon, hind klassiklarining asarlari muhim rol o'ynagan. Uning shoirlik salohiyati qay darajada bo'lgani haqida zamondoshi Xodimning quyidagi fikrlari e'tiborlidir: “... *Albatta, men bilganimdan keyin ham o'zim Ahmad Tabibiyning ilmiga bu qadar baho berganman. Bu bergan baholarim Ahmadjon Tabibiyi haqida kamroq baho desa, mumkin ham. Shunday kuchli shoir edi*<sup>44</sup>”. Shuningdek, shoirning zamondoshi Xodim “*shoir Ahmadjon Tabibiy qancha yoshda vafot etgan?*” – degan savolga, “*shoir Ahmadjon Tabibiy 45 yoshlarida vafot etgan bo'lishi kerak. 1911-yilda vafot bo'lg'on taqdirda, 1867-yilda hayot bo'lg'on bo'lsa, shoir Ahmadjon Tabibiy o'zi tug'ulg'on joyda vafot etgan. Boshqa joyda vafot etmagan*” – deb javob beradi.

Demak, shu paytgacha ilmiy adabiyotlarda Tabibiy biografiyasi, uning ijtimoiy ahvoli, adabiy merosi borasida yuzaki fikrlar bildirilgan. Mazkur dalil va fikrlarni to'ldirish maqsadida monografiyada shoir biografiyasi, ijtimoiy ahvoli, shaxsiyati, dunyoqarashi, hukmdor va boshqa kishilar bilan aloqasi, jamiyatdagi mavqeyi borasidagi ma'lumotlar jamlandi va ularga o'rni bilan munosabat bildirildi.

Umuman, shoir biografiyasiga oid manbalar tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, Tabibiy – Muhammad ibn hoji Alimuhammad al-mutaxallis bit-Tabibiy Ahmad 1867-yilda Xiva shahrida tug'ilgan. Shoirning otasi Alimuhammad asli eronlik bo'lib, u Xivadagi mashhur tabiblardan bo'lgan. Uning otasi Otajonto'ra xizmatida bo'lgan. Shoirning otasi Ahmadni yoshligidan

---

<sup>44</sup> Ходим. Хоразм шоир ва навозандалари (Нашрга тайёрловчилар: А.Отамуродова, О.Абдурахимов). – Тошкент: Tafakkur qanoti, 2011. – Б. 140-147.

ilm olishiga, uning fors, arab tillarini mukammal egallashiga e'tibor qaratgan. Ahmad Tabibiy 1911-yilda Xivada vafot etgan.

## 1.2. Shoir adabiy merosining ko'lami va janriy tasnifi

Sharq adabiyotida muayyan ijodkorning lirik asarlarini o'zida jamlagan to'plamlar devon deb yuritiladi. Mumtoz adabiyotda devon tuzish an'anaga aylangan. Sharq Islom adabiyotida devonchilik IX-XI asrlarda shakllanib, XII asrda uning haqiqiy namunalari paydo bo'la boshlagan<sup>45</sup>. O'zbek adabiyotida eng mukammal devon sifatida Alisher Navoiyning "Xazoyinu-l-maoniy" kulliyoti tan olinadi. Biror bir shoirning she'rlaridan saralab tuzilgan majmua esa "Terma devon" deb ataladi<sup>46</sup>. Odatda, devonlarning kirish qismida muallif tomonidan, ba'zan boshqalar tomonidan maxsus yoziladigan so'zboshi (muqaddima)lar – debochalar yozilgan. Bunda devon yoki muayyan majmuaning tuzilishiga sabab bo'lgan omillar, to'planning tuzilishi yoki tarkibiga oid ma'lumotlar, muallifning uzrxohligi va duoyu iltimosi o'z aksini topgan. Hazrat Alisher Navoiy ham birinchi devonini Husayn Boyqaroning tavsiyasiga ko'ra tuzganini devon debochasida qayd etib o'tgan.

Ahmad Tabibiy adabiy merosi manbalarining tadqiqi shoirning mukammal va terma devonlari mavjud ekanini ko'rsatadi. Shoir o'z devoni debochasida quyidagi ma'lumotni keltiradi: *"Maxfiy qolmasinkim bu faqir qo'lida jam' bo'lg'on mudavvan kitobning jumlasini besh devondurkim, uch devon turkiy lafzi bila fasohatorodur va ikki kitob forsiy alfozi bila balog'at payrovdur. Avvalg'i devong'akim sultoni oliyjoh janobi mu'allo al qobig'a hadyalig' sababidin "Tuhfatu-s-sulton" deb tasmiya qilindi. Va ikkinchi devong'a ushshoq unsiyati jihatidin "Munisul-ushshoq" ismi bila musammo bo'ldi. Va uchlanchi devong'a ishq holotin mu'oyana ko'rguzguvchi vajhidin "Mir'otu-l-ishq" oti bila mavsum etuldi. To'rtlanchi devong'a oshiqlar o'qub mutolaa qilur hangomlarida hayratfazolig' mo'jibi bila "Hayratul-ushshoq" deb ism berildi.*

---

<sup>45</sup> Жўрабоев О. Девон ва девончилик таснифи (XX аср ўзбек адабиётшунослиги. Мумтоз адабиёт). – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2016. – Б.525-526.

<sup>46</sup> Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: O'zbekiston, 2014. – Б. 35.

*Beshlanchi devonni bedillar ishtiyogi jilvagohi bo'lg'on boisi bila "Mazharu-l-ishtiyok" deb ataldi*<sup>47</sup>.

Demak, Tabibiy beshta she'riy devon tartib berib, ularni alohida nomlagan. Jumladan, uning "Tuhfatu-s-sulton", "Munisu-l-ushshoq", "Hayratu-l-ushshoq" devonlari turkiy tildagi lirik asarlardan tarkib topgan bo'lsa, "Mir'otu-l-ishq" va "Mahzaru-l-ishtiyok" devonlarida shoirning fors-tojik tilidagi she'riy asarlari jamlangan. Bundan tashqari, shoir "Vomiq va Azro" dostonining o'zbekcha she'riy variantini yozdi. Eronlik shoir Vahshi Bofiqiyning "Nozir va Manzur"<sup>48</sup> dostonini, ozarbayjonlik shoir Muhammad Fuzuliyning "Haft jom" asarini forsiydan o'zbekchaga tarjima qildi. Fuzuliyning tarjimasi ta'sirida o'zining "Yetti ravza" nomli asarini yozib, Xorazm shoirlari tazkirasini tuzdi<sup>49</sup>.

Mumtoz she'r nazariyasiga doir manbalarda, jumladan, Shayx Ahmad Taroziyning "Fununu-l-balog'a" asarida she'r janr (nav')lari haqida quyidagicha ma'lumot beriladi: *"Bilgilkim, majmui shuaro istilohinda she'rning aqsomi, ulkim mo'tabardur, o'n nav' kelibtur: qasida, g'azal, qit'a, ruboiy, masnaviy, tarje', musammat, mustazod, mutavval, fard"*<sup>50</sup>.

Tabibiy turkiy devonlari debochasida yana quyidagilarni yozadi: *"Alqissa, "Al ma'muru ma'zurun" hadisi mafhosicha bu xidmati zi saodatni joni ko'ngul bila qabul qildim. Bu farmoni vojibul iz'onni bitkargali boshdin qadam qilib yeldim. O'n nav'i nazmkim tashbib, g'azal, mustazod, musammat, ya'ni murabba'dan to muashsharg'acha, tarje'band, qasida, masnaviy, ruboiy, qit'a, fard itloq qilurlar. Jam'i o'n rang guldurkim tab'iyat gulistonidin terdim va anjuman aro chaman bog'lab huzuru vofiru-s-sarvarig'a yetkurdum. Hazrati vohibu-l-atoyo va g'ofiru-l-xatoyodin umid qilurmenkim maqbuli tab'i anvari va matbu'i xotiri safoparvari qilg'ay"*. Shayx Ahmadning she'r nav'lari haqidagi fikrlari

---

<sup>47</sup> Bayoniy, Laffasiy va Tabibiyga tegishli matnlar tabdili muallifga tegishli – Sh.A.

<sup>48</sup> S.Matkarimova "Nozir va Manzur" dostoni muallifi Ahmad Tabibiy deb hisoblaydi. Aslida bu dostonni Tabibiy fors tilidan tarjima qilgan (Matkarimova S. Табибий – тазкиранавис. Фил.фан.номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2007. – Б. 14).

<sup>49</sup> Фанихўжаев Ф. Аҳмад Табибий. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 3.

<sup>50</sup> Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға (Масъул муҳаррир Б.Насанов). – Тошкент: Хазина, 1996. – Б. 32.

Tabibiyniki bilan hamohang. Taroziy keltirgan she'r nav'laridan 9 tasini Tabibiy ham qayd etadi. Tabibiy mutavval janrida she'r yozgan bo'lsa-da, negadir, she'r navlarini sanaganda bahri tavilni qo'shmaydi. Ma'lumki, bahri tavil she'r shakli Sharq klassik adabiyoti, ayniqsa, turk-o'zbek va forsiy-dariy adabiyotida bir xil ustoz shoirlar tomonidan qo'llanilib kelingan. Ushbu she'riy shaklning tavil bahri deb nomlanishi haqida aniq ma'lumot yo'q. Lekin uning misralari o'ziga xos cho'ziqlikka ega bo'lishi sabab bu nomda mashhur bo'lgani taxmin etiladi. Shoirlar uchun tavil bahri iqtidorini sinash uchun bir an'ana bo'lgan. Tavil bahri Sharq klassik she'riyatida hajviy, tanziy (kinoya, ta'na qilmoq) va sevgi-muhabbat mavzulari ifodasi uchun qo'llanilgan. Tavil bahri misralarining har bo'lagi son va raqam qo'yish bilan bir-biridan ajratilgan va har bir satri (misrasi) o'ziga xos qofiyaga ega. Ba'zi adabiyotshunos olimlar tavil bahrini aruziy vazndan qochish, deb taxmin etadilar. Aruz ilmida ham "tavil" bahri mavjud. Lekin ular orasida vazn jihatdan hech qanday aloqa yo'q. Chunki ushbu aruziy vazn arab she'riyatiga xos bo'lgani bois o'zbek she'riyatida kam qo'llanilgan. Aruziy vaznlardan sanalmish "tavil bahri" aruziy bahrlarning *muxtaliful-arkon* turkumiga kirib (fa'ulun, mafo'ilun, fa'ulun, ma'fo'ilun)<sup>51</sup>ning har misrada bir marta takrorlanishidan hosil bo'ladi.

Tabibiy she'r nav'laridan bahri tavilning o'rniga qasidaning kirish qismi bo'lgan – tashbibni keltiradi. Qasidaning muqaddimasi *tashbib* deb atalgan. Tashbibda tabiat manzaralari, sevgi va ishq mavzulari latif va nozik shoirona taxayyul bilan tarsim (surat, rasm) etiladi. Tashbib lug'atda yoshlikni eslatish demakdir. Tashbib adabiy istilohda "tag'azzul" va "nasib" deb ham yuritiladi. Qasidaning ikkinchi qismi (muqaddimadan madh yo zamga o'tish (madu zam – ta'riflamoq yoki yomonlamoq) husni taxallus yo gro'z (qochmoq) deb ataladi. Bunda shoirning asosiy maqsadi zikr etiladi. Uchinchi qismi "sharita" (shart bog'lamoq yoki shart qo'ymoq)<sup>52</sup> deb ataladi.

---

<sup>51</sup> Muhammad Kozim Aminiy. O'zbek adabiyotida she'rning shakl va mazmun jihatdan turlari. – Afg'oniston-Foryob. (1389 hijriy-shamsiy), 2007. – B. 71-72.

<sup>52</sup> Muhammad Kozim Aminiy. O'zbek adabiyotida she'rning shakl va mazmun jihatdan turlari. – Afg'oniston-Foryob. (1389 hijriy-shamsiy), 2007. – B. 18-19.



Shoir devonlari manbalari haqidagi F.G'anixo'jayevning quyidagi ma'lumotlari e'tiborga molik: *"Tabibiyning birinchi devoni "Tuhfatus-sulton" Dushanbedagi A.A.Semyonov uy-muzeyida, qolgan to'rt devonining bir necha qo'lyozma va toshbosma nusxalari O'zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi"*<sup>53</sup>. Haqiqatan shoirning "Tuhfatu-s-sulton" devoni qo'lyozmasi taqdiri noma'lum. Garchi fondagi Tabibiyning bir forsiy devoni muqovasiga "Tuhfatu-s-sulton" degan qayd bo'lsa-da, ushbu manba shoir nomini keltirgan devoni emas. Sababi, shoir keltirgan ma'lumotga ko'ra, devonlarning uchtasi turkiy tilda deyilgan. Bundan Tabibiyning "Tuhfatu-s-sulton" devonidan turkiy tildagi lirik asarlar o'rin olgan, degan xulosa chiqadi.

Ahmad Tabibiyning turkiy tilda tartib bergan devonlaridan biri "Munisu-l-ushshoq" deb nomlangan. Devonning qo'lyozma va toshbosma variantlari O'zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi. Fondada ushbu devonning ikkita qo'lyozma (6226, 3461 raqamli) va bir toshbosma (№8949) nusxasi bor. 6226 raqamli qo'lyozma manbada shoirning 607 ta g'azaliga raqam qo'yilib ko'chirilgan (bitta g'azal raqamlashda kotib tomonidan e'tiborga olinmagan, aslida g'azallar soni 608 ta). So'ng 3 ta mustazod, 3 ta murabba', Tabibiyning o'zi va boshqa shoirlar g'azallariga bog'langan 53 ta muxammasi, 7 ta musaddas, bir musabba', bir musamman, bir mutassa', bir muashshar, bir tarje'band, 5 masnaviy, 143 ta ruboiy, 2 ta qasida, 6 ta shiru shakar, 2 ta varsoqi (barmoq vaznida yozilgan to'rtlik she'r) she'rlari ko'chirilgan.

"Munisu-l-ushshoq" devonining ikkinchi qo'lyozmasi 3461 raqami bilan saqlanadi. Bu manba 504 ta g'azal, 3 ta mustazod, 3 ta murabba', 53 ta muxammas, 7 ta musaddas, bir musabba, bir musamman, bir mutassa, bir muashshar, bir tarje'band, 5 ta soqiynoma (masnaviy), 145 ta ruboiy, 2 ta qasida, 6 ta mulamma (shiru shakar), 2 ta varsoqidan iborat.

O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondida 3460 raqami bilan saqlanayotgan qo'lyozma

---

<sup>53</sup> Фанихўжаев Ф. Аҳмад Табибий. – Тошкент: Фан, 1978. – Б.13.

manbada ham Ahmadjon Tabibiy ijodiga mansub lirik asarlar jamlangan. Qo‘lyozmaning 1<sup>b</sup>-sahifasi o‘rtasida “*Ikilanchi devoni Tabibiy turkiy musammo bahayratu-l-oshiqin*” deb qizil siyohda yozilgan. So‘ng qora siyohda “*Bismillohir-Rahmonir-Rahim*” deb yozilib, Tabibiyning “Hayratu-l-ushshoq”<sup>54</sup> devonidagi lirik asarlari ko‘chirilgan. Ahamiyatli jihati shundaki, fondada Ahmad Tabibiy “Munisu-l-ushshoq” devonining ikkita qo‘lyozmasi, “Hayratu-l-ushshoq” devonining bitta qo‘lyozmasi bor.

3460 raqamli manbada 605 ta g‘azal, 5 ta mustazod, 4 ta murabba’si ko‘chirilgan. Qo‘lyozmaning 143<sup>a</sup>-sahifadan muxammaslar ko‘chirilgan.

Ta’kidlash kerakki, Ahmad Tabibiy ijodida “muxammas” alohida kattagina bir mavzu. “Tabibiy ijodida muxammas” mavzui alohida bir tadqiqot bo‘la oladi. Sababi adabiyotimiz tarixida hech bir ijodkor Tabibiy singari 80 dan ortiq ijodkor g‘azallariga muxammas bog‘lamagan bo‘lsa kerak. Ushbu qo‘lyozma devonda Tabibiyning Lutfiy, Navoiy, Husayniy, Fuzuliy, Munis, Ogahiy kabi mashhur so‘z san’atkorlari qatorida ijodi bizga unchalik tanish bo‘lmagan Ulviy, Naf’iy, Nasib, G‘aribiy, Boqiy, Avniy, Noiliy, Laylo, Zevar, Fitnat, Sham’iy, Mohir, Muhibiy, Somiy, Quddusiy, Adliy kabi shoirlar g‘azallariga ham taxmislari bog‘lagan. Bunday asarlar tahlili yechimini kutayotgan ilmiy muammolardandir. Muxammaslarning jami soni 114 tani tashkil etadi. Shuningdek, devondan 2 ta musaddas, 5 ta musamman, 5 ta tarje’band ham o‘rin olgan.

Demak, Tabibiyning “Hayratu-l-ushshoq” devonida *g‘azal, mustazod, murabba’, muxammas, musamman, tarje’band, soqiynoma, ruboiy, qit’a, bahri tavil, qasida* kabi o‘nta janrdagi lirik asarlari jamlangan. Ko‘rinadiki, devonda Shayx Ahmad Taroziy keltirgan o‘nta “she’r nav’i”ning deyarli barchasi, ya’ni to‘qqizta janriga oid ijod namunalari kiritilgan. Devondagi soqiynoma ham masnaviy yo‘lida yozilgan bo‘lib, “*Masnaviyi soqiynomai Tabibiy*” deb nomlangan.

---

<sup>54</sup> “Hayratu-l-ushshoq” devoni shu paytgacha shoir ijodi bilan bog‘liq ma’lumotlarda “Hayrat ul-oshiqin” tarzida nomlanib kelingan. 3460 inventar raqamli qo‘lyozma “Ikilanchi devoni Tabibiy turkiy musammo ba Hayratu-l-oshiqin” tarzida kotib tomonidan sarlavhalangan. Ehtimol, shu sababli devon “Hayrat ul-oshiqin” deb nomlanib kelingan. Biroq Tabibiy o‘zining “Munisu-l-ushshoq” devoni debochasida ushbu devonini “Hayratu-l-ushshoq” tarzida keltiradi.

Ahmad Tabibiy adabiy merosi ko‘lami haqida gap ketganda, shoir musammatlari haqida to‘xtalmaslikning iloji yo‘q. Sababi adabiyotimiz tarixida eng ko‘p musammat bitgan Ahmad Tabibiy bo‘lsa kerak. Tabibiy lirik asarlari jamlangan manbalar tadqiqi hozircha shoirning turkiy (o‘zbek) tilida jami 367 ta musammat bitganini ko‘rsatmoqda. Musammatlar ichida shoirning muxammaslari alohida tadqiqot obyekti bo‘la oladi. Albatta, muxammaslar shoirning o‘z g‘azallari va boshqa shoirlar g‘azallariga bog‘langan.

Tabibiy muxammaslari – *Lutfiy, Navoiy, Husayniy, Fuzuliy, Nishotiy, Xatoiy, Munis, Ogahiy, Feruz, Sultoniy, Mirzo, Komil, Xolis, Yusuf, Mirzo, Avaz, Ojiz, Haqiriy, Devoniy, Kamoliy, Doiy, Chokar, Ravnaq, Rojiy, Rog‘ib, Fano, Murodiy, Xodim, Xokiy, Shinosiy, Niyoziy, Mutrib, Habib, Umidiy, Bayoniy, Tolib, Asad, Oqil, Purkomil, Xayoliy, G‘ulomiy, Adliy, Fyuzot, Maoliy, Nadimiy, Balig‘o, Amir, Xon, Vazir, G‘oziy, Mushrif, Oshiq, Ado, Hoziq, Fazliy, Nola, Afsus, Xijlat, Vahmiy, Xotam, Ulviy, Vasfiy, Naf‘iy, Nasib, G‘aribiy, Boqiy, Avniy, Navras, Hoshim, Zotiy, Noiliy, Laylo, Zevar, Fitnat, Sham‘iy, Mohir, Ayniy, Muhibiy, Somiy, Qudsiy, Muxlis, Adliy, Partav, Qoil, Sobir* – kabi 85 nafar shoir g‘azallariga bog‘langan. Albatta, bular turkiy (o‘zbek) tilida yozilganlari. Shoirning forsiy tildagi devonida ham 50 dan ortiq ijodkorlarga taxmis qilingan she‘rlari kiritilgan. Bundan tashqari, boshqa shoirlar g‘azallariga bog‘langan mazkur muxammas va musaddaslar matni ularning shu paytgacha chop etilgan nashrlari bilan solishtirganda, kichik bo‘lsa-da, ayrim farqlar borligini ko‘rsatadi. Jumladan, shoirning Navoiy va Ogahiy g‘azallariga bog‘lagan taxmislari matnida, Navoiy va Ogahiyga mansub baytlar oz bo‘lsa-da, Tabibiyda o‘zgargan shaklda uchraydi. Bundan tashqari, shoir musammatlari, xususan, Tabibiyning Munis, Ogahiy g‘azallariga bog‘lagan taxmislaridagi g‘azallar Munis va Ogahiy asarlari nashrlarida uchramaydi. Bu boradagi masalalar alohida tadqiqot doirasida izlanishlar olib borishni taqozo etadi. Jumladan, bunday muxammaslar tadqiqi boshqa shoirlar lirik merosini jamlashda ham yordamchi manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ahmad Tabibiy ijodiy merosida tarje‘band she‘rlar ham alohida o‘rin tutadi. Shoir o‘zining chuqur mazmun va badiiy

jihattan yuksak tarje'bandlari bilan mumtoz adabiyotda mazkur janr rivojiga munosib hissa qo'shgan. Ma'lumki, tarje'band bitish shoirdan yuqori badiiy mahorat, jiddiy tayyorgarlikni talab etadi. Xususan, Taroziyning "Fununu-l-balog'a" asarida ham tarje'bandga quyidagicha ta'rif beriladi:

*"Tarje' ul bo'lurkim, she're ayturlar, band-band barchasi bir baharda, har bandning ozi besh bayt bo'lur va ko'pi to'qquz bayt va har birining oxirinda bir o'zga baytni takror qilurlar... Ul baytni tarje' derlar"*<sup>55</sup>.

"Navoiy asarlari lug'ati"da esa tarje'band quyidagicha izohlangan: *"Tarje' (arabcha) – qaytarish, takrorlash; tarje'band – she'rda bandning takrorlanishi (bunda shoir vazni bir, qofiyasi turlicha bo'lgan bir necha band she'rning har bandi orasida ma'lum bir baytni takrorlab boradi; takrorlangan bayt har band oxiridagi bayt bilan bog'lanib borishi shart)"*<sup>56</sup>.

Ma'lumki, tarje'bandda odatda ijodkorning falsafiy qarashlari ifoda etiladi. Turkiy adabiyotda tarje'bandlarning ilk namunalari "Hofiz Xorazmiy ijodida uchraydi. Uning devoniga 3 ta tarje'band kiritilgan"<sup>57</sup>. Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida 4 ta tarje'band bo'lib, ular har bir devonga bittadan joylashtirilgan<sup>58</sup>. Mumtoz adabiyot vakillari Nodira, Uvaysiy, Muhayyir, Furqat, Ogahiy, Avaz, Ravnaq va boshqa ijodkorlar tomonidan bu janr yanada rivojlantirilgan. Alisher Navoiy tarje'bandlari zamiridagi chuqur falsafiy-tasavvufiy mazmun, mukammal shakliy uyg'unlik keyingi davr shoirlari uchun ibrat bo'ldi. Shoirlar imkon qadar an'anani davom ettirish va an'ana ichida yangicha poetik topilmalar qo'llashga, mazmunni takomillashtirishga intildilar. Ahmad Tabibiy ham ustoz ijodkorlarga ergashib, mazkur janrda barakali ijod qildi. "Hayratu-l-ushshoq" devonida shoirning beshta tarje'band she'ri mavjud bo'lib, ularning to'rttasi yetti bandli va bittasi to'qqiz bandlidir. Tarje'bandlarning hajmi 273 bayt (546 misra)ni tashkil

---

<sup>55</sup> Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға (Масъул муҳаррир Б.Насанов). – Тошкент: Хази́на, 1996. – Б. 46.

<sup>56</sup> Навоий асарлари луғати (тузувчилар: П.Шамсиев, С.Иброҳимов). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1996. – Б. 596.

<sup>57</sup> Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – B. 354.

<sup>58</sup> Yuqoridagi manba va o'sha sahifa.

qilib, ular 3460 raqamli qo‘lyozma manbaning 407-423-sahifalariga ko‘chirilgan va har bir tarje‘bandga raqam, sarlavha qo‘yilgan.

Shayx Ahmad fikriga ko‘ra, tarje‘band she‘rlar necha banddan tarkib topishi shoirning ixtiyorida bo‘lib, lekin tarje‘band she‘rda kamida uch band bo‘lmog‘i shart: “...*Va muning bandi muqarrar ermas. Ixtiyor shoirg‘adur. Vale uch banddin o‘ksuk yaxshi kelmas*”<sup>59</sup>.

Ta‘kidlash kerakki, shoir adabiy merosi haligacha matnshunoslik va adabiy manbashunoslik aspektida tadqiq etilmagani, shoirning butun boshli devonlari matniy tadqiqi amalga oshirilmagani bois, ilmiy jamoatchilik Tabibiy lirik merosi haqida aniq tasavvurga ega emas. Shunga ko‘ra, ishda Tabibiy tarje‘bandlari haqida ayrim ma‘lumotlarni keltirishni lozim topdik.

Shoir tarje‘bandlari tasavvufiy, ma‘rifiy-axloqiy mazmunda. Tabibiy tarje‘bandining dastlabkisi quyidagi mazmunda bo‘lib, u:

*Xumor ichra kulfat chekib beshumor,  
Qilib har nafas necha faryodi zor.*

*Tanimda g‘am o‘qi bila ko‘b yaro,  
Bo‘lib xotirimda base xor-xor.*

*Ko‘zimdin ketub nur birla ziyo,  
Ko‘nglumdin borib aylakim ixtiyor.*

*Gahi har taraf bemisl javlon etib,  
Gahikim bo‘lub yo‘l uzra xoksor.*

*Qilib tark nomusi nang ila nom,  
Bo‘lub jumla xalq ichra majnun shior.*

*Bu holatda baxtim bo‘lub yovarim,  
Qila olg‘ali lahza daf‘i xumor.*

*Vatan ayladim kunji mayxonani,  
Ketur, soqiyo, to‘lo paymonani – bandi bilan boshlanadi.*

---

<sup>59</sup> Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға (Масъул муҳаррир Б.Насанов). – Тошкент: Хази́на, 1996. – Б. 53.

Aruzning mutaqoribi musammani mahzuf (maqsur) vazni (V - /V - - /V - - /V -)da yozilgan ushbu tarje'band to'qqiz band 126 misradan tarkib topgan. Tarje'band mazmuniga ko'ra lirik qahramonning ishq shiddatida kechgan bezovta holati, yordan yetgan ozorlar, natijada berahm yor jafosi tufayli o'z ko'nglini mayxona sari burishi va soqiydan may talab qilishi ma'nosini ifodalab keladi. Tarje'bandda shaklan har bir bandda mazmun yangidan boshlanib, davom etib, soqiyga murojaat bilan xotimalanadi<sup>60</sup>.

Ta'kidlash kerakki, shoir tarje'bandlarining barchasida bandlar oxirida takrorlanib keluvchi baytlar (vosila bayt<sup>61</sup>) o'zaro qofiyalangan misralardan tashkil topgan bo'lib, ular bandlar so'nggida o'zgarishsiz takrorlanib keladi. Ahmad Tabibiy tarje'bandlari mazmunan teran, badiiyat jihatidan ham barkamol lirik asarlardir.

Shuningdek, shoirning "Hayratu-l-ushshoq" devonida 5 ta "masnaviyi soqiynoma", 202 ta ruboiy, 77 ta qit'a bor. Qo'lyozmadagi Tabibiy qit'alarining hajmi ikki, uch, to'rt, besh, olti va etti baytli she'rlardan tarkib topgan. Qit'alardan so'ng bir bahri tavil va bir qasida ko'chirilgan. Ushbu qo'lyozma manba to'rt qismdan tarkib topgan. Qayd etish kerakki, 3460 raqamli manba to'rt qismdan iborat bo'lib, uning birinchi va to'rtinchi qismlarida devondagi she'rlar ko'chirilgan. Manbaning birinchi qismi 245<sup>a</sup>-sahifada yakunlanadi.

Qo'lyozmaning to'rtinchi qismida shoirning 32 ta g'azali va bir masnaviyi ko'chirilgan.

Agar Ahmad Tabibiy lirik merosi janriga ko'ra tasnif etilsa, shoir ijodida g'azal, masnaviy, fard, ruboiy, qit'a, tuyuq, chiston, ta'rix, murabba', muxammas, musaddas, musabba', musamman, mutassa', muashshar, qasida, tarje'band, mustazod, dahrnoma, soqiynoma, shiru shakar, varsoqi (barmoq vaznidagi to'rtliklar), bahri tavil kabi namunalar borligi ayon bo'ladi.

---

<sup>60</sup> Bu haqda batafsil qarang: Амонов Ш. Аҳмад Табибий таржеъбандларининг матний хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2022, №2. – Б. 48-52.

<sup>61</sup> Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – B. 356.

Shuningdek, ushbu fondda 8949 raqami bilan saqlanayotgan toshbosma manbada ham Ahmad Tabibiyning ikkita turkiy devoni jamlangan. Bular “Munisu-l-ushshoq” va “Hayratu-l-oshiqin” devonlaridir.

Yuqorida keltirilgan manbalar shoirning mukammal devonlari hisoblanadi. Shoir ijodi manbalari tadqiqi Tabibiy lirik asarlaridan iborat *terma devonlar* ham mavjudligini ko‘rsatadi. Jumladan, O‘zRFA Davlat adabiyot muzeyidagi 243 raqamli qo‘lyozmada, O‘zRFA ShI qo‘lyozmalar fondidagi 654, 1122, 1123, 1124, 1148, 1159, 2033, 6949 raqamli qo‘lyozma manbalarda faqat Tabibiyning lirik asarlari ko‘chirilgan. Shuningdek, fondagi 10360, 10285, 8949, 20414 raqamli toshbosma manbalarda ham shoir lirik asarlaridan namunalar bosilgan. Ushbu manbalardan 654, 1122, 1159, 2033 raqamli qo‘lyozma to‘plamlarni Tabibiyning terma devonlari deyish mumkin. Sababi bu manbalarda shoirning uch-to‘rt yoki besh-olti janrdagi lirik asarlari jamlangan. Ularning aksariyatidagi lirik asarlar shoirning turkiy devonlari – “Munisu-l-ushshoq”da ham, “Hayratu-l-ushshoq”da ham yo‘q.

“Ichan qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi fondidagi **5884/3 raqamli toshbosma manbada** ham Tabibiy lirik asarlari jamlangan. Ushbu manbaning saqlanish holati yaxshi emas, uning ko‘plab sahifalari yo‘qolgan. Uning tarkibida taxminan 747 ta g‘azal, 3 ta mustazodi muxammas, 8 ta musaddas, 100 ta muxammas, 3 ta masnaviy-soqiynoma, 10 ta qasida, 6 ta munojot, 6 ta masnaviy-dahrnoma (“masnaviy dahrnoma” tarzida sarlavhalangan), 102 ta ruboiy, 3 ta chiston, 4 ta tuyuq, 16 ta qit’a, 15 ta fard va bir “ta’rix ruboiy” mavjud.

Adabiyotshunos F.G‘anixo‘jayev “Ahmadjon Tabibiyning hayoti va ijodi” nomli dissertatsiyasida Ahmad Tabibiy she‘riyat san‘atining qariyb hamma sohasida (20 turida) ijod etganini ta’kidlab, shoirning turkiy (o‘zbek) tilidagi adabiy merosi hajmi haqida quyidagi statistik ma’lumotni keltiradi (1-jadval)<sup>62</sup>:

---

<sup>62</sup> Ганихўжаев Ф. Аҳмаджон Табибийнинг ҳаёти ва ижоди. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 1969. – Б. 27.

## 1-jadval

№	She'r janrlari	“Munis ul-ushshoq”da	“Hayrat ul-oshiqin”da	“Tuhfat us-sulton”da	Turkiy tildagi she'rlar
1	G'azal	607	635	1016	2258
2	Murabba' (to'rtlik)	4	6	7	17
3	Muxammas (beshlik)	53	114	140	307
4	Musaddas (oltilik)	7	11	12	30
5	Musabba' (yettilik)	1	-	-	1
6	Musamman (sakkizlik)	1	5	4	10
7	Mutassa' (to'qqizlik)	1	-	-	1
8	Muashshar (o'nlik)	1	-	-	1
9	Mustazod	3	5	4	12
10	Tarje'band	1	5	4	10
11	Ruboiy	145	202	102	449
12	Qit'a	-	76	19	95
13	Tuyuq	-	-	4	4
14	Fard	-	-	15	15
15	Chiston	-	-	3	3
16	Bahri tavil	-	1	-	1
17	Shiru shakar	6	-	-	6
18	Dahrnoma (masnaviy)	5	-	12	17
19	Soqiynoma (masnaviy)	-	1	5	6
20	Qasida	2	1	10	13
<b>Jami she'rlar soni</b>		<b>837</b>	<b>1062</b>	<b>1357</b>	<b>3256</b>

Manbalar tadqiqi ushbu statistik ma'lumotlarda ayrim noaniqliklar borligini ko'rsatadi. Darhaqiqat, Tabibiy mumtoz



janrlarning deyarli barchasida ijod etgan. Shoir devonlarining tartib berilishida devonchilik an'analariga ham imkon qadar e'tibor bergan. Ayniqsa "Munisu-l-ushshoq" tuzilishi to'liq devonchilik an'analariga mos keladi. Ayniqsa, shoirning hazrat Navoiy kabi arab harflarining barchasiga, ya'ni 32 ta harfni o'zida jamlagan she'rlar bitgani uning bu masalaga mas'uliyat bilan qaraganini ko'rsatadi.

Tabibiy lirik merosi 23 janrda: *g'azal, masnaviy, fard, ruboiy, qit'a, tuyuq, chiston, ta'rix, murabba', muxammas, musaddas, musabba', musamman, mutassa', muashshar, qasida, tarje'band, mustazod, dahrnoma, soqiynoma, shiru shakar, varsoqi (barmoq vaznidagi to'rtliklar) va bahri tavilda* bitilgan. Biroq "Munisu-l-ushshoq" va "Hayratu-l-ushshoq" devonlariga *masnaviy-dahrnoma, chiston, tuyuq, fard* janrlarida yozilgan she'rlari ko'chirilmagan.

Ahmad Tabibiy lirik merosi mavjud manbalar tadqiqidan kelib chiqib shoirning turkiy (o'zbek) tilidagi adabiy merosi hajmi haqida hozircha quyidagi statistik ma'lumotni berish mumkin (2-jadval):

2-jadval

№	She'r janrlari	“Munis ul-ushshoq”da	“Hayrat ul-oshiqin”da	5884/3 raqamli toshbosma	1122 raqamli qo‘lyozma	1123 raqamli qo‘lyozma	1148 raqamli qo‘lyozma	6949 raqamli qo‘lyozma	Jami
1	G‘azal	617	639	747	72 <sup>63</sup>	168	130	135	2508
2	Murabba’ (to‘rtlik)	4	4		1	-	6	-	15
3	Muxammas (beshlik)	53	114	140	-	-	-	-	307
4	Musaddas (oltilik)	7	3	8	2	-	-	-	20
5	Musabba’ (yettilik)	1	-		-	-	-	-	1
6	Musamman (sakkizlik)	1	5		4	-	-	-	10
7	Mutassa’ (to‘qqizlik)	1	-		-	-	-	-	1
8	Muashshar (o‘nlik)	1	-		-	-	-	-	1
9	Mustazod	3	5	3	-	-	-	-	11
10	Tarje’band	-	5		-	-	-	-	5
11	Ruboiy	144	202	102 <sup>64</sup>	90	-	-	-	538
12	Qit’a	-	77		16	-	-	-	93
13	Tuyuq	-	-		4	-	-	-	4

<sup>63</sup> Aslida ushbu qo‘lyozmada jami 132 ta g‘azal mavjud bo‘lib, ularning ayrimlari boshqa manbalarda takrorlangani uchun ular soni qo‘shilmadi.

<sup>64</sup> Ushbu manbaning oxirgi sahifasida bir ta rix ruboiy berilgan.

14	Fard	-	-	-	-	15	-	-	-	15
15	Chiston	-	-	-	-	3	-	-	-	3
16	Bahri tavil	-	1	-	-	-	-	-	-	1
17	Shiru shakar	6	-	-	-	-	-	-	-	6
18	Masnaviy	-	-	-	-	7	-	-	-	7
19	Soqiynoma (masnaviy)	5	5	3	-	-	-	-	-	13
20	Soqiynoma (dahrnoma)			6	-	-	-	-	-	6
21	Qasida	2	1	-	10	-	-	-	-	13
22	Varsoqi	2	-	-	-	-	-	-	-	2
23	Munojot	-	-	6	5	-	-	-	-	11
<b>Jami she'rlar soni</b>		<b>847</b>	<b>1061</b>	<b>1015</b>	<b>229</b>	<b>168</b>	<b>136</b>	<b>135</b>	<b>135</b>	<b>3591</b>

Bundan tashqari, shoirning yana bir ta'rix-g'azali bo'lib, u Xivadagi "Shohimardon bobo" qabristonidagi qorixona peshtoqiga yozilgan. Ushbu g'azal Davlatmurod Mahram vafoti munosabati bilan yozilgan. Bu haqda ishning uchinchi bobida batafsil ma'lumot beriladi. Demak, Tabibiy **24 ta** janr va shaklda ijod etgan bo'lib, ularning adadini **3592 ta** deb belgilash mumkin. Yuqoridagi statistik ma'lumotlardan ayon bo'ladiki, jadvallardagi lirik asarlarning janrlari va sonlari orasida ancha farq mavjud.

"Ichan-qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi fondidagi 5884/3 raqamli toshbosma manbada ham shoir she'rlari jamlangan. Shunga ko'ra, 5884/3 raqamli toshbosmadagi she'rlar ham ushbu jadvalga kiritildi. Shuningdek, "Munisu-l-ushshoq" va "Hayratu-l-ushshoq" devonlarida mavjud she'rlarning ayrimlari shoir terma devonlari (1122, 1123, 1148, 6949, 654 raqamli qo'lyozmalar)da takrorlangani bois, ular jadvalga kiritilmadi. Ushbu ma'lumotlar hozircha qo'lga kiritilgan natijalardir. Bundan keyingi izlanishlar, albatta, shoir adabiy merosi ko'lami bilan bog'liq ma'lumotlarni kengaytirishi aniq. Negaki, Tabibiyning terma devonlaridan tashqari 50 ga yaqin to'plam va bayozlarga shoir lirik asarlari kiritilgan.

Mumtoz adabiyot, xususan, lirikaning bosh mavzusi ishq-muhabbat ekani ayon. Ahmad Tabibiy devonlarining nomlanishidan undagi lirik asarlar ishq-muhabbat mavzuida ekanini anglash mumkin. Bu haqda F.G'anixo'jayev quyidagi fikrlarni bildiradi: *"Avvalo shuni aytish kerakki, Tabibiy devonlari shartli ravishda nomlangan. Ularni bir-biridan ajratib turuvchi tema, g'oyaviy yo'nalish maqsad yo istak deyarlik sezilmaydi. Devonlarning nomidan anglashiladiki, ularning hammasi sevgi va sadoqat, ishq va muhabbat kabi insoniy fazilatga bagishlangan. She'rlar klassik poeziyaning rang-barang turlarida yozilgan"*<sup>65</sup>. To'g'ri, mumtoz ijodkorlar lirik asarlarining aksariyati ishq-muhabbat mavzuida. Tabibiy lirikasi ham bundan mustasno emas. Bizningcha, masalaga bunday yondashish unchalik to'g'ri emas. Negaki, mumtoz ijodkorlar adabiy merosi tadqiqi ularda ijtimoiy hayotning barcha mavzulari badiiy talqin etilgani nuqtayi nazaridan muhim hisoblanadi. Ahmad Tabibiy devonlaridagi lirik asarlar tadqiqi ular

---

<sup>65</sup> Ганихўжаев Ф. Аҳмад Табибий (ҳаёти ва ижоди). – Тошкент: Фан, 1978. – Б.15.

asosan *diniy-tasavvufiy, dunyoviy ishq-muhabbat, ilm-ma'rifat, hasbu hol, musiqa va san'at, tabiat tasviri, ijtimoiy-falsafiy* mavzularga bag'ishlanganini ko'rsatadi.

**Diniy-tasavvufiy mavzuga bag'ishlangan she'rlar.** Har qanday so'z san'atkori, ayniqsa, mumtoz ijodkorlar so'zga, she'riyatga oliy qadriyat sifatida munosabatda bo'lishgan. Ular ijodining ibtidosidan intihosigacha Yaratganga bandalik, Rasululloh (s.a.v.)ga ummatlik mas'uliyatini bir zum bo'lsa-da, nazardan chetda qoldirishmagan. Tabibiy ijodida islom ma'rifati mavzusi yetakchi o'rinni tashkil etadi. Garchi, A.N.Samoylovich shoir haqidagi xotiralarida: "Shoir, aytishiga qaraganda, erkin fikrli qarashlari sababli madrasadagi musulmon fanlarining to'la kursini o'zlashtirishdan voz kechgan", - deb yozsa-da<sup>66</sup>, Tabibiyning lirik asarlari tadqiqi uning yoshlik chog'laridanoq nafaqat, diniy va dunyoviy ilmlarni, balki ilmi bade', ilmi aruz va ilmi qofiyani ham mukammal egallaganini ko'rsatadi. Shoir arab va fors tillarini puxta o'rgangan. Ko'plab mumtoz ijodkorlar singari Tabibiy she'riyatini ham islom ma'rifati va ma'naviyatidan ayri tasavvur etib bo'lmaydi. Shoirning aksar baytlari Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflarga bitilgan she'riy sharhlar ekanligi ham ushbu fikrni tasdiqlaydi.

Tabibiy devonlari tadqiqi shoirning bu mavzuga keng o'rin ajratganini ko'rsatadi. Masalan, "Munisul-ushshoq" devoni debochasidan boshlab, devonning oxirigacha diniy-ma'rifiy mavzular aks etgan lirik asarlar ko'chirilgan. Shoir turkiy devonlari uchun yozgan debochasida o'nlab Qur'on oyatlari va hadisi shariflar uchraydi. Masalan, debochadagi quyidagi parchaga e'tibor qaratsak:

*"Jalla jalaluhu va 'amma navaluhu bisyor salavot amta'asi va beshumor tahiyat hadoyasi ul nubuvvat sariri amirining janobig'a iysor va ul risolat haylining dilpazirishoni arsh maobig'a hadyai takror alat takrordurkim "Ana afsahu..." gulistonining bulbuli fasihul bayonidur va "Ana amlahu..." shakkaristonining to'tiyi shirin maqoli va malihlisonidur bovujud muncha fasohat va balog'at va muncha mu'allo daraja va martabat bila ham "al faqru*

---

<sup>66</sup> Bu haqda batafsil qarang: Qosimov B. Излай-излай топганим. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983. – Б.41-42; Эркинов А. Поездка А.Н.Самойловича в Хивинское ханство в 1908 году и оценка им литературной среды. II Востоковедческие чтения памяти Н.П.Остроумова. Сборник материалов. – Ташкент, 2010. – С.116-126.

*faxri*” hadisig‘a notiq “**Ma ‘arafnaka haqqo ma‘rifatika**” mazmunig‘a shoyiq erdi “**Ya ayyuhar rasulu ballig‘ ma unzila ilayka...**” karimasi mazmunining xitobi mustatobi mo‘jibincha kutubi osmoni va suhufi Rabboniyning mazomin aynaqa va ma‘niyi daqiqasinkim xotiri xurshid mazohiri ongo muttaleb va muttabe’ erdi. Fasohatbayon lison va balog‘at tarjemoni zabon bila taqdir zuhurg‘a kelturdi “**va ma alar rasuli illal balag‘u...**” mafodincha ulchakim tengri taolo va taqaddasa hazratidin ahkom va bayyina va masoili yaqiniya tablig‘ig‘a ma‘mur va marsul bo‘lmish erdi. Kalom gavhari intizomi bila “**Qulu amanna billahi va ma unzila ilayna...**” mazmunin zuhurg‘a yetkurub tabiat zulmatobodi sargashtalarin ogohlig‘ shahristoni shoh rohi tarafig‘a boshqarib: “**Haza sirotiy mustaqiman fattabi’uhu**” ishorati bila dini islom tariqi sulukig‘a buyurdi”. Bu bitta parchadagi misol. Bundan tashqari, debocha hamd, na’t, chori yorlar tavsif etilgan nazm namunalari bilan boyitilgan. Ta’kidlash kerakki, Tabibiy debochasi to‘liq oyat va hadislardan iqtiboslar asosida bitilganki, bu hol devonning badiiy qimmatini nechog‘li baland ekanini ko‘rsatadi. Shoir devonlaridagi aksariyat g‘azallarda oyat va hadislarini singdirib yuborgan. Shoir ijodida Qur‘on oyatlari va payg‘ambar (s.a.v.) hadislaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanib yozilgan she‘rlar anchagina. Jumladan, hamd, na’t, chori yorlar tavsif etilgan “*Ey vujudingg‘a emas zohir zamoni ibtido*”, “*Zihi ermas vujudingg‘a azal satriida had paydo*”, “*Zihi bor qudrating osoridin kavnu makon paydo*”, “*Sano bo‘lsun ongakim bordurur ul Qodiri Yakto*”, “*Izhoru qudrat aylabon, ey Xoliqi arzu samo*”, “*Zihi jamolingga mazhar erur hama ashyo*”, “*Zihi sun‘ing bila ashyo ikki olam aro paydo*”, “*Zihi vujudinga yo‘q vaqti ibtido paydo*”, “*Ey jumlai guruhi nabilarga peshvo*”, “*Assalom, ey shahriyori, hoshimiy Makkiy laqab*”, “*Ey berib, me‘roj izzu rutbasin tangri Sango*”, “*Zihi sanga beribon Tangri rutbai darajot*” misralari bilan boshlanuvchi g‘azallar shular jumlasidan. Bundan tashqari, shoirning kichik lirik janrlarga oid asarlarida ham ushbu mavzu yetakchilik qiladi.

**Dunyoviy ishq-muhabbat mavzusi.** Tabibiy lirikasining ham yetakchi mavzularidan biri ishq-muhabbat yo‘nalishidagi lirik asarlardir. Shoirning ishq-muhabbat mavzusidagi she‘rlari o‘zining betakrorligi, noyob poetik shakllarning o‘ziga xosligi jihatidan farq

qiladi. Shoirning ishq-muhabbat mavzusidagi lirikasining asosiy mazmunini ma'shuqaga chin sevgi, sadoqat, hijron azobidagi oshiqning ruhiy holati, har qanday holatda ham yor visoliga intilish, yor muhabbati bilan iftixor g'oyalari tashkil etadi. Shoir ijodida **uch mingdan** ortiq she'riy asarlar mavjud. Ularning aksariyati dunyoviy ishq-muhabbat mavzusida ekani e'tiboridan ularning nomlari keltirilmadi. Bunday she'rlar tahlili alohida tadqiqot olib borishni talab etadi.

**Ilm-ma'rifat mavzusidagi she'rlar.** Tabibiy ijodida ilm-ma'rifat mavzusiga bag'ishlangan lirik asarlar ham talayginani tashkil etadi. Ahmad Tabibiy ijodida ma'rifat mavzusi, ma'rifatparvarlik g'oyasi muhim o'rin egallaydi. Shoir hayotni tubdan yaxshilovchi, jamiyatni, mamlakatni qoloqlikdan, zulmatdan qutqaruvchi, xalqni farovon hayotga yetaklovchi yo'l – ma'rifat deb biladi. Shoirning fikricha, ilm-ma'rifat johilni, g'ofilni jaholat uyqusidan uyg'otadi, uning hayotiga fayz bag'ishlaydi. Shoirning “*Bashar xaylini aylar sohibi guftor ilmu fan*”, “*Manga tavfiqi iymonimni yo'ldosh aylagil, yo Rab*”, “*Olamda pasha gar sanga bo'lsa qanoat, ey ko'ngul*”, “*Ey ko'ngul, umr o'tkarursan gar tuman mehnat bila*”, “*Umring o'tkarma tamoshi gulu gulshan ila*”, “*Ko'ngulda ma'rifat kunjini bisyor aylagil, yo Rab*” misralari bilan boshlanuvchi she'rlar ilm-ma'rifat egallash, uning inson hayotidagi ahamiyatiga bag'ishlangan.

Shoir “Hayratu-l-ushshoq” devonidagi bir g'azalida ilm-fanni egallashni targ'ib qilib, shunday yozadi:

*Bashar xaylini aylar sohibi guftor ilmu fan,  
Bale, insoniyatdin bordurur osor ilmu fan.*

*Yo'q ersa ilmu fan odam bila hayvon barobardur,  
Tafovut bu ikkovga aylamish izhor ilmu fan.*

*Ko'ngulkim, jahl birla keldi bas, vahshat farori havl,  
Jinon yanglig' oni qilg'usidur gulzor ilmu fan.*

*Nasibi bo'lg'usi beshak savob uzra savob ahbob,  
Kishikim hosil etmakka qilur takror ilmu fan.*

*Tafannunu taallum borcha insong‘a zaruriydur,  
Qilib jahd, o‘qungizlar yo ulul-absor ilmu fan.*

*Yog‘or boroni rahmatdin hamisha nur uzra nur,  
Hamul kishvar uzakim bordurur tayyor ilmu fan.*

*Jaholat xamridin har kimsakim masti mudom o‘lsa,  
Oni albatta qilg‘usidurur hushyor ilmu fan.*

*Bahoimdek bo‘lub beilmu fan odamning atvori,  
Ato qilg‘usi dilkash xulqi xush atvor ilmu fan.*

*Omon bo‘lg‘usidur mehnat yukin chekmakdin andoming,  
Agar ko‘ngling bag‘irni uzra bo‘lsa bor ilmu fan.*

*Baqosi dirhamu dinorning yo‘qdur jahon ichra,  
Ki bordur jovidoni dirhamu dinor ilmu fan.*

*Tabibiy ma‘rifatsizlik bila yetmishdurur jong‘a,  
Ongo qilg‘il ato yo Vohid ul-Qahhor ilmu fan.*

**Hasbi hol mavzusi.** Shoir devonlaridagi “Yo Rab, etmak jurm subhu shom odatdur mango”, “Yo Rab, man osiyini qil isyon kamandidin raho”, “Aylagil yo Rab, Nasuhi tavbasin ehson manga”, “Yo Rab, ishimdur aylamak ro‘zi shab isyon beadam”, “Yo Rab, maningdek hechkim mag‘lubi isyon o‘lmasun”, “Yo Rab, gunah zinda banda tunu kun hazinu zorman”, “Mango lutfingni qil olamda tun-kun rahnamo, yo Rab”, “Karam aylab manga tavfiq jomin, yo Rab, ehson et”, “Yo Rab, tilimni dam-badab zikringg‘a go‘yo aylagil” misralari bilan boshlanuvchi she‘rlar hasbi hol mavzuidadir.

**Musiq va san‘at mavzusi.** Ma‘lumki, “maqomlar Sharq xalqlarida juda qadim zamonlardan mavjud bo‘lgan musiq janridir. Ular bu xalqlarning o‘ziga xos musiq boyliklari asosida kasbiy sozanda va xonandalar tomonidan yaratilgan va uzoq madaniy-tarixiy taraqqiyot jarayonida mustaqil musiq janri sifatida yuzaga kelgan<sup>67</sup>”. XIX asrning oxiriga kelib, Xorazmda nafaqat badiiy

---

<sup>67</sup> Ражабов И. Мақомлар. – Тошкент: Сан‘ат, 2006. – Б. 40.



adabiyot, balki musiqa va san'atga ham alohida e'tibor qaratilgan. "Boy an'anaga ega musiqa rivoj topdi. Tanbur notasi kashf qilindi. She'r va musiqa hamkorligi kuchaydi<sup>68</sup>". Albatta, bunday madaniy o'zgarishlar zamona shoirlari ijodiga ham ta'sir etmay qolmagan.

Tabibiy ham musiqa san'atiga alohida hurmat bilan qaragan. Shoir musiqa san'ati va ilmini juda yaxshi bilgan, tanburni mahorat bilan chertgani manbalarda qayd etiladi. Bu hol shoir ijodida ham o'z aksini topgan. Musiqa san'ati bilan bog'liq she'rlarda ijodkorning yuksak ma'naviy holati va nozik kayfiyati ifodalanadi. Shoirning "Qo'lig'a bazm aro olg'och mug'anniy nogahon g'ichchak", "Qachonkim aylasa nag'motlar ayon dutor", "Qachonki soz etar izhori bazm aro balabon", "Olib soz aylagach, qo'lg'a mug'anniy bazm aro tanbur" misralari bilan boshlanuvchi g'azallarida cholg'u asboblari haqidagi shoirning lirik kechinmalari ifodalangan. Bundan tashqari, she'rlar tarkibidagi "Xush ul bazmiga onda tuzsalar tasnif nafas ichra, Balabonu dafu tanbur, changu baston g'ichchak", "Navovu, Rostu, Segohu, Dugoh saboi Buzurg, Iroqu Panjgoh ila maqom uzra guzor aylab", "Kichik-buzurg bori ushshoq tong ermas asir o'lsa, Tarannum aylagach, Dugohu Segohu Navo tanbur", "Ko'rguzub miskin Tabibiyg'a zamone yorlig', Ey mug'anniy, tuz maqomi Rost ohangiyu Rok", "Ajab yo'q ahli ajam borcha bo'lsalar vola, Tarannum aylagach ovozi Isfahon dutor", "Ajam birla Hijoz ahlini beshak aylagay vola, Tarannum qilg'oy "Ushshoq"u "Iroq"u Isfahon g'ichchak" kabi baytlardan shoirning Shashmaqom kuylarini ham yaxshi bilgani anglashiladi.

Tabibiy ijodida mustazod janri alohida o'ringa ega. Shoir ijodida mustazodning o'ziga xos ko'rinishlari uchraydi. Ma'lumki, Alisher Navoiy mustazod janriga alohida ta'rif berib, uning ohangi surud nag'amoti (kuy ohangi)ga mos kelishini aytib o'tgan: "...xalq orasida bir surud bor ekandurkim, hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida anga bayt boshlab bitib, aning misraidin sungra hamul bahrning ikki rukni bila ado qilib, surud nag'amotiga rost keltururlar ermish va ani "mustazod" derlar ermish...<sup>69</sup>".

---

<sup>68</sup> Қосимов Б. ва бошқ. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б.14.

<sup>69</sup> Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври). – Тошкент: Akadernashr, 2013. – Б. 47.

Adabiyotimiz tarixida Ogahiy mustazoddagi bitta yarim misrani ikkitaga aylantirgani, G‘oziy devonida mustazodning boshqa ko‘rinishlari uchrashi, Sultonxon Ado esa mustazodni ruboiy, Tabibiy esa muxammas janriga tatbiq etgani<sup>70</sup> ma’lum.

Xalq orasida mustazod nomi bilan aytiladigan qo‘shiq mashhur hisoblanadi. Ma’lumki, mazkur qo‘shiq matni Chokar qalamiga mansub. Tabibiy ijodida 8 ta mustazod bo‘lib, ularning 5 tasi shoirning “Hayratu-l-ushshoq” devoniga kiritilgan. Devondagi mustazodlarning oxirgisi quyidagicha:

*Husning guli to bo‘ldi jahon bog‘ida paydo,  
topib necha ziynat,  
ey sho‘xi parizod,  
Soldi oni ishq boshima kulfati savdo,  
aylab manga odat,  
bulbul kabi faryod.*

*Bilmon ne sifat ofat eding noz fanida,  
kim ko‘rguzubon noz,  
mahbublig‘ ichra,  
Solding mani dilxasta dilu jonig‘a yag‘mo,  
behaddi nihoyat,  
aylab, base, bedod.*

*Bu nav‘ki, ishqing g‘amig‘a ahli zamona,  
duchor bo‘lubdur,  
ko‘b shavqlar ila,  
Sanda magar ey yor, jahon ichra mudomo,  
chun gulshani jannat,  
bori husn xudodod.*

*Yetti hama ishq ahli azobing bila jong‘a,  
qilding chu g‘azablar,  
qo‘lga olibon tiyg‘,  
Bo‘lg‘aymu ravo muncha jafo qilmoq huvaydo,*

---

<sup>70</sup> Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: O‘zbekiston, 2014. – Б. 124-125.

*ham javri bag‘oyat,  
ey, ko‘zlari jallod.*

*Layli bila Shirin chu emas yorima monand,  
husn ila adoda bir,  
zarra ham, ahbob,  
Mendek qachon o‘lg‘usidurur ishq aro shaydo,  
tortib g‘ami saxt,  
Majnun ila Farhod.*

*Chun qildi g‘aming seli ko‘ngul mulkini vayron,  
hajring tuni ichra,  
yondirg‘ali jonim,  
Emdi oni lutfing bila, ey dilbari barno,  
aylarga salomat,  
qilg‘il dame obod.*

*Hajring alamin bo‘lsa giriftori Tabibiy,  
ne g‘am etgusikim,  
ishq ichra aylasang,  
Dardig‘a oning shahdi labing keldi mudovo,  
et oni inoyat,  
g‘amdin qilib ozod.*

Demak, Tabibiyning mazkur mustazodi Chokar mustazodiga mazmunan juda yaqin. Chokar Tabibiy bilan birga faoliyat olib borgan. Chokar shoirning lirik asarlaridan iborat to‘rt she‘riy to‘plamining kotibi hisoblanadi. Demak, Chokar o‘zining mustazodini yaratishda Tabibiyning yuqoridagi mustazodidan ilhomlangan yoki aksincha. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

**Tabiat tasviri bilan bog‘liq she‘rlar.** Tabibiy ijodida tabiat tasviri aks ettirilgan lirik asarlar ham talaygina. Jumladan, shoirning “Sahni chamanda to bahor o‘lg‘och namoyon o‘ldi gul”, “Makon etgoch o‘ziga gar jinondek gulsiton bulbul”, “Kelsa edi lutf aylabon ayyomi bahor”, “Kulbanga kel, ey sho‘xkim, kelmishdurur fasli bahor”, “Mujdakim, keldi tuman nuzhat bila fasli bahor”, “Qish ketib mulki jahong‘a nozil o‘ldi to bahor”, “To bo‘ldi olam mulkida,

*ey do‘stlar, paydo bahor*”, “*Bihamdillahki, lutfi Haq jahona oshkor o‘ldi, Yetib fayzu safo yer yuziga fasli bahor o‘ldi*”, “*Ey sanam, bahor o‘lmish azmi sayri bo‘ston qil*”, “*Toki ayyomi bahor o‘ldi guliston xurram*”, “*Bahor o‘lg‘och bo‘lub paydo binafsha*”, “*Bukim sahro aro tutmishdurur tun-kun makon lola*” misralari bilan boshlanuvchi she‘rlari shunday mazmundagi she‘rlar sirasiga kiradi. Shoir bunday she‘rlarida umrni sevgi-muhabbat, xursandchilik, ayniqsa, yoshlikni ko‘tarinki kayfiyat bilan o‘tkazishni targ‘ib qiladi.

**Ijtimoiy-falsafiy mavzu.** Shoir ijodida ijtimoiy-falsafiy she‘rlar ham anchagina. Ayniqsa, bu mavzudagi she‘rlar shoirning g‘azal, fard, qit‘a, ruboiylarida yetakchilik qiladi. Shoir ijodida “*tama‘girlik*”, “*yolg‘onchilik*”, “*riyo*”, “*kibr*”, “*manmanlik*”, “*mol-dunyoga hirs qo‘yish*” kabi salbiy illatlar qoralangan she‘rlar ko‘pchilikni tashkil etadi.

Ta‘kidlash kerakki, shoir adabiy merosidagi ushbu mavzularga oid lirik asarlar tahlili alohida tadqiqot uchun obyekt bo‘la oladi. Tabibiy adabiy merosi mavzusiga ko‘ra rang-barang bo‘lib, shoir lirik asarlari tahlili milliy adabiyotimizdagi nazariy qarashlarni boyitishi shubhasiz.

Tabibiy ijodida aruz bilan birga barmoq vaznida yozilgan lirik asarlar ham mavjud. Shoir lirik asarlari aruzning turli bahrlarida yozilgan. Tabibiy she‘r nazariyasi va texnikasini juda yaxshi bilgan. Bu hol uning devonlari tarkibiy tuzilishida, devonlar tarkibidagi lirik asarlar tahlilida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shoir lirik asarlari aruzning *hazaj, rajaz, ramal, muzori’, mutaqorib, munsarih, mujtass, komil, xafif* bahrlarida yozilgan.

Shoir ijodida “*po‘stin*”, “*murabbo*”, “*sham*” kabi maishiy mavzulardagi she‘rlar ham uchraydiki, ularning soni juda oz.

Professor Nurboy Jabborov shunday yozadi: “Sir emas, buyuk o‘tmishga ega bo‘lgan millatimiz XIX asrga kelib tanazzul jarayonini boshdan kechirdi. Furqat Toshkentda yashar ekan, rus maktab-maorif tizimini ko‘rib hayratlandi. O‘zimizdagi maktablar bilan taqqoslab, taraqqiyotdan nechog‘lik orqada qolganligimizni angladi. Taraqqiy etgan millatlar darajasiga ko‘tarish zarurligini tushunib yetdi. Telefon, telegraf, gazeta, vistavka, elektr energiyasi kabi o‘sha payt uchun yangilik hisoblangan hodisalarning millat

hayotiga kirib kelishini xohladi. “Jahon basti kushodi” – jahondagi barcha mushkulotlarni yechish yo‘li ilm-ma‘rifatda deb bildi. Shunga ko‘ra, ayrim tadqiqotlarda aytilganidek, chor Rossiyasining mustamlaka siyosatini emas, rus xalqining o‘sha paytdagi yuksalishga yuz tutgan madaniyatini targ‘ib etdi. U Rossiyaning ilm-fan, sanoat sohalarida erishgan yutuqlariga havas qiladi. Shunday madaniy daraja, shunday yuksalish bizda ham bo‘lishini orzu qiladi”<sup>71</sup>.

E’tiborlisi, Tabibiy lirikasida ham Furqat ijodidagi kabi yangicha ma‘rifatparvarlikning ko‘rinishlari ko‘zga tashlanadi. Jumladan, shoir chistonlarining biri o‘sha zamon uchun yangilik hisoblangan mexanik soatga bag‘ishlangan. Chiston matni ilk marta biz tomondan e’lon qilinayotgani uchun she’r matnini to‘liq keltirsak:

اول نه شكلى خوبكيم تئويرى كلميش موستدير  
ليک ايچيده بارها بولميش نمايان اضطراب

گر قولاق سالسنگ آنگا مسموع اولور آواز رقس  
جومله رقسى ليک بير وزن ايله بولميشدور حساب

ايچكريسيغنه نظاره ايلاسنگ تدقيق ايله  
كوزينگا منظور اولور اسباب فصل انقلاب

صورتى افلاك يانگليغدوركى ايكي ميل آنگا  
مهز مهديک روز شب سيراننى قيلميش ارتکاب

بار بروج آسا آلارنينگ منزىلى اثنا عشر  
منزىلى هر بيرى بير وقت ايله دور مدت مآب

وقت بيلمکنى تىلب باقسنگ آنگا گر هر زمان  
ميل بيرله منزىلى سرحديدين تاپغونگ جواب

<sup>71</sup> Жабборов Н.А. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Филология фанлари докторлиги диссертацияси. – Тошкент, 2004. – Б. 31.

ياكى باقماي بارماقینگى اندكى تحریکیدین  
صوت خوش بیرله ایشیتکونگدور جواب با صواب

الغرض بو وجه ایله ایستر آنی شاه گدا  
ایلامیشدور حق آنی مرغوب طبع شیخ شتاب

سیر رقس ایتماس ولیک اوز اختیاری بیرله اول  
تاکی هر کون بیر قولینگدین تاپماق ایرسه پیچتاب

*Ul na shakli xubkim, tasviri kelmish mustadir,  
Lek ichida borho bo 'lmish namoyon iztirob.*

*Gar quloq solsang onga masmu' o 'lur ovozi raqs,  
Jumla raqsi lek bir vazn ila bo 'lmishdur hisob.*

*Ichkarisig 'a nazzora aylasang tadqiq ila,  
Ko 'zinga manzur o 'lur asbobi fasli inqilob.*

*Suvrati aflok yanglig 'durki, ikki mayl ango  
Mehru mahdek ro 'zu shab sayronni qilmish irtikob.*

*Bor burujoso olarning manzili isno ashar,  
Manzili har biri barvaqt iladur muddat maob.*

*Vaqt bilmakni tilab boqsang onga gar har zamon,  
Mayli birla manzili sarhadidin topg 'ung javob.*

*Yoki boqmay bormoqingni andaki tahrikidin,  
Savti xush birla eshitkundur javobi bosavob.*

*Alg 'araz bu vajah ila istar oni shohu gado,  
Aylamishdur Haq oni marg 'ubi tab 'i shayxu shob.*

*Sayri raqs etmas va lek o 'z ixtiyori birla ul,  
Toki har kun bir qo 'lingdin topmoq ersa pechu tob<sup>72</sup>.*

<sup>72</sup> O'zR FAShI. 1122 raqamli qo'lyozma. 69<sup>b</sup>-sahifa.

Darhaqiqat, Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat singari Ahmad Tabibiy ham mazkur tamaddun samaralarining yurt hayotida jiddiy o‘zgarishlar yasashini kutgani shubhasiz.

Xulosa qilib aytganda, Ahmad Tabibiy biografiyasiga doir noto‘g‘ri ma‘lumotlar, yetarli asosga ega bo‘lmagan, birlamchi manbalarga tayanmagan va bir-birini takrorlovchi xulosalar Xorazm adabiy muhiti bilan bog‘liq tazkira, o‘quv adabiyotlari, yurtimiz va xorijda amalga oshirilgan tadqiqotlarda uchraydi. Ahmad Tabibiy hayoti va ijodi haqidagi ma‘lumotlar Bayoniyning “Shajarai Xorazmshohiy”, Laffasiy va Xodimlarning tazkiralari hamda shoirning devonlari debochasida, ayrim she‘rlarida, shu paytgacha ilm ahliga ma‘lum bo‘lmagan “Tavorix al-xavonin” tarixiy asarida, eronlik olim Ibrohim Xudoyorning “G‘aribahoi oshno” asarlarida mavjud. Tabibiy 5 ta she‘riy devon tartib bergan. Ulardan uchitasi – “Munisu-l-ushshoq”, “Hayratu-l-ushshoq” va “Tuhfatu-s-sulton” turkiy tilda, ikkitasi – “Mir‘otu-l-ishq”, “Mazharu-l-ishtiyoq” fors tilidadir. Ahmad Tabibiy ijodida g‘azal, murabba‘, muxammas, musaddas, musabba‘, musamman, mutassa‘, muashshar, mustazod, tarje‘band, ta‘rix, masnaviy, masnaviy-soqiynoma, masnaviy-dahrnoma, shiru shakar, fard, tuyuq, chiston, qit‘a, ruboiy, bahri tavil, qasida, munojot, varsoqi (nasihat) (barmoq vaznida yozilgan har bandi to‘rt misradan iborat she‘r) kabi janrlarda yozilgan lirik asarlar mavjud. Shoir lirik asarlari aruzning turli bahrlarida yozilgan. Tabibiy she‘r nazariyasi va texnikasini juda yaxshi bilgan. Bu hol uning devonlari tarkibiy tuzilishida, devonlar tarkibidagi lirik asarlar tahlilida yaqqol namoyon bo‘ladi. Tahlillar shoir she‘riyati aruzning *hazaj, rajaz, ramal, muzori‘, mutaqorib, munsarih, mujtass, komil, xafif* bahrlarida ijod etilganini ko‘rsatadi. Ahmad Tabibiy ijodida jamiyatdagi barcha masalalarga aloqador lirik asarlar uchraydi.

## II BOB. IJODKOR DEVONLARI QO‘LYOZMALARI GENEALOGIYASI VA MONOGRAFIK TAVSIFI

### 2.1. Shoir devonlari qo‘lyozmalari genealogiyasi

Adabiyot tarixi bilan bog‘liq har qanday ma‘lumotning aniq va mukammal bo‘lishi muayyan ijodkor biografiyasi, ijodiga doir barcha mavjud qo‘lyozmalarning qiyosiy tahliliga bog‘liq. Chunki qo‘lyozmalarning turli kotiblar tomonidan turli davrlarda ko‘chirilishi ular matnida tafovutlar ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Matndagi farqlar uni ko‘chirgan kotibning saviyasi, dunyoqarashi, u yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat kabi turli omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Qo‘lyozmalar genealogiyasini o‘rganish, shu nuqtayi nazardan, muhimdir. Matnshunos Mavjuda Hamidovanning quyidagi fikri ham buni tasdiqlaydi: “Qo‘lyozmalarning matniy tadqiqi davomida matnshunoslik ilmining muqoyasa, tahlil va ilmiy hukm kabi metodlariga asoslangan holda har bir nusxaning yaratilish tarixi va ularning o‘zaro bog‘liqligi masalasiga ham diqqatni qaratish lozim. Chunki bu hol har bir qo‘lyozmaning yaratilishi uchun asos bo‘lgan nusxani belgilash, ya’ni qo‘lyozmalar shajarasini aniqlash imkonini beradi”<sup>73</sup>.

Lug‘atda “genealogiya” istilohi quyidagicha izohlangan: “Genealogiya (yunoncha Genealogia – shajara) – yordamchi tarix fanlaridan biri (XVII-XVIII asrlarda vujudga kelgan); bilimlarning amaliy sohasi, shajaralar tuzish; urug‘ va oilalarning kelib chiqishi, ayrim shaxslar tarixi va qarindoshlik aloqalarini o‘rganadi”<sup>74</sup>. Shajara istilohi esa: shajara (arabcha – daraxt), genealogiya – kishilarning kelib chiqishi, ajdodlari va qon-qarindoshlik aloqalari majmui. Uni tarix fanining bir tarmog‘i – genealogiya fani o‘rganadi<sup>75</sup>. Bu istiloh matnshunoslikka tatbiq etilsa, muayyan asar qo‘lyozmalarining ko‘chirilish sanalariga ko‘ra tadrijini ham o‘z ichiga oladi. Bunda, tabiiyki, muallif dastxati eng ishonchli manba sanaladi. Ishonchlilik nuqtayi nazaridan keyingi o‘rinni muallif hayot paytida, uning

<sup>73</sup> Хамидова М. Алишер Навоий “Садди Искандарий” достонининг илмий-танқидий матни ва матний тадқиқи. Филология фанлари доктори диссертацияси. – Тошкент, 1994. – Б. 76.

<sup>74</sup> ЎзМЭ. 2-жилд. Г ҳарфи. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. 610.

<sup>75</sup> ЎзМЭ. 9-жилд. Ш ҳарфи. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2005. – Б. 677.



ishtirokida ko‘chirilgan qo‘lyozma egallaydi. Odatda, shu tariqa muallif davriga yaqinroq qo‘lyozmaning asllik darajasi balandroq bo‘ladi. Lekin qo‘lyozmaning mukammalligini har doim ham ushbu mezon asosida belgilab bo‘lmaydi. Buni aniqlashda manbani ko‘chirgan kotibning bilimi, so‘zni his etish darajasi, mas’uliyati singari omillar ham asos qilib olinishi zarur. Tadqiqotda Ahmad Tabibiy asarlari qo‘lyozmalarining genealogiyasini ana shu mezonlar asosida tekshirishga harakat qilindi. Zero, “har bir yodgorlik matnida turli nuqsonlarning bo‘lishi tabiiy hol, chunki matn ustida hozirgi zamonamizdagi singari o‘nlab mutaxassislar mehnat qilgan emas”<sup>76</sup>.

Hozirda matnshunoslik sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar muayyan ijodkor adabiy merosi yoki biror bir manba yuzasidan kompleks tahlil o‘tkazishni talab etmoqda. Sohaga oid bugungi olib borilayotgan ilmiy ishlar an’anaviy tadqiqotlardan tubdan farq qilmoqda. Ya’ni ushbu yo‘nalishdagi ilmiy ishlarda an’anaviy matnshunoslik erishgan ilmiy yutuqlar qatorida yangicha tadqiq usullaridan foydalanish ustuvorlik qilmoqda. Shunga ko‘ra, qo‘lyozma manbalar genealogiyasining tadrijiy tahlili sohaga doir tadqiqotlarda yuqori ilmiy natijalarga olib kelishi shubhasiz. Zero, “matn tarixi qo‘lyozma manbalar genealogiyasini tekshirishdan muallifning va hatto manbani ko‘chirgan kotibning dunyoqarashi va g‘oyasini o‘rganishgacha, asarning yuzaga kelishida muallif ijodiy niyatining ro‘yobga chiqishidan uning yaratilishiga u yoki bu darajada aloqador bo‘lgan boshqa adabiy yodgorliklar bilan o‘zaro bog‘liq jihatlarini tadqiqigacha bo‘lgan barcha jarayonlarni o‘z ichiga oladi”<sup>77</sup>. Demak, matn tarixi biror bir adabiy yodgorlikning yaratilishi uchun badiiy niyatning paydo bo‘lishidan to uning yakuniga qadar yuz bergan jarayonlarni qamrab olsa, genealogiya adabiy yodgorlikning mukammal variantini yuzaga kelishida asos bo‘lgan asarlarning tadrijiy takomili bilan bog‘liq jarayonni o‘z ichiga oladi.

---

<sup>76</sup> Хамидова М. Алишер Навоий “Садди Искандарий” достонининг илмий-танқидий матни ва матний тадқиқи. Фил. фан. док... дисс. – Тошкент, 1994. – Б.76.

<sup>77</sup> Жабборов Н. Ўзбек матншунослиги ва унда матн танқиди, илмий-танқидий матн истилоҳларининг ўрни. /Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганишнинг назарий ва манбавий асослари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2019. – Б.12.

Tabibiy ijodining dastlabki bosqichida havaskor shoir sifatida she'rlar mashq qilgan. Keyinchalik she'rlarini to'plab devonlar tartib bergan. Bu haqda shoirning o'zi "Munisu-l-ushshoq" devoni debochasida shunday yozadi: "... gohi g'azal va gohi qasida va gohi muxammas mashqin qilib dargohi olampanohg'a yetkurub iltifoti shohona va 'atiyoti xusravonadin sharafyob va izzatmaob bo'lur erdim. Kam-kam mururi ayyom va inoyoti hayyi layonom bila kimyo asar nazarig'a manzur va kaminqullar qatorida otim mazkur bo'lub amsol va aqronlarim arosida sarafroz, balki hama fozillar ichida mumtoz bo'ldum. Bas, bu asnoda kunlardin bir kun g'oyati adolat va nihoyati marhamatidin ishorati oliya va bashorati jaloliyya bu hokisori zarravor tarafig'a andoq sudur toptikim hama ash'orimni jam' qilib devon tartibin tuzgaymen va ul murattabni janobi gardunmaobg'a tuhfa va hadiya yo'sinida ko'rguzgaymen va yana hamul onda va dubora haddin ziyoda otifat bila bu nav' kalomi maymanat anjom buyurdilarkim zodai tab'ing, ya'ni bu ash'ori dilpisanding xohi qabih va yo xudmalih hama farzandi arjumanding balki tamomi jigarbandingdurlar. Bizga dog'i xonazod va bandai samimul e'tiqoddurlar. Bas alarni bu tariqa ovvora va parishon qilmoq va har kimning qo'lida pora-pora va sargardon qilmoq va muruvvatrasmidin yiroqda odamiyyat shevasidin uzoqdur. Nedinkim va andog'i hama ayon va nihoni nopoydordur. Lekin kalomi nasr va nazm har kimsadin yodgordurkim onga zamon osibi yetushmas va o'lmak savdosi oning boshig'a tushmas.

**Nazm:**

*Erur she'r farzandi shoir mudom,  
Jigar porasi balki keldi tamom.*

*Agar ul qabih o'lsun yo malih,  
Onga jumla farzandi bo'lg'ay sarih.*

*Jahon mulki chun bor emas poydor,  
Va lekin suxan bo'lg'usi yodgor.*

*Bas endi oning jam'i vojib erur,  
Mudavvan qilurg'a munosib erur.*

*Parishonlig‘i marhamatdin emas,  
Oni hechkim dog‘i yaxshi demas.*

*Har odamki ul qildi jam‘i suxan,  
Jahon bazmida yoqdi sham‘i suxan.*

*Yetushmas anga hech bodi xazon,  
Bo‘lur balki jumla alamdin omon.*

*Ajal jismini garchi barbod etar,  
Xaloyiq va lekin oni yod etar.*

*Chun bu guftori guharborni eshitdim joni hazinimg‘a nishot va zamiri anduhgining‘a inbisot yetushdi. Ammo bebizoatlig‘din sharmisor qilib istitoat jihatidin iztiror o‘ti jonu dilimga tushdi, nedinkim devon tartibin tuzmak suxan jam‘ig‘a mayl ko‘rguzmak har beilm va funun qo‘lidin kelmas. Balki har devona va majnun oni bilmas.*

***Nazm:***

*Qayu odamkim ul devona bo‘lg‘ay,  
Xiraddin borho begona bo‘lg‘ay.*

*Nechuk ul aylagay tartibi devon,  
Ki ul bor shevai xayli suxandon.*

*Suxanning jam‘i keldi asru mushkul,  
Ki oni qilg‘usi albatta oqil.*

*Ne chora aylayin men zori mahzun,  
Ki ko‘ngliga kelibdur jahli afzun.*

*Madad qilmas esa Tangri Taolo,  
Qila olurmi til bir harf insho”.*

Adabiyotshunos F.G‘anixo‘jayev shoir devonlarining tartib berilishiga doir quyidagicha ma‘lumot beradi: “*Tabibiyning butun adabiy merosi, jumladan, uning devonlari shoir umrining so‘nggi*

yillari, ya'ni 1906–1910-yillar mobaynida ko'chirilib chop etilgan. Bunga qadar Tabibiyning lirik asarlari o'sha davrda tuzilgan turli bayozlarga kiritilgan. Bulardan tashqari faqat Tabibiy g'azallarini o'z ichiga olgan alohida to'plamlar ham mavjud edi. Masalan, 1906-yilda kotib Muhammad Yoqub Devon tomonidan tuzilgan qo'lyozma to'plamda Tabibiyning 173 ta o'zbekcha va tojikcha g'azali bor. Shuningdek, 1907-yilda Muhammad Sharif Devon Tabibiyning o'zbekcha g'azallaridan yana uchta to'plam tuzgan. Ularga shoirning 480 she'ri kiritilgan. 1909-yilda esa Muhammad Yusuf Chokar shoir asarlari asosida yana **to'rtta** to'plam tuzgan. Bu to'plamlar shoirning 1190-g'azalini o'z ichiga olgan. Yana qo'limizda Tabibiyning tojik tilidagi nazmlaridan tashkil topgan ikkita to'plam bor. Ularning birida 156 g'azal, ikkinchisida esa 130 muxammas mavjud. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, Tabibiy devon tuzayotganda o'zining ana shu o'nta to'plamidagi barcha asarlardan mukammal foydalangan. Shuning uchun shoirning lirik asarlari haqida fikr yuritganda asosan uning devonlariga murojaat etmoq maqsadga muvofiqdir”<sup>78</sup>.

O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida Ahmad Tabibiy devonlari qo'lyozmalaridan tashqari, uning lirik asarlari ko'chirilgan boshqa qo'lyozma manbalar ham anchagina. Ushbu fondagi shoir asarlari ko'chirilgan boshqa manbalarni *ikki guruhga* ajratish mumkin: 1) *Tabibiy lirik asarlaridan tarkib topgan manbalar*; 2) *XIX asr oxiri XX asr boshlari Xorazm adabiy muhiti shoirlari ijod namunalari to'plangan bayoz-to'plamlar*.

**1. Tabibiy lirik asarlaridan tarkib topgan manbalar.** Hozirda biror bir ijodkorning mukammal devoni uchun asos vazifani bajargan to'plamlar “protodevon” tarzida nomlanib kelinmoqda. “Proto-” (proto) co'zi “birinchi”, “dastlabki”, “boshlang'ich” degan ma'nolarni berib, biror narsaning dastlabki, hali pishib yetilmagan, endi endi shakllanayotgan bosqichini bildiradi<sup>79</sup>. Jumladan, matnshunos A.Erkinov “Xazoyin ul-

<sup>78</sup> Ганихўжаев Ф. Аҳмад Табибий (ҳаёти ва ижоди). – Тошкент: Фан, 1978. – Б.13-15.

<sup>79</sup> Эркинов А. Алишер Навоий “Хазойин ул-маонийси” ва унинг протодевони масаласи.

“Алишер Навоий ва XXI аср”: мақолалар тўплами / масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Тошкент: Tamaddun, 2017. – Б. 22.

maoniy”ning protodevonlari haqida shunday yozadi: “Navoiyning “Ilk devon”i va “Oqquyunli muxlislar devoni”ga nisbatan protodevon atamasini qo‘llab bo‘lmaydi. Chunki ularni Navoiyning o‘zi emas, ixlosmandlar tuzgan. Masalan, “Oqquyunli muxlislar devoni”dagi deyarli barcha she‘rlar “Badoye’ ul-bidoya” tarkibiga o‘tgan bo‘lsa ham, bu devonni protodevon deb atay olmaymiz. Protodevon bo‘lishi uchun biror bir devonning dastlabki holati – ilk ko‘rinishini tuzishda boshqa odamlar, masalan, muxlislar emas, muallifning o‘zi ishtirok etishi kerak. “Badoye’ ul-bidoya” va “Navodir un-nihoya” Navoiyning 1470-1490-yillar oralig‘ida tuzilgan alohida devonlari bo‘lib, ular ichida faqat “Badoye’ ul-bidoya”ning protodevonlari haqidagina gapirish mumkin. Shunisi muhimki, bizgacha mazkur devonning hozirgacha to‘rt qo‘lyozmasi yetib kelgan bo‘lib, ularning barchasida qo‘chirilish davri ko‘rsatilgan. Ilmda “Badoye’ ul-bidoya” 1470-1480-yillar orasida ko‘chirilgan degan fikr mavjud... Ilm uchun eng ahamiyatli jihati shundaki, ularning barchasi Alisher Navoiy barhayot bo‘lgan davrda, balki, Navoiy nazorati ostida ko‘chirilgan”. Demak, protodevonning asosiy sharti muayyan ijodkor lirik merosi jamlanish jarayonida uning o‘zi ishtirok etishi, muallifning nazorati ostida to‘plam holatiga keltirilishidir. Masalaga bunday yondashuv Tabibiy adabiy merosi tadqiqida ham qo‘l keladi. O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Asosiy fondidagi **654 raqamli** qo‘lyozmada Ahmad Tabibiy lirik asarlari ko‘chirilgan. Ushbu manbada shoirning turkiy va fors tilidagi g‘azallari ko‘chirilgan. Qo‘lyozmaning 120<sup>b</sup>-sahifasigacha g‘azallar, 121<sup>a</sup> -sahifasidan tarje‘bandlar ko‘chirilgan. Birinchi tarje‘band jami 9 band bo‘lib, har bir band 14 misrani tashkil etadi. 125<sup>a</sup>-128<sup>a</sup> sahifalari orasida Tabibiy qalamiga mansub ikkinchi tarje‘band, 128<sup>a</sup> –131<sup>b</sup>-sahifalarida uchinchi tarje‘band ko‘chirilgan. Qo‘lyozmaning 132<sup>a</sup>-135<sup>a</sup> sahifalarida Tabibiyning “*Vah, netaykim havasu hirs bila zor o‘ldum, Ham tama’ xanjaridin siynasi afgor o‘ldum*” – deya boshlanuvchi, 135<sup>a</sup>–138<sup>a</sup>-sahifalarda 6 bandli, har bandi 14 misradan tarkib topgan: “*Falak qasriki, bir oliy binodur, Nazarg‘a suvrati ko‘b dilkushodur*” deb boshlanib, “*Jahon mulki erur asru baqosiz, Nechukkim, dahr zolidur vafosiz*” tarzida yakunlanuvchi beshinchi tarje‘bandi, 138<sup>a</sup>–141<sup>a</sup>-sahifalarda 47

baytli “*Masnaviyi soqiynomayi Tabibiy*”, 141<sup>a</sup>–142<sup>a</sup>-sahifalarda yana g‘azallar, so‘ng 145<sup>a</sup>-sahifagacha 48 baytli yana bir masnaviy soqiynoma, so‘ng yana ikkita g‘azal va yana bir soqiynoma, 150<sup>b</sup>-sahifadan ikkita ruboiy va bitta fard ko‘chirilgan. Ushbu qo‘lyozma matni 152<sup>a</sup> -sahifada tugaydi.

Qo‘lyozma kolofonida esa quyidagicha matn berilgan:

تمت الكتاب بعون الملك الوهاب. بهادر خان ثانی ظل السبحان خلیفه الرحمن اعنی  
محمد رحیم خلد الله ملک و سلطنه نینگ فرمان عالی لاری بیله اوشبو بیاض طبیبی نی  
الله برگان دیوان مرحمی موافق قوی ییلی ۱۳۲۵ فقیر الحقیر محمد شریف دیوان ابن  
رجب المرجب آیی نینگ یئی لانچی سی پنجشنبه کونی یازیب اتمام غه یتکوردی

Qo‘lyozmaning kolofonidan ushbu to‘plam 1325/1907-yilda tuzilgani anglashiladi. E‘tiborlisi, ushbu manbani “Hayratu-l-ushshoq”ning protodevoni deyish mumkin. Ushbu to‘plamdagi deyarli barcha she‘rlar shoirning “Hayratu-l-ushshoq” devoniga o‘zgarishsiz kiritilgan. Ushbu to‘plam shoirning nazorati ostida “Hayratu-l-ushshoq” devonidan oldin tuzilgan bo‘lib, Tabibiy “Hayratu-l-ushshoq” devonining yaratilishiga asos bo‘lgan. To‘plamda turkiy tildagi 17 ta g‘azal, 5 tarje‘band, 3 soqiynoma va bir fard mavjud bo‘lib, bu haqdagi statistik ma‘lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

### 654 raqamli qo‘lyozma

№	G‘azalning birinchi misrasi	Hajmi (bayt)	Devonlarda mavjudligi (MU/HU/TS) <sup>80</sup>
1	Ne xush bo‘lur erdi agar lutf aylabon dilbar bukun,	11	+ (HU)
2	Bazmim sorig‘a keldi ul sho‘x quyosh tal‘at bukun,	11	+ (HU)
3	To ko‘nglum ichra do‘stlar, anduhi furqatdur bukun,	11	+ (HU)
4	Tutdi sharobi lolagun ul soqiyi mavzun bukun,	11	+ (HU)
5	Bilmon nechun, ey do‘stlar, ko‘nglum parishondur bukun,	11	+ (HU)
6	Bashar xaylini aylar sohibi guftor ilmu fan,	11	+ (HU)
7	Kulbamiz ichra keldi to husn ochib nigorimiz,	9	+ (MU)

<sup>80</sup> Munisu-l-ushshoq (MU), Hayratu-l-ushshoq (HU), Tuhfatu-s-sulton (TS).

8	Bazm aro ul nozanin mani zorni hayron qilur,	9	+ (MU)
9	Tinglang, ey jonu ko'ngulkim, zulmjo' jononingiz,	9	+ (MU)
10	Majlis ichra noz og'oz aylagoch ul gul'uzor,	11	+ (MU)
11	Vahki, mango ko'rguzub ul buti ayyor noz,	7	+ (MU)
12	Kom topg'um edikim ul yori xudkomim kelur,	7	+ (MU)
13	Nuri tajalliy lam'asi xurshidi ruxsoringda bor,	11	+ (HU)
14	Ey, qudrating osoridin mavjud bo'lmish har vujud,	11	+ (HU)
15	Jamolingdur mahi tobondin a'lo,	11	+ (HU)
16	Dunyoyi dunkim aylasang taftish joyi g'am erur,	11	+ (HU)
17	Bosh uzra tushsa gar manga ishq ichra ranj behisob,	9	+ (HU)
<b>Tarje'bandlarning birinchi misrasi</b>		<b>Hajmi</b>	<b>Devonlarda mavjudligi (MU/HU/TS)</b>
1	Xumor ichra kulfat chekib beshumor,	9 band	+ (HU)
2	Ketur, soqiy, qadahkim dahr aro fasli bahor o'ldi,	7 band	+ (HU)
3	Ey yori sumanbari, gulandom,	7 band	+ (HU)
4	Vah, netaykim, havasu hirs bila zor o'ldum,	7 band	+ (HU)
5	Falak qasriga bir oliy binodur,	6 band	+ (HU)
<b>Soqiynomalarning birinchi misrasi</b>		<b>Hajmi</b>	<b>Devonlarda mavjudligi (MU/HU/TS)</b>
1	Soqiy, ketur ul qadahi xushkvor,	47 bayt	+ (HU)
2	Ketur, soqiy, hamul jomi musaffo,	48 bayt	+ (HU)
3	Ketur, soqiy, ul bodai g'amzudo,	53 bayt	+ (HU)
<b>Fard</b>		<b>Soni</b>	<b>Devonlarda mavjudligi (MU/HU/TS)</b>
1	<i>Jahondin ko'rki kimlar kom olmishdur, Bu eski dahr kimlardan qolmishdur</i>	1 ta	-

Ushbu ma'lumotlardan ayon bo'ladiki, 654 raqamli qo'lyozmadagi she'rlar keyinchalik shoirning mukammal devonlariga to'laligicha kiritilgan.

Adabiyotshunos M.Hamidova Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostoni manbalari genealogiyasini tekshirar ekan, quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: “Ma’lumki, asl nusxadan ko‘chirilgan Abdujamil nusxasi hozircha dunyo fondlaridagi barcha “Xamsa”larning ichida eng qadimiysi hisoblanadi. Keyingi izlanishlar natijasida aniqlangan Bade’uzzamon uchun ko‘chirilgan Bodleyan nusxasi ham Abdujamil nusxasiga nafaqat tarixan, balki matnan ham yaqin turgani uchun hozirda uning safiga kelib qo‘shildi. Biz ilgarigi tadqiqotlarimizda Bade’uzzamon nusxasi Abdujamil nusxasidan ko‘chirilgan bo‘lishi mumkin, degan fikrni aytgan edik. Keyingi matniy tadqiqotlar har ikki qo‘lyozmaning ham mustaqil ravishda ilk nusxadan – shoir dasxatidan ko‘chirilgan ekanini ko‘rsatmoqda”<sup>81</sup>.

Darhaqiqat, masalaga bunday yondashuv aniq tasavvur beradi. Ana shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Ahmad Tabibiy adabiy merosi tadqiqi shoir devonlari uchun asosiy manba **2033 raqamli qo‘lyozma** ekanini ko‘rsatadi. Ushbu bayoz tashqi belgilari hamda tuzilishiga ko‘ra 1122 raqamli qo‘lyozma bilan bir xil bo‘lsa-da, shoir lirik asarlari jamlangan manbalarning nisbatan qadimiysi hisoblanadi. Ushbu manba jami 96 sahifadan iborat bo‘lib, uning so‘nggi (96<sup>a</sup> sahifa)da kitobning yozilish sababi va kotib haqida batafsil ma’lumot mavjud. Qo‘lyozmani Muhammad Yaqub Devon 1324 (1906)-yil ko‘chirgan. Bu sana (1324/1906-yil) shoirning lirik asarlari endigina muxlislari tomonidan jamlana boshlaganini ko‘rsatadi. To‘plamga Tabibiyning 173 ta she’ri kiritilgan. Bu manbada ham matn bir sahifada ikki ustun qilinib, har ustunda uch baytdan, jami bir sahifada 6 bayt she’r ko‘chirilgan. Matn fabrikaning rangli qog‘oziga qora siyoh bilan nasta’liq xatida yozilgan. Sahifalar tilla va havo rang chiziqlar bilan hoshiyalangan. Sahifalarning chetlari qizil ramka bilan hoshiyalangan. Devonning boshida qizil siyoh bilan “غزليات طبيی” deb yozilgan. Har bir sahifaning yuqori markazida kotib sahifalagan raqamlar qo‘yilgan. 1<sup>b</sup>-sahifa o‘ng tomoni hoshiyasida “بیرلنجی صفحه” va 2<sup>a</sup>-sahifa chap

---

<sup>81</sup> Ҳамидова М. Алишер Навоий “Садди Искандарий” достонининг илмий-танқидий матни ва матний тадқиқи. Фил. фан. док... дисс. – Тошкент, 1994. – Б. 77.



tomoni hoshiyasida “بیرلنچی ورق” degan eslatma bor. Sahifalarda kotib paginatsiyasi (poygir) berilmagan.

Qo‘lyozma “Bayozi Tabibiy” deb kotib tomonidan nomlangan. Bayoz tarkibida forsiy va turkiy (o‘zbekcha) g‘azallar mavjud. Dastlab 30 ta forsiy g‘azal, so‘ng o‘zbekcha g‘azallar ko‘chirilgan. Forsiy she‘rlarning orasiga 14<sup>a</sup>-sahifadan 20<sup>b</sup>-sahifagacha bitta o‘zbekcha she‘r, ya‘ni Tabibiyning 79 baytli quyidagi bayti bilan boshlanadigan soqiynomasi ko‘chirilgan:

ساقی کیتور اول شراب گولفام  
کیم ایچمک ایرور آنی منگا کام

(*Soqiy, ketur ul sharobi gulfom, Kim ichmak erur oni mango kom.*)

Ushbu soqiynoma shoirning “Hayratu-l-ushshoq” devoni tarkibidagi to‘rtinchi soqiynomadir. Qo‘lyozmaning 34<sup>b</sup>-37<sup>a</sup>-sahifalarida shoirning 7 banddan iborat bir musammani ko‘chirilgan. Ushbu musammanning boshlanishi quyidagicha:

آهکیم کن ایلابان من خسته غه یار ای کونگول  
قیلدی نچه قهر بیرله میل اغیار ای کونگول

(*Ohkim, kin aylabon man xastag‘a yor, ey ko‘ngul, Qildi necha qahr birla mayli ag‘yor, ey ko‘ngul.*) Bu she‘r shoirning “Munisu-l-ushshoq” devoni tarkibidagi:

*Ohkim, kin aylabon man xastag‘a yor, ey ko‘ngul,  
Qildi necha qahr birla mayl ag‘yor, ey ko‘ngul,  
Ish manga chekmak fig‘onu nola, ozor, ey ko‘ngul,  
To tong otg‘uncha bo‘lub har kecha bedor, ey ko‘ngul,  
Bo‘lg‘ali hijron balosig‘a giriftor, ey ko‘ngul,  
Topmayin demak uchun dodimiz g‘amxor, ey ko‘ngul,  
Bo‘lmisham furqatda emdi zoru afgor, ey ko‘ngul,*

*Har nafas turluk g‘ami mehnatga duchor, ey ko‘ngul*<sup>82</sup>, – bandi bilan boshlanuvchi ilk musammandir. To‘planing 37<sup>a</sup> sahifasida 9 bandli bir murabba’ ko‘chirilgan o‘lib, u quyidagi matla’ bilan boshlanadi:

منگا قهرو غضب قیلماقغه دور هر لحظه میلینگ  
ایرور من کچه کوندوز مبتلای درد هجرانینگ

<sup>82</sup> O‘zRFA ShI. 6226 raqamli qo‘lyozma. 220<sup>b</sup>-sahifa.

(*Mango qahru g‘azab qilmoqg‘adur har lahza maydoning, Erurman kecha-kunduz mubtaloyi dardi hijroning*). “Munisu-l-ushshoq” devonida shoirning 4 ta murabba’si kiritilgan bo‘lib, ushbu murabba’larning ikkinchisi:

*Mango qahru g‘azab qilmoqg‘adur har lahza maydoning,  
Erurman kecha-kunduz mubtaloyi dardi hijroning,  
Darig‘ etmassan ag‘yor ahlidin lutfila ehsoning,*

*Qoni man birla, ey sitamgar, qilg‘on ahdu paymoning*<sup>83</sup>, - bandi bilan boshlanadi. To‘planning 38<sup>b</sup>-sahifasida 7 bandli yana bir murabba’ she’r ko‘chirilgan (“*murabba’i digar*”) bo‘lib, u quyidagi bayt bilan boshlanadi:

بولوب هيجران ارا تون كون فغان چيكمك بيله كاريم  
توكردين تينمس ايردى ياش زمانى چشم خونباريم

(*Bo‘lub hijron aro tun-kun fig‘on chekmak bila korim, To‘kardin tinmas erdi yosh zamone chashmi xunborim*).

Ushbu she’r “Munisu-l-ushshoq” devonidagi:

*Bo‘lub hijron aro tun-kun fig‘on chekmak bila korim,  
To‘kardin tinmay erdi yosh zamone chashmi xunborim,  
Bihamdillahkim, nogoh eshitib nolavu zorim,*

*Bu oqshom kulbam ichra keldi ul yori vafodorim*<sup>84</sup>, – bandi bilan boshlanuvchi uchinchi murabba’dir. To‘planning 42<sup>b</sup>-44<sup>a</sup>-sahifalarda 11 bandli yana bir murabba’ ko‘chirilgan, bo‘lib u quyidagicha boshlanadi:

چيكيب جورينگ كونگول آتليغ الا خان الامانيم

فيراقينگده يانر هر لهظه حسرت اوتغيغه جانيم

Bu she’r devondagi to‘rtinchi murabba’ bo‘lib, u quyidagi band bilan boshlanadi:

*Chekib javring ko‘ngul otlig‘ aloxon-al-omonim,  
Firoqingda yonar har lahza hasrat o‘tig‘a jonim,  
Zamirimda sango ma‘lumdur paydovu nihonim,  
Anisim, munisim, yorim, muhabbatpesha jononim.*

<sup>83</sup> O‘zRFA ShI. 6226 raqamli qo‘lyozma. 172<sup>b</sup> -sahifa.

<sup>84</sup> O‘zRFA ShI. 6226 raqamli qo‘lyozma. 173<sup>b</sup> -sahifa.

Ta'kidlanganidek, mazkur qo'lyozma tarkibiga bir musaddas she'r ham kiritilgan. Qo'lyozmaning 52<sup>b</sup>-54<sup>a</sup>-sahifalarida 7 bandli ushbu musaddasning boshlanishi quyidagicha:

زارو رسوایی جهان ایتکالی جانانه منی

درد رنج ایله قیلیب همدم همخانه منی

(“*Zoru rasvoyi jahon etgali jonona mani, Dardu ranj ila qilib hamdamu hamxona mani*”). Ushbu musaddas ham shoirning “Munisu-l-ushshoq” devonida mavjud.

*Zoru rasvoyi jahon etgali jonona mani,  
Dardu ranj ila qilib hamdamu hamxona mani,  
O'rtanur holima ko'rgan chog'i parvona mani,  
Qildi bir jilva bila ishqida devona mani,  
Tong emas xalq agar aylasa afsona mani,  
Kim xiraddin g'ami ishq ayladi begona mani*<sup>85</sup>.

Ushbu qo'lyozmada asosiy matn quyidagicha yakunlangan:

ای طبیبی نظم فیکرین ایلاگیل جان باریچه

(*Ey Tabibiy, nazm fikrin aylagil jon boricha, Toki topg'ung shoh altofini bu san'at aro*). To'plamdagi g'azallar ham shoirning “Munisu-l-ushshoq” devoniga kiritilgan.

Demak, 2033 raqamli mazkur ko'chirilish davri nisbatan qadimiyligi bilan muhim hisoblanadi. Ushbu qo'lyozmadagi she'rlar keyinchalik shoirning ikkala turkiy devoni – “Munisu-l-ushshoq” va “Hayratu-l-ushshoq”ga ham mavzusiga ko'ra ajratilib kiritilgan. Shunga ko'ra ushbu manbani “Munisu-l-ushshoq” va “Hayratu-l-ushshoq”ning protodevonlari deyish mumkin.

**1122 raqamli qo'lyozma.** Ushbu manbada ham faqat Tabibiy lirik asarlari jamlangan. Qo'lyozma muqovasida uchta naqshli tamg'a bosilgan. O'rta katta tamg'ada “*Yo qozi ul-hojot 1309*” degan yozuv bor. Matn Qo'qon qog'oziga ko'chirilgan bo'lib, uning hajmi 156 (1<sup>b</sup>-156<sup>a</sup>) sahifani tashkil etadi.

Qo'lyozma “Bismillohir-Rahmonir-Rahim” bilan boshlanadi.

*Qo'lyozmaning boshi:*

<sup>85</sup> O'zRFA ShI. 6226 raqamli qo'lyozma. 21<sup>6</sup>-sahifa.

ترک ایله نازینگ بیر نفس ایلب کرم ای سروناز  
حدّین آشدی عشق ایلی جانی ارا سوز گداز

*Oxiri:*

قیلدی طیبیی زاردیک من خسته دلنی کامیاب  
یوز شوکرکیم اوشبو کیچه بزمیم ارا جانان کیلیب

**Qo‘lyozma kolofoni:**

الحمد لله و المنه اوشبو بیاض کیم با امر سلطان الزمان و نادر دوران الخاقان ابن الخاقان  
باعث الامن و الامان سلیمان نیشان اعنی ابو المظفر والمنصور ابولغازی سید محمد  
رحیم بهادر خان دام ملکه اول جنابنی فرمان عالیلری بیرله فقیر الحقییر محمد یوسف  
ابنی محمد یعقوب دیوان ملقبر بخرات یازیب  
اتماغه یتکوردی. سنه ۱۳۲۷

Ushbu qo‘lyozma shoir adabiy merosi jamlangan boshqa manbalardan jiddiy farq qiladi. Sababi ushbu manbadagi lirik asarlar shoirning mavjud ikkita turkiy tildagi devonida uchramaydi. Ushbu qo‘lyozmadagi lirik asarlar katta ehtimol bilan shoirning uchinchi turkiy devoni – “Tuhfatu-s-sulton”ning asosiy she’rlaridir. Shunga ko‘ra, bu manbani protodevon emas, shoirning terma devoni sifatida nomlash to‘g‘riroq bo‘ladi. Kotib ham bu to‘plamni ( دیوان منتخب ) طیبیی deb nomlagan. Chunki ushbu qo‘lyozmadagi she’rlar tuzilishi, hajmi va janrlariga ko‘ra o‘rtacha bitta devon uchun yetarli hisoblanadi. Ta’kidlanganidek, ushbu manbada shoirning 399 ta lirik asarlari jamlangan bo‘lib, g‘azallar orasidan bittasi (“*Fayzu latofat dahr aro to oshkor etdi bahor, Sahnini har gulzorning jannatshior etdi bahor*” matla’li) shoirning “Munisu-l-ushshoq” devonida takrorlanadi. Bu to‘plamdagi lirik asarlar bilan bog‘liq statistik ma’lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

### 1122 raqamli qo‘lyozma

№	G‘azallarning birinchi misrasi	Hajmi (bayt)	Devonlarda mavjudligi (MU/HU/TS)
1	Tark ayla nozing bir nafas aylab karam, ey sarvinoz	9	+ (TS)
2	Gar noz ila ochsang uzor, ey gul‘uzor, ey gul‘uzor	9	+ (TS)
3	Garchi fazl ahli demishlar bordur shahvor so‘z	9	+ (TS)
4	Ishq ichra, ey jonu ko‘ngil, ko‘bdur fig‘onu ohingiz	9	+ (TS)

5	Sensan nigori dilfirib, ey gul'uzor, ey gul'uzor	9	+ (TS)
6	Qish ketib mulki jahong'a nozil o'ldi to bahor	13	-
7	Mehri jamolin ko'rmasam xurshidi anvardin ne haz	7	+ (TS)
8	To sango bordur nechukkim gavhari shahvor lafz	7	-
9	Tobakay qilg'umdurur jurmu zalolat yo Hafiz	15	+ (TS)
10	Qildim ondoq qissai ranji g'ami furqatni hifz	7	-
11	Agar chandiki aylar va'zlar behad ado voiz	9	+ (TS)
12	Agarchi ishq eliga borurur mehru vafo malhuz	9	+ (TS)
13	Vaslidin garchi hamisha topg'usi ag'yor haz	7	+ (TS)
14	Saning kibi yo'q erur xush navo hofiz	7	+ (TS)
15	Nechuk bergusi jomi paymona haz	11	+ (TS)
16	Visoling birla qilg'il ishq elin, ey mehribon, mahzuz	7	+ (TS)
17	Qachonki qilsa ayon ul pariliqo alfoz	9	+ (TS)
18	Agar istar esang o'zni g'amu olomdin mahfuz	7	+ (TS)
19	Odatimdur jurmu isyon yo Hafiz	9	+ (TS)
20	Sham'i husnidin topar, ey do'stlar, parvona haz	7	+ (TS)
21	Mango gar bermasa ul dilrabo haz	11	+ (TS)
22	Garchi nigor qilg'usi javru jafoni hifz	7	-
23	Toki zo hid ayladi majlis aro izhor va'z	7	-
24	Vafo rasmini aslo tutmag'ay ahli jahon malhuz	7	-
25	Birovkim qilmamish to o'zni vasli yordin mahzuz	7	-
26	Labi hijronida bermas mango shahd ila shakar haz	9	-
27	Mango pandu nasihat birla g'am yetkurma, ey voiz	7	-
28	Noz aylasa yeturgusi ul gul'uzor haz	7	-
29	Gar ayon qilsang dame, ey sarvi gulruksor, lafz	7	-
30	Visoli birla qilsa yor mahzuz	9	-

31	Fayzu latofat dahr aro to oshkor etdi bahor	13	+ (MU)
32	Ul sho‘x nozanin qilur asru jafo mango	7	-
33	Har kimga yori qilsa jafolar ayon onga	7	-
34	Ushbu kecha kelibon bazmim aro, ey mutrib	11	-
35	Qadingg‘a gulshan sahnida sarvi xiromon bandadur	11	-
36	Parivashlar bo‘lur sadqa ko‘rub, jono, uzoringni	9	-
37	Mehri ruxsoringki husn avjida kelmish oftob	13	-
38	Yuzing shavqi olib mandin, ey nigor	13	-
39	Dunyoki hullai hilqat aro bebaqodurur	9	-
40	Chunki erur ishq ishi odat mango	13	-
41	Bu kecha bazmimga kel, ey dilbari oliyjanob	11	-
42	Har kimga ishq ila kechar subhu maso avqot ongo	9	-
43	Yo Rab, qilib jahonda man purxato xato	9	-
44	Bizga hamisha yor erur ishqg‘a inqiyodimiz	7	+ (TS)
45	Mandek olamda esa kimki giriftori havas	9	+ (TS)
46	Mango ishqida ul oyning g‘ami ranj hosil o‘lmish	9	+ (TS)
47	Ochib bu kecha kel, ey moh, ruxsor	17	+ (TS)
48	Qachon nozu ado birla hamul oy aylasa javlon	9	+ (TS)
49	Vahki, andog‘ soldi olam mulkig‘a tug‘yon shayx	9	-
50	Bukim ko‘ngil afg‘on chekar ishq ichra ul bemormu	11	+ (TS), + (HU)
51	Har kishiningki sabri komildur	11	+ (TS)
52	Ulki doim man kibi ishq ichra sargardon erur	9	+ (TS)
53	Oningdek bo‘lmisham ishqing aro devona, ey dilbar	11	+ (TS)
54	Magar bir sho‘xning ishqig‘a g‘amida bag‘ri qon bulbul	11	+ (TS)
55	Kelgil jamolingni ochib bazmimg‘a bu tun, ey sanam	9	+ (TS)
56	To bordurur ul sho‘xni ishqida sargardonlig‘im	11	+ (TS)
57	Muncha qilma javrlar, ey durri nob	11	-

58	Fig'onki vasling ila bo'lmadim dilshod	7	-
59	Birovkim harisni qaydig'a o'zni muftalo qilmish	7	+ (TS)
60	Xirom etgoch ul gul'uzorim mening	11	+ (TS)
61	Kel, ey dilbar, jamolingni ochib kulbamga mastona	7	+ (TS)
62	Ketur, soqiy sharobi arg'uvoniy	13	-
63	Falak bedodi birla ko'ngli mahzundurman, ey soqiy	7	-
64	Tushdi to boshing'a anduhi firoq	11	+ (TS)
65	Bo'lg'usi har yerda ham mazmumu badkirdorlar	9	+ (TS)
66	Ochsang yuzingni, ey sanam, ushshoqi hayron o'rtanur	11	+ (TS)
67	Kelmadi bazmim aro yorim hanuz	11	+ (TS)
68	Erurman yo'lingda mudom ashkposh	11	+ (TS)
69	Gar kelsa kulbamiz aro ul gul'uzorimiz	7	+ (TS)
70	Toki hajring ichra bo'lg'um doimo ozorlig'	7	+ (TS)
71	Vahki, sirri ishqim elga oshkor o'ldi bukun	7	+ (TS)
72	Mango, ey pari, ko'b azob aylading	15	+ (TS)
73	Tong ermas javri gardundin agar qilsam fig'on har dam	11	+ (TS)
74	Qadding niholiki ul sarvi gulshani to'bondur	11	-
75	Har necha bo'lsang, ey ko'ngul, hijron aro mehnat bila	11	+ (TS)
76	Husnin ochib kelsa edi bazmimga gar ul dilrabo	7	-
77	Ko'ngulni gar bir oyni ishqida devona bo'ldi tut	7	-
78	Mango bor erur kuying, ey mehribon	12	+ (TS)
79	Erur rasvolig'img'a kasrati ohu fig'onlar bois	7	+ (TS)
80	Bu tun bazmimg'a kel, ey mohtobon	11	+ (TS)
81	Ohkim, ul nozanin bir lutf izhor etmadi	7	-
82	Ey sanam, ne hosil etgung jonima ozor etib	11	-
83	Shomi hijroningda erur holim xarob	11	-
84	Ko'ngulki keldi jahon mulkida xizonai umid	7	+ (TS)
85	Hamul odamg'akim sabr tavakkul birla odatdur	7	+ (TS)

86	G'am bo'lsa ne tong ziyodat emdi	12	-
87	Ne uchun, ey mahvashi, oliyjanob	11	-
88	Toki mango javr ayon aylading	11	+ (TS)
89	Ketur, soqiy payo-pay jomi gulgun	11	+ (TS)
90	Bila olmonki kulbamga bu kun dildor kelgaymu	7	+ (TS)
91	Ey pari, man xastani ishqing aro devona bil	7	+ (TS)
92	Toki san ag'yorg'a, ey sho'x, qilding iltifot	9	-
93	Ul pari doim mani furqatda sargardon qilib	11	-
94	Ey ko'ngul, avval o'zing mahfuz bir ma'voda tut	11	+(TS)
95	Ulkim birov g'amida hazinu nazor emas	11	+ (TS)
96	Ey ko'ngul, hijron tuni chekkon anolarni unut	11	+(TS)
97	Xo'blarg'a qilmoq o'zni erur oshno abas	9	+ (TS)
98	Faqr ko'yi sokinida yo'q jahong'a ehtiyoj	8	+(TS)
99	Kelur ersa gar qilibon karam bu maqomimizg'a nigorimiz	7	+ (TS)
100	Ey, labingdur obi hayvondek laziz	10	+ (TS)
101	To sango, ey nozanin, xurshid yanglig'dur jamol	17	+ (TS)
102	Qadding to gulshan ichra nozlar birla xiromondur	7	+ (TS)
103	Boshg'a solg'usi savdoi ishq mohtobonlar	9	+ (TS)
104	Birovkim bir parining husnig'a maftunu hayrondur	7	+ (TS)
105	Menki hamul sho'xning oshiqi afgoriman	7	+ (TS)
106	Dunyoki erur asli xilqatda oni foni	7	-
107	Ko'zum ishqingdadur xunbor, ey sho'x	13	+ (TS)
108	Ishq yukini chekkusi yaksar notavonimiz	9	+ (TS)
109	Kel, ey sanam, bazmim aro ohista-ohista bukun	7	+ (TS)
110	Qachonkim kulbam ichra kelsa yor ohista-ohista	7	+ (TS)
111	Ey, labing shahdida bor xosiyati "yuhyil-izom"	17	+ (TS)
112	Qilib majlisda bir nag'ma bu tun bunyod, ey mutrib	7	-
113	Ulkim o'zini qilg'usi jo'yon ma'rifat	9	+(TS)
114	Ey ko'ngil, davronning ahlidin tama'kor o'lmag'il	7	+ (TS)



115	Muyassar qilsa erdi vaslini ul mohtobonim	9	+ (TS)
116	Ul kishiningki tama' ro'zu shab atvori erur	7	+ (TS)
117	Xo'blar husnin har lahza shaydodur ko'ngul	13	+ (TS)
118	Nasib o'ldi to ranji furqat mango	11	-
119	Orazingdur mehri anvar, ey habib	17	-
120	Bo'ldim ishq ichra parishon, ey rafiq	15	+ (TS)
121	Garchi berur mehnatu hijroning azob	11	-
122	Ko'ngilkim, hushdin begona bo'lmish	9	+ (TS)
123	Mango man' dayrida bo'lsa orom	11	+ (TS)
124	Shomi hijronda tong ermas yig'lar ersam zor-zor	7	-
125	Ketur, soqiy ul rohi oyina fom	9	+ (TS)
126	Bihamdillah, keldi jahon aro ramazon	13	+ (TS)
127	Holima qilg'il nazar, ey sarvinoz	11	+ (TS)
128	Bir zamon tark aylabon bedod	9	+ (TS)
129	Ey orazi lola, qaddi shamshod	11	+ (TS)
130	Vahki, bir tun bo'lmadim hamroz dildorim bila	7	+ (TS)
131	Yuz shukrkim, ushbu kecha bazmim aro jonon kelib	11	-
<b>Murabba'larning birinchi misrasi</b>		<b>Hajmi</b>	<b>Devonlarda mavjudligi (MU/HU/TS)</b>
1	Chaman sayrig'a kel shod etgali ushshoqi zoringni	9 band	-
<b>Qasidalarining birinchi misrasi</b>		<b>Hajmi</b>	<b>Devonlarda mavjudligi (MU/HU/TS)</b>
1	Uchunchi yorikim derlar oni Usmon bin Affon	35 bayt	+ (TS)
2	Yori chorukim Aliyul Murtazo Duldulsuvor	38 bayt	+ (TS)
3	Ul ikki komil shahidniki bordur bosafu	37 bayt	+ (TS)
4	Bihamdillahkim, sun'i Parvardigor	64 bayt	+ (TS)
5	Shukrkim, lutf aylabon Mannon	44 bayt	+ (TS)
6	Hamdi behad bo'lsun ul xalloqi olamg'a sazo	61 bayt	+ (TS)
7	Zamirim ichra shavqingni padidor aylagil,	30	+ (TS)

	yo Rab	bayt	
8	Iliq salom ila salovot o'lg'usi Onga	33 bayt	+ (TS)
9	Yori avvalkim, Abu Bakri sadoqat iqtiron	30 bayt	+ (TS)
10	Yori ikkinchikim, edi Foruqi nomdor	42 bayt	+ (TS)
<b>Musammanlarning birinchi misrasi</b>		<b>Hajmi</b>	<b>Devonlarda mavjudligi (MU/HU/TS)</b>
1	Ta'jil qayu insonga bo'lsa atvor	7 band	+ (TS)
2	Karam qilmayin hech laylu nahor	7 band	+ (TS)
3	Kimki nishot qilg'oli ichgusi dambadam sharob	7 band	+ (TS)
4	To itob og'oz qildi yori jononim mening	7 band	+ (TS)
<b>Musaddaslarning birinchi misrasi</b>		<b>Hajmi</b>	<b>Devonlarda mavjudligi (MU/HU/TS)</b>
1	Ishq uyin binoi sun'i anduh ila ta'mir etar	7 band	+ (TS)
2	Jonim etdilar shaydo qomati xiromonlar	7 band	+ (TS)
3	Hama sha'y bo'lg'usi oxir fano	11 band	+ (TS)
4	Demonki holi mani zoru benavog'a boqsang	9 band	+ (TS)
5	Volavu xasta dil oshiq ruxsoringman	7 band	+ (TS)
6	Ul parizodi sanam husni liqosini ko'runq	7 band	+ (TS)
7	Kajlik ila charx kajravdur izho ayladi	7 band	+ (TS)
8	Dahr bog'iki gulig'a ko'b erur obu tob	7 band	+ (TS)
9	Bir nazar ko'rgali ul sho'x malaksiymoni	7 band	-
<b>Masnaviyning birinchi misrasi</b>		<b>Hajmi</b>	<b>Devonlarda mavjudligi (MU/HU/TS)</b>
1	Jahon bir gulistoni dilkushodur	98 bayt	+ (TS)
2	Ketur, soqiy ul bodai la'lfom	39 bayt	+ (TS)
3	Olamki erur ajab guliston	89 bayt	+ (TS)
4	Hamd ongakim, Qodiri donodurur	70 bayt	+ (TS)
<b>Dahrnomaning birinchi misrasi</b>		<b>Hajmi</b>	<b>Devonlarda mavjudligi</b>

			<b>(MU/HU/TS)</b>
1	Dahrkim bir ajab gulistondur	104 bayt	+ (TS)
2	Dahrki bir guliston erur	103	+ (TS)
3	Jahonkim erur turfa bir guliston	101	+ (TS)
<b>Munojotlarning birinchi misrasi</b>		<b>Hajmi</b>	<b>Devonlarda mavjudligi (MU/HU/TS)</b>
1	Iloho, jurmu jo‘yon bandadurman	25 bayt	+ (TS)
2	Yo Rab, madad et, man gadog‘a	20 bayt	+ (TS)
3	Xoliqo, odatim erur isyon	26 bayt	+ (TS)
4	Yo Rab, ishim qoldi suubat aro	30 bayt	+ (TS)
5	Xudoyo, maosiy erur varzishim	26 bayt	+ (TS)
<b>Chistonlarning birinchi misrasi</b>		<b>Hajmi</b>	<b>Devonlarda mavjudligi (MU/HU/TS)</b>
1	Ul na shakli xubkim, tasviri kelmish mustadir	9 bayt	+ (TS)
2	Ul na qushdurkim, boshi sakson, qanoti o‘n bo‘lib	5 bayt	+ (TS)
3	Ul na dilbarkim, qaddi mavzun bo‘lub	9 bayt	+ (TS)
<b>Tuyuqlarning birinchi misrasi</b>			<b>Devonlarda mavjudligi (MU/HU/TS)</b>
1	Kelsa, ey jon, ko‘ngul gar yoringiz		+ (TS)
2	To libosi ofiyatdin orimiz		+ (TS)
3	Siz bila majlisda ichduk to qimiz		+ (TS)
4	Ey g‘ami hijron ich ila toshima		+ (TS)
<b>Qit‘alarning birinchi misrasi</b>		<b>Hajmi</b>	<b>Devonlarda mavjudligi (MU/HU/TS)</b>
1	Har kimsanikim dahr aro bo‘lmish tavakkul odati	3 bayt	+ (TS)
2	Har odam(kim) o‘zini bilgusi olimu himmatlig‘	3 bayt	+ (TS)
3	Ey birodar, jahd aylab aylagil tarki tama‘	2 bayt	+ (TS)

4	Ulki ahli jahon aro tunu kun	5 bayt	+ (TS)
5	Bazmima kel, chehra ochib, ey nigor	3 bayt	+ (TS)
6	Kel, ey soqiy, olib yuzingdin niqob	2 bayt	+ (TS)
7	Qilur bo'lsang agar g'amdin raholig'	2 bayt	+ (TS)
8	Ul kishikim ilmu fan tahsilig'a	3 bayt	+ (TS)
9	Qaysi odamdaki ko'b bo'lsa agar tuli amal	3 bayt	+ (TS)
10	Gardunki oning baqosi yo'qdur	5 bayt	+ (TS)
11	Soqiyo, bodai gulfom ketur	3 bayt	+ (TS)
12	Har kishiniki bor esa olam aro xasosati	3 bayt	+ (TS)
13	Vahki, bag'rim har nafas yuz javr ila	3 bayt	+ (TS)
14	Kimni-kim zotida badlikdin asar bor esa	3 bayt	+ (TS)
15	Kimki bug'z ila hasadni o'ziga qildi shior	3 bayt	+ (TS)
16	Moyili ishq o'lsa har kim dahr aro	3 bayt	+ (TS)
<b>Fardlarning birinchi misrasi</b>			<b>Devonlarda mavjudligi (MU/HU/TS)</b>
1	Qomating to tuz kelibdur shakli zebolig' aro		+ (TS)
2	Donishi taqvog'a takya aylamak joiz emas		+ (TS)
3	Dahri dundin istama hargiz vafo		+ (TS)
4	Kamingahg'a urush hangomi olmoq o'zni		+ (TS)
5	Kim tamosho qilg'ali asru noz		+ (TS)
6	Bo'lsa har odam saxiy hech ish onga dushvor emas		+ (TS)
7	Ko'ngul ozodlig' rasmin tutub ayla tama' tarkin		+ (TS)
8	Ey ko'ngul, shukr ayla doim odating		+ (TS)
9	Nechaki zulm ayon etsalar sango juhalo		+ (TS)
10	Nodon azobu zulmini dahr ichra bil ulug'		+ (TS)
11	Zamon ahlin ziyon ahli desam, tong yo'q jahon ichra		+ (TS)
12	Garchi zamona ahli ziyon ahlidur vale		+ (TS)
13	Na ziyon bordur zamondin, na zarar aflokdin		+ (TS)
14	Siflaparvar bo'lmasa garduni gardon, ey ko'ngul		+ (TS)
15	Ko'nglingda ne bor ersa tilinga kirgay		+ (TS)
<b>Ruboiylarning birinchisi</b>			<b>Devonlarda mavjudligi (MU/HU/TS)</b>
1	Behaddi hisob hamdlar bo'lsun ongo, Kim qildi ikki harf bila arzu samo, Hayvonu nabototu jamodu inson, Ham do'zaxi asfal bila firdavsi alo		+ (TS)
<b>Oxirgisi</b>			
192	Yuz shukrki, ushbu kecha jonon keldi, Man sori qilib qadin xiromon keldi,		+ (TS)

Ahvoli Tabibiyni so‘rub shafqat ila, La‘lidin yetib bo‘salar ehson keldi.		
--	--	--

She‘rlarning asosiy qismi “Tuhfatu-s-sulton” devoni uchun asos bo‘lgan bo‘lsa, ularning ayrimlari shoirning hech qaysi devonida mavjud emas. Bu hol shoirning kelgusida ham she‘riy devon tartib bermoqchi bo‘lganini ko‘rsatadi.

Qo‘lyozmadagi munojot, masnaviy, masnaviy dahrnoma, tuyuq, fard, chistonlar ham foniyl duniyoning bevafoqligi, molu duniyoga hirs qo‘yishdan naf yo‘qligi, tama‘girlikning qoralanishi, inson doimo insonlarga yaxshilik qilishi kabi falsafiy xarakterdadir. Bu hol shoirning mazkur qo‘lyozma tarkibidagi lirik asarlari uning umri oxirida yozilganidan dalolat beradi. Tabibiy garchi ancha yosh (42-45 yoshda) vafot etgan bo‘lsa-da, shoir lirik asarlari tahlili ularning katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan keksa ijodkor qalamiga mansub degan tasavvur uyg‘otadi. Ushbu mulohazalardan garchi shoirning o‘zi “*avvalg‘i devong‘akim sultoni oliyjoh janobi mu‘allo al qobig‘a hadyalig‘ sababidin “Tuhfatu-s-sulton” deb tasmiya qilindi*<sup>86</sup>” desa-da, “Tuhfatu-s-sulton” shoirning so‘nggi, ya‘ni 3 turkiy devoni bo‘lishi mumkin, degan xulosa kelib chiqadi. Buni adabiyotshunos F.G‘anixo‘jayevning quyidagi fikrlari ham tasdiqlaydi: “Tuhfat us-sulton”ning so‘z borayotgan yagona nusxasi **1328 (1910)** - yilda kotib Muhammad Yoqub Devon ibn Usta Qurbonniyoz Xorazmiy tomonidan ko‘chirilgan”<sup>87</sup>. 1122 raqamli qo‘lyozma esa aynan shoirning “Tuhfatu-s-sulton” devoni uchun asos bo‘lgan.

**1123 raqamli qo‘lyozma.** Ushbu manbaning tashqi belgilari, ko‘rinishi, shakliy tuzilishi 1122 raqamli qo‘lyozmaga juda o‘xshash bo‘lib, taxminan uning mantiqiy davomi hisoblanadi. Yuqorida ta‘kidlanganidek, ushbu qo‘lyozmada shoirning faqat g‘azallari ko‘chirilgan. Mazkur qo‘lyozmada 365 ta g‘azalga raqam qo‘yilgan bo‘lsa-da, ammo 362 ta g‘azal kiritilgan. To‘plamga faqat g‘azallar jamlangani e‘tiboridan, uni “Tuhfatu-s-sulton”ning protodevoni sifatida ko‘rsatish mumkin. Qo‘lyozma hajmi 156 sahifa bo‘lib, 156<sup>a</sup> sahifada kitobni yozilish sababi va kotib haqida

<sup>86</sup> O‘zRFASHI. 6226 raqamli qo‘lyozma. 9<sup>b</sup>-sahifa.

<sup>87</sup> Ганихўжаев Ф. Ахмад Табибий (хаёти ва ижоди). – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 13-15.

ma'lumot bor. 1327 (1909) - yilda ko'chirilgan. Bu manbada ham bir sahifada ikki ustunda 5 baytdan, jami bir sahifada 10 bayt she'r ko'chirilgan. Sahifalar hajmi o'lchami 35.5x15 sm.

Boshi:

بزمیمگه کیل آچیب عذار ایگولبدن ایگولبدن  
کیم هجرینگ ایتدی بیقرار ایگولبدن ایگولبدن

(*Bazming'a kel ochib ruxsor, ey gulbadan, ey gulbadan, Kim hajring etdi beqaror, ey gulbadan, ey gulbadan*).

Oxiri:

ای طبیبی همه شدتغه  
جز توکل داغی درمان اولمس

(*Ey Tabibiy, hama shiddatg'a, Juz tavakkul dog'i darmon o'lmas*).

**Kolofon esa quyidagicha:** “*Alhamdulillah val-minna ushbu bayozkim ba amri sultonu-z-zamon va nodiri davron al-xoqon ibni al-xoqon boisi al-amni val-amon Sulaymon nishon a'ni Abulmuzaffar va-l-Mansur Abulg'oziy Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon doma mulkuhu ul janobni farmoni oliylari birla faqirul-haqir mullo Muhammad Yusuf ibni Muhammad Ya'qub Devon mulaqqab bi Xarrot yozib itmomg'a yetkurdi. Sana 1327*”. Demak, ushbu qo'lyozma ham shoirning “Tuhfatu-s-sulton” devoni uchun asos bo'lgan manbalardan biridir.

**1148 raqamli qo'lyozma.** Ro'yxat g'azallar va murabba'lardan tarkib topgan. Qo'lyozmaning tashqi belgilari, tuzilishi 1122 raqamli manba bilan deyarli bir xil. Bunda ham muqovalar ustida an'anaviy 3 ta o'yma naqsh solingan. O'rtadagi katta naqsh ichida “*Yo qoziyul hojot. 1309*” degan yozuv bor. Qo'lyozma jami 156 sahifani tashkil etadi. 156<sup>a</sup> sahifada kitobning yozilish sababi va kotib haqida ma'lumot bor. Bu qo'lyozmaning kotibi Muhammad Ya'qub Devondir. Uni 1327 (1909) - yilda ko'chirgan. Ushbu manbada Tabibiyning 346 ta g'azali, 6 ta murabba'si mavjud. G'azallarni raqamlashda kotib xatolarga yo'l qo'ygan. Matn har sahifaga ikki ustunda 5 baytdan jami 10 bayt qiya qilib ko'chirilgan.

Matn quyidagi bayt bilan boshlanadi:

يوق سن كيبي عالم ارا مهوش گوزل مهوش گوزل  
بو وجه ايله ديرلر سنگا مهوش گوزل مهوش گوزل

Matnning oxiri esa quyidagicha:

دايم طبيبي بنده ليک آيينی ايچره صدق ايله  
ظاهر خدا درگاهيغه قيل هر نفس عجز نياز

Qo'lyozma kolofoni quyidagicha:

*“Alhamdulillah val minna ushbu kitob bayozkim bo amri sultonu-z-zamon va nodiri davron al-hoqon ibni al-hoqon zilli subhon xalifatu-r-Rahmon bois al-amnu val-a'mon Hotamnishon adolatgustar va mehrparvar Skandari soniy jahongir a'ni Abulmuzaffar val-Mansur Abulg'oziy Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon doma mulkuhu va shavkatuhuning farmoni oliylari bila faqiru-l-haqir xoksor Mullo Muhammad Yusuf al-mutaxallis bil Chokar ibni Muhammad Ya'qub Devon mulaqqab ba Xarrot yozib itmom sarhadig'a yetkurdi. 1328nchi sana”.*

Ushbu manbada shoirning jami 5934 misra g'azali, 224 misra murabba'si, jami 6158 misra lirik asari jamlangan bo'lib, ushbu she'rlar ham “Munisu-l-ushshoq” va “Hayratu-l-ushshoq” devonlarida mavjud emas. Ushbu manba 1122 va 1123 raqamli qo'lyozmalarning mantiqiy davomi bo'lib, bunda ham taxminan “Tuhfatu-s-sulton” devoni uchun asos bo'lgan lirik asarlar jamlangan. Shu jihatdan bu manbani ham “Tuhfatu-s-sulton”ning protodevoni sifatida ko'rsatish mumkin.

**6949 raqamli qo'lyozma.** Ushbu qo'lyozma faqat g'azallardan tarkib topgan bo'lib, uning umumiy hajmi 136 sahifani tashkil etadi.

Qo'lyozma tarkibida asosan Tabibiy she'rlari ko'chirilgan bo'lsa-da, 129<sup>b</sup>-130<sup>a</sup>, 130<sup>b</sup>-133<sup>b</sup>-sahifalar orasida Sodiqiyning oltita, 135<sup>a</sup>-136<sup>b</sup>-sahifalarda Xodimning bir g'azali qo'shib ko'chirilgan. Bayozning kirish qismida “Bayozi Tabibiy” va “G'azaliyoti Tabibiy” degan qayd mavjud.

To'plamda jami 187 ta g'azal mavjud bo'lib, shundan 180 tasi Tabibiya tegishlidir. Qo'lyozma kotibi – Mulla Muhammad Sharif

bin Muhammad Yoqub Devon (ملا محمد شريف بن محمد يعقوب ديوان) (Mulaqqabi ba Xarrot). Ko‘chirish sanasi: 1327/1909. Kitob o‘lchami 18x11,5.

Kolofon quyidagicha:

الحمد لله والمينه بو كيتاب بياضكيم با امر سلطان الزمان و نادر دوران نينگ امر  
عالی لری بيرله

فقير الحقير مولا محمد يوسف ابن محمد يقوب ديوان ملقب بخرات بير مينگ اوچيوز  
بيگيرمه يتيلنجى

بيلى اتمامه يتكوردى . 1327سنه .

Tekshirishlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu bayoz tarkibidagi g‘azallar ham shoirning mavjud ikki turkiy devoni – “Munisu-l-ushshoq”da ham “Hayratu-l-ushshoq”da ham uchramaydi. Bundan, ushbu bayoz shoirning uchinchi turkiy devoni – “Tuhfatu-s-sulton”ning protodevoni bo‘lganini ko‘rsatadi.

Manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Asosiy fondidagi **1122**, **1123**, **1148**, **6949** raqamli manbalar “Tuhfatu-s-sulton” devonining asosiy manbalari ekanini ko‘rsatadi.

“Ichan qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi fondidagi **5894/4** raqamli qo‘lyozma ham “Tuhfatu-s-sulton”ning protodevonidir. Sababi mazkur qo‘lyozmadagi lirik asarlar ham nisbatan avvalroq ko‘chirilgan bo‘lib, ular shoirning turkiy devonlari – “Munisu-l-ushshoq”da ham, “Hayratu-l-ushshoq”da ham uchramaydi. Ushbu qo‘lyozmalardagi lirik asarlarning aksariyati janrlariga ko‘ra hamda shaklan va mazmunan o‘ziga xosdir. Qo‘lyozmalardagi lirik asarlar tuzilishi, ularning devon tartibiga o‘xshash ketma-ketligi qaysidir devon uchun asos vazifasini o‘taganini ko‘rsatadi. Garchi Tabibiyning birinchi turkiy devoni sifatida “Tuhfatu-s-sulton” devoni ko‘rsatilsa-da, biroq shoirning ushbu devoni umrining so‘nggida, ya’ni 1910 - yilda ko‘chirilgani, uning yagona qo‘lyozmasi Tojikistonda saqlanishi haqida ma’lumotlar mavjud<sup>88</sup>. Haqiqatan, Respublikamiz fondlarida “Tuhfatu-s-sulton” devonining qo‘lyozmasi hozircha topilgan emas. O‘zRFA Abu

<sup>88</sup> Ганихўжаев Ф. Ахмад Табибий (ҳаёти ва ижоди). – Тошкент: Фан, 1978. – Б.13.



Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Asosiy fondidagi 1122, 1123, 1148, 6949, “Ichan qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi fondidagi 5894/4 raqamli qo‘lyozmalar esa devon tartib berilishidan oldinroq ko‘chirilgan. Qolaversa, Xiva “Ichan-qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi fondidagi 5884/3 raqamli toshbosma manba “Tuhfatu-s-sulton” devoni tartib berilgandan so‘ng, o‘sha yili toshbosmada ham bosilgan. Bu haqda ishning uchinchi bobida maxsus to‘xtalib o‘tamiz.

**1124 raqamli qo‘lyozma.** Ushbu qo‘lyozma jami 120 sahifa bo‘lib, ro‘yxat g‘azallar (1<sup>b</sup>-120<sup>a</sup>)dan tarkib topgan. Qo‘lyozma Muhammad Sharif Devon tomonidan 1325 (1907) - yilda ko‘chirilgan. Matn har bir sahifaga ikki ustunda uch baytdan jami 6 bayt qiya qilib ko‘chirilgan.

Matn quyidagi bayt bilan boshlanadi:

منگا اول پری جور بالکل قلب  
نظر ایلا مایدور تغافل قلب

*(Mango ul pari javr bilkul qilib, Nazar aylamaydur tag‘oful qilib)*

Quyidagi bayt bilan yakunlanadi:

خوشنود بول بحدّ سان چونکیم طبیب عشق‌دین  
در دینگه دافع بولغودیک نافع دوا بوکون کیلور

*(Xushnud bo‘l behaddi son, chunkim Tabib ishqdin, Dardingg‘a dofi’ bo‘lg‘udek nofe’i davo bu kun kelur).*

Qo‘lyozma kolofoni quyidagicha:

*“Zilli subhon xalifatu-r-Rahmon a’ni Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxoni soniy doma davlata va shavkataning farmoni oliylari bila ushbu bayozni faqir ul-haqir Muhammad Sharif Devon ibni Ollohbergan Devon marhumi muvofiq yilqi yili 1325 mohi muharramning o’n sakizlanchisi yakshanba kunida yozib itmomg‘a yetkurdi”.* Ushbu manbaga Tabibiyning 129 ta g‘azaliga raqam qo‘yilib ko‘chirilgan. G‘azallarning birinchisi *“Mango ul pari javr bilkul qilib”* misrasi bilan boshlanuvchi 11 baytli g‘azal, so‘nggisi esa *“Bo‘l, ey ko‘ngul, xushnudkim ul dilrabo bu kun kelur”* misrasi bilan boshlanuvchi 11 baytli g‘azaldir. Ushbu to‘plamdagi g‘azallarning deyarli barchasi 11 baytdan iborat. Ularning barchasi *“Hayratu-l-ushshoq”* devonida mavjud. Biroq xronologiyaga ko‘ra 1124 raqamli manba qadimiyroq. Shoir *“Hayratu-l-ushshoq”*

devonini tartib berishda ushbu to‘plamdagi lirik asarlardan deyarli to‘liq foydalangan. Aytish mumkinki, 1124 raqamli qo‘lyozma “Hayratu-l-ushshoq”ning protodevoni hisoblanadi.

**1159 raqamli qo‘lyozma.** Bu qo‘lyozma manba Tabibiy she’rlari jamlangan boshqa to‘plamlardan nisbatan avvalroq ko‘chirilgani bilan ahamiyatlidir. Qo‘lyozma jami 118 sahifani tashkil etadi. 118<sup>a</sup> sahifada kitobning yozilish sababi va kotib haqida ma’lumot bor. Qo‘lyozmani Muhammad Yaqub Devon ibn Ollobergan Devon “1324-yil mohi zul hijjaning yigirma sakkizlanchisi dushanba kunida” yozib tugatgan. Jami 158 she’rga raqam qo‘yilib ko‘chirilgan. Tuzilishi va tashqi belgilariga ko‘ra O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Asosiy fondidagi 1122, 2033 raqamli qo‘lyozmalarga juda o‘xshash. Matn bir sahifada ikki ustun qilinib, har ustunda 3 baytdan, jami bir sahifada 6 bayt she’r ko‘chirilgan.

Ro‘yxat asosan g‘azallar (1<sup>b</sup>-118<sup>a</sup> sahifalar)dan tashkil topgan bo‘lib, g‘azallar turkiy va fors-tojik tilida. Shuningdek, to‘plamga ikkita varsoqi (ushbu varsoqilar keyinchalik shoirning “Munisul-ushshoq” devoniga kiritilgan), 5 bandli bitta tarje’band ham kiritilgan. G‘azallarning 10 ga yaqini fors-tojik tilida, qolganlari turkiy g‘azallardir.

Qo‘lyozma matni “*Bir ko‘rsatib jilva birla jamoling, Qilding mani asru hayron dilbarim*” – deb boshlanuvchi varsoqi she’r bilan boshlanadi.

She’rlar fabrikaning rangli qog‘oziga qora siyoh bilan nasta’liq xatida uch baytdan, bir sahifada jami 6 baytdan she’r ko‘chirilgan. Matn tilla va havo rang chiziqlar bilan hoshiyalangan. Sahifaning chetlari qizil ramka bilan hoshiyalangan. Har bir g‘azalning boshida qizil siyohda “غزل طیبی” deb yozilib, raqam qo‘yib ketilgan. Sahifalarda kotib paginatsiyasi (poygir) berilmagan.

Qo‘lyozma quyidagi bayt bilan yakunlangan:

نی عجب طیبی سنگا وفا اگر ایتمس ایرسه بو غم سرا  
کی آنی خدا یر ایتمیدورور نظرخرده سراب اییب

Qo‘lyozma kolofonida ushbu kitobni Feruz farmoniga ko‘ra Muhammad Sharif Devon ibn Ollobergan Devon “*ot yili 1324-yil mohi zul hijjaning 28chisi dushanba kuni yozib tamomlagan*”i haqidagi ma’lumot mavjud. Tahlillar mazkur qo‘lyozma nisbatan

avvalroq tuzilgani, to‘plamdagi lirik asarlar keyinchalik shoirning “Munisu-l-ushshoq” devoniga kiritilganini ko‘rsatadi. Bundan mazkur 1159 raqamli qo‘lyozma shoirning ilk turkiy devoni “Munisu-l-ushshoq”ning tartib berilishida asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan. Garchi shu paytgacha “Tuhfatu-s-sulton” devoni Ahmad Tabibiyning birinchi turkiy devoni<sup>89</sup> sifatida qayd etilib kelgan bo‘lsa-da, kuzatuvlar shoirning ilk turkiy devoni “Munisu-l-ushshoq” ekanini tasdiqlaydi. Demak, Tabibiy “Munisu-l-ushshoq” devonining tartib berilishida O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Asosiy fondidagi 1159 raqamli qo‘lyozma asos bo‘lib xizmat qilgan.

**243 raqamli qo‘lyozma.** O‘zRFA Davlat adabiyot muzeyida ham Ahmad Tabibiy lirik asarlari jamlangan bir qo‘lyozma bayoz mavjud. Qo‘lyozma jami 184 sahifadan iborat. Bu bayozda shoirning 200 ta g‘azali alfavit ketma-ketligida ko‘chirilgan. Qo‘lyozma bayoz matni 1<sup>b</sup> sahifadan boshlangan. Har bir g‘azalning boshida qizil siyohda “غزل طیبی” deb yozilib, raqam qo‘yib ketilgan. Matn fabrikaning rangsiz va rangli qog‘oziga qora siyoh bilan nasta’liq xatida 3 baytdan, ikki ustunda, jami bir sahifada 6 baytdan she’r ko‘chirilgan. Matn jadval ichiga olinmagan. Har bir sahifaning yuqori markazida kotib sahifalagan raqamlar qo‘yilgan. To‘plamning so‘nggi sahifasida ko‘k siyohda: “*Bu kitobni o‘z institutimiz O‘zbekiston akademiyasining Adabiyot institutiga taqdim qilaman. G‘afur G‘ulom. 26/9.57.*”, degan qayd mavjud.

184<sup>a</sup> sahifada kitobning yozilish sababi va kotib haqida ma’lumot bor.

Kolofonda ushbu kitobni Feruz farmoniga ko‘ra “Ushbu bayozni Muhammad Sharif Devon ibn Ollobergan Devon qo‘y yili 1325 - yil safar oyining o‘n to‘rtlanchisi panjshanba kuni” yozib tamomlagani haqida

Qora rangdagi uchta bo‘rtmali qattiq muqovali kitob. Bo‘rtmalar yashil rangda. Chetlari o‘yma naqshlar bilan bezatilgan. Qo‘lyozma o‘lchami 21,5x14.

Mazkur qo‘lyozma bayoz quyidagi matla’ bilan boshlanadi:

---

<sup>89</sup> Ганихўжаев Ф. Ахмад Табибий (хаёти ва ижоди). – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 13.

دھر ارا کیمسه باشیغہ رنج انا کیلور کیتور  
کونگلیگہ ہم مونیگ کیبی فیض صفا کیلور کیتور  
(*Dahraro kimsa boshig‘a ranji ano kelur-ketur, Ko‘ngliga ham  
muning kibi fayzu safo kelur-ketur*).

Qo‘lyozmaning oxiri esa:  
سین چیک طبیبی غم ارا بیمارلیغ کیم عشق ارا  
لعل لی اوزگہ کیشی دردیگہ درماندور بو کون  
(*Sen chek, Tabibiy, g‘am aro bemorlig‘kim ishq aro, La‘li labi  
o‘zga kishi dardiga darmondur bu kun*) - maqta‘si bilan  
yakunlangan. Kolofondan oldin kotib tomonidan yozilgan quyidagi  
she‘riy matn berilgan:

هر کی خواند دعا طمع دارم  
زانکی من بنده گنه کارم  
شد بتوفیق خدایی لا ینام  
این کتابت روز پنجشنبه تمام

(*Bu kitobni har kimki o‘qisa, undan duo umidvorman, Negaki,  
men bir gunohkor bandaman, Doimo bedor bo‘gan Xudo tavfiqi  
birla, Bu kitob payshanba kuni yakunlandi*). Qo‘lyozma kolofoni  
esa quyidagicha:

ظَلَّ السَّبْحَانَ خَلِيفَةَ الرَّحْمَنِ اعْنَى سَيِّدِ مُحَمَّدٍ رَحِيمٍ بَهَادِرِ خَانَ ثَانِي دَامَ دَوْلَتُهُ وَ  
شُوَكْتَهُ نِينِگِ فَرْمَانَ عَالِي لَرِي بِيْلَهُ اَوْشَبُو بِيَاضِ نِي فَاقِيرِ الْحَقِيرِ مُحَمَّدِ شَرِيفِ دِيَوَانَ  
ابن الله بِيرِگَن دِيَوَانَ مَرْحُومِي مَوْافِقِ، قَوِي بِيْلِي 1325 صَفَرِ آيِي نِينِگِ اَوْنَ  
تُورْتَلْنَجِيْسِي پَنْچَشَنْبَه كُونِي يَازِيْبِ اَتْمَاغَه بِيْتَكُورْدِي.

Mazkur bayozdagi g‘azallar to‘liq holda shoirning “Hayratu-l-  
ushshoq” devoniga ham kiritilgan. Ushbu bayoz xronologiyaga  
ko‘ra ilgariroq tuzilgan bo‘lib, u shoirning “Hayratu-l-ushshoq”  
devoniga kiritilgan.

Xiva “Ichan qal‘a” davlat muzey-qo‘riqxonasi fondidagi  
5894/1 raqamli manbada ham “Hayratu-l-ushshoq” devonidagi 28 ta  
g‘azal jamlangan.

Qo‘lyozma faqat g‘azallardan tarkib topgan bo‘lib, unda saroy  
shoirlari g‘azallari ko‘chirilgan. To‘plamda jami 177 ta g‘azal  
mavjud, ular Tabibiy, Mirzo, Rog‘ib, G‘ulomiy, Nadimiy, Avaz,  
Umidiy, Ojiz, Devoniy, Mutrib, Bayoniy, Xodim, Shinosiy, Chokar,  
Asad, Doiy, Oqil, Inoyat, G‘oziy, Xayoliy, Niyoziy kabi  
shoirlarning g‘azallaridir. Ushbu to‘plam Feruz farmoniga ko‘ra,  
1325 (1907) - yilda Muhammad Ya‘qub Devon tomonidan

ko‘chirilgan. Ushbu manbadagi g‘azallar ham Tabibiyning “Hayratu-l-ushshoq” devonining tuzilishida manba bo‘lib xizmat qilgan.

Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi qo‘lyozmalar instituti fondidagi C-767 raqamli qo‘lyozma ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qism shoir qalamiga mansub forsiy she‘rlardan, ikkinchi qism esa “Munisu-l-ushshoq” devoniga kirgan lirik asarlardan iborat. Qo‘lyozmaning sifati past. She‘rlar tartibsiz ko‘chirilgan. Hoshiyalarda ham she‘rlar ko‘chirilgan. Ayrim sahifalar xiralashib qolgan. Bu qo‘lyozmada kotib haqida ma‘lumot uchramaydi. Shunga ko‘ra, bu qo‘lyozmaning kotibi shoirning o‘zi bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Asosiy fondidagi 2033, 654 raqamli, O‘zRFA Davlat adabiyot muzeyi fondidagi 243 raqamli, “Ichan qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi fondidagi 5894/1 raqamli qo‘lyozmalar shoir “Hayratu-l-ushshoq” devonining tuzilishida asosiy manbalardan bo‘lib xizmat qilgan.

**XIX asr oxiri XX asr boshlari Xorazm adabiy muhiti shoirlari ijod namunalari to‘plangan bayoz-to‘plamlar.**

**1127 raqamli bayoz.** Ushbu qo‘lyozma o‘zbek tilidagi muxammaslar (1<sup>b</sup>-153<sup>b</sup> sahifalarda) va 5 ta fors tilidagi ruboiy (153<sup>b</sup>-154<sup>a</sup>)dan iborat. Ruboiylar muallifi ko‘rsatilmagan, ularning mazmunidan kotibga tegishli ekanligini taxmin qilish mumkin. Bayozda jami 150 ta muxammas ko‘chirilgan.

Bayozdagi lirik asarlar matnida ba‘zi noqisliklar uchraydi. Masalan, 82<sup>a</sup> sahifada Niyoziy muxammasini ko‘chirishda kotib bir bandning uchinchi va to‘rtinchi misralarni almashtirgan va qizil siyohda misralar tepasida “خ” va “م” harflari (xato va qabl)ni qo‘ygan. Yoki 91<sup>b</sup> sahifada yana shu holat, ya’ni Avaz muxammasi 3 bandining ikkinchi va beshinchi misralari almashtirilib yuborilgan. Kotib misralar tepasiga ko‘rinadigan qilib yana shu harflarni qo‘ygan.

Ushbu bayozga Feruz, Sultoni, Sa’diy, Sodiq, G‘oziy, Asad, Bayoniy, Oqil, Nozir, Shinosiy, G‘ulomiy, Purkomil, Kamoliy, Inoyat, Amir, Ojiz, Niyoziy, Habib, Xokiy, Rog‘ib, Yusuf, Devoniy, Mutrib Xonaxarob, Avaz, Nadimiy, Xodim, Chokar, Muznib, Soqiy,

Umidiy, Mirzo, Niyoziy, Haqiriy kabi ijodkorlarning o‘rtacha 4-5 tadan muxammaslari qatorida Tabibiyning ham bitta 9 bandli muxammasi ko‘chirilgan. Ushbu bayoz ham Feruzning farmoni bilan 1326 (1908) - yili ko‘chirilgan bo‘lsa-da, negadir, Tabibiyning Ogahiy g‘azaliga bog‘langan bittagina muxammasi kiritilgan. Tabibiy muxammasi:

*Bo‘ldi ko‘zumga jilvagar bazm ichra to qoshu ko‘zung,  
Qildi mani oshuftai zori gado qoshu ko‘zung,  
Mundoqki ko‘rganga erur hayrat qaro qoshu ko‘zung,  
Vah, ne balodur bilmadim, ey dilrabo, qoshu ko‘zung,  
Kim bir nazarda soldi o‘t jonim aro qoshu ko‘zing, – tarzida  
boshlanadi.*

9 bandli ushbu muxammas shoirning “Munisu-l-ushshoq” devonida ham bor. Bayozning kolofonida quyidagi jummalarni o‘qiymiz: *“Alhamdulillah va-l-minna oliy hazrat rafi’ manzilat sultonuz-zamon, boisi al-amnu va-l-amon, a’ni Abulmuzaffar val-Mansur Abulg‘oziy Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxoni soniy xalladallohu taolo mulukahu va davlatahu zayyada umurahu, ul oliy hazratning farmoni vojiblari bo‘lub, bu bayozi muxammasotni faqir ul-haqir Muhammad Ya‘qub Devon mulaqqabi ba Xarrot, 1326 lanji yil muvofiqi bijin yili mohi safarni 22lanchisi chahorshanba kuni yozib itmomg‘a yetkurdi”.*

Demak, ushbu bayozning shoir “Munisu-l-ushshoq” devoni bilan aloqasi mavjud.

**1128 raqamli bayoz.** Ushbu bayozda muxammaslar (1<sup>b</sup>-87<sup>b</sup>), besh bandli bir murabba’ (87<sup>b</sup>-88<sup>a</sup>), fors-tojik tilidagi bir ruboiy (159<sup>a</sup>) mavjud. Ruboiy mazmunidan uni kotibga tegishli deb taxmin qilish mumkin.

Matn sarg‘ish rangdagi yupqa Qo‘qon qog‘oziga qora siyoh bilan o‘rta nastaliqda, har sahifada to‘rt ustunda ko‘chirilgan. Matn jadvallangan. Dastlab tilla rangda, so‘ng ingichka ko‘k rangda, so‘ng yana qalin ko‘k rangda uch qatordan ramkaga olingan. Sahifa atrofi esa qizil rangdagi jadval bilan chegaralangan. Qo‘lyozma muqovasi yashil rangda, sherozasi qora charmdan ishlangan. Chiroyli naqshlar bilan unvonlangan. Muqovalarda uchtadan o‘yina naqsh solingan. Har bir betning yuqori o‘rta qismida kotib tomonidan qo‘yilgan sahifa raqami mavjud. Sharqona sahifalash

(paginatsiya, poygir) qo'yilmagan. Har bir she'rning tepasida qizil siyohda muxammas mualliflari keltirilgan. Matn o'lchami: 35x14.5. Qo'lyozma hajmi 159 varaq.

Bayozda jami 164 ta muxammas ko'chirilgan bo'lib, ularning aksariyati Tabibiyga tegishli. Mazkur qo'lyozmaga asosan Tabibiyning, shu bilan birga Oqil, Sa'diy, Ojiz, Avaz, Devoniy, Asad, Xokiy, Umidiy, Sodiq, Kamoliy, Yusuf, Rog'ib, Xayoliy, Niyoziy, Doiy, Haqiriy, Habib, Purkomil, Shinosiy, Bayoniy, G'ulomiy kabi shoirlarning muxammaslari ham qo'shib ko'chirilgan. E'tiborlisi, bayozda Niyoziy, Ojiz, Doiy kabi shoirlarning Tabibiy qalamiga mansub "nozikdur" radifli g'azaliga yozgan muxammaslari mavjud.

Ushbu qo'lyozma bayozda Tabibiyning Sultoniy, Kamoliy, Ravnaq, Rojiy, Orif, Sa'diy, Mirzo, Tolib, Asad, G'ulomiy, Fuzuliy, Hoziq, Adliy, Haydar, Suhayliy, Sayfiy, Fig'oniy, Sobir, Xon, Munis, Nadimiy, Balig', Muhammad Hodiy Shirvoniy (Maoliy), Lutfiy, Navoiy, Feruz, Husayniy, Nishotiy, Amir, Xatoiy, Xolis, Komil, Sodiq, Xayoliy, Ravnaq, Avaz, Ojiz, Haqiriy, Devoniy, Kamoliy, Doiy, Chokar, Murodiy, Fano, Xokiy, Xodim, Rog'ib, Niyoziy, Shinosiy, Yusuf, Mutrib Xonaxarob, Habibiy, Umidiy, Bayoniy, G'oziy, Asad<sup>90</sup>larning g'azallari qatorida o'zining ham g'azallariga bog'lagan forsiy va turkiy muxammaslari mavjud. Ushbu muxammaslarning aksariyati (masalan, Ravnaq, Rojiy, G'ulomiy, Fuzuliy, Adliy, Sobir, Xon, Munis, Nadimiy, Muhammad Hodiy Shirvoniy (Maoliy) g'azallariga bog'langan muxammaslar) shoirning "Munisu-l-ushshoq" devoniga kiritilgan. Turkiy tildagi boshqa muxammaslar esa shoirning "Hayratu-l-ushshoq" devoniga kiritilgan.

Qo'lyozmaning kolofonida: *"Zilli subhon a'ni Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxoni soniy doma davlatuhu va shavkatuhuning farmoni oliylari bila ushbu muxammasotni faqir ul-haqir Muhammad Sharif Devon ibni Ollohbergan Devon marhumi muvofiq qo'y yili 1325 lanji yil rabi'us soniy oyining o'n beshlanchisi dushanba kuni yozib itmomg'a yetkurdi"*, - degan ma'lumot bor. Bu esa ushbu bayoz shoir turkiy devonlaridan avval

---

<sup>90</sup> Ijodkorlar nomlarini keltirishda qo'lyozmadagi tartibga amal qilindi.

(1907-yil) tuzilgan degan xulosaga olib keladi. Demak, shoir devonlarining tuzilishida ushbu bayozning ham o'rnini beqiyos.

**1129 raqamli qo'lyozma.** Ushbu qo'lyozma ham faqat muxammaslardan tarkib topgan. Qo'lyozma matni och ko'k rangdagi fabrika qog'oziga qora siyoh bilan o'rta nastaliqda, har sahifada to'rt ustunda qiya qilib ko'chirilgan. Matn jadvallangan. Dastlab tilla rangda, so'ng ingichka ko'k rangda, so'ng yana qalin ko'k rangda uch qatordan ramkaga olingan. Sahifa atrofi esa qizil rangdagi jadval bilan chegaralangan. Qo'lyozma muqovasi to'q qora charmdan, sherozasi ham qora charmdan ishlangan. Chiroyli naqshlar bilan unvonlangan. Muqovalarda uchtadan o'yama naqsh solingan. Har bir betning yuqori o'rta qismida kotib tomonidan qo'yilgan sahifa raqami mavjud. Qo'lyozmaning 1<sup>b</sup>-8<sup>b</sup> sahifalarida sharqona sahifalash (paginatsiya, poygir) qo'yilgan. Har bir she'rning tepasida qizil siyohda muxammas mualliflari ko'rsatilgan. Matn o'lchami: 36.5 x 15.5. Qo'lyozma hajmi 200 sahifa.

Bayozda jami 222 ta muxammas ko'chirilgan bo'lib, ularning aksariyati Tabibiyga, qolganlari esa Rog'ib, Oqil, Niyoziy, Doiy, Mutrib, Bayoniy, Habib, Shinosiy, Asad, Chokar, Avaz, Ojiz, Isiy (عسبىي), Nadimiy, Nodir, Nodim, Nazmiy, Najot, Yusuf, Devoniy kabi ijodkorlarga tegishli.

Bayozda dastlab Tabibiyning Oliy, Ozariy, Komiy, Hayratiy, Boqiy, Moniy, Suhbat, Amir Solih, Murodiy, Xoliy, Fayziy, Ogahiy, Mahzuniy, Xoja Osafiy, Xotamiy, Xisrav, Riyoziy, Atoiy, Hodiy, Nizoriy, Ismat, Muhiy, Fazliy, Tavfiq, G'olib, Ohiy, Nodiriy, Bade'iy, Himom, G'aniy, Doimiy, Nargis, Shabob, Salmon, Favjiy, Shaydo, Xoqoniy, Jomiyi Digar, Abdulrahmon, Hoshimiy, Anvari, Ma'yin, Vola, Jomiy, Kalim, Ahliy, Ravshan, Voqifiy, Solimiy, Volah, Hiloliy g'azallariga bog'langan 75 ta forsiy muxammasi ko'chirilgan. Shundan so'ng shoirning turkiy muxammaslari boshlanadi. Ular Fuzuliy, Doiy, Niyoziy, Haqiriy, Mutrib, Xayoliy, Yusuf, Rog'ib, Kamoliy, Ojiz, Asad (kotib Muznib deb xato sarlavha qo'ygan), G'oziy, Xokiy, Avaz, Xodim, Nadimiy, Habib, Umidiy, Nishotiy, Quddusiy, Muhibbiy, Husayniy, Laylo, Somiy, G'oziy, Fazliy, Xotif, Amiriy, Feruz kabi ijodkorlar g'azallariga bog'langan. Ushbu muxammaslarning ayrimlarigina shoirning "Hayratu-l-ushshoq" devonida uchrasa, ayrimlari



“Munisu-l-ushshoq”da ham, “Hayratu-l-ushshoq” ham uchramaydi. Ushbu muxammaslar asosan shoirning “Tuhfatu-s-sulton” devoniga kiritilgan. Ushbu qo‘lyozmalardagi matnlarda ham ayrim nuqsonlar uchraydi. Masalan, qo‘lyozmaning 178<sup>b</sup> sahifasida Tabibiyning Qudsiy g‘azaliga bog‘lagan 7 bandli muxammasi ko‘chirilgan. Uning to‘rtinchi bandi 4 va 5 misralarini kotib almashtirib ko‘chirgan va qizil siyohda ko‘rinadigan qilib “خ” va “م” harflari (xato va qabl)ni qo‘ygan<sup>91</sup>. Bundan tashqari, qo‘lyozmada so‘zlar o‘rnining almashishi, harflar nuqtalarining tushib qolishi, she’rlar raqamlanishidagi noaniqliklar ham ko‘zga tashlanadi.

Bayoz kolofoni quyidagicha: *“Lillahi-l-hamdu va-l-minna oliy hazrat rafi’ manzilat zilli subhon xalifatu-r-Rahmon boisi amnu va-l-amon Abulmuzaffar val-Mansur Abulg‘oziy Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxoni soniy xallodolluhu taolo mulkahu va davlatahu va zida umruhu ul oliy hazratning farmoni oliylari birlan bu muxammasot bayozni bir ming uch yuz yigirma ettilanchi yil mohi jumodul avvalni avvali chahorshanba kuni bu faqir ul-haqir Muhammad Ya’qub Devon ibn Usto Qurbonniyoz Xorazmiy mulaqqabi ba Xarrot yozib itmom sarhadig‘a yetkurdi”*.

**1130 raqamli qo‘lyozma.** Ushbu qo‘lyozma bayoz muxammaslardan tarkib topgan bo‘lib, tuzilishi va shakli 1129 raqamli *“bayozi muxammasot”* bilan bir xil. Qo‘lyozma jami 200 sahifani tashkil etadi. Har bir she’rning tepasida qizil siyohda muxammas mualliflari keltirilgan. Qo‘lyozmada jami 170 ta muxammas ko‘chirilgan. Bu manbada ham Tabibiyning ko‘plab muxammaslari ko‘chirilgan. Matn o‘lchami: 21 x14.5.

Mazkur qo‘lyozma bayoz so‘nggida *“Oliy hazrat rafi’ manzilat zilli subhon xalifatu-r-Rahmon boisi amnu va-l-amon Abulmuzaffar val-Mansur Abulg‘oziy Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxoni soniy xallodolluhu taolo mulkahu va davlatahu va zida umruhu ul oliy hazratning farmoni oliylari bila bu muxammasot bayozni faqir ul-haqir Muhammad Ya’qub Devon mulaqqab ba Xarrot bir ming uch yuz yigirma oltilanchi yil muvofiq bijin yili mohi rab’iu-s-soniyning o‘n to‘quzlanchisi chahorshanba kuni yozib*

---

<sup>91</sup> O‘zR FASHI. 1129 raqamli qo‘lyozma. 179<sup>a</sup>-sahifa.

*itmomg‘a yetkurdi*”, - degan qayd mavjud. Demak, bu manba 1326 (1908) - yilda tuzilgan.

Ushbu qo‘lyozma bayozga Tabibiydan tashqari, Umidiy, Inoyat, Ojiz, Haqiriy, Niyoziy, Habib, Xokiy, Yusuf, Rog‘ib, Devoniy, Mutrib Xonaxarob, Avaz, Nadimiy, Xodim, Chokar, Muznib, Mirzo kabi shoirlarning muxammaslari ko‘chirilgan.

Mazkur bayozda Tabibiyning 5 ta muxammasi mavjud bo‘lib, ularning bittasi Navoiy, bittasi Ogahiy, ikkitasi Feruz va bittasi o‘z g‘azaliga bog‘langan bo‘lib, ular hech qanday o‘zgarishlarsiz shoir devonlariga kiritilgan.

**1131 raqamli qo‘lyozma.** Bu manbaning asosiy qismini muxammaslar tashkil etsa-da, unda Tabibiyning muxammas bilan birga, musaddas va musamman she‘rlari ham kiritilgan. Bayozning hajmi 166 sahifani tashkil etadi. manbadagi Tabibiy she‘rlari turkiy va fors tilidadir. Bayozdagi shoirning turkiy muxammaslari Navoiy, Fuzuliy, Munis, Oqil, Komil, Feruz, G‘oziy, Mushrif, Ado, Hoziq, Fazliy, Nola, Afsus, Xijlat, Vahbiy, G‘aribiy, Vosifiy, Nadimiy, Naf‘iy, Ulviy, Nasib, Xotam, Avniy, Boqiy, Zotiy, Hoshim, Navras, Xayoliy, Noiliy, Laylo, Niyoziy, Zevar, Fitnat, Sham‘iy, Muhibbiy, Navras, Ayniy, Mohir, Somiy, Qudsiy, Adliy, Qoyiliy, Partav, Sobir g‘azallariga, musaddaslari esa Navoiy, Munis, Ogahiy, Feruz, G‘ulomiy, Rojiy, Xolis va o‘z g‘azallariga bog‘langan. Bayozda jami 5 ta musamman bo‘lib, ular faqat shoirning o‘z g‘azallariga bog‘langan. Qo‘lyozmadagi shoirning forsiy muxammaslari G‘iyosiy, Shavqiy, Mavlaviyi Jomiy, Zebunniso, Laolim, Pari, Sho‘rishi Ishq, Jaloliy, Musuiy va o‘z g‘azallariga bog‘langan. Shuningdek, qo‘lyozmada ikkita forsiy ruboiy bo‘lib, ular mazmunidan kotibga tegishli deyish mumkin. Shoir devonlari tadqiqi mazkur bayozdagi lirik asarlar keyinchalik Tabibiyning “Hayratu-l-ushshoq” devoniga kiritilganini ko‘rsatadi. Ushbu qo‘lyozmaning kolofonida: *“Bahodirxoni soniy. Zilli subhon xalifatu-r-Rahmon a’ni Sayyid Muhammad Rahim xallodolluhu taolo mulkahu sultonining farmoni oliylari bila ushbu kitobni faqir ul-haqir Muhammad Sharif Devon ibn Ollobergan Devon marhumi muvofiq qo‘y yili 1325 mohi shavvolni to‘quzlanchisi panjshanba kuni yozib itmomg‘a yetkurdi*”, – tarzidagi ma‘lumot mavjud. Demak, bu bayoz shoirning devonidan oldin, ya’ni 1907 - yilda

tuzilgan va “Hayratu-l-ushshoq” devonining tuzilishida muhim manba bo‘lib xizmat qilgan.

**1133 raqamli qo‘lyozma.** Bu davr Xorazm adabiy muhiti bilan bog‘liq manbalar orasida musaddas she‘rlar jamlangan bayozlarni ham uchratish mumkin. 1133 raqamli mazkur qo‘lyozma ana shunday manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu qo‘lyozma “بياض مسدسات” (“Bayozi musaddasot”) deb nomlangan bo‘lib, unda faqat musaddaslar jamlangan. Uning hajmi 155 sahifa. Ushbu bayozga 174 ta musaddas kiritilgan. Matn o‘lchami: 25.5 x14.

Qo‘lyozma Navoiyning ketma-ket beshta musaddasi bilan boshlanadi. So‘ng Munis, Feruz, Xolis, Ogahiy, Rojiy, Komil, Bayoniy, Tabibiy (24<sup>b</sup>-42<sup>b</sup> sahifalar), Fuzuliy, Amir, Nishotiy, Qurbon, Nozik, Nosir, Sultoniy, Sodiq, Sa‘diy, Bayoniy, Oqil, Mirzo, Nozir, Shinosiy, Purkomil, Inoyat, Doiy, Ojiz, Haqiriy, Habib, G‘ulomiy, Xokiy, Yusuf, Chokar, Rog‘ib, Devoniy, Xonaxarob, Avaz, Nadimiy, Xodim, Muznib, Niyoziy, G‘oziy, Asad, Kamoliylarning turkiy (o‘zbekcha) va fors-tojik tilidagi musaddaslari ko‘chirilgan. Ushbu qo‘lyozma bayoz kolofondagi ma‘lumotga ko‘ra, 1327/1909-yilda tuzilgan bo‘lib, unda Tabibiyning jami 7 ta forsiy musaddasi, 19 ta turkiy musaddasi kiritilgan. Bayozdagi turkiy musaddaslarning aksariyati shoirning “Munisu-l-ushshoq” devonida ham mavjud.

**1157 raqamli bayoz.** Ushbu manba ham asosan muxammaslardan tarkib topgan. Bayozda jami 180 ta she‘rga raqam qo‘yib ko‘chirilgan. Qo‘lyozma hajmi 236 varaq. O‘lchami: 21x13.

Ushbu qo‘lyozma bayozga Sa‘diy, Mirzo, Sodiq, Doiy, Devoniy, Ojiz, Bayoniy, Yusuf, Niyoziy, Umidiy, Kamoliy, Oqil, Xokiy, Shinosiy, Mutrib Xonaxarob, Avaz, Xayoliy, G‘ulomiy, Niyoziy, Sultoniy, Tabibiy,<sup>92</sup> Haqiriy, Maxzum, Xoksor, Umidiy, Rog‘ib, Mirzo, Habibiy, Sobir, Doiy kabi shoirlarning muxammas va musaddaslari ko‘chirilgan.

Qo‘lyozma kolofonida quyidagi ma‘lumot keltirilgan: “*Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon zilli subhon xalifatu-r-Rahmon a’ni doma davlatuhu va shavkatuhuning farmoni oliylari bila ushbu kitobni faqir ul-haqir Muhammad Sharif Devon ibni Ollohbergan*

<sup>92</sup> O‘zR FASHI. 1157 raqamli qo‘lyozma. 35<sup>b</sup>, 47<sup>a</sup>, 69<sup>b</sup>, 73<sup>a</sup>, 78<sup>b</sup>, 80<sup>a</sup>, 85<sup>a</sup>, 86<sup>a</sup>, 87<sup>b</sup>, 89<sup>a</sup>, 93<sup>a</sup>, 94<sup>a</sup>, 94<sup>b</sup>, 96<sup>a</sup>, 97<sup>a</sup>, 98<sup>a</sup>, 100<sup>b</sup>, 101<sup>b</sup>, 103<sup>a</sup>, 104<sup>b</sup>, 107<sup>b</sup>, 118<sup>a</sup>, 130<sup>b</sup>, 132<sup>a</sup> -sahifalar.

*Devon marhumi muvofiq yilqi yili 1324 lanji yil mohi rajabning o'n sakkizlanchisi panjshanba kunida yozib itmomg'a yetkurdi*". Demak, ushbu manbadagi Tabibiy she'rlari shoir devonlari tartib berilishidan nisbatan avvalroq jamlangani sababli muhim sanaladi. Ushbu manba shoir turkiy devonlarini tuzishda yordamchi manba bo'lgani shubhasiz. Negaki, ushbu bayozdagi Tabibiyning oldin ijod etilgan lirik asarlari shoirning "Munisul-ushshoq" devoniga kiritilgan.

Qo'lyozmada Tabibiy muxammaslari forsiy va turkiy tilda bo'lib, turkiy muxammaslar Munis, Ogahiy, Feruz va o'z g'azallariga, forsiy muxammaslari Jomiy, Inoyat, Rafe', Shohiy va boshqa shoirlar g'azallariga taxmis qilingan. Shuningdek, qo'lyozmada shoirning forsiy va turkiy musaddaslari ham kiritilgan. Forsiy musaddaslar Ojiz, Kotib, Vahshiy va o'z g'azaliga, turkiy musaddaslar esa Navoiy, Amiriy, Munis, Sultoniy va o'z g'azaliga bog'langan.

**1175 raqamli qo'lyozma.** Bayozi g'azaliyot. Qo'lyozma jami 95 sahifa bo'lib, unga faqat g'azallar kiritilgan. Qo'lyozmaga jami 210 ta g'azal kiritilgan.

Mazkur bayozda Tabibiyning 23 ta g'azali ham ko'chirilgan bo'lib, g'azallarning boshlanish misralari va hajmi haqidagi ma'lumotlar 4-ildovada keltirilgan. Ushbu bayozni 1326 (1908) - yilda Feruz farmoniga binoan Inoyatulloh Devon ko'chirgan. Mazkur g'azallar boshqa to'plamlarda ham uchraydi.

**1182 raqamli qo'lyozma.** Bayozi g'azaliyot. Ushbu bayozda ham g'azallar jamlangan. Qo'lyozmaning hajmi 238 sahifa. Bayozda Devoni, Tabibiy, Oqil, Inoyat, Avaz, Purkomil, Shinosiy, G'ulomiy, Mutrib Xonaxarob, Rog'ib, Mirzo, Niyoziy, Xayoliy, Umidiy, Asad, Yusuf, Bayoniy, Nadimiy, Chokar, Sodiq, Xodim, Kamoliy, G'oziy, Ojiz, Xokiy kabi shoirlarning g'azallari ko'chirilgan.

Matn sarg'ish rangdagi silliq fabrika qog'oziga qora siyoh bilan o'rta nastaliqda, har sahifada ikki ustunda 3 baytdan ko'chirilgan. Matn jadvalga olingan. Qo'lyozma muqovasi yashil charmdan, sherozasi qizil charmdan ishlangan. Muqovalarda uchtadan o'yma naqsh solingan. Har bir betning yuqori o'rta qismida kotib tomonidan qo'yilgan sahifa raqami mavjud. Har bir

she'ning tepasida qizil siyohda g'azal muallifi ko'rsatilgan. G'azallar raqamlangan. Feruz saroyidagi shoirlar g'azallari ko'chirilgan. 377 ta g'azal ko'chirilgan. Qo'lyozma hajmi 238 varaq. O'lchami: 17.5x11.5.

Ushbu manbada Tabibiyning quyidagi misralar bilan boshlanuvchi 30 ta g'azali kiritilgan bo'lib, ushbu ma'lumotlar 5-ilovada berilgan.

Qo'lyozma kolofoni quyidagicha: *“Zilli subhon halifatu-r-Rahmon a'ni Sayyid Muhammad Rahimxon Bahodirxoni soniy doma davlatuhu va shavkatuhuning farmoni oliylari bila ushbu bayozni faqiru-l-haqir Muhammad Sharif Devon ibn Ollohbergan Devon marhumi muvofiqi qo'y yili 1325, mohi sharif ramazonning to'rtlanchisi jum'a kuni yozib itmomg'a yetkurdi”*. Ushbu to'plam ham shoir devonlaridan oldin tuzilgan.

**1185 raqamli qo'lyozma.** Bayozi g'azaliyot. Qo'lyozma faqat g'azallardan tarkib topgan bo'lib, uning hajmi 160 sahifadan iborat. Ushbu bayozda Tabibiy, Mutrib, Xodim, Avaz, G'oziy, Asad, Mirzo, G'ulomiy, Inoyat, Devoniy, Doiy, Yusuf, Rog'ib, Nadimiy, Chokar, Muznib, Bayoniy, Oqil, Kamoliy, Habib kabi shoirlarning 255 ta g'azali ko'chirilgan. Tabibiyning 12 ta forsiy va 34 ta turkiy tildagi g'azallari ko'chirilgan. Ushbu g'azallarning boshlanish misrasi va hajmiga oid ma'lumotlar 6-ilovada keltirilgan.

Qo'lyozma kolofoni quyidagicha: *“Alhamdulillah val minna hazrat zilli subhon xalifatu-r-Rahmon Skandar nishon, Faridun makon as-sulton ibn as-sulton sohibi jud val ehson Abulmuzaffar val-Mansur Abulg'oziy Sayyid Muhammad Rahim Bahodir Sulton adamallohu taolo umrahu va davlatahu va iqbolahu hazratlarining farmoni vojibu-l-izomlari bila bu faqir muhibbu-l-ibtihol ash-sha'n Xoja Mahzum ibn Qubodxoja Eshon marhumining sanai 1326 hijriy ming uch yuz yigirma oltilanchisida mohi rabi' ul-soniyning o'n sakkizinda seshanba kuni erdikim, fasohat bayon Xivaq dorusaltanasining shuarolarining aytg'on g'azaliyotlaridin 255 adadi ushbu kitobchada yozilib, itmomg'a yetushdi. Tammatu-l-kitob bi avnil maliku-l-vahhob”*.

**1196 raqamli qo'lyozma.** Bayozi g'azaliyot. Ro'yxat faqat g'azallardan iborat bo'lib, unda jami 249 ta g'azal ko'chirilgan. Qo'lyozma 158 sahifani tashkil etadi. Bayozda Devoniy, Avaz,

Tabibiy, Inoyat, Xodim, Nadimiy, Chokar, Habib, Mutrib, Yusuf, Xokiy, Purkomil, Mirzo, G‘oziy, Umidiy, Sodiq, Niyoziy, Rog‘ib, Doiy, Habib, Oqil, Nozir, Kamoliy, Bayoniy, Ojiz, Muznib, Shinosiy, Asad, G‘ulomiy, Sultoniy kabi shoirlarning g‘azallari ko‘chirilgan. Bayozda Tabibiyning 41 ta turkiy g‘azali kiritilgan bo‘lib, ularning boshlanish misrasi va hajmiga doir ma‘lumot 7- ilovada berilgan.

**Qo‘lyozma kolofoni quyidagicha:** *“Alhamdulillah val minnakim xalifatu-r-Rahmon zilli subhon boisi al-amnu val-a‘mon al-hoqon ibn al-hoqon Abulmuzaffar val-Mansur Abulg‘oziy Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon xalladollohu taolo mulkahu va davlatahu ul oliyjanobning farmoni oliylari bila ushbu shuarolar she‘rlaridan kitobat etildi. Yozg‘uvchi Mulla Qurbonniyoz ibni domla Pahlavon Juyonli. Sana 1324lanchida bitdi”*. Demak, ushbu to‘plamdagi shoir she‘rlari keyinchalik devonlarga kiritilgan.

**2026 raqamli qo‘lyozma.** Muqovada “Bayozi turkiy. Yozilg‘on yili 1326 sana. Kotibi Eshonxo‘ja”, – degan qayd bor. Ro‘yxat faqat g‘azallardan iborat bo‘lib, uning hajmi 160 sahifani tashkil etadi. Ushbu qo‘lyozma bayozga jami 253 ta g‘azal kiritilgan bo‘lib, bular Chokar, Avaz, Bayoniy, Mirzo, G‘ulomiy, Kamoliy, Devoniy, Mutrib, Yusuf, Nadimiy, Xodim, Tabibiy, Muznib, G‘oziy, Nozir, Ojiz, Haqiriy, Rog‘ib kabi shoirlarga tegishli. Garchi ushbu qo‘lyozma “Turkiy bayoz” deb atalgan bo‘lsa-da, 33<sup>b</sup>-40<sup>b</sup> sahifalar oralig‘ida 9 ta, 51<sup>b</sup>-54<sup>b</sup> sahifalar orasida 4 ta, 69<sup>b</sup>-72<sup>a</sup> sahifalar orasida 3 ta, 88<sup>b</sup>-93<sup>b</sup> sahifalar orasida 7 ta, 104<sup>a</sup>-107<sup>a</sup> sahifalar orasida 4 ta, 114<sup>b</sup>-115<sup>b</sup> sahifalarda bitta, 137<sup>a</sup>-155<sup>a</sup> sahifalar orasida 24 ta (barchasi 9 baytli) Tabibiyning fors-tojik tilidagi g‘azallari (jami 52 ta) ham ko‘chirilgan. Qo‘lyozmada Tabibiy va Mutribning turkiy va fors-tojik tilidagi g‘azallari ko‘chirilgan. Tabibiyning 15 ta turkiy g‘azaliga oid ma‘lumotlar 8- ilovada keltirilgan.

**Qo‘lyozma kolofoni quyidagicha:** *“Alhamdullillah val-minna hazrat zilli subhon xalifatur rahmon (I)skandarnishon, Faridun makon, as-sulton ibni as- sulton sohibi al-judu val-ehson, Abulmuzaffar val-Mansur, Abulg‘oziy hazrat Sayyid Muhammad Rahim Bahodirsulton domollohu taolo umruhu va davlatuhu va iqboluhu hazratlarining farmoni vojibi al-iz‘onlari bila bu faqir*

*haqir muhibbu-l-ibtihol val muxlis vosiqu-l-amal Eshonxo'ja Devon kotib ibni Qubodxo'ja Eshon marhumining qo'lida sana 1326 hijriy ming uch yuz yigirma oltinchi yili mohi jumodu-l-avvalning o'n yettilanchi kunida seshanba kuni fasohat bayon Xivaq dorus saltanasining shuarolarining intixob g'azaliyotlaridin ikki yuz dag'ellik uch adadi ushbu kitobchada yozilib tamom bo'ldi. Tammatu-l-kitob bi'avni al-maliku-l-vahhob".*

**6930 raqamli qo'lyozma.** Bayozi g'azaliyot. Ro'yxat g'azallardan iborat. Qo'lyozmaga Xayoliy, Nadimiy, G'ulomiy, Sultoni, Mirzo, Xodim, Rog'ib, Avaz, Niyoziy, Ojiz, Sodiq, Tabibiy, Chokar, Sa'diy, Devoni, Bayoni, Mutrib Xonaxarob, Yusuf, Kamoliy, Umidiy, Amir, Shinosiy kabi 23 ta shoirning she'rlari kiritilgan. Ushbu manbadagi shoir g'azallari bilan bog'liq statistik ma'lumot 9-ilovada berilgan.

**Qo'lyozma kolofoni quyidagicha:** *"Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon zilli-s-subhon xalifatu-r-Rahmon a'ni doma davlatahu va shavkatahuning farmoni oliylari bila ushbu bayozni faqiru-l-haqir Muhammad Sharif Devon ibni Allohbergan Devon marhumi muvofiq yilqi yili 1324 mohi jumodu-l-soniyning o'n ikkilanchisi panjshanba kuni yozib itmomg'a yetkurdi".*

Shoir lirik merosi jamlangan manbalar tahlili asosida aytish mumkinki, Tabibiy devon tuzayotganda o'zining she'rlari jamlangan to'plamlardan unumli foydalangan. Biroq bunday to'plamlardagi ko'plab g'azallar shoir devonlariga kiritilmagan. E'tibor berilsa, shoir devonlarining tartib berilishi Tabibiy umrining oxirgi yillariga to'g'ri keladi. Agar umr vafo etganda, Tabibiy yana she'riy devonlar tartib bergan bo'lardi. Negaki, shoir lirik asarlarining ancha qismi yagona to'plamga birlashtirilmagan. Bu hol shoir ijodiga doir tadqiqotlarni kelgusida ham davom ettirish zarur degan xulosani beradi.

## **2.2. Ijodkor devonlari qo'lyozmalarining monografik tavsifi**

Ta'kidlanganidek, hozirda Ahmad Tabibiy lirik asarlari jamlangan qo'lyozma va toshbosma manbalar asosan O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida, O'zRFA Davlat adabiyot muzeyi va Xivadagi "Ichan

qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi fondida saqlanmoqda. Fondagi Tabibiy lirik merosi kiritilgan qo'lyozma manbalarda shoirning devonlari, devonlardan saralab olingan lirik asarlardan yig'ilgan to'plamlar (protodevonlar, terma devonlar), "Vomiq va Azro" she'riy dostoni, Tabibiy tarjimalari (Fuzuliyning "Haft jom", Vahshi Bofiqiyning "Nozir va Manzur" dostonlari) jamlangan. Ta'kidlash kerakki, Ahmad Tabibiy adabiy merosining salmoqli qismi O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida. Jumladan, Tabibiy devoni nusxalari 6226, 3461, 3460, 654, 678, 927, protodevonlar, terma devonlar esa 1122, 1123, 1124, 1144, 1147, 1148, 1159, 2033, 6949, 9572 raqamlari bilan saqlanadi.

Quyida ushbu fondada mavjud shoir asarlari qo'lyozmalarining ilmiy-monografik tavsifini berib o'tamiz:

**6226 raqamli qo'lyozma. دیوان طبیبی ("Devoni Tabibiy").** Mazkur qo'yolyozma Ahmad Tabibiyning "Munisu-l-ushshoq" devoni hisoblanadi. Ushbu qo'lyozma manba qalin qora muqovada. Muqova ustida ham oxirida ham uchtadan unvon bor. 1<sup>b</sup>-sahifada o'rtada qizil siyoh bilan "Debochai Tabibiy" deb sarlavha qo'yilgan. So'ng "*Bismillohir-Rahmonir-Rahim*" bilan debocha matni keltirilgan. Debocha quyidagicha boshlanadi:

حمد بیغایت و ثنای بی نهایت اولمتکم کلام آفرین و قایل کتاب فرقان مبین  
درگاهی غه لایق ...

(*Hamdi bag'oyat va sanoye benihoyat ul mutakallimi kalomi ofarin va qoyili kitobi Furqoni mubiyn dargohig'a loyiq ....*)

Debocha matni 9<sup>a</sup>-sahifada:

اللهم ارزقنا من نعمته العظمی و اجعلنا من دولتی اکبری آمین و یا رب العالمین  
(*Ollohumma marzuqna min ne'matihil uzma va ja'alna min davlatil kubro. Omin va yo Robbal a'lamin*) deb yakunlanadi.

Devon matni boshdan oxirigacha avval to'q ko'k siyohda, so'ng tilla rangli jadval ichida berilgan. Ayrim sahifalarda poygirlar bor. 9<sup>b</sup> va 10<sup>a</sup>-sahifalar bo'sh qoldirilgan. 10<sup>b</sup>-sahifada qizil siyohda "دیوان طبیبی ترکی" ("*Devoni Tabibiyi turkiy musammo ba Munisu-l-ushshoq*") sarlavhasi bor. So'ng pastda "*birlanchi safha*" va "*Bismillohir-Rahmonir-Rahim*" degan yozuvlar bor. So'ng she'rlar qizil siyoh bilan raqamlangan holda ko'chirilgan. Devondagi lirik asarlar boshi quyidagicha:



ای وجودینگه ایماس ظاهر زمان ابتدا  
ایلاکیم ایرماس آنکا موجود وقت انتها

(*Ey vujudingg'a emas zohir zamoni ibtido, Uylakim ermas ongo mavjud vaqti intiho*).

Oxiri:

طبیعی دیک بولور البته گریان  
اولعاشق کیم یاری عتاب ایلامیش

Qo'lyozma kolofoni esa quyidagicha (140<sup>a</sup>):

الحمد لله و المنه حضرت ظل السبحان خلیفه الرحمن باعث الامن و الامان الخاقان ابن الخاقان و السلطان ابن السلطان ابوالمظفر و المنصور ابوالغازی بهادرخان ثانی خلد الله تعالی ملکه و دولته و زیده عمره اول حضرت نینگ فرمانعالی لاری بیله فقیر الحقیر کثیر التقصیر یعقوب دیوان ملقب بخرات بن اوستا قربانیاز خوارزمی دیوان طبیعی نی بیر مینگ اوچ یوز یگرمه یتی لانچی بیل ماه رمضان نینگ سکیز لانچی سی چهارشنبه کونی یازیب اتمام غه یتکوردی موافق تاووق ۱۳۲۷ بیلی.

Ushbu qo'lyozmaning tarkibiga debocha (1<sup>b</sup>-9<sup>a</sup>-sahifalar), g'azallar (10<sup>b</sup>-170<sup>a</sup>-sahifalar), mustazodlar (170<sup>a</sup>-172<sup>b</sup>-sahifalar), murabba'lar (172<sup>b</sup>-175<sup>a</sup>-sahifalar), muxammaslar (175<sup>a</sup>-213<sup>a</sup>-sahifalar), musaddaslar (213<sup>a</sup>-218<sup>a</sup>-sahifalar), musabba' (218<sup>a</sup>-220<sup>a</sup>-sahifalar), musamman (221<sup>b</sup>-221<sup>b</sup>-sahifalar), mutassa' (221<sup>b</sup>-222<sup>a</sup>-sahifalar), muashshar (222<sup>a-b</sup>-sahifalar), tarje'band (223<sup>a</sup>-224<sup>a</sup>-sahifalar), soqiynomalar (224<sup>a</sup>-233<sup>a</sup>-sahifalar), ruboiylar (233<sup>a</sup>-245<sup>a</sup>-sahifalar), qasidalar (245<sup>a</sup>-247<sup>b</sup>-sahifalar), shiru shakar g'azallar (247<sup>b</sup>-229<sup>a</sup>-sahifalar), varsoqilar (barmoq vaznida yozilgan ikkita to'rtlik shaklidaga she'r) (249<sup>a</sup>-250<sup>b</sup>-sahifalar) kabi lirik asarlar kiritilgan.

Matn sarg'ish rang fabrika qog'oziga qora siyoh bilan o'rtacha kattalikdagi chiroyli husnixat bilan har sahifaga ikki ustunda 17 qatordan qilib ko'chirilgan. matnlar tillarang va ko'k jadvallar bilan o'ralgan. Sahifalar hoshiyasiga ko'k rangli chiziq tortilgan bo'lib, har sahifaning quyi qismida poygir, har bir sahifaning yuqori chap burchagiga varaqning raqami qo'yib borilgan. She'rlar raqamlangan. Tabibiyning ushbu devoniga jami 608 ta g'azal, 3 ta mustazod, 3 ta murabba, 53 ta muxammas, 7 ta musaddas, bir musabba', bir musamman, bir mutassa', bir muashshar, bir tarje'band, 5 ta masnaviy soqiynoma, 143 ta ruboiy, 2 ta qasida, 6 ta mulamma g'azal, 2 ta varsoqi she'r kiritilgan. Ushbu qo'lyozmaning kotibi Yaqub devon ibn usto Qurbonniyoz Xorazmiy

(Xarrot) hisoblanadi. Devon 8 ramazon 1327-hijriy (1909) 23-sentyabrda Muhammad Rahimxon ikkinchi (Feruz)ning buyrug'iga ko'ra ko'chirilgan. Fondda "Munisul-ushshoq"ning yana bir qo'lyozmasi bo'lib, u 3461 raqami ostida saqlanadi.

**3461 raqamli qo'lyozma. دیوان طبیی ("Devoni Tabibiy").** Ushbu qo'lyozma tarkibiga ko'ra 6226 raqamli qo'lyozma manba bilan bir xil. Mazkur qo'lyozma tarkibiga *debocha, g'azallar, mustazodlar, murabba'lar, muxammaslar, musaddaslar, musabba', musamman, mutassa', muashshar, tarje'band, masnaviy soqiynomalar, ruboiylar, qasidalar, shiru shakar g'azallar va varsoqilar* kiritilgan.

Qo'lyozmaning boshi quyidagicha:

ای وجودینگ غه ایماس ظاهر زمانی پیدا  
ایله کیم ارماس انگا موجود وقت انتها

Oxiri:

طبیی دیک بولور البته گریان  
اول عاشق کیم یاری عتاب ایلامیش

Kolofon quyidagicha (197<sup>a</sup>):

ظل السبحان خلیفه الرحمن بافت الامن و الامان اعنی ابوالمظفر والمنصور  
ابوالغازی سید محمد رحیم بهادر خان ثانی دام دولته و شوکته نینگ فرمان عالی لاری  
بیله اوشبو دیوان طبیی نی کیم سنه ۱۳۲۷ نچی بیلی ماه ربع الثانی نی یگرمه سکزیدا  
سه شنبه کونی باباجان مخدوم دیوان طرا ابن عبدالعزیز مخدوم مرحومی یازیب اتمام  
غه بتکوردی

Mazkur qo'lyozma ham "Debochai Tabibiy" bilan boshlanadi. Debocha matni ham, lirik janrlar ketma-ketligi ham, qo'lyozma kolofoni ham 6226 raqamli varianti bilan bir xil. Biroq she'rlarning hajmida, ularning ketma-ketligida biroz o'zgachaliklar uchraydi.

**3460 raqamli qo'lyozma. دیوان طبیی ("Devoni Tabibiy").** Ahmad Tabibiyning yana bir turkiy devoni O'zR FASHI qo'lyozmalar fondida 3461 raqami bilan saqlanadi. Ushbu qo'lyozma to'rt qismdan iborat. Uning birinchi qismi shoirning ikkinchi devoni hisoblanadi. Bu haqda devonning 1<sup>b</sup>-sahifasi o'rtasida العاشقین بحیرت مسمما ترکی طبیی دیوان لانچی ("Ikilanchi devoni Tabibiy turkiy musammo bahayratu-l-oshiqin") deb qizil siyohda yozilgan. So'ng qora siyohda "Bismillohir-Rahmonir-

*Rahim*” deb yozilib, Tabibiyning “Hayratu-l-ushshoq”<sup>93</sup> devonidagi lirik asarlari ko‘chirilgan. Fondagi manbalarni o‘rganish natijalari hozircha Tabibiy “Hayratu-l-ushshoq” devonining yagona to‘liq qo‘lyozmasi mana shu 3460 raqamli manba ekanini ko‘rsatadi. Ushbu devonning ham toshbosma nusxasi mavjud bo‘lib, ushbu toshbosma nusxa aynan mana shu qo‘lyozma asosida bosilgan.

Devonning boshi quyidagicha:

ثنا بولسون آنگا كيم باردور اول قادر يكتا  
قىلور بير امر ايكي حرف ايله هم كون و مكان پيدا

Oxiri esa quyidagicha:

هر دعا قىلسم ملائكدين يتور آمين آنگا  
تا كه آمين دعا خلق ايچره تاپغاي اشتهار

Shoirning ushbu devonidan g‘azallar (1<sup>b</sup>-138<sup>b</sup>-sahifalar), mustazodlar (138<sup>b</sup>-139<sup>b</sup>-sahifalar), murabba‘lar (140<sup>a</sup>-143<sup>a</sup>-sahifalar), muxammaslar (143<sup>a</sup>-193<sup>a</sup>-sahifalar), musaddaslar (193<sup>a</sup>-200<sup>b</sup>-sahifalar), musammanlar (200<sup>b</sup>-205<sup>b</sup> -sahifalar) tarje‘bandlar (205<sup>b</sup>-213<sup>b</sup> -sahifalar), masnaviylar (213<sup>b</sup>-220<sup>a</sup>), ruboiylar (220<sup>a</sup>-235<sup>b</sup>), qit‘alar (235<sup>b</sup>-244<sup>a</sup>), bahri tavil (244<sup>a-b</sup>) va bir qasida (244<sup>b</sup>-245<sup>a</sup>) o‘rin olgan.

Devondagi asosiy matn shoirning:

ثنا بولسون آنگا كيم باردور اول قادر يكتا  
قىلور بير امر ايكي حرف ايله هم كون و مكان پيدا

*(Sano bo‘lsun ongakim, bordur qodiri Yakto,*

*Qilur bir amr, ikki harf ila ham kavnu makon paydo)* – matla‘li

g‘azali bilan boshlanadi. Devonning oxiri esa Tabibiyning:

هر دعا قىلسم ملائكدين يتور آمين آنگا  
تا كه آمين دعا خلق ايچره تاپغاي اشتهار

*(Har duo qilsa maloikdin etur “omin” ango,*

*Toki omini duo xalq ichra topg‘ay ishtihor)* - maqtasi bilan yakunlanuvchi qasidasi hamda “*tammam al-kitob bi avnil malikil-vahhob*” jumlasini bilan tugaydi.

Matn qora siyohda, zavodda ishlab chiqarilgan kulrang qog‘ozga 19 qatordan iborat ikki ustunda o‘rta nasta‘liq xatida

<sup>93</sup> “Hayratu-l-ushshoq” devoni shu paytgacha shoir ijodi bilan bog‘liq ma‘lumotlarda “Hayrat ul-oshiqin” tarzida nomlanib kelingan. 3460 inventar raqamli qo‘lyozma “Ikilanchi devoni Tabibiy turkiy musammo ba Hayratu-l-oshiqin” tarzida kotib tomonidan sarlavhalangan. Ehtimol, shu sababli devon “Hayrat ul-oshiqin” deb nomlanib kelingan. Biroq Tabibiy o‘zining “Munisul-ushshoq” devoni debochasida ushbu devonini “Hayratu-l-ushshoq” tarzida keltiradi.

ko'chirilgan. Sahifalarda poygir qo'yilmagan. Har bir varaqning yuqori chap burchagida varaq raqamlari qo'yilgan. Sahifa raqami varaqning yuqoridagi markaziy qismida joylashgan. She'rlar qizil rangda raqamlangan. Muxammas va musaddaslarning tepasida taxmis va musaddasga asos qilib olingan g'azal mualliflarining ismlari ham qizil rangda yozilgan.

Mazkur qo'lyozma manbada 434 ta g'azalga raqam qo'yilgan. Aslida g'azallar soni bundan ko'proq. Ya'ni hoshiyalarda ham Tabibiy qalamiga mansub ko'plab g'azallar ko'chirilgan bo'lib, g'azallarni raqamlashda bular e'tiborga olinmagan. Hoshiyalarda 170 ta g'azal ko'chirilgani e'tiborga olinsa, devondagi g'azallarining adadi 605 ta ekani aniqlashadi. Qo'lyozmaning 138<sup>b</sup>-sahifasida g'azallar yakunlanadi. Shu sahifada "Mustazodi Tabibiy" sarlavhasi bilan shoirning 5ta mustazodi keltirilgan. Mustazodlar 138<sup>b</sup>- 139<sup>ab</sup> - sahifalarda va shu sahifalar hoshiyasida yozilgan.

139<sup>b</sup>-sahifaning oxiri 140<sup>a</sup>-sahifaning boshidan "Murabba'i Tabibiy" sarlavhasi bilan shoirning 4ta murabba' she'ri boshlanadi. Murabba'lar 142<sup>b</sup> -sahifada yakunlanadi. 143<sup>a</sup>-sahifadan muxammaslar boshlangan.

Muxammaslar Lutfiy, Navoiy, Husayniy, Fuzuliy, Munis, Ogahiy, Feruz, Nishotiy, Rojiiy, Xatoiy, Amir, Xolis, Ravnak, Komil, Xayoliy, Sodiq, Avaz, Ojiz, Kamoliy, Devoniy, Doiy, Chokar, Nadimiy, Rog'ib, Sultoniy, Fano, Mirzo, Murodiy, Xodim, Xokiy, Shinosiy, Niyoziy, Yusuf, Mutrib Xonaxarob, Habib, Umidiy, Bayoniy, Asad, G'oziy, Purkomil, Vazir, Mushrif, Oshiq, Ado, Hoziq, Fazliy, Nola, Afsus, Hijlat, Vahmiy, Hotam, Nadimiy, Ulviy, Vasfiy, Naf'iy, Nasib, G'aribiy, Boqiy, Avniy, Navras, Hoshim, Zotiy, Noiliy, Laylo, Zevar, Fitnat, Sham'iy, Mohir, Ayniy, Muhibbiy, Somiy, Qudsiy, Muxlis, Odil, Partav, Qoil, Sobir va G'ulomiylarning g'azallariga bitilgan. Qo'lyozmaning 2<sup>b</sup>-7<sup>a</sup>, 8<sup>b</sup>-10<sup>a</sup>, 20<sup>b</sup>-22<sup>a</sup>, 26<sup>b</sup>-27<sup>a</sup>, 30<sup>b</sup>, 35<sup>b</sup>-36<sup>a</sup>, 39<sup>b</sup>-40<sup>b</sup>, 43<sup>b</sup>-45<sup>b</sup>, 48<sup>b</sup>-49<sup>a</sup>, 52<sup>a</sup>-56<sup>b</sup>, 58<sup>a</sup>-61<sup>b</sup>, 62<sup>b</sup>-64<sup>a</sup>, 67<sup>b</sup>-68<sup>b</sup>, 71<sup>b</sup>-72<sup>a</sup>, 75<sup>b</sup>-76<sup>a</sup>, 79<sup>b</sup>, 83<sup>b</sup>-84<sup>a</sup>, 87<sup>b</sup>-88<sup>a</sup>, 91<sup>b</sup>-93<sup>a</sup>, 96<sup>b</sup>, 100<sup>b</sup>-101<sup>a</sup>, 104<sup>a</sup>-114<sup>b</sup>, 117<sup>b</sup>-120<sup>b</sup>, 122<sup>b</sup>-124<sup>a</sup>, 126<sup>a</sup>-131<sup>a</sup>, 132<sup>b</sup>-139<sup>b</sup>, 142<sup>b</sup>-162<sup>a</sup>, 193<sup>b</sup>-194<sup>b</sup> varaqlarining hoshiyalarida ham matn joylashtirilgan.

193<sup>a</sup>-sahifadan "musaddasoti Tabibiy" boshlangan. Musaddaslarning birinchisi Ogahiyning "Suvrating" radifli

g‘azaliga bog‘langan. 193<sup>b</sup>-sahifada G‘ulomiy g‘azaliga, shu sahifa hoshiyasi ham bir musaddas ko‘chirilgan bo‘lib, unga “*Musaddasi Tabibiy batartibi tazmin*” nomli sarlavha qo‘yilgan. Qo‘lyozmaning 200<sup>b</sup>-sahifasidan Tabibiyning musamman she‘rlari ko‘chirilib, musammanlar 205<sup>b</sup>-sahifada tugaydi. Musammanlar jami beshta. 205<sup>b</sup> - sahifadan shoirning tarje‘band she‘rlari boshlanib, ular 213<sup>b</sup>-sahifada yakunlanadi. Tarje‘bandlar soni ham beshtani tashkil etadi.

213<sup>b</sup>-sahifadan “*masnaviyi soqiynomai Tabibiy*” boshlanib, 220<sup>a</sup>-sahifagacha beshta soqiynoma ko‘chirilgan. Qo‘lyozmaning shu sahifasidan ruboiylar boshlanadi. 235<sup>b</sup>-sahifagacha 201 ta ruboiyga raqam qo‘yib ko‘chirilgan. Biroq ruboiylar soni 202 tani tashkil etadi. Ya‘ni 220<sup>b</sup> -sahifa hoshiyasida ham bir ruboiy ko‘chirilgan bo‘lib, u raqamlanmagan.

Qo‘lyozmaning 235<sup>b</sup>-sahifasidan 244<sup>a</sup>-sahifasigacha 75 ta raqamlangan qit‘a ko‘chirilgan. Aslida qit‘alar soni 77 ta, ya‘ni 236<sup>b</sup> -sahifa hoshiyasida ham ikkita 5 baytli qit‘a ko‘chirilgan bo‘lib, ular raqamlanmagan. 244<sup>a</sup>-sahifada “*Bahri tavil Tabibiy*” ko‘chirilgan. 244<sup>b</sup>-sahifada 29 baytli “*qasidai Tabibiy*” ko‘chirilgan.

Manbaning birinchi qismi – “Hayratu-l-ushshoq” qismi 245<sup>a</sup>-sahifada yakunlanadi, sahifalarida poygir qo‘yilmagan.

Qo‘lyozmaning ikkinchi qismi 246<sup>a</sup>-sahifadan boshlanadi. Ikkinchi qismda birinchi qismdan farqli o‘laroq, sahifalarda poygilar berib borilgan. 246<sup>b</sup>-sahifada “Basmala” yozilib, undan so‘ng qizil siyohda “Nozir Manzur Tabibiy” sarlavhasi qo‘yilgan she‘riy matn boshlanadi. Bu qism “Nozir va Manzur” dostoni tarjimasi bo‘lib, matn:

*Zihi kavnayn aro har budu nobud,*

*Borisi qudratingdin bo‘ldi mavjud,* - tarzida boshlanadi. Doston matni 284<sup>b</sup> - sahifada yakunlanadi.

285<sup>a</sup>-326<sup>b</sup>-sahifalar qo‘lyozmaning uchinchi qismi bo‘lib, u quyidagicha yakunlangan:

الحمد لله المنه ظل السبحان خليفه الرحمن اعنى ابوالمظفر المنصور ابوالغارى سيد  
محمد رحيم بهادر خان دام دولته نينگ فرمان على لارى بله بير مينگ اوچيوز بيگيرمه  
آلتى لانجى سنه 1326 اشبو يتى جام نى باباجان ديوان ترا ابن عبدالعزيز مخدوم يازيب  
اتمام سرحدى غه يتكوردى.

Qo'lyozmaning 327<sup>a</sup> -sahifasidan to'rtinchi qism boshlanadi. Ushbu sahifadan Tabibiy ijodiga mansub g'azallar ko'chirilgan. 32 ta g'azal va bir masnaviy ko'chirilgan bo'lib, qo'lyozma 335<sup>a</sup> -sahifada yakunlanadi.

### 654 raqamli qo'lyozma. دیوان طبیی (“Devoni Tabibiy”)

Ro'yxatda shoirning turkiy va forsiy tillardagi she'rlari quyidagicha ko'chirilgan. Ular g'azallar (1<sup>b</sup>-121<sup>a</sup>-sahifalar), tarje'bandlar (121<sup>a</sup>-138<sup>a</sup>-sahifalar) soqiynomalar (138<sup>a</sup>-141<sup>a</sup>-sahifalar), g'azallar (141<sup>a</sup>-142<sup>a</sup>-sahifalar), soqiynomalar (142<sup>a</sup>-145<sup>a</sup>-sahifalar), g'azallar (145<sup>a</sup>-147<sup>a</sup>-sahifalar), soqiynomalar (147<sup>a</sup>-150<sup>a</sup>-sahifalar), ruboiylar (150<sup>b</sup>-sahifa), fardlar (150<sup>b</sup>-sahifa) va qit'alar (151<sup>a</sup>-152<sup>a</sup>-sahifalar).

Qo'lyozma boshi quyidagicha:

نی خوش بولور ایردی اگر لطف ایلابان دلبر بو کون  
وز ایلکی بیرله بیر یولی توتسه منگا ساغر بو کون

Oxiri esa:

هر ذره بر باد از خاک ما بهر جا  
چون در زمانه ارمانم نشان نماند

Qo'lyozmaning kolofoni esa quyidagicha:

تمت الكتاب بعون الملك الوهاب. بهادر خان ثانی ظل السبحان خلیفه الرحمن  
اعنی محمد رحیم خلد الله ملک و سلطنه نینگ فرمان عالی لاری بیله اوشبو بیاض  
طیبی نی فقیر الحقیر محمد شریف دیوان ابن الله برگان دیوان مرحمی موافق قوی بیلی  
۱۳۲۵ رجب المرجب آبی نینگ یتی لانچی سی پنجشنبه کونی یازیب اتمام غه  
یتکوردی.

Matn sariq rangli fabrika qog'oziga nasta'liq xatida qora siyoh bilan ko'chirilgan. Matn har sahifada o'rtacha 8 qatordan ikki ustun qilib ko'chirilgan. Tilla va havo rang chiziqlar bilan hoshiyalangan. Sahifaning chetlari qizil chiziq bilan hoshiyalangan. Har bir g'azalning boshida qizil siyohda غزل طبیی tarzida sahifalangan. Sahifaning chap burchagida sahifa raqami qo'yilgan. Betning yuqori markaziy qismida bet raqami qo'yilgan. Kotibning sahifalashi yo'q. 151<sup>a</sup> -sahifaning boshida sarlavha qizil siyohda quyidagicha yozilgan: *مظلوم خان سلوغ در مقبره یکم نوشته بود*. Qo'lyozma unvonlangan. 2<sup>a</sup>- sahifaning o'ng burchagi markazida quyidagi eslatma berilgan: *برلانچی ورق*.

Qo'lyozma kotibi Muhammad Sharif devon ibn Ollohbergan devon marhum (محمد شریف دیوان ابن الله برگان دیوان مرحمی). Ko'chirish

sanasi: 7 rajab 1325 /17 avgust 1907. Yashil rangdagi uchta bo‘rtmali qattiq muqovali kitob. Matn o‘lchami 22x14.

**678/I raqamli qo‘lyozma. دیوان طبیبی (“Devoni Tabibiy”).** Qo‘lyozmada Tabibiyning *g‘azal* (1<sup>b</sup>-50<sup>a</sup>-sahifalar), *mustazod* (50<sup>ab</sup>-sahifalar), *murabba’* (50<sup>b</sup>-51<sup>a</sup>-sahifalar), *muxammas* (51<sup>a</sup>-69<sup>a</sup>-sahifalar), *tarje’band* (69<sup>ab</sup>-sahifalar), *musamman* (69<sup>b</sup>-73<sup>a</sup>-sahifalar), *masnaviy* (73<sup>a</sup>-74<sup>b</sup>-sahifalar), *ruboiy* (74<sup>b</sup>-78<sup>b</sup>-sahifalar), *qit’a* (78<sup>b</sup>-80<sup>b</sup>-sahifalar), *bahri tavil* (80<sup>b</sup>-81<sup>a</sup>-sahifalar), *masnaviy* (81<sup>a</sup>-sahifa) kabi she‘rlari jamlangan.

Boshi quyidagicha:

ثنا بولسون آنگا کیم باردور اول قادر یکتا  
قیلور بیر امر ایکی حرف ایله هم کون و مکان پیدا

Oxiri quyidagicha:

هر دعا قیلسم ملانکدین یتور آمین آنگا  
تا که آمین دعا خلق ایچره تاپغای اشتهار

Kolofon quyidagicha:

حضرت پادشاه ظل السبحان ناعت الامن و الامان اعنى سيد محمد رحيم بهادر  
خان ثانی نینگ فرمان فرحت نشانلاری بیلا بو دیوان طبیبی کیم حیره العاشقین دیب  
آتالغان ایردی فقیر الحقیر داملا آدم ولد داملا آرتوق نیاز مرحومی نینگ قولیدا تحریر  
تاپیب سنه هجرینگ اوچ یوز یگرمه یتى لانچی ایردی کیم اختتام سرحدیغه یتوشدی.  
الحمد لله تعالى ... ۱۳۲۷

Matn sharqona kulrang qog‘ozga nasta’liq xatida qora siyoh bilan o‘rtacha 39 qatordan to‘rt ustun qilib ko‘chirilgan. Kotib paginatsiyasi bor. 1<sup>a</sup>-sahifada qora siyohda yozilgan quyidagi eslatma bor: دیوان طبیبی برنچی دفتر. Bu yozuv ostida ko‘k rangdagi avtoruchka bilan qavs ichida yozilgan boshqa eslatma ham bor: حیره العاشقین. Qavsdan tashqarida esa quyidagi yozuv bor: حیره العاشقین.

Qo‘lyozma kotibi – Domla Odam valadi domla Ortuqniyoz marhum (داملا آدم ولد داملا آرتوق نیاز مرحومی). Ko‘chirish sanasi: 1327/1909.

Havorang oddiy zamonaviy qattiq muqova. Qo‘lyozma 81 sahifadan iborat. Matn o‘lchami; 50x29,5.

**678/II raqamli qo‘lyozma. دیوان طبیبی (“Devoni Tabibiy”).** Ro‘yxat *debocha* (83<sup>b</sup>-85<sup>a</sup>-sahifalar), *g‘azal* (86<sup>b</sup>-122<sup>a</sup>, 139<sup>b</sup>-140<sup>a</sup>-sahifalar), *mustahzod* (122<sup>ab</sup>-sahifalar), *murabba’* (122<sup>b</sup>-123<sup>a</sup>-sahifalar), *muxammas* (123<sup>a</sup>-132<sup>a</sup>-sahifalar), *musaddas* (132<sup>a</sup>-133<sup>a</sup>-sahifalar), *musabba’* (133<sup>b</sup>-sahifalar), *musamman* (133<sup>b</sup>-134<sup>a</sup>-sahifalar).

sahifalar), *muashshar* (134<sup>a</sup>-sahifa), *tarje'band* (134<sup>ab</sup>-sahifalar), *soqiynoma* (134<sup>b</sup>-136<sup>b</sup>-sahifalar), *ruboiy* (136<sup>b</sup>-139<sup>a</sup>-sahifalar), *qasida* (139<sup>ab</sup>-sahifalar), *varsoqi* (140<sup>a</sup>-sahifa)dan iborat. Devonning boshi quyidagicha:

ای وجودینگه ایماس ظاهر زمان ابتدا  
اویلاکیم ایرماس آنکا موجود وقت انتها

Devonning oxiri:

طبیعی دیک بولور البته گریان  
اولعاشق کیم یاری عتاب ایلامیش

Qo'lyozma kolofoni esa quyidagicha:

الحمد لله و المنه بو دیوان طبیعی نی کیم مونس العشاق اسمی بیلا مسمی ایردی  
حضرت سید محمد رحیم بهادرخان ثانی زاد الله تعالی عمره و دولته نینگ فرمان فرحت  
نشان لاری بیلا من فقیر الحقیق داملا محمد آدم ولد داملا آرتوق مرحومی هجرت نینگ  
بر مینگ اوچ یوز یگرمه سکیز لانچی بیلی محمر الحرام آبی نینگ سلخیدا تحریر  
ایتیب نهایتی غه یتوشدیم. تمت ۱۳۲۸ الكتاب بعون الله الوهاب.

Matn qora siyoh bilan sharqona kulrang qog'ozda, nasta'liq xatida, o'rtacha 39 qatordan to'rt ustun qilib ko'chirilgan. Kotib paginatsiyasi bor. 83<sup>a</sup>-sahifada keyingi davrga oid yozuv mavjud bo'lib, devon kotibi xatiga o'xshamaydigan katta shriftdagi quyidagi eslatma bor: دیوان طبیعی ایکیلانچی دفتر.

Qo'lyozma kotibi – Domla Odam valadi domla Ortuqniyoz marhum (damla Adam ولد داملا آرتوق نیاز مرحومی). Ko'chirilgan vaqti: muharram 1327 /yanvar 1909.

Havo rangdagi oddiy zamonaviy qattiq muqovali kitob. Qo'lyozma 57 sahifadan iborat. Matn o'lchami; 50x29,5.

**678/III-raqamli qo'lyozma. دیوان طبیعی (“Devoni Tabibiy”)**  
Ushbu qo'lyozmada Tabibiyning beshta – uchta turkiy, ikkita forsiy tilda tartib bergan devonining tuzilishi bilan bog'liq ma'lumotlarni o'z ichiga olgan *debocha* (142<sup>b</sup>-143<sup>b</sup>-sahifalar), *g'azal* (144<sup>b</sup>-161<sup>a</sup>-sahifalar), *mustahzod* (161<sup>ab</sup>-sahifalar), *muxammas* (162<sup>b</sup>-173<sup>b</sup>-sahifalar), *tarje'band* (173<sup>b</sup>-sahifa), *qasida* (174<sup>ab</sup>-sahifalar), *ruboiy* (174<sup>b</sup>-175<sup>a</sup>-sahifalar) janrlariga oid she'rlari kiritilgan. Devonning boshi quyidagicha:

ای نازنین یکبوسه این دم بکن احسان مرا  
جانم رسیده بر لبم از محنت هجران مرا

Oxiri esa quyidagicha:

اکنون بسرش قتاده چندین مشکل



امید باو وصل بود اندر دل

Devon kolofoni quyidagicha berilgan:

الحمد لله و المنه حضرت خيفة الرحمن ظل السبحان باعث الامن و الامان  
جهانبان ليق اساسيغه بانى اعنى سيد محمد رحيم بهادر خان ثانى زاد الله تعالى عمره و  
اقباله نينگ فرمان فرحت نشانى يمى دين بو ديوان طبيبي داملا آدم مخذوم ولد داملا  
آرتوق مرحومى نينگ قوليدا سنه هيجريه ۱۳۲۸ لانچى ايردى رقم تاپدى.

Matn qora siyoh bilan sharqona kulrang qog‘ozda, nasta’liq  
xatida, o‘rtacha 39 qatordan to‘rt ustun qilib ko‘chirilgan. Kotib  
paginatsiyasi bor. 142<sup>a</sup>-sahifada keyingi davrga oid yozuv mavjud  
bo‘lib, devon kotibi xatiga o‘xshamaydigan katta shriftda yozilgan  
quyidagi eslatma bor:

اوچلانچى دفتر فارسى ديوان طبيبي

Qo‘lyozma kotibi – Domla Odam valadi domla Ortuqniyoz  
marhum (داملا آدم ولد داملا آرتوق نياز مرحومى). Ko‘chirish sanasi: 1328  
/1910.

Oddiy zamonaviy havorang qattiq muqova. Qo‘lyozma 33  
sahifadan iborat. Matn o‘lchami; 50x29,5.

**927/I raqamli qo‘lyozma. ديوان طبيبي (“Devoni Tabibiy”).**  
Ushbu qo‘lyozmadan ham Tabibiy qalamiga mansub alifbo ketma-  
ketligidagi *g‘azallar* (1<sup>b</sup>-214<sup>b</sup>-sahifalar) hamda *mustazhodlar*  
(212<sup>b</sup>-214<sup>b</sup>-sahifalar) o‘rin olgan. Manbaning boshlanishi  
quyidagicha:

ای حمدینگا ذاکر ایروور بالکل لسان ماسوا

هر ذکر دین تاپیب باری دل لار بسی فیض و صفا

Oxiri:

تولسه ایدی گر ساقی آنی قیلغالی دل شاد

عشق ایچره نه کیم بارپر جام مصفا

Kolofon:

الحمد لله و المنه اوشبو ديوان طبيبي کيم با امر سلطان الزمان و نادر الدوران  
اعنى ابوالمظفر و المنصور ابوالغازى سيد محمد رحيم بهادر خان دام دولته و شوکته  
نينگ فرمان عالی لاری بیلان بیر مینگ اوچ یوز یگر مه یتى لانچى یلی ماه ربیع الثانی  
نینگ اخیری ایردیکیم ملا بالطه نياز المتخلص بالندیمی ولد اوستا قربانیاز یازیب  
اتمامغه یتکوردى. تمت الكتاب بعون ملک الوهاب. سنه 1327.

Matn fabrika qog‘oziga qora siyoh bilan nasta’liq xatida  
o‘rtacha 21 qatordan ikki ustun qilib ko‘chirilgan. Sahifalarda kotib  
paginatsiyasi bor. Undan tashqari har bir sahifaning yuqori chap

burchagida sahifa raqami va o'rtasida bet raqami qo'yilgan. She'rlar raqamlangan. Ro'yxat 921 ta g'azal va 4 ta mustahzoddan iborat.

Qo'lyozma kotibi – Mulla Boltaniyoz taxallusi Nodimi valadi usta Qurbonniyoz (ملا بالطه نیاز المتخلص بالندیمی ولد اوستا قربانیاز). Ko'chirish sanasi 1327/ 1909.

Sariq rangdagi uchta bo'rtmali qattiq muqova. Qo'lyozma 214 sahifadan iborat. Matn o'lchami: 26x16,5.

**927/II raqamli qo'lyozma. دیوان طبیی (“Devoni Tabibiy”).** Qo'lyozmada shoirning she'rlari *murabba'* (215<sup>b</sup>-219<sup>a</sup> sahifalar), *muxammas* (219<sup>a</sup>-296<sup>a</sup>-sahifalar), *musaddas* (297<sup>a</sup>-303<sup>a</sup>-sahifalar), *musamman* (303<sup>a</sup>-306<sup>b</sup>-sahifalar), *tarje'band* (306<sup>a</sup>-312<sup>b</sup>-sahifalar), *soqiynoma* (312<sup>b</sup>-322<sup>a</sup>-sahifalar), *qasida* (322<sup>a</sup>-332<sup>b</sup>-sahifalar), “*debochai masnaviy*” (332<sup>b</sup>-336<sup>b</sup>-sahifalar), *munojot* (336<sup>b</sup>-337<sup>b</sup>-sahifalar), “*dahrnoma*” (337<sup>b</sup>-340<sup>a</sup>-sahifalar), *munojot* (340<sup>a</sup>-340<sup>b</sup>-sahifalar), “*dahrnoma*” (340<sup>b</sup>-343<sup>a</sup>-sahifalar), *munojot* (343<sup>a</sup>-343<sup>b</sup>-sahifalar), “*dahrnoma*” (343<sup>b</sup>-345<sup>b</sup>-sahifalar), *munojot* (345<sup>b</sup>-346<sup>a</sup>-sahifalar), “*dahrnoma*” (346<sup>a</sup>-348<sup>b</sup>-sahifalar), *munojot* (348<sup>b</sup>-349<sup>b</sup>-sahifalar), “*xotimai masnaviyat*” “*dahrnoma*” (349<sup>b</sup>-350<sup>a</sup>-sahifalar), *ruboiyot* (350<sup>a</sup>-357<sup>b</sup>-sahifalar), *chiston* (357<sup>b</sup>-358<sup>a</sup>-sahifalar), *tuyuq* (358<sup>ab</sup>-sahifalar), *qit'a* (358<sup>b</sup>-360<sup>a</sup>-sahifalar), *fard* (360<sup>ab</sup>-sahifalar), *ta'rix* (360<sup>b</sup>-sahifalar) tartibida joylashirilgan. Qo'lyozmaning boshlanishi quyidagicha:

تا لطف ایلاب کیلدینگز من زار حیران اوستینه  
ناز ایله منزل قیلدینگز بو چشم گریان اوستینه

Oxiri:

تاریخی یگیرمه بیر رجب دین بولوبان  
مینگ اوچ یوز هم یگرمه یتی سالی

Kolofon:

الحمد لله و المنه اوشبو مخمسات طبیی کیم با امر سلطان الزمان و نادر الدوران و المنصور ابوالغازی سید محمد رحیم بهادرخان دام دولته و شوکته اعنی ابوالمظفر مینگ اوچ یوز یگرمه یتی لانجی یلی ماه رجب نینگ فرمان عالی لاری بیلان بیر نینگ یگرمه بیش لانجی کونی ایردیکیم ملا بالطه نیاز المتخلص بالندیمی ولد اوستا 1327. قربانیاز یازیب اتمامغه یتکوردی. تمت الکتاب بعون ملک الوهاب. سنه

Qo'lyozmadagi Tabibiy muxammaslari Somiy, Muhibbiy, Feruz, Partav, Qoyil, Xayoliy, G'ulomiy, Mirzo, Shinosiy, Noziriy, Purkomil, Oqil, G'oziy, Asad, Xolis, Rojiy, Komil, Munis, Fuzuliy, Xotib, Amir, Husayniy, Vazir, Nishotiy, Qudsiy, Laylo, Navoiy,

Sodiq, Sultoniy, Farrux, Ogahiy, Murodiy, Ravnaq, Sa'diy, Bayoniy, Muznib, Xokiy, Avaz, Xodim, Nodim, Chokar, Xabib, Umidiy, Do'iy, Niyoziy, Haqiriy, Mutrib Xonaxarobiy, Yusuf, Rog'ib, Ojiz, Inoyat, Devoniy, Avniy, Lutfiy, Noiliy, Mohir, Omoniy kabi shoirlar g'azallariga bog'langan.

Matn fabrika qog'oziga nasta'liq xatida qora siyoh bilan o'rtacha 21 qatordan ikki ustunda ko'chirilgan. Kotib paginatsiyasi bor. Undan tashqari har bir sahifaning chap burchagida sahifa raqami va o'rtada bet raqami qo'yilgan. She'rlar raqamlangan. 216<sup>a</sup>-217<sup>b</sup>, 219<sup>b</sup>-220<sup>a</sup>, 297<sup>a</sup>-299<sup>b</sup>-sahifalarining hoshiyasiga ham she'rlar joylashtirilgan.

Qo'lyozma kotibi – Mulla Boltaniyoz taxallusi Nodimi valadi usta Qurbonniyoz (ملا بالطه نیاز المتخلص بالنديمی ولد اوستا قربانیاز). Ko'chirilgan vaqti: 25 rajab 1327/12-avgust 1909.

Sariq rangdagi uchta bo'rtmali qalin muqovali kitob. Matn o'lchami: 26x16,5.

**1122 raqamli qo'lyozma. دیوان منتخب طبیبی (“Devoni muntaxab Tabibiy”).** Ushbu qo'lyozmaga shoirning g'azallari (1<sup>b</sup>-56<sup>a</sup>-sahifalar), masnaviylari (56<sup>a</sup>-69<sup>b</sup>-sahifalar), chistonlari (69<sup>b</sup>-70<sup>b</sup>-sahifalar), masnaviylari (70<sup>b</sup>-87<sup>b</sup>-sahifalar), qit'alari (87<sup>b</sup>-89<sup>b</sup>-sahifalar), masnaviylari (90<sup>a</sup>-96<sup>a</sup>-sahifalar), ruboiylari (96<sup>a</sup>-106<sup>b</sup>-sahifalar), fardlari (106<sup>b</sup>-107<sup>a</sup>-sahifalar), tuyuqlari (107<sup>ab</sup>-sahifalar), g'azallari (107<sup>b</sup>-141<sup>b</sup>-sahifalar), musaddaslari (141<sup>b</sup>-143<sup>a</sup>-sahifalar), g'azallari (143<sup>a</sup>-156<sup>a</sup>-sahifalar) kiritilgan. Ushbu she'rlarning deyarli barchasi Tabibiyning devonlarida uchramaydi.

Devonning boshi quyidagicha:

ترک ایله نازینگ بیر نفس ایلب کرم ای سروناز  
حدّین آشدی عشق ایلی جانی ارا سوز گداز

Oxiri quyidagicha:

قیلدی طبیبی زاردیک من خسته دلنی کامیاب  
یوز شوکرکیم اوشبو کیچه بزیم ارا جانان کیلیب

Qo'lyozma kolofoni quyidagicha:

الحمد لله و المنه اوشبو بیاض کیم با امر سلطان الزمان و نادر دوران الخاقان ابن الخاقان  
باعث الامن و الامان سلیمان نیشان اعنی ابو المظفر والمنصور ابولغازی سید محمد  
رحیم بهادر خان دام ملکه اول جنابنی فرمان عالیلری بیرله فقیر الحقییر محمد یوسف  
ابنی محمد یعقوب دیوان ملقبربخرات یازیب  
اتمامغه یتکوردی. سنه 1327.

*(Alhamdulillah val minna ushbu bayozkim ba amri sultonu-z-zamon va nodiri davron al-xoqon ibni al-xoqon boisi al-amni val-amon Sulaymon nishon a'ni Abulmuzaffar va-l-Mansur Abulg'oziy Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon doma mulkuhu ul janobni farmoni oliylari birla faqiru-l-haqir mullo Muhammad Yusuf ibni Muhammad Ya'qub Devon mulaqqab bi Xarrot yozib itmomg'a yetkurdi. Sana 1327).*

Matn fabrikaning rangli qog'oziga qora siyoh bilan o'rta qalinlikdagi nasta'liq xatida 5 qatordan ikki ustunda ko'chirilgan. Matn tilla va havorang chiziqlar bilan hoshiyalangan. Sahifalarning chetlari qizil rangda hoshiyalangan. Har bir she'r boshida qizil siyoh bilan she'r janri ko'rsatilgan. Har bir sahifaning yuqori chap burchagiga sahifa raqami qo'yilgan. Sahifaning markaziy yuqori qismida bet raqami qo'yilgan. Sharqona sahifalash qo'yilmagan.

Qo'lyozma kotibi – Mulla Muhammad Yusuf ibn Muhammad Yoqub Devon taxallusi Xarrot ( ملا محمد يوسف ابن محمد يعقوب ديوان ملقب ) (بخرات). Ko'chirilgan vaqti: 1327/1909. Xiva xoni Muhammad Raximxon ikkinchining buyrug'i bilan ko'chirilgan.

Yashil rangdagi uchta bo'rtmali qattiq teri muqovali kitob. Markaziy bo'rtmadagi yozuv quyidagicha: 1309 يا قاضى الحاجات. Chetlari o'yima naqshlar bilan bezatilgan. Qo'lyozma 156 sahifadan iborat. Matn o'lchami: 26x15,5.

**1123 raqamli qo'lyozma. ديوان منتخب طبيى (“Devoni muntaxab Tabibiy”).** Ushbu qo'lyozma faqatgina g'azallardan (1<sup>b</sup>-156<sup>a</sup>-sahifalar) tarkib topgan. G'azallar alifbo tartibida berilmagan.

Boshi:

بزمیمگه کیل آچیب عذار ایگولبدن ایگولبدن  
کیم هجرینگ ایتدی بیقرار ایگولبدن ایگولبدن

*(Bazming'a kel ochib ruxsor, ey gulbadan, ey gulbadan, Kim hajring etdi beqaror, ey gulbadan, ey gulbadan)*

Oxiri:

ای طبيی همه شدتغه  
جز توکل داغی درمان اولمس

*(Ey Tabibiy, hama shiddatg'a, Juz tavakkul dog'i darmon o'lmas)*

Kolofon quyidagicha: *“Alhamdulillah val minna ushbu bayozkim ba amri sultonuz-zamon va nodiri davron al-xoqon ibni*

*al-xoqon boisi al-amni val-amon Sulaymon nishon a'ni Abulmuzaffar va-l-Mansur Abulg'oziy Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon doma mulkuhu ul janobni farmoni oliylari birla faqirul-haqir mullo Muhammad Yusuf ibni Muhammad Ya'qub Devon mulaqqab bi Xarrot yozib itmomg'a yetkurdi. Sana 1327".*

Matn fabrikaning rangli qog'oziga qora siyoh bilan o'rta qalinlikdagi nasta'liq xatida 5 qatordan ikki ustunda ko'chirilgan. Matn tilla va ko'k rangli chiziqlar bilan hoshiyalangan. Sahifalarning chetlari qizil rangda hoshiyalangan. Devonning boshida qizil siyohda "غزليات طبيبي" deb yozilgan. Shuningdek har bir g'azalning tepa qismida "غزل" deb yozilgan. G'azallar raqamlangan. Ro'yxatga 365 ta g'azal kiritilgan. Har bir sahifaning yuqori chap burchagiga sahifa raqami qo'yilgan. Sahifaning markaziy yuqori qismida bet raqami qo'yilgan.

Qo'lyozma kotibi – Mulla Muhammad Yusuf taxallusi Chokar ibn Muhammad Yoqub devon taxallusi Xarrot ( ملا محمد يوسف المتخلص ) (بالچاكر ابن محمد يعقوب ديوان ملقب بخرات). Ko'chirish sanasi: 1327/1909. Xiva xoni Muhammad Raximxon ikkinchining buyrug'i bilan ko'chirilgan.

Yashil rangdagi uchta bo'rtmali teri muqovali kitob. Markaziy bo'rtmadagi yozuv quyidagicha: 1309. يا قاضى الحاجات. Chetlari o'yma naqshlar bilan bezatilgan. Qo'lyozma 156 sahifadan iborat. Matn o'lchami: 26x15,5.

**1124 raqamli qo'lyozma. طبيبي ديوان منتخب ("Devoni muntaxab Tabibiy")**. Ushbu qo'lyozma faqat g'azallardan tarkib topgan (1<sup>b</sup>-120<sup>a</sup>-sahifalar). G'azallar alifbo tartibida joylashtirilmagan.

Boshi:

منگا اول پرى جور بالكل قليب

نظر ايلا مايدور تغافل قليب

(Mango ul pari javr bilkul qilib, Nazar aylamaydur tag'oful qilib )

Oxiri:

خوشنود بول بحدّ سان چونكيم طبيبي عشقدين

دردينگه دافع بولغوديك نافع دوا بوكون كيلور

(Xushnud bo'l behaddi son, chunkim Tabib ishqdin, Dardingg'a dofi' bo'lg'udek nofe'i davo bu kun kelur)

Kolofon esa quyidagicha: “*Zilli subhon xalifatu-r-Rahmon a’ni Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxoni soniy doma davlata va shavkataning farmoni oliylari bila ushbu bayozni faqir ul-haqir Muhammad Sharif Devon ibni Ollohbergan Devon marhumi muvofiq yilqi yili 1325 mohi muharramning o’n sakizlanchisi yakshanba kunida yozib itmomg’a yetkurdi*”.

Matn fabrikaning rangli qog‘oziga nasta’liq xatida qora siyoh bilan o‘rtacha 6 qatordan ikki ustun qilib ko‘chirilgan. Tilla va havo rang chiziqlar bilan hoshiyalangan. Sahifaning chetlari qizil chiziq bilan hoshiyalangan. Devonning boshida qizil siyohda “غزليات طبيبي” deb yozilgan. Shuningdek, har bir g‘azalning boshida qizil siyohda “غزل” deb yozilgan. G‘azallar raqamlangan. Ro‘yxatga 129 ta g‘azal kiritilgan. Har bir sahifaning chap burchagida sahifa raqami qo‘yilgan. Betning yuqori markaziy qismida bet raqami qo‘yilgan.

Qo‘lyozma kotibi Muhammad Sharif devoni ibn Ollabergan (محمد شريف ديوان ابن الله برگان ديوان). Ko‘chirilgan vaqti: 18 muharram 1325/3-mart 1907-yil. Xiva xoni Muhammad Rahimxon ikkinchi buyrug‘i bilan ko‘chirilgan. Qora rangdagi uchta bo‘rtmali qattiq muqovalı kitob. Bo‘rtmalar yashil rangda. Chetlari o‘yma naqshlar bilan bezatilgan. 120 sahifadan iborat. Matn o‘lchami: 21,5x14.

**1144 raqamli qo‘lyozma. ديوان منتخب طبيبي (“Devoni muntaxab Tabibiy”).** Qo‘lyozmada g‘azallar (1<sup>b</sup>-22<sup>a</sup>, 98<sup>a</sup>-120<sup>a</sup>-sahifalar), ruboiylar (22<sup>a</sup>-44<sup>b</sup>-sahifalar), g‘azallar (44<sup>b</sup>-95<sup>a</sup>-sahifalar), tarje’bandlar (95<sup>a</sup>-98<sup>a</sup>-sahifalar) ko‘chirilgan.

Matn sariq rangli fabrika qog‘ozida nasta’liq xatida, qora siyoh bilan o‘rtacha 6 qatordan ikki ustun qilib ko‘chirilgan. Tilla va havo rang chiziqlar bilan hoshiyalangan. Chetlari qizil chiziq bilan bezatilgan. Har bir she’rning yuqori qismida qizil siyohda uning janri ko‘rsatilgan. Har bir sahifaning chap burchagida sahifa raqami qo‘yilgan. Har bir betning yuqori markaziy qismida bet raqami mavjud.

Qo‘lyozma kotibi Muhammad Sharif devoni ibn Ollabergan (محمد شريف ديوان ابن الله برگان ديوان). Ko‘chirilgan sanasi: 11 jumodu-l-avval 1324/3-iyul, 1906-yil. To‘q ko‘k rangdagi uchta bo‘rtmali qattiq muqovalı kitob. Matn o‘lchami: 22,56x14,5.

**1147 raqamli qo‘lyozma. طبيبي منتخب ديوان (“Devoni muntaxab Tabibiy”).** Ushbu manba g‘azallar (1<sup>b</sup>-143<sup>b</sup>-sahifalar) va ruboiylar (143<sup>b</sup>-144<sup>a</sup>-sahifalar)dan iborat.

Matn fabrikaning qizil rangli qog‘oziga qora siyoh bilan o‘rta qalinlikdagi nasta‘liq xatida 4 qatordan uch ustunda ko‘chirilgan. Matn tilla va havo rang chiziqlar bilan, sahifa chetlari esa tilla rang bilan hoshiyalangan. Har bir she‘rning boshida qizil mineral bilan she‘r muallifi va janri yozilgan. Har bir sahifaning chap burchagida sahifa raqami qo‘yilgan. Betning yuqori markaziy qismida bet raqami qo‘yilgan.

Qo‘lyozma kotibi – Muhammad Yusuf devon taxallusi Xarrat ibn usta Qurbonniyoz Xorazmiy ( محمد يوسف ديوان ملقب بخرات بن اوستا (قربانياز خوارزمی). Ko‘chirish sanasi: 5 shavvol 1325/11-noyabr 1907. Xiva xoni Muhammad Rahimxon ikkinchining buyrug‘i bilan ko‘chirilgan.

Qora rangdagi uchta bo‘rtmali qattiq muqovalali kitob. Bo‘rtmalar yashil rangda. Chetlari o‘yma naqshlar bilan bezatilgan. Qo‘lyozma 144 sahifadan iborat. Matn o‘lchami: 26x15,5.

**1148 raqamli qo‘lyozma. طبيبي منتخب ديوان (“Devoni muntaxab Tabibiy”).** Ro‘yxat g‘azallar va murabba‘lardan tarkib topgan. Qo‘lyozma yashil charm bilan muqovalangan. Sherozasi sariq charmdan. Muqovalar ustida an‘anaviy 3 ta o‘yma naqsh solingan. O‘rtadagi katta naqsh ichida “*Yo qoziyul hojot. 1309*” degan yozuv bor. Matn sarg‘ish rangli fabrika qog‘oziga avval tilla rang, so‘ng ingichka jigar rangli, keyin esa qalin siyoh rangli jadval ichiga olingan. Sahifalar atrofi qalin siyoh rangli jadval bilan chegaralangan. Qo‘lyozma 156 sahifadan iborat.

156<sup>a</sup>-sahifada kitobning yozilish sababi va kotib haqida ma‘lumot bor. Kotibi Muhammad Ya‘qub Devon hisoblanadi. Hijriy 1327-yilda ko‘chirilgan. Tabibiyning 346 ta g‘azaliga raqam qo‘yilib ko‘chirilgan. G‘azallarni raqamlashda kotib xatolarga yo‘l qo‘ygan. Matn har sahifaga ikki ustunda 5 baytdan, jami 10 bayt qiya qilib ko‘chirilgan.

Boshi:

يوق سن كيلبي علم ارا مهوش گوزل مهوش گوزل  
بو وجه ايله ديرلر سنگا مهوش گوزل مهوش گوزل

Oxiri:

دایم طبیی بنده لیک آیینی ایچره صدق ایله  
ظاهر خدا درگاهیه قیل هر نفس عجز نیاز

Kolofon: “*Alhamdulillah val minna ushbu kitob bayozkim bo amri sultonu-z-zamon va nodiri davron al-hoqon ibni al-hoqon zilli subhon xalifatu-r-Rahmon bois al-amnu val-a'mon Hotamnishon adolatgustar va mehrparvar Skandari soniy jahongir a'ni Abulmuzaffar val-Mansur Abulg'oziy Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon doma mulkuhu va shavkatuhuning farmoni oliylari bila faqiru-l-haqir xoksor Mullo Muhammad Yusuf al-mutaxallis bil Chokar ibni Muhammad Ya'qub Devon mulaqqab bi Xarrot yozib itmom sarhadig'a yetkurdi. 1328nchi sana*”.

**1159 raqamli qo'lyozma. دیوان منتخب طبیی (“Devoni muntaxab Tabibiy”).** Qo'lyozma Tabibiyning varsoqi she'ri bilan boshlangan bo'lib, uning hajmi 118 sahifani tashkil etadi. 118<sup>a</sup> sahifada kitobning yozilish sababi va kotib haqida ma'lumot bor. Muhammad Yaqub Devon ibn Ollobergan Devon ko'chirgan. 1324-yil mohi zu-l-hijjaning yigirma sakkizlanchisi dushanba kunida yozib tugatilgani haqida ma'lumot uchraydi. 158 ta she'rga raqam qo'yilib ko'chirilgan. Matn ikki ustun qilinib har ustunda 3 baytdan, jami bir sahifada 6 bayt she'r ko'chirilgan. 158 ta she'r saralab kiritilgan.

Ro'yxat forsiy va o'zbek tilidagi g'azallardan iborat. Shuningdek, ushbu qo'lyozmaga 2 ta varsoqi, 5 bandli bitta tarje'band bor. Qo'lyozmada 10 ga yaqin forscha g'azal ko'chirilgan. Qolganlari o'zbekcha.

Matn fabrikaning rangli qog'oziga qora siyoh bilan nasta'liq xatida 3 baytdan, bir sahifada 6 baytdan she'r ko'chirilgan. Tilla va havo rang chiziqlar bilan, sahifa chetlari qizil ramka bilan hoshiyalangan. Har bir g'azalning boshida qizil siyohda غزل طبیی deb yozilib, raqam qo'yib ketilgan. Har bir sahifaning yuqori markazida kotib sahifalagan raqamlar qo'yilgan. Sahifalarda kotib paginatsiyasi (poygir) berilmagan. Kolofonda ushbu kitobni Feruz farmoniga ko'ra Muhammad Sharif Devon ibn Ollobergan Devon ot yili 1324-yil mohi zu-l- hijjaning 28si dushanba kuni yozib tamomlagan. Xiva xoni Muhammad Rahimxon ikkinchi buyrug'i bilan ko'chirilgan. Qora rangdagi uchta bo'rtmali qattiq muqovali



kitob. Bo‘rtmalar yashil rangda. Chetlari o‘yma naqshlar bilan bezatilgan. 118 sahifa (1<sup>b</sup>-118<sup>a</sup>). Matn o‘lchami 21,5x14.

**2033 raqamli qo‘lyozma. دیوان منتخب طبیی (“Devoni muntaxab Tabibiy”).** Bu qo‘lyozma 96 sahifadan iborat. Boshi va oxirida 4 tadan bo‘sh varaq qo‘shib tikilgan. 96<sup>a</sup> sahifada kitobning yozilish sababi va kotib haqida ma‘lumot bor. Qo‘lyozma kotibi Muhammad Yaqub Devon. Hijriy 1324-yil ko‘chirilgan. 173 ta she‘rga raqam qo‘yilib ko‘chirilgan. Matn ikki ustun qilinib, har ustunda 3 baytdan, jami bir sahifada 6 bayt she‘r ko‘chirilgan.

Ro‘yxat (1<sup>b</sup>-96<sup>a</sup>) asosan g‘azallardan, bitta masnaviy soqiynoma (14<sup>a</sup>-20<sup>b</sup>), bitta musamman (34<sup>b</sup>-37<sup>a</sup>), 3 ta murabba‘ (37<sup>a</sup>-39<sup>b</sup>, 42<sup>b</sup>-44<sup>a</sup>), bitta musaddas (52<sup>b</sup>-54<sup>a</sup>) kiritilgan. G‘azallar alifbo tartibida emas.

Matn fabrikaning rangli qog‘oziga qora siyoh bilan nasta‘liq xatida 6 qatordan ikki ustunda ko‘chirilgan. Tilla va havo rang chiziqlar bilan hoshiyalangan. Sahifaning chetlari qizil ramka bilan chegaralangan. Devonning boshida qizil siyoh bilan غزلیات طبیی yozilgan. 1<sup>b</sup>-sahifa o‘ng tomoni hoshiyasida “بیرلنچی صفحه” va 2<sup>a</sup>-sahifa chap tomoni hoshiyasida “بیرلنچی ورق” degan eslatma bor. Sahifalarda kotib paginatsiyasi (poygir) berilmagan.

Qo‘lyozma “Bayozi Tabibiy” deb kotib tomonidan nomlangan. Bayoz tarkibida dastlab forsiy g‘azallar, keyin esa turkiy (o‘zbekcha) g‘azallar ko‘chirilgan. Dastlab 30 ta forsiy g‘azal, so‘ng o‘zbekcha g‘azallar ko‘chirilgan. Forsiy she‘rlarning orasiga 14<sup>a</sup> sahifadan 20<sup>b</sup> sahifagacha bitta o‘zbekcha she‘r, ya‘ni Tabibiyning 79 baytli quyidagicha boshlanadigan soqiynomasi ko‘chirilgan:

ساقی کیتور اول شراب گولفام  
کیم ایچمک ایرور آنی منگا کام

(*Soqiy, ketur ul sharobi gulfom, Kim ichmak erur oni mango kom.*)

Ushbu she‘r “Soqiynomai masnaviyi Tabibiy” deb sarlavhalangan. 20<sup>b</sup>-sahifadan boshlab yana forsha g‘azallar ko‘chirilgan. 34<sup>b</sup>-37<sup>a</sup> sahifalarda 7 banddan iborat quyidagi matla‘ bilan boshlanuvchi o‘zbekcha bir musamman ko‘chirilgan:

آهکیم کن ایلابان من خسته غه یار ای کونگول  
قیلدی نچه قهر بیرله میل اغیار ای کونگول

(*Ohkim, kin aylabon man xastag'a yor, ey ko'ngul, Qildi necha qahr birla mayli ag'yor, ey ko'ngul*). 37<sup>a</sup> sahifada 9 bandli bir murabba' ko'chirilgan bo'lib, uning boshlanishi quyidagicha:

منگا قهرو غضب قيلماقغه دور هر لحظه ميلينگ  
ايرور من كچه كوندوز مبتلاى درد هجرانينگ

38<sup>b</sup> sahifada 7 bandli ikkinchi murabba' (*murabba'i digar*) ko'chirilgan. Uning boshlanishi quyidagicha:

بولوب هيجران ارا تون كون فغان چيكمك بيله كاريم  
توكردين تينمس ايردى ياش زمانى چشم خونباريم

39<sup>b</sup>-sahifadan o'zbekcha g'azallar boshlanadi. O'zbekcha g'azalning birinchisi:

قچان بولسه عيان اى دوستلر مجليس ارا شيشه  
مكدر خاطر يمغه بيرگوسى اسرو جلا شيشه

- matla'i bilan boshlanadi. 42<sup>b</sup> -44<sup>a</sup>-sahifalarda 11 bandli yana bir murabba' ko'chirilgan. Uning boshlanishi quyidagicha:

چيكيب جورينگ كونگول آتليغ الا خان الا مانيم  
فيراقينگده يانر هر لهظه حسرت اوتیغه جانيم

52<sup>b</sup>-54<sup>a</sup> sahifalar orasida 7 bandli bir musaddas ko'chirilgan. u quyidagicha boshlangan:

زارو رسوايى جهان ايتكالى جانانه منى  
درد رنج ايله قيليب همدم همخانه منى

Qo'lyozma quyidagicha yakunlangan:

اى طبيبى نظم فيكرين ايلانگيل جان بارىچه  
تاكى تاپغونگ شاه الطافينى بو صفت ارا

Kolofonda ushbu "Tabibiyning bayozii" Feruz farmoniga ko'ra Muhammad Yaqub Devon 1324-yil, rabi'u-l-avval oyida ko'chirilgan, degan ma'lumot bor.

Xiva xoni Muhammad Rahimxon ikkinchi buyrug'i bilan ko'chirilgan. Qora rangdagi uchta bo'rtmali qattiq muqovali kitob. Bo'rtmalar yashil rangda. Chetlari o'yama naqshlar bilan bezatilgan. Qo'lyozma hajmi 96 sahifani tashkil etadi (1<sup>b</sup>-96<sup>a</sup>). Matn o'lchami 19,5x13.

**6949 raqamli qo'lyozma. ديوان منتخب طبيبى ("Devoni muntaxab Tabibiy").** Ro'yxat alifbo tartibida terilmagan g'azal (1b-136b)lardan iborat.

Matn qizg'ish rangdagi fabrika qog'oziga qora siyoh bilan o'rta nastaliqda 6 qatordan ikki ustunda ko'chirilgan. Hoshiya,

jadval, poygilar yo‘q. Har bir she‘rning tepasida qizilda “g‘azali Tabibiy” degan sarlavha qo‘yilgan. Har bir sahifaning yuqori o‘rta qismida kotib tomonidan qo‘yilgan sahifa raqami mavjud. Sharqona sahifalash (paginatsiya, poygir) qo‘yilmagan. 129<sup>b</sup>-130<sup>a</sup>, 130<sup>b</sup>-133<sup>b</sup>-sahifalar orasida Sodiqning 6 ta, 135<sup>a</sup>-136<sup>b</sup>-sahifalarda Xodimning bitta g‘azali uchraydi. Kitobning kirish qismida “Bayozi Tabibiy” va “G‘azaliyoti Tabibiy” degan qayd mavjud.

Qo‘lyozmada jami 187 ta g‘azal mavjud bo‘lib, shundan 6 ta g‘azal Sodiqqa, bitta g‘azal Xodimga tegishli. 180 tasi Tabibiya tegishli.

Kotib – Mulla Muhammad Sharif bin Muhammad Yoqub Devon (ملا محمد شريف بن محمد يعقوب ديوان) (Mulaqqabi ba Xarrot). Ko‘chirish sanasi: 1327/1909. Sariq rangdagi uchta bo‘rtmali qattiq karton muqovadan iborat. Muqova chetlari o‘yma naqshlar bilan bezatilgan. Kitob jami 136 sahifadan iborat. (1b-136b). Kitob o‘lchami 18x11,5.

Kolofonda Feruzning buyrug‘iga ko‘ra Mulla Muhammad Sharif bin Muhammad Yoqub Devon mulaqqabi ba Xarrot ushbu kitobni hijriy 1327-yili yozib tugatgani haqida ma‘lumot bor. Kolofon:

الحمد لله والمينه بو كيتاب بياضكيم با امر سلطان الزمان و نادر دوران نينگ امر  
عالى لرى بيرله  
فقير الحقيير مولا محمد يوسف ابن محمد يقوب ديوان ملقب بخرات بير مينگ اوچيوز  
بيگيرمه يتيلنجى  
بيلى اتمامه يتكوردى . 1327سنه .

**9572 raqamli qo‘lyozma. طبيى منتخب ديوان (“Devoni muntaxab Tabibiy”).** Ushbu qo‘lyozma manbada shoirning turkiy va forsiy tildagi she‘rlari –g‘azal (1<sup>b</sup>-87<sup>b</sup>-sahifalar), *ruboiy* (87<sup>b</sup>-99<sup>b</sup>-sahifalar), *qit‘a* (100<sup>a</sup>-106<sup>b</sup>-sahifalar), *mustahzod* (106<sup>b</sup>-107<sup>a</sup>-sahifalar), *musaddas* (107<sup>b</sup>-110<sup>a</sup>-sahifalar), *mustahzod* (110<sup>b</sup>-112<sup>a</sup>-sahifalar), *g‘azal* (112<sup>b</sup>-122<sup>b</sup>-sahifalar) hamda Chokar, Jomiy, Mirzo she‘rlari, Niyoziy taxallusidagi Hamza Hakimzoda g‘azaliga yozilgan Chokar taxmisi (122<sup>b</sup>-128<sup>b</sup>-sahifalar) ko‘chirilgan.

Matn ko‘kimgir rangdagi qattiq fabrika qog‘oziga qora siyoh bilan o‘rta qalinlikdagi nasta‘liqda 10 qatordan ikki ustun qilib yozilgan. Matn tilla va havorang chiziqlar, chetlari qizil chiziq bilan hoshiyalangan. Har bir she‘rning tepasida qizil siyohda she‘r janri

va raqami ko'rsatilgan. Har bir sahifaning chap burchagida sahifaning raqami qo'yilgan. Har bir betning yuqori o'rta qismida bet raqami mavjud. 122<sup>b</sup>-128<sup>b</sup>-sahifalardagi matn keyinroq boshqacha husnixat va boshqa siyohda qaytadan yozilgan. Devon boshida yorqin gullar bilan bezatilgan *unvon* mavjud.

Qora rangdagi uchta bo'rtmali qattiq teri muqovali kitob. Chetlari o'yma naqshlar bilan bezatilgan. Qo'lyozma 122 sahifadan iborat. Matn o'lchami: 27x16,5.

**O'zRFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi** fondida ham Tabibiy she'rlari jamlangan bir qo'lyozma to'plam saqlanadi. Ushbu qo'lyozma **243 tartib** raqami bilan saqlanadi. Bu qo'lyozmada shoirning 200 ta g'azali alfavit tartibida ketma-ketlikda joylashtirilgan. Qo'lyozma matni 1<sup>b</sup>-sahifadan boshlanadi. "Bismillohir-Rahmonir-Rahim"dan so'ng, "G'azaliyoti Tabibiy" sarlavhasi bilan g'azallar ko'chirilgan. Ro'yxat faqat g'azallardan iborat. Har bir g'azalning boshida qizil siyohda غزل طبيبي deb yozilib, raqam qo'yib borilgan. Qo'lyozma quyidagicha boshlanadi:

دهر ارا کیمسه باشیغه رنج انا کیلور کیتور  
کونگلیگه هم مونینگ کیبی فیض صفا کیلور کیتور

*(Dahraro kimsa boshig'a ranji ano kelur-ketur, Ko'ngliga ham muning kibi fayzu safo kelur-ketur).*

Qo'lyozmaning oxiri esa quyidagicha yakunlanadi:

سین چیک طبيبي غم ارا بیمارلیغ کیم عشق ارا  
لعل لیبی اوزگه کیشی دردیگه درماندور بو کون

*(Sen chek, Tabibiy, g'am aro bemorlig'kim ishq aro, La'li labi o'zga kishi dardiga darmondur bu kun)*

Kolofondan oldin kotib tomonidan yozilgan quyidagi she'riy matn berilgan:

هر کی خواند دعا طمع دارم  
زانکی من بنده گنه کارم  
شد بتوفیق خدایی لا ینام  
این کتابت روز پنجشنبه تمام

*(Bu kitobni har kimki o'qisa, undan duo umidvorman, Negaki, men bir gunohkor bandaman, Doimo bedor bo'gan Xudo tavfiqi birla, Bu kitob payshanba kuni yakunlandi.)*

Qo'lyozma kolofoni quyidagicha:

ظَلَّ السَّبْحَانَ خَلِيفَةَ الرَّحْمَنِ اَعْنَى سَيِّدِ مُحَمَّدٍ رَحِيمِ بَهَادِرْخَانَ ثَانِي دَامَ دَوْلَتَهُ وَ  
شَوَكْتَهُ نِينِغْ فَرْمَانَ عَالِي لَرِي بِيْلَهُ اَوْشَبُو بِيَاضَ نِي فَاقِيرِ الْحَقِيرِ مُحَمَّدِ شَرِيفِ دِيَوَانَ ابْنِ  
اللَّهِ بِيْرْگَنِ دِيَوَانَ مَرْحُومِي مُوَافَقٍ، قَوِي بِيْلِي 1325 صَفْرِ آيِي نِينِغْ اَوْنِ تُوْرْتَلْنَجِيْسِي  
پَنْچَشْنِبَه كُونِي يَازِيْبِ اَتْمَاغَه بِيْتَكُوْرْدِي.

Matn fabrikaning rangsiz va rangli qog'oziga ko'chirilgan. Qora siyoh bilan chiroyli nasta'liq xatida uch baytdan, ikki ustunda jami bir sahifada 6 baytdan she'r yozilgan. Matn jadval ichiga olinmagan. Har bir sahifaning yuqori markazida kotib sahifalagan raqamlar qo'yilgan. Sahifalarda kotib paginatsiyasi (poygir) berilmagan.

To'planning so'nggi sahifasida ko'k siyohda *"Bu kitobni o'z institutimiz O'zbekiston akademiyasining Adabiyot institutiga taqdim qilaman. G'afur G'ulom. 26/9.57."*, degan qayd mavjud.

184<sup>a</sup> -sahifada kitobning yozilish sababi va kotib haqida ma'lumot bor.

Kolofonda Feruz farmoniga ko'ra *"Ushbu bayozni Muhammad Sharif Devon ibn Ollobergan Devon qo'y yili 1325-yil safar oyining o'n to'rtlanchisi panjshanba kuni"* yozib tamomlagani haqidagi ma'lumot bor.

Qora rangdagi uchta bo'rtmali qattiq muqovali kitob. Bo'rtmalar yashil rangda. Chetlari o'yama naqshlar bilan bezatilgan. Ushbu qo'lyozma manba jami 184 sahifadan iborat (1<sup>b</sup>-184<sup>a</sup>). Matn o'lchami 21,5x14.

**"Ichan qal'a" davlat muzey qo'riqxonasi** fondida Ahmad Tabibiyning bir she'riy devoni toshbosmasi mavjud bo'lib, u 5884/3-raqami bilan saqlanadi. Shuningdek, fondida Tabibiy lirik asarlari ko'chirilgan yana ikkita bayoz-to'plam bo'lib, ular 5894/1, 5894/4 raqamlari bilan saqlanadi.

**5884/3 raqamli toshbosma manba.** Ushbu manba Feruz buyrug'iga ko'ra Xivadagi "Xurshid" tipografiyasida chop etilgan. Varaqlar chetlari hoshiya chiziqqa olingan. To'planning dastlabki varaqlari yo'q. Muqova qora qalin karton qog'oz bilan muqovalangan. Sherozasi qalin sariq matodan ishlangan. Muqova jigar rangda. To'plam sahifalarining o'lchami 37x24 sm. Ushbu manba jami 564 sahifani tashkil etadi. Matn qalin fabrika qog'oziga bosilgan. Varaqlar sarg'aygan. Mazkur toshbosma manbada faqat Tabibiy lirik asarlari bosilgan. To'plam ziynatlanmagan. She'rlar qora chizikli

jadval ichiga olingan. Ayrim sahifalarda jadvallar mavjud emas. She'rlar har sahifaga ikki ustunda o'rtacha 23 baytdan ko'chirilgan.

To'plam sahifalari parokanda bo'lib, uning dastlabki sahifalari yo'qolgan. Qolgan qismlari sahifalari ham aralashtirib yuborilgan. Devonning boshi:

چکيبان آه واه هر لحظه

جانیده غم دلیدادور آذر

(*Chekibon ohu voh har lahza, Jonida g'am, dilidadur ozar*).

Oxiri:

بونینچه که کم ایرور آنینگ تیمثالی

بیر بیٹی ایمس عشق سوزیدین خالی

تاءریخ یگر مه بیر رجبیدین بولوبان

مینگ اوچیوز هم یگر مه سکز سالی

(*Buninchaki kam erur oning timsoli,*

*Har bayti emas ishq so'zidin xoli.*

*Ta'rix yigirma bir rajabdin bo'lubon,*

*Ming uch yuz ham yigirma etti soli)*

Kolofon quyidagicha:

الحمد لله و المنه اوشبو مخمسات طبيبي ني كيم با امر سلطان الزمان و نادر دوران اعنى  
ابو المظفر والمنصور ابولغازى سيد محمد رحيم بهادر خان دام دولته و شوکته نینگ  
فرمان عالیلىرى بیلان بیر مینگ اوچیوز یگر مه سکز لانچی یلی ماه رجب نینگ آلتی  
لانچی کونی ایردیکیم ملا ابراهیم بین داملا قلندر حاجی مرحومی یازیب اتمامغه  
یتکوردی. سنه 1328

(*Alhamdulillah val minnahu ushbu muxammasoti Tabibiynikim  
bo amri sultonu-z-zamon va nodiri davron a'ni Abulmuzaffar va-l-  
Mansur Abulg'oziy Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon doma  
davlatahu va shavkatuhuning farmoni oliylari bilan bir ming uch  
yuz yigirma sakkizlanchi yili mohi rajabning oltilanchi kuni erdikim,  
Mullo Ibrohim bin Domullo Qalandarhoji marhumi yozib itmomg'a  
yetkurdi. Sanai 1328.*)

Ushbu toshbosma manba shoir adabiy merosiga oid ko'plab yangi ma'lumotlarni o'zida jamlagani bilan qimmatlidir.

Tadqiqotimizning uchinchi bobida ushbu manbaning to‘liq tahlilini keltiramiz.

**5894/1 raqamli bayoz.** Matn sariq rangdagi yupqa fabrika qog‘oziga qora siyoh bilan o‘rta nastaliqda har sahifada ikki ustunda uch baytdan ko‘chirilgan. Matn jadvalga olinmagan. Qo‘lyozma muqovasi to‘q yashil charmdan, sherozasi esa to‘q jigar rangdagi charmdan ishlangan. Muqovalarda uchtadan o‘yma naqsh solingan. Har bir betning yuqori o‘rta qismida kotib tomonidan qo‘yilgan sahifa raqami mavjud. Har bir she‘rning tepasida qizil siyohda g‘azal muallifi ko‘rsatilgan. G‘azallar raqamlangan. Ushbu bayoz-to‘plamda Feruz saroyidagi shoirlar g‘azallari ko‘chirilgan. bayoz-to‘plamdagi she‘rlarning jami 177 tani tashkil etadi. Qo‘lyozma hajmi 119 varaq. O‘lchami: 17x10.5 sm.

Ushbu qo‘lyozma 1325/1907-yili Feruz farmoniga ko‘ra ko‘chirilgan bo‘lib, bayozning dastlabki she‘riga *“murabba’i Tabibiy”* deb sarlavha qo‘yilgan. Bayoz Tabibiyning *“Garchi chekar erdim g‘amu anduhi furqatni tamom”* misrasi bilan boshlanuvchi 24 bandli murabba’si bilan boshlangan. Shuningdek, bayozda Tabibiy she‘rlari qatorida Mirzo, Rog‘ib, G‘ulomiy, Nadimiy, Avaz, Umidiy, Ojiz, Devoniy, Mutrib, Bayoniy, Xodim, Shinosiy, Chokar, Asad, Doiy, Oqil, Inoyat, G‘oziy, Xayoliy, Niyoziy kabi shoirlarning g‘azallari ham ko‘chirilgan. Ushbu bayozga Tabibiyning bir murabba’si va 28 ta g‘azali kiritilgan. Bayozning oxirgi g‘azali ham Tabibiyga tegishli bo‘lib, u *“Istab yuzung nazzorasin mahzuni giryonman hanuz”* boshlanuvchi 11 baytli g‘azaldir.

Ushbu bayoz-to‘planning kolofoni quyidagicha berilgan: *“Alhamdulillah val-minna zilli subhon xalifatu-r-Rahmon Abulmuzaffar val-Mansur Abulg‘oziy Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon soniy xalladallohu taolo mulkahu va davlatahu va zayyada umuruhu ul janobi oliyning farmoni oliylari bila bir ming uch yuz yigirma beshlanchi yil mohi rab’iu-s-soniyning yigirma oltilanchisi jum’a kuni muvofiqi qo‘y yili faqiru-l-haqir Muhammad Ya‘qub Devon mulaqqabi ba Xarrot bu bayozni yozib, itmomg‘a yetkurdi”*.

**5894/1 raqamli bayoz.** Ro‘yxat faqat g‘azallardan iborat (1<sup>b</sup>-145<sup>a</sup>). Bayozning tashqi belgilari 5894/1 raqamli qo‘lyozma bilan deyarli bir xil. Ya’ni matn sariq rangdagi yupqa fabrika qog‘oziga

qora siyoh bilan o'rta nastaliq xatida har sahifada ikki ustunda uch baytdan ko'chirilgan. Matn jadvalga olinmagan. Qo'lyozma muqovasi to'q yashil charmdan, sherozasi qizil rangdagi charmdan ishlangan. Muqovalarda uchtdan o'yma naqsh solingan. Har bir betning yuqori o'rta qismida kotib tomonidan qo'yilgan sahifa raqami mavjud. Har bir she'rning tepasida qizil siyohda g'azal muallifi ko'rsatib borilgan. G'azallar raqamlangan. Bayozda jami 239 ta g'azalga raqam qo'yib ko'chirilgan. Aslida esa g'azallar soni 140 tani tashkil etadi. Chunki Tabibiyning ikkita g'azali qo'shib ketgan. Qo'lyozma hajmi 119 varaq. O'lchami: 17x10,5 sm.

Ushbu bayoz 1327 (1909) - yili Feruz farmoniga ko'ra ko'chirilgan. Bayozning 1<sup>a</sup>-sahifasi tepasida kotib Kamoliy, Nadimiy, Tabibiy, Avazlarning nomlarini keltirgan. Biroq to'plam tarkibida yuqorida nomlari zikr etilgan ijodkorlar qatori Xodim g'azallari ham uchraydi. Ushbu bayozga Tabibiyning 119 ta g'azali kiritilgan. Ushbu bayoz-to'plam ham Tabibiyning *"To gulshan ichra, ey sanam, oraz namoyon aylading"* misrasi bilan boshlanuvchi 6 baytli g'azali bilan yakunlanadi.

Qo'lyozma bayoz kolofoni quyidagicha: *"Alhamdulillah val-minna ushbu bayozkim bo amri sultonu-z-zamon va nodiri davron boisi al-amni val amon al-xoqon ibn al-xoqon a'ni Abulmuzaffar val-Mansur Abulg'oziy Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon ul janobni farmonlari birla bir ming uch yuz yigirma yettilanchi yili mohi safarni o'n to'quzida panjshanba kuni Muhammad Yusuf ibn Muhammad Ya'qub Devon mulaqqabi ba Xarrot yozib itmomg'a etkurdi. Sanai 1327"*.

**C-767 raqamli qo'lyozma.** Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi qo'lyozmalar instituti fondidagi C-767 raqamli qo'lyozma Tabibiyning forsiy va turkiy she'rlaridan tarkib topgan bo'lib, u 176 sahifadan iborat. Qo'lyozmada g'azallardan oldin siyohda quyidagi to'rtlik ko'chirilgan:

عالم ایچره تون کون یوروب سرگردان

چکییان ناله فریاد افغان

طبییی دیک بولور البته گیریان

اول عاشیقکیم یاری عتاب ایلامیش

Shuningdek, ushbu sahifada qalamda forsiy tilda ham ayrim jumlar yozilgan. Sahifa so'ngida: *"In devon dastxati Tabibiyi"*



*xushxat ba zaboni o‘zbeki va ham zaboni ba zaboni tojiki nazmiy”*  
deb qalamda yozilgan.

Qo‘lyozmada dastlab

*Ё Раб, ман осийни қил исён камандидин раҳо,*

*Ким бўлмишам бошдин оёқ қайди гунаҳга мубтало* – matla’li yetti baytli g‘azal to‘liq ko‘chirilgan bo‘lib, ustidan qizil siyohda muallif tomonidan o‘chirilgan. Bu she’r “Munisul-ushshoq”ning mukammal nusxasida mavjud bo‘lib, u devonda oltinchi tartib raqami bilan keladi.

Xulosa qilib aytganda, Ahmad Tabibiy lirik asarlari ko‘chirilgan manbalarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

### 3-jadval

№	Inventar raqami	Ko‘chirilgan yili, sahifasi	Saqlanayotgan fondi
1	6226	1327 (1909), 250 sahifa	O‘zRFA ShI
2	3461	1327 (1909), 197 sahifa	O‘zRFA ShI
3	3460	- , 245 sahifa	O‘zRFA ShI
4	654	1325 (1907), 152 sahifa	O‘zRFA ShI
5	678/I	1327 (1909), 81 sahifa	O‘zRFA ShI
6	678/II	1327 (1909), 57 sahifa	O‘zRFA ShI
7	678/III	1328 (1910), 33 sahifa	O‘zRFA ShI
8	927/I	1327 (1909), 214 sahifa	O‘zRFA ShI
9	927/II	1327 (1909), 146 sahifa	O‘zRFA ShI
10	1122	1327 (1909), 156 sahifa	O‘zRFA ShI
11	1123	1327 (1909), 156 sahifa	O‘zRFA ShI
12	1124	1325 (1907), 120 sahifa	O‘zRFA ShI
13	1144	1324 (1906), 120 sahifa	O‘zRFA ShI
14	1147	1325 (1907), 144 sahifa	O‘zRFA ShI
15	1148	1327 (1909), 156 sahifa	O‘zRFA ShI
16	1159	1324 (1906-07), 118 sahifa	O‘zRFA ShI
17	2033	1324 (1906), 96 sahifa	O‘zRFA ShI
18	6949	1327 (1909), 136 sahifa	O‘zRFA ShI
20	243	1325 (1907), 184 sahifa	O‘zRFA DAM
21	5884/3	1328 (1910), 564 sahifa	“Ichan-qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi
22	5894/1	1325 (1907), 119 sahifa	“Ichan-qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi

23	5894/4	1327 (1909), 145 sahifa	“Ichan-qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi
24	C-767	1324 (1906), 76 sahifa	Ozərbayjon Milliy Fanlar akademiyasi qo‘lyozmalar instituti

Ushbu keltirilgan tavsiflar Ahmad Tabibiyning nechog‘li sermahsul ijodkor ekanini tasdiqlaydi. Ahamiyatlisi shundaki, shoir devonlari tadqiqi uning adabiy merosi haqida to‘liq ma’lumot bermaydi. Masalan, shoirning O‘zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan turkiy tildagi devonlari (“Munisul-ushshoq”, “Hayratul-ushshoq”)da Tabibiyning “Munojot”lari, Chahoriyorlarga yozgan qasidalari, “Dahrnoma”lari, tuyuqlari, chistonlari, muammosi, ta’rixi, fardlari uchramaydi. Shunga ko‘ra, Tabibiy asarlarining ilmiy tavsifi shoir adabiy merosi haqida kengroq ma’lumot berishi jihatidan ahamiyatlidir. Bu esa, o‘z navbatida, matnshunoslik va adabiy manbashunoslikda qo‘lyozma manbalar ilmiy tavsifi qimmatli ilmiy xulosalarga olib kelishini ko‘rsatadi.

Xullas, Ahmad Tabibiy adabiy merosi manbalari hozirgi kunda O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida, O‘zRFA Davlat adabiyot muzeyida, Xivadagi “Ichan qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi fondida, shaxsiy arxivlarda hamda Ozərbayjon Milliy Fanlar akademiyasi qo‘lyozmalar instituti fondida saqlanmoqda. Ushbu fondlardagi shoir asarlari manbalarini *Tabibiy lirik asarlaridan tarkib topgan manbalar va XIX asr oxiri XX asr boshlari Xorazm adabiy muhiti shoirlari ijod namunalari to‘plangan bayoz-to‘plamlar* tarzida ikkiga bo‘lib o‘rganish mumkin.

Shoir devonlarini tartib berishda zamondoshlari tomonidan o‘zining lirik she’rlari jamlangan to‘plamlardan ijodiy foydalangan. Jumladan, O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Asosiy fondidagi 1122, 1123, 1129, 1148, 6949 raqamli, “Ichan qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi fondidagi 5894/4 raqamli qo‘lyozmalar “Tuhfatu-s-sulton” devonining tartib berilishida asos vazifani o‘tagan. Ushbu bayoz-to‘plamlardagi lirik asarlar tuzilishi, devon tartibiga o‘xshash ketma-ketligi keyinchalik ularning devon

tarzida jamlanganini ko'rsatadi. Qolaversa, mazkur qo'lyozmalardagi lirik asarlar shoirning turkiy devonlari – “Munisul-ushshoq”da ham, “Hayratul-ushshoq”da ham uchramaydi.

Tabibiyning birinchi turkiy devoni sifatida “Tuhfatu-s-sulton” devoni ko'rsatiladi. Xronologik va tuzilishiga ko'ra “Munisul-ushshoq” shoirning ilk devoni hisoblanadi. Ahmad Tabibiy “Tuhfatu-s-sulton” devoni qo'lyozmasi taqdiri noma'lum. Tahlillar Xiva “Ichan qal'a” davlat muzey-qo'riqxonasi fondidagi 5884/3 raqamli toshbosma manba “Tuhfatu-s-sulton” devonining bosma varianti ekanini va ushbu devon tartib berilgandan so'ng, o'sha yili toshbosmada bosilganini ko'rsatadi.

O'zRFA Davlat adabiyot muzeyidagi 243 raqamli bayoz-to'plamda faqat Ahmad Tabibiy g'azallari ko'chirilgan. Mazkur to'plamdagi g'azallar to'liq holda shoirning “Hayratul-ushshoq” devoniga kiritilgan. Bundan tashqari, O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Asosiy fondidagi 2033, 654, 1129 raqamli, “Ichan qal'a” davlat muzey-qo'riqxonasi fondidagi 5894/1 raqamli qo'lyozmalar shoir “Hayratul-ushshoq” devonining tuzilishida asosiy manbalardan bo'lib xizmat qilgan.

Shoirning “Munisul-ushshoq” devoni tarkibidagi lirik asarlarning asosiy qismi O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Asosiy fondidagi 1127, 1128, 1129 raqamli hamda Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi qo'lyozmalar instituti fondidagi C-767 raqamli qo'lyozmadan olingan. Tahlillar manbalar orasida ayrim tafovutlar borligini ko'rsatadi. Ta'kidlash kerakki, bunday bayoz-to'plamlardagi ayrim lirik asarlar shoirning birorta turkiy devonida mavjud emas. Bu hol shoirning kelgusida yana devonlar tuzish rejasi bo'lganini ko'rsatadi.

Ahmad Tabibiyning O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan turkiy tildagi devonlari (“Munisul-ushshoq”, “Hayratul-ushshoq”)da Tabibiyning “Munojot”lari, Chahoriyorlarga yozgan qasidalari, “Dahrnoma”lari, tuyuqlari, chistonlari, muammosi, ta'rixi, fardlari uchramaydi. Shunga ko'ra, Tabibiy asarlarining ilmiy tavsifi shoir adabiy merosi haqida kengroq ma'lumot berishi jihatidan ahamiyatlidir.

### III BOB. DEVONLARNING TAYANCH MANBALARINI ANIQLASH MEZONLARI VA SHOIR SHE'RLARINING MATNI TARIXI

#### 3.1. Tayanch manbalarni aniqlash mezonlari

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik sohasida har qanday asarning ilmiy tahlili uchun asosiy mezon qo'lyozma manbalar hisoblanadi. Jumladan, o'zbek adabiyotida Ahmad Tabibiy adabiy merosi qisman o'rganilgan bo'lsa-da, uning ko'lami va qo'lyozma nusxalari, nusxalarning variantlari to'liq tahlil etilgani yo'q. Respublikamizning turli kutubxona va fondlarida saqlanayotgan manbalar bu borada jiddiy izlanishlar olib borish zaruratini kun tartibiga qo'yadi. O'zidan nihoyatda boy adabiy meros qoldirgan ijodkor lirik asarlari deyarli joriy imlodagi tabdil etilgani yo'q. Adabiyotshunos F.G'anixo'jayevning sobiq tuzum davrida amalga oshirgan ayrim tadqiqotlarini<sup>94</sup> istisno etganda, shoir adabiy merosi asosida amalga oshirilgan tabdillar soni 50 taga yetmaydi. Uch turkiy devon tartib bergan, lirik asarlari o'nlab bayoz-to'plamlarda jamlangan Tabibiy lirik merosi deyarli tadqiq etilgani yo'q. Buning o'ziga xos sabablari bor, albatta. Avvalo, Ahmad Tabibiy merosi o'tgan asrda sobiq tuzum mafkurasi asosida o'rganilgan bo'lsa-da, uning lirik merosi asosini diniy-falsafiy asarlar tashkil etadi. Ikkinchidan, Tabibiy devonlari manbalari turli kutubxona va fondlarda saqlanayotgani bois ularni qiyosiy o'rganish, shu asosda shoir asarlari nashrlarini amalga oshirish talab etiladi. Ana shu jihatdan Tabibiy devoni qo'lyozmalarini kompleks tadqiq etish, ularning tayanch va yordamchi variantlarini aniqlash kelgusida shoirning turkiy devonlari mukammal nashrlarini amalga oshirishda muhim hisoblanadi.

Odatda, ilmiy-tanqidiy matnlar uchun manbalar *tayanch* va *yordamchi* variantlarga ajratiladi. Bu borada P.Shamsiyev<sup>95</sup>, I.Sulton<sup>96</sup>, M.Hamidova<sup>97</sup>, F.G'anixo'jayev<sup>98</sup>, H.Islomiy<sup>99</sup>,

<sup>94</sup> Ганихўжаев Ф. Аҳмаджон Табибийнинг ҳаёти ва ижоди. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1969. 123-бет; Аҳмад Табибий (ҳаёти ва ижоди). – Тошкент: Фан, 1978. 80-б.

<sup>95</sup> Навоий Алишер. Найрат ул-аброр. Илмий танқидий матн. – Тошкент: Фан, 1970. – Б. 4; Шамсиев П. Ўзбек матншунослигига оид тадқиқотлар. – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 34.

<sup>96</sup> Султонов И. Навоийнинг “Мезон ул-авзон”и ва унинг критик тексти. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1947.

A.Habibullayev<sup>100</sup>, Q.Sodiqov<sup>101</sup>, Sh.Sirojiddinov<sup>102</sup>, N.Jabborov<sup>103</sup>, N.Shodmonov<sup>104</sup>, A.Erkinov<sup>105</sup>, R.Zohidov<sup>106</sup> va boshqa olimlarning tadqiqotlarida ayrim ma'lumotlar berib o'tilgan. Ularda asosan tayanch manba sifatida manbaning nisbatan qadimiysini tanlash, buning uchun avvalo, qo'lyozmaning muallif dastxati yoki uning bevosita ishtirokida ko'chirilgan nusxasi, so'ng muallif yashagan yoki shunga yaqin davrda kitobat qilingan qo'lyozma hamda shu tariqa qadimiy, nuqsonsiz matn tanlab olinishi, shu asosda *tayanch* va *yordamchi* manbalarga ajratib tadqiqot olib borish kerakligi ta'kidlanadi. Shuningdek, tayanch manba tanlanishida eng asosiy mezon qo'lyozmaning nuqsonsiz va matnning mukammal bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi. Bunday mezonlar odatda ko'p nusxali matnlarga ega bo'lgan asarlar tadqiqi uchun ekanini nazardan soqit qilmaslik kerak. Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda yana shuni ta'kidlash kerakki, muayyan yozma adabiy yodgorlik yoki biror ijodkor merosi manbalarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularni *tayanch* va *yordamchi* variantlarga ajratish aniq ilmiy xulosalarga olib keladi.

Matnshunos R.Zohidov quyidagicha yozadi: "...ilmiy-tanqidiy matn tayanch qo'lyozmaning izmiga imkon qadar bo'ysundiriladi. O'рни kelganda tayanch nusxaga ham tanqidiy nazar bilan

---

<sup>97</sup> Хамидова М. Қўлёзма манбалар – адабий манба. – Тошкент: Фан. 1981. – Б.123; Хамидова М. Нодир манбалар // Шарқ машъали. – Тошкент, 1999. –№ 1-2. – Б. 35.

<sup>98</sup> Ганихўжаев Ф. Огаҳийнинг “Таъвиз ул-ошиқин” девони ва унинг илмий-танқидий матни. Филол. фан. док... дисс. – Тошкент, 1998. 123-бет.

<sup>99</sup> Навоий Алишер. Насойим ул-муҳаббат. Илмий-танқидий матн (тайёрловчи Н.Исломиёв). – Тошкент: “Movarounnahr”, 2011. 426-бет.

<sup>100</sup> Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншунослик. – Тошкент, 2000. 134-б.

<sup>101</sup> Содиков Қ. Матншунослик ва манбашунослик асослари. – Тошкент, 2017. – Б. 169.

<sup>102</sup> Сирожиддинов Ш. Матншунослик сабоқлари. – Тошкент: Navoiy universiteti, 2019. – Б. 28-29.

<sup>103</sup> Жабборов Н. Адабий манбаларда матн таҳрири масаласи. // Адабий манба: ўрганишнинг замонавий тамойиллари ва нашр муаммолари. Мақолалар тўплами. – Қарши: Насаф, 2013. – Б. 6-7.

<sup>104</sup> Шодмонов Н. Адабий манба ва матн тасарруфи // Адабий манба: ўрганишнинг замонавий тамойиллари ва нашр муаммолари. Мақолалар тўплами. – Қарши: Насаф, 2013. – Б.15.

<sup>105</sup> Эркинов А. Матншуносликка кириш. – Тошкент: Республика таълим маркази, 1997. – Б.24.

<sup>106</sup> Зоҳидов Р. “Саботул ожизин” асарининг манбалари, шарҳлари ва илмий-танқидий матнини комплекс ўрганиш муаммолари. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2018. – Б.215-218; Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik asoslari. – Тошкент: Yashil yuproq, 2023. – Б. 98-106.

yondashiladi. Bunday holatda mazmun taqozo etgan boshqa nusxalar tayanch nusxadan afzal sanaladi<sup>107</sup>”. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, matnshunoslikda har bir yozma yodgorlik qimmatli manba hisoblanadi. Ya’ni muayyan ijodkor adabiy merosini tadqiq eishda har bir kichik detalni e’ibordan chetda qoldirmaslik talab etiladi. Matnshunos Sh.Sirojiddinov: “*Ba’zi asarlarning qo’lyozma nusxalari orasidagi farqlar ko’p bo’lishi mumkin. Bunday holda ilmiy-tanqidiy matnni tuzuvchi matnshunos barcha nusxalarni kuzatishga majbur bo’ladi. Ko’p nusxalarga ega manbaning ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda nusxalarni saralash muhim hisoblanadi*”, – deb yozadi.<sup>108</sup> Bu fikrga qo’shilgan holda shuni ta’kidlash lozimki, nusxalarni saralash degani, ularni *kerakli* va *keraksizga ajratish* degani emas. Negaki, mumtoz manbalar tadqiqi inson tomonidan tartib berilgan har qanday meros xatolardan xoli bo’lmasligini ko‘rsatmoqda. Shunday ekan, har qanday holda ham matnshunos manbalar bilan bog‘liq ma’lumotlarni e’tiborda tutishi, ularga munosabat bildirishi, tahlil va tadqiq qilishi zarur bo’ladi. Zero, sohaga oid tadqiqotlarning aksariyatida ana shunday yondashuv, ya’ni ilmiy-tanqidiy, yig‘ma-qiyosiy, ilmiy-ommabop matnlar tayyorlashda manbalarni *tayanch* va *yordamchi* tarzida ajratib o‘rganish ham har qanday adabiy yodgorlikka nisbatan tanqidiy yondashuvni talab etadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, Ahmad Tabibiy o‘zining uchta turkiy devon tartib bergani haqida debochada yozadi<sup>109</sup>. Garchi bu devonlar Feruz ko‘rsatmasiga ko‘ra tartib berilgan deyilsa-da, Tabibiy asarlari ko‘chirilgan manbalar shoir ijodining dastlabki bosqichidan nafaqat bir devon, balki bir necha devonlar tartib berishni maqsad qilganini ko‘rsatadi. Bu haqda shoirning o‘zi quyidagilarni yozadi: “... *Baharhol ushbu g‘ussaning dofe’i va bu illatning nofe’i bo’lmoq umidi bila gohi g‘azal va gohi qasida va gohi muxammas mashqin qilib dargohi olampanohg‘a yetkurub iltifoti shohona va ‘atiyoti xusravonadin sharafyob va izzatmaob*

<sup>107</sup> Зоҳидов Р. “Саботул ожизин” асарининг манбалари, шарҳлари ва илмий-танқидий матнини комплекс ўрганиш муаммолари. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 215-218.

<sup>108</sup> Сирожиддинов Ш. Матншunoslik сабоқлари. – Тошкент: Navoiy universiteti, 2019. – Б. 28-29.

<sup>109</sup> O‘zRFA ShI Asosiy fond. 6226 raqamli qo‘lyozma. ديوان طبيبي. 7<sup>a-b</sup>- sahifalar.

*bo‘lur erdim. Kam-kam mururi ayyom va inoyoti hayyi layonom bila kimyo asar nazarig‘a manzur va kaminqullar qatorida otim mazkur bo‘lub amsol va aqronlarim arosida sarafroz balki hama fozillar ichida mumtoz bo‘ldum. Bas, bu asnoda kunlardin bir kun g‘oyati adolat va nihoyati marhamatidin ishorati oliya va bashorati jaloliyya bu hokisori zarravor tarafig‘a andoq sudur toptikim hama ash‘orimni jam‘ qilib devon tartibin tuzgaymen va ul murattabni janobi gardunmaobg‘a tuhfa va hadiya yo‘sinida ko‘rguzgaymen...”<sup>110</sup>. Demak, Tabibiy she‘rlarini jamlab devon tartib bergan va bu devonlar, albatta shohga yoki saroy kutubxonasiga taqdim etilgan.*

Ma‘lumki, “Devon qo‘lyozmasi matn va sarlavhalar, shuningdek, miniatyuralar atrofiga tortiladigan jadvallar, shams, unvon – qo‘lyozmaning ilk sahifasi bosh qismida tilla suvi yugurtirib chizilgan naqsh-lavh, sahifalarga oltin suvi bilan jilo berish (tazhib) kabi bezaklar bilan ziynatlanadi. Albatta, bunday devonlar qimmatbaho bo‘lib, ular asosan, shoh farmoniga asosan saroy kutubxonasi yoki sovg‘a uchun tayyorlangan”<sup>111</sup>. Ahmad Tabibiyning devonlari, shoir lirik asarlari jamlangan to‘plam (terma devon)lar, Tabibiy boshliq saroy shoirlari lirik asarlari ko‘chirilgan o‘nlab bayoz-to‘plamlar shohga yoki saroy kutubxonasiga tuhfa etilgani bois ular matni imkon qadar mukammal tarzda kitobat qilingan. Ularning aksariyatida Xorazm xattotlik va kitobat san‘atining go‘zal namunalari aks ettirilgan. Saroy shoirlarining boshlig‘i sifatida uning lirik asarlari ko‘p nusxalarda ko‘chirilgan. Turkiy devonlarining bir necha nusxalari qo‘lda ko‘chirilgan, toshbosmada nashr qilingan. Demak, turkiy devonlarining ham bir qancha nusxalari mavjud bo‘lib, bu hol shoir devonlarini bitta nusxa asosida nashr ettirish o‘zini oqlamasligini ko‘rsatadi. Aslida manbalarni tayanch va yordamchi tarzida ajratishga manbalardagi kamchiliklar, xatoliklar ham sabab bo‘ladi. Matnshunos M.Hamidova matn tuzish jarayonida manbalarda mavjud tekstologik xarakterdagi barcha xato va matniy farqlarni 1) kompozitsion o‘zgarishga olib kelgan farqlar; 2) imloviy xatolar; 3) matnni

<sup>110</sup> O‘zRFA ShI Asosiy fond. 6226 raqamli qo‘lyozma. 6<sup>a-b</sup>- sahifalar. ديوان طبيبي.

<sup>111</sup> Сирожиддинов Ш. Матншунослик сабоқлари. – Тошкент: Navoiy universiteti, 2019. – Б.39.

*ma'noviy buzilishga olib kelgan tafovutlar tarzida bo'lib o'rganishni tavsiya etadi*<sup>112</sup>.

Albatta, bu mezonlarni barcha adabiy yodgorliklar tadqiqida istifoda etib bo'lmaydi. Zero, “shunda ham har holda, har bir asar matni o'zining paleografik va matniy xususiyatlaridan kelib chiqib, farqlar va xatoliklar turkumlashtiriladi. Ularning barchasi matni tiklash chog'ida e'tiborga olinishi lozim bo'ladi”<sup>113</sup>.

Ma'lumki, muayyan adabiy meros matnini tiklash, tuzish va uni ommalashtirish uchun tayyorlash ishi, odatda uning saqlanib qolgan nusxalarini qiyosiy tadqiq etish (tarixiy-qiyosiy metod) yo'li bilan amalga oshiriladi<sup>114</sup>. Ahmad Tabibiy devonlarining tayanch manbalarini aniqlashda sohaga oid nazariy qarashlardan foydalanildi. Tabibiy lirik asarlari ko'chirilgan manbalarni 1) *kitobat holatining darajasi*; 2) *sahifalar va lirik asarlar hajmining to'liqligi*; 3) *devon tarkibidagi lirik janrlar ketma-ketligiga rioya qilinishi*; 4) *matnning nuqsonlardan xolilik darajasi tarzida ajratib o'rganish* mumkin.

**I. “Munisu-l-ushshoq” devonining tayanch va yordamchi manbalari.** Ahmad Tabibiy turkiy devonlari turli kotiblar tomonidan shoirning hayotlik paytida ko'chirilgan va bu devonlar toshbosmada bosilgan. Ushbu devonlarning bir qancha nusxalari ham mavjud. Qiyosiy tahlil natijalari ular orasida jiddiy tafovutlar borligini ko'rsatadi. Ular quyidagilar:

**1. Kitobat holatining darajasi.** Bizningcha, Ahmad Tabibiyning ilk turkiy devoni “Munisu-l-ushshoq”. Yuqorida ta'kidlanganidek, ushbu devonning barcha nusxalari O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida devonning ikki qo'lyozmasi (6226 va 3461 raqamli) va bir toshbosmasi (8949 raqamli) mavjud. Bulardan **6226 raqamli qo'lyozma** shaklan va mazmunan “Munisu-l-ushshoq” devonining mukammal varianti, ya'ni *asosiy tayanch manbasi* hisoblanadi. Negaki, mazkur qo'lyozma hukmdor farmoniga ko'ra ko'chirilib, saroy kutubxonasiga taqdim etilgan. Shunga ko'ra, ushbu qo'lyozma mukammal tarzda kitobat qilingan, ya'ni matn o'ta

<sup>112</sup> Хамидова М. Нодир манбалар //Шарқ машъали. –Тошкент: 1999. № 1-2. – Б.34-35.

<sup>113</sup> Хасаний М., Хабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншуносликнинг назарий масалалари. –ТДШИ, 2012. – Б. 31.

<sup>114</sup> Yuqoridagi manba. – Б. 37.



xushxat. She'rlar sarlavhalangan, sahifalar 3-4 qatordan turli ranglardagi jadvallar ichiga olingan, shams, unvon-qo'lyozmaning ilk sahifasi bosh qismida tilla suvi yugurtirib chizilgan naqsh-lavh mavjud. Sahifalarga oltin suvi bilan jilo berilgan. Qo'lyozma juda yaxshi saqlangan. Bugungi holati ham a'lo darajada.

**3461 raqamli qo'lyozma.** Ushbu qo'lyozma "Munisu-l-ushshoq"ning boshqa nusxasi hisoblanadi. Qo'lyozma tarkibiga ko'ra 6226 raqamli manba bilan bir xil. Mazkur qo'lyozma devon ham avval debocha, so'ng g'azal, mustazod, murabba', muxammas, musaddas, musabba', musamman, mutassa', muashshar, tarje'band, masnaviy soqiynoma, ruboiy, qasida, shiru shakar g'azallar va varsoqilardan tarkib topgan. Devonning bu nusxasi ham hukmdor (Feruz) buyrug'iga ko'ra ko'chirilgan bo'lsa-da, qo'lyozmaning kitobat holati 6226 raqamli nusxadan keskin farq qiladi. Ya'ni, qo'lyozma matni qora siyoh bilan nasta'liq xatida zavod qog'ozida ikki ustunda yozilgan. She'rlar qizil rangda raqamlangan. She'rlar sarlavhalangan, sahifalarda hech qanday jadvallar, unvon, naqsh-lavh mavjud emas. Devonning toshbosma nusxasidagi she'rlar ketma-ketligi ham bu qo'lyozmaga mos kelmaydi. Bundan tashqari, she'rlarning aksariyati qo'lyozma sahifalarining hoshiyalarida tartibsiz ravishda ko'chirilgan. Shunga ko'ra, ushbu qo'lyozma manbani shoir "Munisu-l-ushshoq" devonining *yordamchi tayanch manbasi* sifatida ajratib ko'rsatish mumkin.

**8949 raqamli toshbosma manba.** O'zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida 8949 raqam ostida saqlanayotgan toshbosma manba ikki qismdan iborat. Ushbu toshbosma manba ikki qismdan tarkib topgan bo'lib, uning birinchi qismi "Munisu-l-ushshoq", ikkinchi qismi esa "Hayratu-l-ushshoq" devonlaridir.

Ushbu manba qattiq karton muqovali yirik hajmli kitobdir. Toshbosmaning sherozasi qora matodan ishlangan. Matn 876-sahifada yakunlangan. Sahifalar qalamda raqamlangan. Ushbu manbada toshbosmaning qachon, qaysi tipografiyada bosilgani haqida ma'lumot yo'q. Toshbosmaning birinchi sahifasida "1-Devoni Tabibiy: Munisu-l-ushshoq. 2-Devon: Hayratu-l-oshiqin. №101. Bekjon Rahmon o'g'li" degan qayd bor. Shu sahifa chap

tomon yuqori qismida kiyik (bug‘u) surati chizilgan. Ikkinchi sahifa esa qora siyohdagi gul tasviri bilan unvonlangan.

“Munisu-l-ushshoq” tarkibidagi lirik asarlar toshbosmaning 378-sahifasigacha ko‘chirilgan. She‘rlar ketma-ketligi 6226 raqamli qo‘lyozma bilan bir xil bo‘lib, ular devon tartibida bosilgan. Ushbu toshbosma manba o‘zida Tabibiy “Munisu-l-ushshoq” devonidagi deyarli barcha lirik asarlarni jamlagani jihatidan unga ham devonning *yordamchi tayanch manbasi* sifatida qarash mumkin.

**2. Sahifalar va lirik asarlar hajmining to‘liqligi.** Ta’kidlanganidek, 6226 raqamli qo‘lyozma manba mukammal darajada kitobat qilingan. Qo‘lyozmaning boshidan oxirigacha kotib tomonidan sahifa va varaqlarga qo‘yilgan raqamlar, poygir (paginatsiya)lar mavjud. Sahifalar hoshiyasiga ko‘chirilgan she‘rlar yo‘q. Tushib qolgan va yirtilgan sahifalar yo‘q. Raqamlar ketma-ketligida umuman xatoliklar ko‘zga tashlanmaydi. Manbalarning qiyosi ushbu qo‘lyozma shoir “Munisu-l-ushshoq” devonining har tomonlama, xususan, lirik asarlar hajmiga ko‘ra ham mukammal nusxasi ekanini tasdiqlaydi. Qolaversa, Tabibiy “Munisu-l-ushshoq” devonining toshbosma varianti ham aynan mana shu 6226 raqamli qo‘lyozma asosida amalga oshirilgan. Bu hol devonning eng to‘liq va mukammal varianti 6226 raqamli qo‘lyozma ekanini to‘liq tasdiqlaydi. 6226 raqamli qo‘lyozma matni boshqa nusxalarga qaraganda mazmunan ham eng mukammali. Biroq qo‘lyozmadan shoirning 10 ga yaqin g‘azali, 2 ruboiysi va 30 misraga yaqin baytlari tushib qolgan. Bu haqda ishning to‘rtinchi bobida alohida to‘xtalib o‘tilgan.

**3461 raqamli qo‘lyozmada** she‘rlar soni nisbatan kamroq. Masalan, ushbu qo‘lyozma manbada Tabibiyning 504 ta g‘azali kiritilgan. Devonning boshqa nusxalaridagi 100dan ortiq g‘azal ushbu qo‘lyozmada mavjud emas. Qo‘lyozma tarkibidagi she‘rlar matnida baytlarning tushib qolishi, ayrim chalkashliklar ham ko‘zga tashlanadi. Biroq shunday bo‘lsa-da, biz devonning mukammal varianti deb hisoblagan 6226 raqamli qo‘lyozmada va devonning bosma nusxasida mavjud bo‘lmagan 9 ta g‘azal, 2 ta ruboiy va g‘azallardan qisqartirilgan 14 bayt devonning 3461 raqamli mazkur yordamchi tayanch manbasi asosida tiklandi. Bu hol manbalar orasidagi qiyosiy tahlil qimmatli ilmiy natijalar berishini tasdiqlaydi.

**C-767 raqamli** (Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi qo‘lyozmalar instituti fondidagi) **qo‘lyozmada** ham she‘rlar unchalik ko‘p emas. Ushbu qo‘lyozmada Tabibiyning 274 ta g‘azali, 3 mustazodi, 30 ga yaqin muxammasi, bir musaddasi, bir musabba‘si, 120dan ortiq ruboiysi, beshta masnaviy-soqiynomasi, bir musammani, bir mutassa‘si, bir muashshari, bir murabba‘si, 120 dan ortiq ruboiysi, bir qasidasi va ikki varsoqisi kiritilgan. Bu qo‘lyozmadagi turkiy she‘rlarning barchasi devonning mukammal nusxasida uchraydi. Qo‘lyozma tarkibidagi she‘rlar matnida nuqsonlar yo‘q.

**8949 raqamli toshbosma manba** sahifalari jadvallangan. She‘rlar to‘liq jadvallar ichida bosilgan. Sahifalar hoshiyasida matn bosilmagan. Sahifalarda poygilar berib borilgan. Biroq toshbosmaning ko‘plab sahifaaridagi matn xiralashib ketgan. She‘rlarni o‘qish qiyinroq. Bu manbadan ham Tabibiyning 10 ga yaqin g‘azali, 2 ruboiysi va 50 misraga yaqin baytlari tushib qolgan.

**3. Devon tarkibidagi lirik janrlar ketma-ketligiga rioya qilinishi.** Mumtoz she‘r nazariyasiga doir manbalarda, jumladan, Shayx Ahmad Taroziyning “Fununu-l-balog‘a” asarida she‘r janr (nav‘)lari haqida quyidagicha ma‘lumot beriladi: *“Bilgilkim, majmui shuaro istilohinda she‘rning aqsomi, ulkim mo‘tabardur, o‘n nav‘ kelibtur: qasida, g‘azal, qit‘a, ruboiy, masnaviy, tarje‘, musammat, mustazod, mutavval, fard”*<sup>115</sup>. Tabibiy “Munisu-l-ushshoq” devoni debochasida shunday yozadi: *“O‘n nav‘i nazmkim tash(b)ib, g‘azal, mustazod, musammat, ya‘ni murabba‘dan to muashsharg‘acha, tarje‘band, qasida, masnaviy, ruboiy, qit‘a, fard itloq qilurlar. Jam‘i o‘n rang guldurkim tab‘iyat gulistonidin terdim va anjuman aro chaman bog‘lab huzuru vofir us-sarvarig‘a yetkurdum...”*<sup>116</sup>. Ko‘rinadiki, Tabibiy ham she‘r nav‘larini o‘n turga ajratadi. Shoir lirik asarlari tadqiqi Tabibiyning mumtoz she‘r nazariyasini mukammal darajada bilganini ko‘rsatadi. Zero, shoir ijodida mumtoz she‘r nav‘larining barcha namunalari mavjud.

Shoirning “Munisu-l-ushshoq” devonidan jami 617 ta g‘azal, 4 ta murabba‘, 53 ta muxammas, 7 ta musaddas, 1 ta musabba‘

<sup>115</sup> Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға (Масъул муҳаррир Б.Ҳасанов). – Тошкент: Ҳазина, 1996. – Б. 32.

<sup>116</sup> O‘zRFA ShI Asosiy fond. 6226 raqamli qo‘lyozma. 7<sup>a</sup>- sahifa. ديوان طبيبي.

(yettilik), 1 ta musamman, 1 ta mutassa', 1 ta muashshar, 3 ta mustazod, 144 ta ruboiy, 6 ta shiru shakar va 5 ta soqiynoma, 2 ta qasida va 2 ta varsoqi o'rin olgan. Ta'kidlash kerakki, shoirning "Munisul-ushshoq" devoni hajman yirik bo'lib, unga mumtoz adabiyotimizning g'azal, mustazod, murabba', muxammas, musaddas, musabba', musamman, mutassa', muashshar, tarje'band, soqiynoma, ruboiy, qasida, shiru shakar, varsoqi kabi namunalari kiritilgan.

**6226 raqamli qo'lyozmada** esa 608 ta g'azal, 4 murabba', 53 muxammas, 7 musaddas, 1 musabba' (yettilik), 1 musamman, 1 mutassa', 1 muashshar, 3 mustazod, 142 ruboiy, 6 shiru shakar g'azal, 5 soqiynoma, 2 qasida va 2 ta varsoqi mavjud. Qo'lyozmadagi shoir lirik asarlari devon tuzish an'anasiga muvofiq joylashtirilgan.

**3461 raqamli qo'lyozmada** shoirning jami 504 ta g'azal, 3 ta mustahzod, 3 ta murabba', 53 ta muxammas, 7 ta musaddas, 1 ta musabba, 1 ta musamman, 1 ta mutassa, 1 ta muashshar, 1 ta tarji'band, 5 ta soqiynoma (masnaviy), 144 ta ruboiy, 2 ta qasida, 6 ta mulamma, 2 ta varsoqi kabi she'rlari kiritilgan bo'lib, ular devon tartib berish ana'anasiga to'la mos keladi.

**C-767 raqamli qo'lyozma** tarkibiy tuzilishiga ko'ra 3461 raqamli qo'lyozma bilan deyarli bir xil. Ya'ni ushbu manbada ham she'rlar g'azal, mustahzod, murabba', muxammas, musaddas, musabba', musamman, mutassa, muashshar, tarji'band, soqiynoma-masnaviy, ruboiy, qasida, mulamma', varsoqi tartibida ko'chirilgan.

**8949 raqamli toshbosma manba** tartib bilan mantiqiy ketma-ketlikka rioya qilingan holda nashr qilingan. She'rlar devon tartibida joylashtirilgan. Ushbu manba to'liq devon tuzish mezonlariga javob beradi.

**4. Matnning nuqsonlardan xolilik darajasi.** Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, mazkur 6226 raqamli qo'lyozma matnida ham ayrim nuqsonlar borligi ko'zga tashlanadi. Bunday nuqsonlar asosan g'azallar matnida uchraydi. Jumladan, devonning biz mukammal deb hisoblayotgan 6226 raqamli nusxasida g'azallar soni 607 tani tashkil etadi. Aslida g'azallar soni 608 ta bo'lishi kerak. Qo'lyozmadagi 535 va 536 g'azallar bir-biriga qo'shib yuborilgan. Ya'ni "*Kulbam sori kel, ey sanam, ko'z ustina, bosh ustina, Lutf*

*aylabon qo'yg'il qadam ko'z ustina, bosh ustina*", - deb boshlanuvchi 11 baytli g'azal o'zidan oldingi g'azal bilan qo'shib yuborilgan. Bundan oldingi g'azal esa *"Naylayin sahboni ul la'li shakkarbor o'lmasa, Naqli emasdur hojatim ul shahdi guftor o'lmasa"* matla'li 9 baytli g'azaldir. Yuqorida ta'kidlanganidek, Ahmad Tabibiyning "Munisu-l-ushshoq" devonidan 617 ta g'azal o'rin olgan. Ko'rinadiki, 6226 raqamli qo'lyozmadan 9 ta g'azal tushib qolgan. Ushbu tushib qolgan g'azallar devonning 3461 raqamli nusxasida mavjud.

**3461 raqamli qo'lyozma** devon tarkibidagi lirik asarlar 6226 raqamli variant bilan bir xil. Biroq she'rlarning hajmida, ularning ketma-ketligida biroz o'zgachaliklar uchraydi. Ushbu qo'lyozmadagi jiddiy kamchiliklardan biri – kotib tomonidan she'rlarning aksariyati (asosan g'azal va muxammaslar) sahifalar hoshiyasida ko'chirilganidir. Bu hol, avvalo, mantiqiy izchillikka putur yetkazgan. Qolaversa, she'rlar matnining qo'shib ketishi, misralar tarkibida so'zlar o'rining almashishi, baytlar va bandlar tarkibidagi misralar o'rining almashtirib yuborilishi, ayrim varaqlarda joy qolmagani sababli she'rlarning so'nggi qismlarini sahifaga singdirib yuborishga majbur qilgan. Bu esa, o'z navbatida, matnni tabdil qilish ishlarini murakkablashtirib yuboradi. Bundan tashqari, mazkur yordamchi tayanch manba tarkibidagi lirik asarlardan (asosan g'azallardan) baytlar tushib qolgan. Qo'lyozma sahifalarida kotibning she'rlarni ko'chirishda xatolarga yo'l qo'ygani va bu matnlarni chizib ustidan o'chirgani, adashgan o'rinlarida qizil siyohda misralar tepasida “خ” va “م” harflari (xato, moqabl)ni qo'ygani kuzatiladi. Umuman, qo'lyozma matnida ko'plab nuqsonlar ko'zga tashlanadi.

**C-767 raqamli qo'lyozmada** she'rlar matni ancha mukammal. She'rlar matnida xatoliklar uchramaydi. Buni qo'lyozma kotibi muallifning o'zi bo'lgani bilan izohlash mumkin. Lekin qo'lyozmaning ayrim sahifalari sifati juda past.

**8949 raqamli toshbosmadagi** lirik asarlar tahlili matn nuqsonlardan xoli emasligini ko'rsatadi. Toshbosma matni unga asos bo'lgan 6226 raqamli qo'lyozma matni bilan farqlanadi.

Yuqorida aytilganidek, O'zRFA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida "Munisu-l-ushshoq" devoniga asos bo'lgan

terma devonlar (ديوان منتخب طبيبي) ham mavjud. Bulardan biri 1159 raqamli qo‘lyozmadir. Ushbu qo‘lyozmada Tabibiy lirik asarlari jamlangan. Ushbu qo‘lyozmaning ko‘chirilish sanasi shoir devonlari qo‘lyozmlaridan qadimiyroq (Feruz farmoniga ko‘ra Muhammad Sharif Devon ibn Ollobergan Devon “*ot yili 1324-yil mohi zul hijjaning 28chisi dushanba kuni yozib tamomlagan*”i) ekani bilan ahamiyatlidir. To‘planning asosini (1<sup>b</sup>-118<sup>a</sup>) turkiy va fors tilidagi g‘azallar tashkil etadi. Qo‘lyozmadagi ikkita varsoqi va ko‘plab g‘azallar shoirning “Munisu-l-ushshoq” devonida takrorlanadi. Tahlillar mazkur qo‘lyozma nisbatan avvalroq tuzilgani, to‘plamdagi lirik asarlar keyinchalik shoirning “Munisu-l-ushshoq” devoniga kiritilganini ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra, ushbu qo‘lyozmani “Munisu-l-ushshoq” devonining yordamchi manbasi sifatida belgilash mumkin. Ana shulardan kelib chiqib, “Munisu-l-ushshoq” devoni yig‘ma matnini tayyorlashda devon nusxalari matnining mukammallik darajasiga ko‘ra quyidagicha belgilash mumkin:

1. 6226 raqamli qo‘lyozma (ديوان طبيبي) – **A1** nusxa;
2. 3461 raqamli qo‘lyozma (ديوان طبيبي) – **A2** nusxa;
3. C-767 raqamli qo‘lyozma (طبيبي كولييات) – **A3** nusxa;
4. 8949 raqamli toshbosma (ديوان طبيبي) – **A4** nusxa;
5. 1159 raqamli qo‘lyozma (ديوان منتخب طبيبي) – **B** nusxa.

## **II. “Hayratu-l-ushshoq” devonining tayanch va yordamchi manbalari.**

Ahmad Tabibiyning turkiy tilda tartib bergan ikkinchi devoni “Hayratu-l-ushshoq”. Devonning mukammal qo‘lyozmasi mavjud emas. U ham yo‘qolgan. Negaki, devonning hozirgi qo‘lyozmasi hukmdor uchun yoki saroy kutubxonasi uchun tayyorlanmaganini ko‘rsatadi. Ushbu devonning bir to‘liq qo‘lyozmasi va shu nusxa asosida bosilgan toshbosmasi mavjud. Devonning mazkur qo‘lyozma va toshbosma variantlari shoirning hayotlik paytida ko‘chirilgan va litografiyada bosilgan.

**1. Kitobat holatining darajasi.** Ahmad Tabibiy ikkinchi turkiy devoni “Hayratu-l-ushshoq”ning yagona qo‘lyozma nusxasi O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo‘lyozmalar fondida 3460 raqami bilan saqlanadi. Ushbu qo‘lyozma to‘rt qismdan iborat. Uning birinchi qismi shoirning ikkinchi turkiy devoni hisoblanadi. Bu haqda devonning 1<sup>b</sup>-sahifasi

o‘rtasida العاشقين ترکی مسما بحیرت (‘‘*Ikilanchi devoni Tabibiy turkiy musammo bahayratu-l-oshiqin*’’), deb qizil siyohda yozilgan. Ushbu qo‘lyozma matni qora siyoh bilan nasta’liq xatida fabrika qog‘ozida ikki ustunda yozilgan. She’rlar qizil rangda (kinovarda) raqamlangan. She’rlar sarlavhalangan, sahifalarda hech qanday jadvallar, unvon, naqsh-lavh mavjud emas. Qo‘lyozma sahifalarining hoshiyalarida ham she’rlar ko‘chirilgan. Fondagi manbalarni o‘rganish natijalari hozircha Tabibiy ‘‘Hayratu-l-ushshoq’’ devonining yagona to‘liq nusxasi mana shu 3460 raqamli qo‘lyozma ekanini ko‘rsatadi. Bu qo‘lyozma hozircha shoir ‘‘Hayratu-l-ushshoq’’ devonining **yagona tayanch manbasi** hisoblanadi. Devonning toshbosma nusxasi ham aynan mana shu qo‘lyozma asosida bosilgan. Ta’kidlanganidek, 8949 raqamli toshbosma manbaning ikkinchi qismia ‘‘Hayratu-l-ushshoq’’ devonidir.

Devonning toshbosmasi (8949 raqamli) 3460 raqamli qo‘lyozma asosida bosilgan. Toshbosma matnda ayrim nuqsonlar mavjud.

Kuzatuvlar O‘zRFA Sharqshunoslik instituti fondida ‘‘Hayratu-l-ushshoq’’ devoniga asos bo‘lgan terma devonlar (ديوان منتخب طبيی) ham mavjud ekanini ko‘rsatadi. Jumladan, fondagi **654 raqamli** qo‘lyozmada faqatgina Ahmad Tabibiyning turkiy va fors-tojik tilidagi lirik asarlari ko‘chirilgan. Qo‘lyozmaning tashqi ko‘rinishi 3460 raqamli manba bilan bir xil. Ya’ni muqovasi, xusnixat, rangi, unvonlari bir xil. Faqatgina bu manba 3460 raqamli qo‘lyozmadan hajman kichikroq. Qo‘lyozmadagi barcha lirik asarlar (g‘azallar, tarje’bandlar, masnaviy-soqiynomalar) ‘‘Hayratu-l-ushshoq’’ devoni tarkibiga kiritilgan.

Fondagi **2033 raqamli qo‘lyozma** ham Tabibiy lirik asarlaridan iborat. Ushbu qo‘lyozma tarkibidagi lirik asarlar shoir devonlari tartib berilishidan avvalroq ijod etilgan. Bu manbaning tashqi ko‘rinishi, ya’ni muqovasi, sherozasi, xati 1122 raqamli qo‘lyozma bilan bir xil.

Qo‘lyozma tarkibida forsiy va turkiy (o‘zbekcha) g‘azallar, masnaviy-soqiynoma, murabba’, musaddas, musamman she’rlar kiritilgan. Ushbu manbadagi turkiy lirik asarlarning aksariyati

shoirning “Hayratu-l-ushshoq”, bir-ikkitasi “Munisu-l-ushshoq” devonida ham takrorlanadi. Manbalardagi matnlar deyarli bir xil.

O‘zRFA Davlat adabiyot muzeyi fondidagi **243 raqamli qo‘lyozmada** ham Ahmad Tabibiy lirik asarlari jamlangan. Bu manbada shoirning 200 ta g‘azali tartib bilan alfavit ketma-ketligida joylashtirilgan. Bu g‘azallarning barchasi “Hayratu-l-ushshoq” devonida mavjud. Qo‘lyozma kolofonidan ma‘lum bo‘lishicha, ushbu qo‘lyozmadagi g‘azallar ham shoirning “Hayratu-l-ushshoq” devoni tuzilishidan oldinroq ijod etilgan.

**2. Sahifalar va lirik asarlar hajmining to‘liqligi.** 3460 raqamli qo‘lyozma sahifalari to‘liq. Lirik asarlar ham mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirilgan. Ushbu devon garchi shoh farmoniga ko‘ra ko‘chirilgan bo‘lsa-da, u maxsus ziynatlanmagan. She‘rlar jadval ichiga olinmagan, ular qizil siyohda raqamlanib, sahifalarning hoshiyalarida ham ko‘chirilgan. Qo‘lyozmada 434 ta g‘azalga raqam qo‘yilgan. Devonda g‘azallar bundan ko‘proq. Ya‘ni hoshiyalarda ko‘chirilgan g‘azallar raqamlanmagan. Mazkur qo‘lyozmada muxammaslar, musaddaslar, musammanlar, ruboiy va qit‘alarning ham ayrimlari hoshiyalarda ko‘chirilgan bo‘lib, ular kotib tomonidan raqamlanmagan. Yuqorida ta‘kidlanganidek, ushbu qo‘lyozma manba to‘rt qismdan iborat. Qo‘lyozmaning 327<sup>a</sup>-335<sup>a</sup>-sahifalari to‘rtinchi qism bo‘lib, bunda ham shoirning “Hayratu-l-ushshoq” devoniga kirgan 32 ta g‘azali ko‘chirilgan.

**3. Devon tarkibidagi lirik janrlar ketma-ketligiga rioya qilinishi.** 3460 raqamli qo‘lyozmada 336 ta g‘azal, 5 ta mustazod, 4ta murabba‘, 114 ta muxammas, 10 ta musaddas, 5 musamman, 5 tarje‘band, 5 masnaviy-soqiynoma, 202 ta ruboiy, 77 ta qit‘a, bir bahri tavil va bir qasida mavjud bo‘lib, ular alifbo tartibida devon tuzish mezonlariga mos holatda tuzilgan.

**2033 raqamli qo‘lyozma** ham hajman kichikroq bo‘lsa-da, undagi lirik asarlar biroz tartibsiz joylashtirilgan. Ta‘kidlanganidek, ushbu qo‘lyozma 1324 (1906)-yilda ko‘chirilgan. Qo‘lyozmadagi lirik asarlar ketma-ketligi, she‘rlarning ko‘chirilishida alifbo tartibiga to‘la rioya qilinmagan. Biroq mazkur qo‘lyozmadagi lirik asarlar to‘liq shoir devonlariga kiritilgan.

**1124 raqamli qo‘lyozma** ham faqat shoir g‘azallaridan iborat. Qo‘lyozmada Tabibiyning 129 ta g‘azaliga raqam qo‘yilib



ko‘chirilgan. To‘plamdagi ilk g‘azal (*“Mango ul pari javr bilkul qilib, Nazar aylamaydur tag‘oful qilib”* matla‘li 11 baytli) bilan boshlangan. 3460 raqamli devon qo‘lyozmasi sahifalari hoshiyasidagi g‘azallar ushbu to‘plamda mavjud emas. Ushbu to‘plamdagi so‘nggi she‘r *“Hayratu-l-ushshoq”* devonidagi (*“Bo‘l, ey ko‘ngul, xushnudkim ul dilrabo bu kun kelur, Ahdiga zohir aylabon mehru vafo bu kun kelur”* matla‘li) 214-g‘azaldir. Bundan keyingi g‘azallar O‘zR FA Davlat adabiyot muzeyi fondidagi **243 raqamli qo‘lyozmadan** davom etgan. 243 raqamli manbada ham faqat g‘azallar alifbo tartibida ko‘chirilgan. G‘azallar 2033 raqamli qo‘lyozmada takrorlanmaydi. Bu hol shoir lirik asarlari dastlab, alohida-alohida jamlangan, so‘ng ular devon tartibiga keltirgan, degan taxminga asos beradi.

Xiva *“Ichan qal‘a”* davlat muzey-qo‘riqxonasi fondidagi 5894/1 raqamli manbada ham *“Hayratu-l-ushshoq”* devonidagi 28 ta g‘azal jamlangan. Ushbu qo‘lyozmada ham g‘azallar alifbo tartibiga rioya qilinmagan holda ko‘chirilgan. Bundan tashqari, ikkita g‘azal matnida maqta‘ tushib qolgan.

**4. Matnning nuqsonlardan xolilik darajasi.** Yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek, shoir lirik merosi jamlangan hech bir manba mukammal, benuqson emasligini ko‘rsatadi. Jumladan, biz mukammal deb hisoblayotgan 3460 raqamli qo‘lyozma devon matnida ham ayrim kamchiliklar ko‘zga tashlanadi. Bular she‘rlarning raqamlanishida, so‘zlarning xato yozilishida, lirik asarlar matnidan ayrim qismlarning tushirib qoldirilganida, g‘azallar tarkibidagi baytlar o‘rnining almashtirilib ko‘chirilganida ko‘rinadi. Masalan, devondagi 637-g‘azal (*“Yuzungkim bordurur husnu latofat avjini mohi, Chiqar gardun uza hajrida oning ishq eli ohi”* matla‘li), 638-g‘azal (*Toki kulbam sorig‘a ul mohtal‘at kelmadi, Boshima hajri aro g‘ayri malomat kelmadi”* matla‘li), 639-g‘azal (*“Yor la‘li furqatida obi hayvonni netay, Qadining hijroni ichra sarvu bo‘stonni netay”* matla‘li) g‘azallar 3460 raqamli qo‘lyozmada mavjud emas. Qo‘lyozmaning 334<sup>a</sup>-sahifasida *“Kel, ey mahvashki, bo‘lmishman base, mushtoqi diydoring, Tunu kun chekgamen bu vajah birla ranju ozoring”* deb boshlanuvchi g‘azal ko‘chirilgan. Bu g‘azal devon qo‘lyozmasida ham uning toshbosma variantida ham jami 10 baytni tashkil etadi. Negadir, g‘azal

maqtasida taxallus keltirilmagan. Ta'kidlash kerakki, shoir "Hayratu-l-ushshoq" devonidagi deyarli 600 ta g'azal 11 baytli g'azallardir. Shunga ko'ra aytish mumkinki, g'azalning maqtasi tushib qolgan. Qo'lyozma matnida oz bo'lsa-da, kamchiliklar ko'zga tashlanadi.

Ahmad Tabibiy "Hayratu-l-ushshoq" devonining yana bir asosiy manbasi 8949 raqamli toshbosmadir. Devonning qo'lyozma va toshbosma nusxalari qiyosi ular orasida ko'plab matniy farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Bunday tafovutlar ishning to'rtinchi bobida misollar tahlili orqali ochib berilgan.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, Ahmad Tabibiy "Hayratu-l-ushshoq" devoni nusxalari matnining mukammallik darajasiga ko'ra quyidagicha belgilash mumkin:

1. 3460 raqamli qo'lyozma (ديوان طبيبي) – **A1** nusxa;
2. 8949 raqamli toshbosma (ديوان طبيبي) – **A2** nusxa;
3. 1124 raqamli qo'lyozma (غزليات طبيبي) – **B** nusxa;
4. 243 raqamli qo'lyozma (غزليات طبيبي) – **S** nusxa;
5. 2033 raqamli qo'lyozma (غزليات طبيبي) – **D** nusxa;
6. 5894/1 raqamli qo'lyozma (غزليات طبيبي) – **E** nusxa.

### **III. "Tuhfatu-s-sulton" devonining tayanch va yordamchi manbalari.**

Ahmad Tabibiyning turkiy tildagi uchinchi devoni "Tuhfatu-s-sulton" deb nomlanib, ushbu devon mukammal qo'lyozma nusxasining taqdiri noma'lum. Biroq mavjud manbalar ushbu devon haqida muayyan tasavvurlar beradi. Jumladan, kuzatuvlar Xiva "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi fondidagi **5884/3 raqamli** manba mazkur devonning toshbosma nusxasi ekanini ko'rsatadi. Bundan tashqari, O'zRFA Sharqshunoslik instituti fondidagi **1122, 1123, 1148, 6949**, "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi fondidagi **5894/4 raqamli qo'lyozmalar** shoir "Tuhfatu-s-sulton" devonining asosiy manbalari bo'lib xizmat qilgan.

**1. Kitobat holatining darajasi.** "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi fondidagi **5884/3 raqamli** toshbosma manba devon shoirning devonlaridan biri hisoblanadi. Taassufki, ushbu manbaning saqlanish holati yaxshi avholda emas. Toshbosma sahifalari parokanda bo'lib, uning dastlabki sahifalari yo'qolgan. Qolgan sahifalarning ayrimlari ham aralashtirib yuborilgan. Shunday

bo'lsa-da, lirik asarlar soni va hajmiga ko'ra ushbu toshbosma manba devonning asosiy tayanch manbalaridan hisoblanadi.

5884/3 raqamli toshbosma manbadagi aksariyat she'rlar O'zRFA Sharqshunoslik instituti fondidagi **1122 raqamli** qo'lyozmada ham mavjud. Ta'kidlash kerakki, ushbu qo'lyozma manbani ham "Tuhfatu-s-sulton" devonining shartli nusxasi deyish mumkin. Sababi qo'lyozmada g'azal, murabba', qasida, musaddas, musamman, masnaviy, masnaviy-dahrnoma, munojot, qit'a, ruboiy, tuyuq, chiston, fard kabi 13 ta janrga oid lirik asarlar ko'chirilgan. Qo'lyozma jami 156 varaq bo'lib, u 1237 (1909) - yilda Feruz buyrug'iga ko'ra Mullo Muhammad Yusuf Devon mulaqqabi Xarrot tomonidan ko'chirilgan. Qo'lyozmada she'rlar kotib tomonidan tartibsiz ravishda ko'chirilgan, she'rlar ketma-ketligida devon tartib berish mezonlariga amal qilinmagan.

O'zRFA Sharqshunoslik instituti Asosiy fondidagi **1123 raqamli** qo'lyozma tashqi ko'rinishi, tuzilishi jihatidan fondagi 1122 raqamli qo'lyozma bilan bir xil. Kolofondan ayon bo'lishicha, mazkur to'plamni ham 1327 (1909) - yilda "Mullo Muhammad Yusuf ibni Muhammad Ya'qub Devon mulaqqab bi Xarrot yozib itmomg'a" yetkazgan. Ushbu qo'lyozmaning saqlanish holati juda yaxshi. To'plamdagi she'rlarning oxirgisiga 365 raqami qo'yilgan. Aslida g'azallar soni 362 tani tashkil etadi. Bu to'plam mantiqan 1122 raqamli qo'lyozmaning davomi. Ushu to'plamda ham she'rlar bir sahifada ikki ustunda 5 baytdan, jami 10 bayt qilib ko'chirilgan. To'plamda faqat g'azallar ko'chirilgan bo'lib, ulardan 198 ta g'azal hech qanday manbada uchramaydi. G'azallarning qolganlari (164 ta) devonning toshbosma nusxasi ("Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi fondidagi 5884/3 raqamli toshbosma)da va O'zRFAShI Asosiy fondidagi 6949 raqamli qo'lyozmada takrorlanadi. To'plamdagi g'azallar alifbo tartibida bo'lmay "ن", "ق", "ى", "ص", "ى", "ر", "ا", "غ", "خ", "ا", "ط", "ع", "غ", "ا", "د", "گ", "ض", harflariga yozilgan g'azallar aralash holda kitobat qilingan. Ushbu manba tadqiqi shoirning turkiy tildagi uchta devoniga kirmagan lirik asarlari ham ancha ekanini ko'rsatadi.

Fondagi **1148 raqamli** qo'lyozmada ham shoirning 343 g'azali va 6 ta murabba'si ko'chirilgan bo'lib, g'azallarning juda oz qismi "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi fondidagi 5884/3

raqamli toshbosmada takrorlansa, ularning aksariyati shoir devonlariga kirmay qolgan. Shuningdek, ushbu to‘plamdagi murabba’lar ham shoir devonlarida mavjud emas. Ushbu ma’lumotlar, shoirning devonlariga kirmay qolgan lirik asarlari ham talaygina, degan fikrimizni quvvatlaydi. Qo‘lyozma yaxshi saqlangan. Ushbu to‘plam ham Feruz buyrig‘iga ko‘ra 1327 (1909) - yilda Muhammad Ya‘qub Devon tomonidan ko‘chirilgan.

O‘zR FAShI Asosiy fondidagi **6949 raqamli** qo‘lyozma manbada ham asosan Tabibiy g‘azallari jamlangan. To‘plam yaxshi saqlangan. Qo‘lyozma sahifalarida hoshiya, jadval, poygilar yo‘q. To‘plamda jami 187 ta g‘azal mavjud bo‘lib, shundan 6 ta g‘azal Sodiqqa, 1 ta g‘azal Xodimga tegishli. 180 ta g‘azal Tabibiyga tegishli. Ushbu to‘plam ham 1327 (1909) - yilda Mulla Muhammad Sharif bin Muhammad Yoqub Devon mulaqqabi ba Xarrot tomonidan ko‘chirilgan.

**2. Sahifalar va lirik asarlar hajmining to‘liqligi.** “Ichan qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi fondidagi **5884/3 raqamli** toshbosma manbaning sahifalari to‘liq emas. Ularning aksariyati yirtilib yo‘qolgan. Qolgan sahifalar ham nomutaxassis shaxs tomonidan qalamda noto‘g‘ri raqamlangan. Toshbosma sahifalari parokanda bo‘lib, uning ayrim sahifalari yo‘q. Qolgan sahifalarning ayrimlari ham aralashtirib yuborilgan. Toshbosma manba tarkibidagi g‘azallar, muxammaslar, muxammasi mustazodlar, masnaviy-soqiynomalar matni to‘liq emas.

**1122 raqamli** qo‘lyozmadagi lirik asarlar shoirning “Tuhfatu-s-sulton” devonidagi to‘lig‘icha kiritilgan. Qo‘lyozmada she’rlar kotib tomonidan tartibsiz ravishda ko‘chirilgan bo‘lsa-da, ushbu manba yaxshi saqlangan. Sahifalar va she’rlar hajmi to‘liq.

O‘zRFAs Sharqshunoslik instituti Asosiy fondidagi **1123 raqamli** qo‘lyozmada faqat g‘azallar ko‘chirilgan bo‘lib, ulardan 198 ta g‘azal hech qanday manbada uchramaydi. G‘azallarning qolganlari (164 ta) devonning toshbosma nusxasi (“Ichan qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi fondidagi 5884/3 raqamli toshbosma)da va O‘zRFAShI Asosiy fondidagi 6949 raqamli qo‘lyozmada takrorlanadi. To‘plamdagi g‘azallar alifbo tartibida bo‘lmay “ن”, “ق”, “ى”, “ص”, “ى”, “ز”, “ا”, “غ”, “خ”, “ا”, “ط”, “ع”, “غ”, “ا”, “د”, “گ”, “ض”, harflariga yozilgan g‘azallar aralash holda kitobat

qilingan. Ushbu manba tadqiqi shoirning turkiy tildagi uchta devoniga kirmagan lirik asarlari ham ancha ekanini ko'rsatadi.

Fondagi **1148 raqamli** qo'lyozmada lirik asarlar devon tartibida ko'chirilmagan. She'rlarni ko'chirishda kotib xatolarga yo'l qo'ygan, g'azallarni raqamlashda ham xatoliklar ko'zga tashlanadi. Biroq sahifalar to'liq. Lirik asarlar hajmi to'liq ko'chirilgan. Bu manbadagi g'azallarning ayrimlari "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi fondidagi 5884/3 raqamli toshbosmada mavjud. Ayrim g'azallar matni noqis. Jumladan, qo'lyozmadagi 6 baytli "*Fig'onkim ul pari-paykar zamirim lahza shod etmas*" misrasi bilan boshlanuvchi g'azal 5884/3 raqamli toshbosmada 7 baytni tashkil etadi. Yoki 5884/3 raqamli toshbosmadagi 9 baytli "*Birovkim ishq oyinini bilmas*" deb boshlanuvchi g'azal mazkur qo'lyozmada 10 baytni tashkil etadi.

**6949 raqamli** qo'lyozma manbada shoirning asosan 7 va 9 baytli g'azallari jamlangan. Bitta 18 baytli g'azali kiritilgan. Ushbu to'plamdagi ayrim g'azallar shoir devonlarida mavjud emas. Ayrim g'azallargina "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi fondidagi 5884/3 raqamli toshbosmada takrorlanadi. Ushbu qo'lyozma matnida ham ayrim kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Masalan, "*Ul oy qilsa agar javru jafu tarh*" misrasi bilan boshlanuvchi 8 baytli g'azal 5884/3 raqamli toshbosmada 9 baytni tashkil etadi.

**3. Devon tarkibidagi lirik janrlar ketma-ketligiga rioya qilinishi.** "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi fondidagi **5884/3 raqamli** toshbosma qolgan manbalarga nisbatan mukammalroq sanaladi. Ushbu manbadagi lirik asarlar devon tartibida joylashtirilgan.

**1122, 1123, 1148, 6949 raqamli** qo'lyozmalardagi lirik asarlar tartibsiz, aralash holda ko'chirilgan. Ushbu qo'lyozmalarda shoirning "Tuhfatu-s-sulton" devonidagi lirik asarlar qism-qism holda jamlangan. Biroq lirik asarlarning aksariyati shoirning birorta turkiy devonida uchramaydi.

**4. Matnning nuqsonlardan xolilik darajasi.** "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi fondidagi **5884/3 raqamli** toshbosma matnida ham ayrim kamchiliklar mavjud. Bular she'rlarning raqamlanishida, g'azallarning takror bosilganida, misra tarkibida so'zlarning o'rni almashirib yuborilganida, g'azallar tarkibidagi

baytlar o‘rnining almashtirilib ko‘chirilganida namoyon bo‘ladi. Masalan, toshbosma matni tarkibida 10 ta g‘azal takror bosilgan. Yoki “*Mango agarchi erur ishq aro vafo mashrut*” misrali g‘azalda “مشرت” (mashrut – shartlangan, shart qilingan) so‘zi “مشروط” tarzida uchraydi. Bunday kamchiliklar **1122, 1123, 1148, 6949 raqamli** qo‘lyozmalarda ham ko‘zga tashlanadi. Xususan, mazkur qo‘lyozmalar matnida ham qo‘shimchalarning tushib qolishi, so‘zlarning qo‘shib yuborilishi, so‘zlarning o‘rni almashib ketishi, baytlarning qisqarishi, so‘zlarning xato yozilishi, ko‘rinishidagi matniy tafovutlar mavjud. Ushbu kuzatuvlarimiz natijasida, shoir “Tuhfatus-s-sulton” devoni nusxalari matnining mukammallik darajasiga ko‘ra quyidagicha belgilash mumkin:

1. 5884/3 raqamli toshbosma (ديوان طبيی) – **A1** nusxa;
2. 1122 raqamli qo‘lyozma (ديوان منتخب طبيی) – **A2** nusxa;
3. 1123 raqamli qo‘lyozma (ديوان منتخب طبيی) – **B** nusxa;
4. 1148 raqamli qo‘lyozma (ديوان منتخب طبيی) – **S** nusxa;
5. 6949 raqamli qo‘lyozma (ديوان منتخب طبيی) – **D** nusxa.

### **3.2. Shoir asarlarini o‘rganishda matn tarixining o‘rni**

Ijodkor tomonidan muayyan asar matnining yaratilishidan tortib xronologik jihatdan eng so‘nggi nusxasiga qadar yuzaga kelgan tafovutlar matn tarixini tashkil etadi. Ya‘ni muayyan asar matni to‘g‘risida mavjud ma‘lumotlar yig‘indisi matn tarixidir. Ta‘kidlash lozimki, istiqlol davri o‘zbek matnshunosligida jiddiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, ko‘plab tarixiy asarlarning ilmiy-tanqidiy nashrlari yaratildi<sup>117</sup>.

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslikning nazariy masalasi hisoblangan matn tarixi masalasi rus matnshunosligida ma‘lum darajada o‘rganilgan va bu masala o‘zbek matnshunosligida ham imkon qadar o‘rganilmoqda. Matn tarixiga doir nazariy qarashlar rus matnshunoslaridan B.V.Tomashevskiy<sup>118</sup>,

<sup>117</sup> Огаҳий. Зубдату-т-таворих // Нашрга тайёрловчи Н. Жабборов. – Тошкент: O‘zbekiston, 2009. 240-бет; Огаҳий. Шоҳиду-л-икбол // Нашрга тайёрловчи Н. Шодмонов. – Тошкент: Мухаррир, 2009. 336-бет; Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-икбол. // Нашрга тайёрловчилар: Ш.Воҳидов, И.Бекжонов, Н.Полвонов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. 520-бет.

<sup>118</sup> Томашевский Б.В. Писател и книга. Очерк текстологии. Изд. 2-е, – М., 1959. – С. 148.

S.A.Reyser<sup>119</sup>, D.S.Lixachev<sup>120</sup> tadqiqotlarida uchraydi. Ushbu masala yuzasidan o‘zbek olimlaridan A.Habibullayev<sup>121</sup>, Sh.Sirojiddinov<sup>122</sup>, N.Jabborov<sup>123</sup>, A.Erkinov<sup>124</sup>, N.Shodmonov<sup>125</sup>, R.Zohidov<sup>126</sup>, Q.Pardayev<sup>127</sup>, Sh.Nuriddinov<sup>128</sup>lar tadqiqotlarida munosabat bildirilgan.

Zamonaviy matnshunoslikning asosiy metodologik tamoyili shundan iboratki, asar matni tarixi uning alohida parchalarini bir-biridan ajratib “o‘qish”da emas, balki yaxlit holda o‘rganishdadir. Alohida va yaxlit holda o‘qilgan matnlar tahlili ayri holatda amalga oshirilmaydi va “boshlang‘ich” shaklni tiklash uchun olib borilmaydi, matn tarkibida bosqichma-bosqich matn tarixini o‘rganish va uning barcha yashash bosqichlarini tiklash maqsadini ko‘zlaydi. Matndagi bir joyning o‘zgarishi bir vaqtning o‘zida boshqa o‘zgarishlar bilan bog‘liqlikda o‘rganiladi. Matndagi alohida o‘zgarishlar o‘rtasidagi bog‘liqlik matn yaratuvchi (muallif, hammualliflar va muharrirlar) shaxsiyati – uning g‘oyalari, e‘tiqodi,

---

<sup>119</sup> Рейсер С. А. Основы текстологии. – Л.: Просвещение, 1978. – С.176.

<sup>120</sup> Лихачев Д.С. При участие А.А. Алексеева и А.Г. Боброва. Текстология на материале русской литературы X – XVII веков. – Санкт-Петербург: Алетейа, 2001. – С. 34-35.

<sup>121</sup> Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншунослик. – Тошкент: ТДШИ, 2000. – Б.75-92.

<sup>122</sup> Сирожиддинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншунослиги қирралари. – Тошкент: Akademnashr, 2015. – Б.7-9.

<sup>123</sup> Жабборов Н. Адабий манбаларда матн таҳрири масаласи. /Адабий манба: ўрганишнинг замонавий тамойиллари ва нашр муаммолари (Илмий мақолалар тўплами). – Қарши. Насаф, 2013. – Б. 6-13; Бадиий матн таҳрирининг хос хусусиятлари. /“Ўзбек адабиётшунослигида талқин ва таҳлил муаммолари” мавзuidaги илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент: “Мумтоз со‘з”, 2014. – Б.28-32; О‘збек матншунослигининг долзарб муаммолари. /“Замонавий ўзбек адабиётшунослигининг янгиланиш тамойиллари” мавзuidaги Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент: Adabiyot uchqunlari, 2016. – Б.99-105; Матншуносликнинг айрим назарий масалалари. /“Ўзбек матншунослигининг назарий ва амалий муаммолари” мавзусидаги Республика илмий анжумани материаллари. – Қарши: Насаф, 2019. – Б. 3-7.

<sup>124</sup> Эркинов А. Матншуносликка кириш. – Тошкент: Республика таълим маркази, 1997. – Б.5.

<sup>125</sup> Шодмонов Н. “Шоҳиду-л-иқбол” – адабий манба. – Тошкент: Muharrir, 2009. – Б.22-26.

<sup>126</sup> Зоҳидов Р. “Саботул ожизин”. (Манбалар, шарҳлар, илмий-танқидий матн). – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015. – Б. 184-185.

<sup>127</sup> Пардаев Қ. Муқимий шеърйатида матн тарихи, таҳрири ва талқини. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 40-45.

<sup>128</sup> Нуриддинов Ш. Комил Хоразмий девони манбалари генеалогияси ва матн танқиди муаммоси. Филол. фан. д-ри... дисс. – Қарши, 2022. – Б.130-135.

psixologiyasi, badiiy didi va hokazolar bilan umumiy tushuntirish orqali o‘rnatiladi<sup>129</sup>.

Matn tarixini o‘rganayotganda tadqiqotchi uning o‘zgarishiga sabab bo‘lgan matndan tashqaridagi barcha asoslarni ko‘ra olishi kerak. Matn tarixi tarixiy-adabiy, tarixiy, tarixiy-maishiy va boshqa masalalar bilan uzviy bog‘liqdir. Bu matnshunoslik o‘z tadqiqot obyektiga ega emasligini anglatmaydi. Birgina predmet ko‘pincha bir nechta fanlarning o‘rganish obyekti bo‘ladi. Muhimi, nuqtayi nazarining qanday yo‘nalishga ega ekanida. Matnshunoslik matnning uning tarixi nuqtayi nazaridan o‘rganadi. Nimaiki adabiyot tarixida o‘rganilsa, matn tarixida ham qo‘llaniladi, biroq matndagi o‘zgarishlarni tushuntirish nuqtayi nazaridan yondashadi. Demak, matnshunos matndagi ma‘lum o‘zgarishlarni tushuntira olish chegarasidan chiqmagan holda qo‘lyozmaning g‘oyaviy, estetik tomonini o‘rganishi shart. Shuning uchun ham matn tarixini o‘rganish yodgorlikning tarixiy va adabiy tadqiqi o‘rnini bosa olmaydi va shu bilan birga u barcha tarixiy va adabiy manbalarni to‘lig‘icha jalb qilishni talab qiladi. Matnshunoslik – bu fan. U, yuqorida ta‘kidlaganimizdek, mustaqil o‘rganish predmetiga – asarlarning matni tarixiga ega. Agar biz “yordamchi fanlar” atamasini eskirgan deb atamasak (bizda va G‘arbda bunday e‘tirof mavjud), unda bu yordamchi filologik fandır. U tarixiy manbalar (solnomalar, kitoblar nusxalari, inqilobiy varaqalar va boshqalar) matni tarixini o‘rgangan taqdirda ham filologik fan bo‘lib qoladi<sup>130</sup>.

Ma‘lumki, matn tarixi matn ijodkori rejasining ro‘yobga chiqish jarayoni bo‘lib, matnshunoslikning asosiy tadqiqot obyekti sanaladi.<sup>131</sup> Muayyan asar matni haqidagi to‘liq ma‘lumot berish o‘sha matn tarixini to‘la o‘rganish asosida amalga oshiriladi. Ya‘ni, bunday ishlarda muayyan matnning dastlab, shakliy xususiyatlari (hajmi, xati, kotibi va boshqalar), so‘ng, uning mazmuni bilan bog‘liq ma‘lumotlar yoritiladi. Zero, “Matnshunoslik tahlilini esa, matn tarixi ma‘lumotlarisiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Chunki bu

---

<sup>129</sup> Лихачев Д.С. Текстология. – М. – Л.: Наука, 1964. – С. 6.

<sup>130</sup> Лихачев Д.С. Текстология. – М. – Л.: Наука, 1964. – С. 7.

<sup>131</sup> Бу haqda qarang: Лихачев Д.С. Текстология. – М. – Л.: Наука, 1964. – С. 34.



ma'lumotlar asarning shakli va mazmuni haqida aniq tasavvur olish uchun material beradi<sup>132</sup>.

Matn tarixi masalasi prinsipial ahamiyatga ega bo'lib, muayyan ijodkor yoki adabiy yodgorlik yuzasidan olib borilajak tadqiqotlar uchun ilk bosqich hisoblanadi. "Matn tarixi (bu tushuncha anglatgan keng ma'noga ko'ra) adabiyot tarixi tadqiqotchisiga adabiy yodgorlikka oid zohiriy ma'lumotlarni emas, muallif laboratoriyasining botiniy jihatlarini kashf etish imkonini beradi"<sup>133</sup>.

Keyingi paytlarda o'zbek olimlarining tadqiqotlarida matn tarixi masalasiga alohida etibor qaratilmoqda va bu borada matnshunos olimlar o'zlarining nazariy qarashlarini ilgari surmoqdalar. Jumladan, matn tarixi masalasiga e'tibor qaratar ekan, adabiyotshunos M.Hamidova shunday deydi: "Matn tarixini o'rganishda tarixiy va adabiy yodgorlikning yaratilgan va ko'chirilgan davrini aniqlash, manba nusxalari ko'p bo'lsa, ularning o'zaro bog'liqligini o'rganish muhim hisoblanadi. Shu sababli yodgorliklar matni ustida tekstologik tadqiqotlar olib borishdan avval shu yodgorlikning mavjud qo'lyozmalarini yig'ish, ko'chirilish davri, matniy to'liqligiga qarab tasniflash va shundan keyingina uning tarixini kuzatish lozim. Chunki har bir qo'lyozma birinchi navbatda o'z davrining tarixiy yodgorligi sifatida o'zigagina xos bo'lgan muayyan tarixga ega"<sup>134</sup>.

O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari manbalarini o'rganishda matnshunoslikning nazariy qismi bo'lgan matn tarixi va matn tahriri masalalari alohida o'rin tutadi. Professor Nurboy Jabborov matn tarixining aynan qaysi masalalarni qamrab olishi haqida shunday fikr bildiradi: "Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, matn tarixi qo'lyozma manbalar genealogiyasini tekshirishdan muallifning va hatto manbani ko'chirgan kotibning dunyoqarashi va g'oyasini o'rganishgacha, asarning yuzaga kelishida muallif ijodiy niyatining ro'yobga chiqishidan uning yaratilishigacha u yoki bu darajada

---

<sup>132</sup> Хасаний М., Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншуносликнинг назарий масалалари. – Тошкент, ТДШИ, 2012. – Б.18.

<sup>133</sup> Томашевский Б.В. Писател и книга. Очерк текстологии. Изд. 2-е, – М.: Искусство, 1959, стр. 148.

<sup>134</sup> Ҳамидова М. Алишер Навоий "Садди Искандарий" достонининг илмий-танқидий матни ва матний тадқиқи: Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 1994. – Б. 37.

aloqador bo‘lgan boshqa adabiy yodgorliklar bilan o‘zaro bog‘liq jihatlari tadqiqigacha bo‘lgan barcha jarayonlarni qamrab oladi”<sup>135</sup>. Masalaga bunday yondashuv adabiy yodgorlik matni bilan bog‘liq barcha jihatlarni tadqiq qilish imkoniyatini yaratadi. Matnshunos olim Shuhrat Sirojiddinov matn tarixi masalasiga e‘tibor qaratib, quyidagi fikrlarni bayon etadi: “Matn tarixini o‘rganish qo‘lyozma asarning mavjud nusxalarini qiyoslashdan boshlanadi. Matnlar *to‘liq, nuqsonli, tuzatilgan* (redaksiyaga uchragan) yoki *tugatilmagan* ko‘rinishlarda uchraydi. Qo‘lyozma nusxalarda uning tarixi bevosita qayd etilgan yoki bilvosita aniqlanadigan belgilar yordamida tiklanadi”<sup>136</sup>. Matnshunos Qo‘ldosh Pardayev olimning bu fikrlariga munosabat bildirib, yuqorida keltirilgan masalalar, asosan, matn tarixi bilan bog‘liq ko‘proq tashqi belgilarni o‘z ichiga olishi, matn tarixi, bundan tashqari, badiiy matnning mohiyatiga aloqador xususiyatlarni ham o‘rganishini alohida ta’kidlaydi<sup>137</sup>.

Demak, matn tarixi badiiy asar matniga daxldor barcha masalalarni qamrab olar ekan, o‘zbek matnshunosligida bu nazariy muammo qachondan boshlab o‘rganilgani, boshqacha aytganda, matn tarixi muammosining genezisi haqida fikr yuritish zarurati tug‘iladi. Nurboy Jabborov matn tarixini tadqiq qilish ildizlari Qur’oni karim va hadisi shariflarning o‘rganilishi bilan bog‘liq ekanini ta’kidlaydi<sup>138</sup>. Ayni masala yuzasidan matnshunos R.Zohidov: “Bir necha nusxaga ega bo‘lgan asarlar matni ma’lum vaqt mobaynida turli omillar ta’sirida o‘zgarishga uchragan. Bunga asar muallifi, kotib, noshir va boshqa shaxslar yoki ijtimoiy voqelikning ta’siri sabab bo‘lishi mumkin. Shunga ko‘ra, “matnshunosning vazifasi mana shu o‘zgarishlarni aniqlash, ularni

---

<sup>135</sup> Жабборов Н. Ўзбек матншунослиги ва унда матн танқиди, илмий-танқидий матн истилоҳларининг ўрни. / Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганишнинг назарий ва манбавий асослари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2019. – Б. 12.

<sup>136</sup> Сирожиддинов Ш. Матншунослик сабоқлари. – Тошкент: Navoiy universiteti, 2019. – Б.18.

<sup>137</sup> Пардаев Қ. Муқимий шеърятда матн тарихи, таҳрири ва талқини. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 43.

<sup>138</sup> Жабборов Н. Матн тарихи ва унинг генезисига доир айрим мулоҳазалар. Матн тарихи ва унинг генезисига доир айрим мулоҳазалар // Илмий мақолалар тўплами: Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари. – Наманган, 2021. – Б. 8.

tarixiy, ilmiy dalillar bilan asoslash va shu yo‘l bilan asl matnni tiklashdir”<sup>139</sup>, deb fikr bildiradi.

Asarning matn tarixini o‘rganish muallif dunyoqarashi, e‘tiqodi, ijodiy pozitsiyasini, qolaversa, asar yaratilgan davr ruhi hamda adabiy an‘analar to‘g‘risidagi tasavvurlarni boyitadi. Professor Nurboy Jabborov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “matnshunoslik izlanishlari bo‘lmasa, adabiyotshunoslik tadqiqotlari aksar hollarda o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Agar adabiy manba yaxlit bir imoratga qiyoslansa, matnshunoslik uning poydevoridir. Adabiyotshunoslik ana shu poydevor ustiga qurilmog‘i zarur. Aks holda u poydevorsiz inshoot singari omonat bo‘lib qoladi”<sup>140</sup>. Bunday qarash boshqa matnshunoslar tadqiqotlarida ham qayd etiladi. Xususan, Rashid Zohidov mazkur muammo xususida to‘xtalib shunday yozadi: “Turli yillarga oid yuzdan ortiq qo‘lyozma va toshbosma nusxaga ega muayyan asarning *matn tarixini* o‘rganmasdan, uning tili yoki badiiyatini yoritish borasida qanchalik zahmat chekilmasin, bu tugal ish hisoblanmaydi. Ko‘p nusxali matn tarixini o‘rganish esa asarning qo‘lyozma, toshbosma nusxalarini turli tasniflar asosida guruhlash, har tomonlama qiyoslash va saralashdan boshlanib, oxiri – aniq va ishonchli dalillar bilan quvvatlangan ilmiy-tanqidiy matnni tayyorlash bilan nihoyalanaadi. Shundan so‘nggina bu asar bo‘yicha kelajakda qilinadigan tadqiqotlar, xoh adabiyotshunoslik, xoh tilshunoslik yo‘nalishida bo‘lsin, qat’iy ravishda tayyor ilmiy-tanqidiy matn asosida olib borilishi kerak”<sup>141</sup>. Darhaqiqat, matn tarixini o‘rganish muayyan asarning ilmiy-tanqidiy matnini yaratish va badiiy tahlillar uchun zamin hozirlaydi. Matnshunos olim Nafas Shodmonov mazkur muammoning yechimini “matn tasarrufi” tushunchasi vositasida sharhlaydi: “Adabiy manba tadqiq etilib, istifodaga kiritilgach, muallif va uning merosini “tashuvchilar” tomonidan yo‘l qo‘yilgan xato hamda nuqsonlar ular zimmasidan

---

<sup>139</sup> Зоҳидов Р. “Саботул ожизин” асарининг манбалари, шарҳлари ва илмий-танқидий матнини комплекс ўрганиш муаммолари. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 194.

<sup>140</sup> Жабборов Н. Матн тарихини ўрганиш – илмий ҳақиқат мезони // Илмий мақолалар тўплами: Ўзбек филологиясида матншunoslik ва манбашunoslik муаммолари. – Наманган, 2020. – Б. 51.

<sup>141</sup> Зоҳидов Р. “Саботул ожизин” асарининг манбалари, шарҳлари ва илмий-танқидий матнини комплекс ўрганиш муаммолари. Филолология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2018. – Б.167.

tadqiqotchi zimmasiga o'tadi. Shuning uchun manba tadqiqot doirasida to'g'ri tasarruf etilishi, nuqsonlar bartaraf qilinishi lozim. Tasarruf uchun, eng avvalo, matnshunoslik mafkurasi, ilmiy tafakkur shakllangan bo'lishi kerak. U yetarli darajadagi nazariy bilimlar bilan bir qatorda psixologik, mantiqiy va estetik tahlil, tasavvur, yechim topish malakalarini o'zlashtirish orqali hosil qilinadi"<sup>142</sup>. Demak, muayyan adabiy yodgorlik matnining tarixini o'rganmasdan, u haqida xolis fikr bildirib bo'lmaydi.

Matn tarixini o'rganishda asarning mavjud nusxalarini qiyoslash, ular orasida kuzatiladigan tafovutlarning o'zi bilangina cheklanib qolish ham to'g'ri bo'lmaydi. Bunda ijodkor laboratoriyasiga kirish, uning zamondoshlari bilan ijodiy aloqalarini kuzatish, hayotiy faoliyatiga oid ma'lumotlarni ham o'rganish, shuningdek, asar yaratilgan davrdagi ilmiy, tarixiy asarlar hamda arxiv fondlarida saqlanib qolgan manbalarni istifoda qilish muhimdir. Bu jihatdan rus olimi B.V.Tomashevskiyning: "Ba'zan asarning to'liq rejasi va maqsadi muallif va (uning) zamondoshlarining yozishmalari, xotiralari va boshqalarni o'rganishda ochiladi"<sup>143</sup> tarzidagi mulohazalari o'rinlidir.

Darhaqiqat, matnshunoslik va adabiy manbashunoslikka doir har qanday tadqiqot va tahlil matn tarixi bilan aloqadorlikda amalga oshiriladi. Shunga ko'ra, "muayyan matn haqidagi barcha ma'lumotlar yig'indisi matn tarixi"<sup>144</sup> hisoblanadi. Matnshunos olim A.Habibiullayev matn tarixi haqida fikr yuritib: "Matn tarixi materiallari o'z navbatida matnshunoslik tahlilini amalga oshirish uchun xizmat qilishi, matnshunoslik tahlili esa: 1) tadqiq etilayotgan matnning qaysi davrga mansubligi; 2) matnning tarixiy-adabiy va madaniy shart-sharoit bilan aloqasini belgilashi va kuzatishi; 3) o'rganilayotgan asar matnidagi barcha o'zgarishlarni hisobga olishi; 4) xuddi o'sha sharoitda ijod qilgan boshqa mualliflarning asarlariga e'tibor qaratishni; 5) muayyan asarning boshqa asarlarga ko'rsatgan

---

<sup>142</sup> Шодмонов Н. Адабий манба ва матн тасарруфи // Адабий манба: ўрганишнинг замонавий тамойиллари ва нашр муаммолари. Мақолалар тўплами. – Қарши: Насаф, 2013. – Б.15.

<sup>143</sup> Томашевский Б.В. Писател и книга. Очерк текстологии. Изд. 2-е, – М.: Искусство, 1959, стр. 146.

<sup>144</sup> Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншунослик. – Тошкент: ТДШИ, 2000. – Б.92.

ta'sirini izlash kabi omillarga aniqlik kiritishini ta'kidlaydi<sup>145</sup>. Ushbu mezonlar Ahmad Tabibiy she'riyatida matn tarixi masalasini o'rganish uchun ham xos bo'lib, masalaga bunday yondashuv yangi ilmiy xulosalarga olib kelishi jihatidan muhim hisoblanadi.

Ma'lumki, Feruz farmoniga ko'ra, Ahmad Tabibiy saroyga chaqirtiriladi<sup>146</sup>. Tabibiyning Feruz bilan uchrashuv tafsilotini Xodim quyidagicha bayon qiladi: *“Muhammad Rahim Ikkinji buyruq berdi: – Shoirni qo‘liga qog‘oz, qalam berulsun, degan buyruq bo‘yuncha, shoir Ahmadjonni qo‘liga qog‘oz qalam berildi. Ham Muhammad Rahim Ikkinjining o‘zi ham shoir bo‘lg‘oni uchun she‘rni o‘zi boshlab berdi.*

*Shunday qilib boshladikim: “Shohim mango hukm ayladi, xizmatda degil bir g‘azal”, deb boshlab berib xitob qilib aytdi: Shuni o‘zini davomini qil, deb buyruq berdi. Ahmadjon tik(ka) turub, shuni ishlab bergan she‘rini davomini oyoq ustida dik turib ishladi. Ishlasa ham yaxshi ishladi. To‘qqiz band qilib buyruq bergan hamon to‘xtamasdan, o‘ylanmasdan ishlab: - Taqsir, to‘qqiz band qilib ishladim, deb Muhammad Rahim Ikkinjiga aytdi. Bizlar ham dahlizda eshitib o‘turduk. Bizlar hayron bo‘lduk. Bu kishi to‘qqiz band she‘rni darhol qanday qilib ishladi, deb qarab turgan eduk”<sup>147</sup>. Demak, Tabibiyning “Shohim manga hukm ayladi xizmatda degil bir g‘azal” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azali 9 baytdan iborat bo‘lgan. Shoir lirik merosi tadqiqi yuqorida keltirilgan misra bilan boshlanuvchi g‘azali yo‘q ekanini ko‘rsatadi. Biroq Ahmad Tabibiy “Munisu-l-ushshoq” devonida shoirning ikkita qasidasi bo‘lib ularning ikkinchisi “Shohim manga hukm ayladi xizmatda degil bir g‘azal” misrasi bilan boshlanadi. Ushbu qasida matni quyidagicha:*

*Shohim manga hukm ayladi xizmatda degil bir g‘azal,  
Bo‘lsun badiha lafzlig‘ ichra va lekin bebadal.*

*Bo‘lsun iborati xush rangin alfozi fasih,  
Qilmon anga lekin onga beg‘ash bo‘lub makru hiyal.*

---

<sup>145</sup> Yuqoridagi manba, o‘sha sahifa.

<sup>146</sup> Xodimning bu haqdagi fikrlari ishning birinchi bobida batafsil keltirilgan.

<sup>147</sup> Ходим. Хоразм шоир ва навозандалари (Нашрга тайёрловчилар: А.Отамуродова, О.Абдурахимов). – Тошкент: Tafakkur qanoti, 2011. – Б. 143-144.

*O'tkarmayin fursat hech ochg'il tiling ash'org'a,  
Kim bu zamondur fikrati ash'or uchun yaxshi amal.*

*Ham aylagil anda aruz ila qavofiy mushkulin,  
Turfa sinoat ko'rguzub zehni saliming birla hal.*

*Yetkur balog'atlar bila andog'sano'e nur aro,  
Kim aylasun tahsin sanga ruhi Navoiy, Jomiy tal.*

*Qayu shohkim olam aro jumla salotin xaylidin,  
Iqbolu johini baland etmish Qodiri lamyazal.*

*Har kimki lutfi shahdidin topsa halovat gar dame,  
Komi chuchukdur borho lazzatda ondoqkim asal.*

*Topmish oningdek rutbakim barcha jahon sultonlari  
Bordur huzurda sokini xidmatgudozi fil-masal.*

*Har kimga essa qahridin nogah nasimi jon gudoz  
Beshak qo'parg'usi oning bunyodini tiyg'i ajal.*

*Ochilmasa madhi bila dahr ichra har komi dahan,  
Badbo'y ta'm talx o'lg'usi andoqkim zag'al.*

*Qilg'usi tun-kun xidmatin qilmoqda ko'shish sidq ila,  
Har kimki topmoq istagay olam aro neku amal.*

*Qilsa tamarrud birla gar har kimki izhori inod,  
Bo'lg'ay siyahlig'da yuzi xalq ichra ondoqkim zag'al.*

*Bo'lsa ne tong ishrat bila doim jahonda komyob,  
Kim qilmish qismatin aysh ichra qassomi azal.*

*Doruyi bazli lutfidin topg'usi albatta davo,  
Har kimki foqa-faqrning olomidin bo'lsa kasal.*

*Adli barobar xesh uza begonag‘a masnad ila,  
Andoqki shohi boxabar qilg‘ay makon burji hamal.*

*Har kimki qilsa mehrini jonu ko‘ngulda joy ul,  
Xalq ichra bo‘lg‘ay izzatu ham e‘tibor ila go‘zal.*

*Bahri navolidin agar har kimsa ichsa qatraye,  
Faqr uzra etmaklik qachon bo‘lg‘usi onga muhtamal.*

*Amri xattidin har kishikim chiqsa bir miqdori mo‘,  
Sha‘nida “kal-an‘om” oning nozil erur “bal hum azal”.*

*Har kim anga gar jahldin bir dam adovat aylasa,  
Bo‘lg‘usi beshak umrlar xalq ichra ul dunu dag‘al.*

*Bordur saodatda onga ahbob misli Mushtariy,  
Lekin nuhusatda erur a‘dosi andoqkim Zuhul.*

*Beshak shifo topg‘usidur in‘omi lutfi jomidin,  
Muhtojlig‘din har kishi jonida gar bo‘lsa ilal.*

*Yo‘q bahramand o‘lmay kishi qolg‘on navoli xonidin,  
Olamda bunyod hech o‘lsun va yo kim ko‘ru kal.*

*Yo Rab, jahon ayvonida ayshu tarab birla mudom,  
Bo‘lsun onga sur‘at bila hosil hama komu amal.*

*Iqbol birla baxt ham doim bo‘lub rahbar onga,  
Qilsun hamul komig‘a ixlos ila jahdu jadal.*

*Doxil bo‘lub ham xatti hukmi aro ro‘yi zamin,  
Qilsun tun-kun sidq ila qulluq anga jumla milal.*

*Hifzu himoyat aylabon fazling bila yo Rab oni,  
Osibi davrondin anga etkurmagil hargiz xalal.*

*Bo'lsun g'ulomi dargahi ixlos ila bog'lab kamar,  
Olam aro xayli malak aksar gar o'lsun var aqall.*

*Yo Rab, hamisha yastanib aflok rif'at dargahi,  
Xizmat qilurda ittifoq etsun hama elu duval.*

*Sultoni Iskandar nishon ashraf huzurida bu nazm,  
Miqdori uch soat aro itmom topti bexalal.*

*Aylab Tabibiydek manga, yuz shukrkim, lutfu karam,  
Oyg'il huzurimda debon hukm etti shohim bir g'azal.*

Demak, ushbu g'azal yozilganida Ahmad Tabibiy juda yosh bo'lgan va she'riyat bilan u qadar jiddiy mashg'ul bo'lmagan. Ushbu qaydlar, Ahmad Tabibiyning shoir sifatidagi ilk ijod namunasi bilan tanishish imkonini beradi. Demak, Tabibiy keyinchalik saroyda shoirlik bilan jiddiy mashg'ul bo'lgandan so'ng o'sha g'azal matni ustida ishlagan, uni 30 baytli qasida darajasiga yetkazgan. Bu ma'lumotlar orqali yuqorida ta'kidlangan ***tadqiq etilayotgan matnning qaysi davrga mansubligini*** aniqlash mumkin.

**Matnning tarixiy-adabiy va madaniy shart-sharoit bilan aloqasini belgilash va kuzatish.** Ahmad Tabibiyning hayot yo'li, faoliyati, adabiy-estetik qarashlariga oid fikrlari shoir "Munisul-ushshoq" devoni debochasidagi ayrim qaydlarda aks etgan. Debocha matnida shoirning o'z ahvoli, o'sha davr tarixiy-adabiy va madaniy shart-sharoit haqida ham ayrim fikrlar bayon etilgan.

*"Nokomlig' bodasining sargardoni va beoromlig' zoviyasining majnuni hayroni ahqaru-l-ibod mulku-s-samad va aqsari umam hazrati Muhammad ibn hoji Ali Muhammad almutaxallis bit-Tabibiy Ahmad g'afarollohu zunubahumo va satara uyubohumo o'z ahvolidin bu nav' ajz va qusur bila takallum surar va o'z ishtig'olidin mundoq taqsir va favr bila nuktadonlar arosida dam urarkim chun zamoni behjat iqtironi Xivaqi Firdavs xavarnaq shahrining mamlakat manba'i fayzi haqqi hazrati saltanatdastgoh mutaoliy joygoh xilofatpanoh Iskandar hashmat Sulaymon martabat xurshid manzilat gardun rif'at ma'lo alqob Jamshid janob.*



**Nazm:**

*Shahanshohiki hashmatda Sikandar,  
Anga kelmish g'ulomi amr gustar.*

*Abo anjad salotini jahondur,  
Ulus boshi uza zilli O'g'ondur.*

*Inoyotu sahovat manba'idur,  
Adolotu muruvvat matla'idur.*

*Chu shar' oyinini yaxshi bilibdur,  
Rivoji shar' oyini kelibdur.*

*Yana asrida ko'b topdi masojid,  
Madoris birla anvo'i ma'obid.*

*Kitob o'ldi necha asrida ta'lif,  
Necha devoni nazmi, nasri, tasnif.*

*Gahi fozilg'a pasha nuktada tablig',  
Gahi atrok sori tarjimonlig'.*

*Qayu insonki bu dam keldi fozil,*

*Bu vajh ila oning asrida tun-kun.  
Suxandon hayli bo'ldi haddin afzun.*

*Sarvari salotini olam sardaftari xavoqini muazzam saltanat  
burjining oftobi olamtobi, makrumat durjining gavhari noyobi,  
xilofot farqining afsari, gavhar yarosi, jalolat tojining durri garon  
bahosi, malozil muluki oliyjah marj'i xavoqin davlatpanoh nosibi  
rioyot millat bayzo rofe' alom shariati g'arro hodimi asosi zulm va  
shiqoq mohiyi osori kufr va nifoq, madanul adolat va sahovat  
malikul mamlakati vas-saltanat mu'izul millati vad-davlat  
almuayyidu tabayudotil mulk almannon val muntasiru binusratil  
hayyil mustaon xalifatur Rahmon zilli Subhon Abulmuzaffar val  
Mansur abul fath Sayyid Muhammad Bahodirxoni soniy domo*

*umruhu va iqbolihu va zayyada davlatahu va ijlalahuning hatai  
ixtiyori va qabzai iqtidorida erdi va ul hazratning say'i va  
ko'shishlari doim ul avqot ulamo va fuzalo va shuaro izyodig'a  
masruf bo'lub bazl va baxshishlari aksar holot fusaho va bulag'o  
haylining sof e'tiqodig'a ma'tuf bo'lur erdi. Bu sababdin men dog'i  
altofi ehsonidin barumand bo'lg'ali shoyiq va jonu ko'nglumni  
fuzalo ahvolotin tamosho qilurda taassufg'a loyiq bilib ulamo va  
fuzalo xizmatin ulchakim mumkin erdi bajo kelturdum, har  
majlisdakim fazl va donish sham'i ravshanlig' topsa, anga parvona  
yanglig' o'zumni yetkurub, lekin bebuzoatlig' va qillati istitoatlig'  
borho mone' erdi va beilmi donish jihatidin ko'bdin ko'b  
taraddudim zoye' erdi va ul hazratning gohi o'z tab'i latif va fikri  
shariflaridin nazmi jon fizo va she'ri dilkusho zuhurg'a kelganda,  
fozili mudaqqiq va komili muhaqqiqlar iborati ma'noaro va  
mazomini diqqat piroyasin mafhumig'a yetib farqig'a taqsin va  
ofarin gavharlarin sochib duo va sano va til ochar erdilar. Ori fozil  
kimsa fuzalo va ulamonavoz bo'lub va ilmu ma'rifat kunhiga yetgan  
kishi ulamo bila suhbat tuzub nuktaparvoz bo'lg'ay, bovujud men  
ham bu xonadong'a bandai zamim va xizmatga sarafgandai qadim  
bo'lub, aboanjad xonazoda g'ulomi pok e'tiqod erdim.*

***Nazm:***

*Otam bu borgahg'a erdi banda,  
Onam bu ostong'a sarfikanda.*

*Bas emdi men erurman xonazoda,  
Bu ikkidin manga nisbat ziyoda.*

*Ne tong faxr aylasam ahli jahong'a,  
Ki bor men bandai shohi komrong'a.*

*Chu men bekasda qulluq nisbati bor,  
Jahon ahlini bilkull davlati bor.*

*Angakim yor esa qulluqda mansub,  
Saodat haylidin bo'lg'usi mahbub"<sup>148</sup>.*

---

<sup>148</sup> O'zR FASHI. 6226 raqamli qo'lyozma. 6<sup>b</sup>-sahifa.

Shoirning she'rlari Feruz ko'rsatmasiga ko'ra zamondoshlari tomonidan ko'plab to'plam holida ko'chirilgan. Tarjima asarlaridan Fuzuliyning "Haft jom" va Vahshiy Bofiqiyning "Nozir va Manzur"<sup>149</sup> ham shoh farmoniga ko'ra qayta-qayta qo'lda ko'chirilgan. Shoir lirik she'rlarini bitar ekan, dastlab, ularni devon shaklida tartib berishni maqsad qilmagan. Shoir devonlarining tartib berilishida hukmdor (Feruz)ning ta'siri katta bo'lgan. Shunday bo'lsa-da, shoir lirik merosi tadqiqi uning keyinchalik she'riy devon tartib berishni mo'ljallaganini ko'rsatadi. Negaki, shoirning o'z zamonasida ko'chirilgan to'plamlardagi yuzlab she'rlari devonlariga kiritilmagan. Ta'kidlanganidek, Feruz ko'rsatmasiga binoan Tabibiy she'rlarini devon holida jamlagan. Bu haqda devonlari uchun yozgan debochasida quyidagilarni keltiradi: *"Bas, bu asnoda kunlardin bir kun g'oyati adolat va nihoyati marhamatidin ishorati oliya va bashorati jaloliyya bu hokisori zarravor tarafig'a andoq sudur toptikim hama ash'orimni jam' qilib devon tartibin tuzgaymen va ul murattabni janobi gardunmaobg'a tuhfa va hadiya yo'sinida ko'rguzgaymen va yana hamul onda va dubora haddin ziyoda otifat bila bu nav' kalomi maymanat anjom buyurdilarkim zodai tab'ing, ya'ni bu ash'ori dilpising xohi qabih va yo xudmalih hama farzandi arjumanding, balki tamomi jigarbandingdurlar. Bizga dog'i xonazod va bandai samimul e'tiqoddurlar. Bas alarni bu tariqa ovvora va parishon qilmoq va har kimning qo'lida pora-pora va sargardon qilmoq va muruvvatrasmidin yiroqda odamiyyat shevasidin uzoqdur. Nedinkim va andog'i hama ayon va nihoni nopoydordur. Lekin kalomi nasr va nazm har kimsadin yodgordurkim onga zamon osibi yetushmas va o'lmak savdosi oning boshig'a tushmas... Chun bu guftori guharborni eshitdim joni hazinimg'a nishot va zamiri anduhginimg'a inbisot etushdi. Ammo bebizoatlig'din sharmisor qilib istitoat jihatidin iztiror o'ti jonu dilimga tushdi, nedinkim devon tartibin tuzmak suxan jam'ig'a mayl ko'rguzmak har beilm va funun qo'lidin kelmas. Balki har devona va majnun oni bilmas... Alqissa, **"Al ma'muru ma'zurun"** hadisi mafhosicha bu xidmati zi*

---

<sup>149</sup> Bu asarni S.Matkarimova Tabibiyga nisbat bergan (Табибий – таъкиранавис ("Мажмуаи си шуарои пайрави Ферузшоҳий" асосида). – Тошкент, 2007. – Б.14.

*saodatni joni ko'ngul bila qabul qildim. Bu farmoni vojibul iz'onni bitkargali boshdin qadam qilib yeldim*"<sup>150</sup>.

**O'rganilayotgan asar matnidagi barcha o'zgarishlarni hisobga olinishi.** Shoir ijodida mumtoz adabiy janrlarning barcha namunasi mavjud. Ular shaklan va mazmunan rang-barang. Biroq lirik merosi tadqiqi shoir turkiy devonlari tarkibidagi ayrim she'rlar, xususan, g'azallari mazmunan va shaklan hamohang tarzda yaratilganini ko'rsatadi. Jumladan, Tabibiyning "Munisu-l-ushshoq" devonidagi 173-she'r "*Yuz shukrkim, kulbam aro ushbu kecha jonon kelur, Ya'ni zaifu notavon bo'lg'on tanimga jon kelur*" matla'i bilan boshlanib, uning hajmi 11 baytni tashkil etadi. Shoirning boshqa devon va she'riy to'plamlarida ham xuddi shunga o'xshash g'azallarni uchratish mumkin. Masalan, Tabibiy she'rlari jamlangan 1159 raqamli qo'lyozmada 7 baytli shoirning bir g'azali "*Yuz shukrkim, bu tun hamul sho'xi diloromim kelur, Boda tutub daf' etgali anduhi olomim kelur*" matla'i bilan boshlanadi<sup>151</sup>. 1148 raqamli qo'lyozmadagi 185-g'azal "*Yuz shukrkim, ushbu kecha kulbam aro jonon kelur*" misrasi bilan boshlanadi va uning hajmi 9 bayt. Yoki "Hayratu-l-ushshoq" devonida ham shu mazmundagi "*Yuz shukrkim, ul nozanin kulbamda mehmondur bukun*", "*Yuz shukrkim, bazmim aro kelgusidur jonon bukun*", "*Yuz shukrkim, kulbam aro ul sho'x mehmondur bukun*" misralari bilan boshlanuvchi g'azallarni uchratish mumkin. Shuningdek, biz taxmin qilayotgan "Tuhfatu-s-sulton" devonida ham shunga o'xshash g'azallarni uchratish mumkin. Masalan, "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi fondidagi 5884/3 raqamli toshbosmaning 350-she'ri "*Yuz shukrkim, ushbu kecha kulbam aro jonon kelur*" (9 bayt), 857-she'r esa "*Yuz shukrkim, keldi mening kulbam aro jonon bu kun*" (9 bayt) misralari bilan boshlanadi. Albatta, bu she'rlar bir paytda emas, turli yillarda ijod etilgan. Tabibiy inson qalbining nozik kechinmalarini ifodalovchi she'rlar yozish bilan bir qatorda, tabiat go'zalliklarini ham badiiy mahorat bilan tasvirlaydi. "Tabibiy hayotni chuqur muhabbat bilan sevadi. Hayot ilhomlari shoir tafakkuriga olam-olam go'zalliklar hadya etadi. Uning "*Bahor*", "*Bo'lsa*", "*Bulbul*" radifli g'azallarida tabiatning go'zalligi yordin,

<sup>150</sup> O'zR FASHI. 6226 raqamli qo'lyozma. 7<sup>b</sup>-sahifa.

<sup>151</sup> O'zRFA SHI. 1159 raqamli qo'lyozma. 21<sup>b</sup>-sahifa.

ta'sirli ifodalar orqali kuylanib, shoir ularda shodlik, sevinch bilan hayot kechirishga bo'lgan intilish orzusini kuylaydi"<sup>152</sup>. Tabiiy ijodida tabiat tasviri, yil fasllari bilan bog'liq ko'plab lirik asarlar mavjud. Jumladan, "Munisu-l-ushshoq" devonidagi 198-g'azal "*Yuz tuman fayz ila keldi olam ichra to bahor, Yer yuzin qildi nechukkim jannatul-ma'vo bahor*" matla'i bilan boshlanib, uning hajmi 11 baytni tashkil etadi. Ushbu g'azal matni 1122 raqamli qo'lyozmadagi "*Qish ketib mulki jahong'a nozil o'ldi to bahor, Yer yuzin fayz ila qildi jannat ul-ma'vo bahor*" matla'i g'azal bilan juda o'xshash. Bu g'azal 13 baytdan iborat bo'lib, uning matni kotib tomonidan xatoliklar bilan ko'chirilgan.

"Munisu-l-ushshoq" devonidagi yana bir g'azal "*Bahor*" radifi bilan keladi va quyidagi matla' bilan boshlanadi:

*Fayzu latoft dahr aro to oshkor etti bahor,*

*Sahnini har gulzorni jannat shior etti bahor.* Faqatgina 13 baytli mana shu g'azal 1122 raqamli qo'lyozma asosida devonga kiritilgan. Ta'kidlash kerakki, devon tarkibida "bahor" radifi va "bahor" fasli bilan bog'liq ko'plab lirik asarlar mavjud. Biroq ularning aksariyati shoir lirik asarlari jamlangan qo'lyozma to'plamlarda uchramaydi. Masalan, devondagi "*Kulbanga kel, ey sho'xkim, kelmishdurur fasli bahor, Olamg'a yuz qo'ymishdurur fayzu safoyi beshumor*", "*Bo'lmasa, ey do'stlar, Haq lutfig'a mazhar bahor, Ne uchun, bas, dahrni qildi safoparvar bahor*", "*Mujdakim, keldi tuman nuzhat bila fasli bahor, Jannat oso yer yuzining fayzin etti beshumor*" matla'lari bilan boshlanuvchi g'azallar shoir she'rlari to'plamlarida yo'q. Demak, bu she'rlar shoir devon tartib berish chog'ida ijod etilgan. Shuningdek, shoir "Munisu-l-ushshoq" devonining mukammal nusxasidan ham uning toshbosma variantida ham ayrim g'azallar tushib qolgan bo'lib, bu she'rlar devonning 3461 raqamli qo'lyozmasida mavjud. Bu g'azallarining dastlabkisi "*To latofatlar bila zebi guliston bo'ldi bog', Rangu bu fayzu safolar naqdig'a kon bo'ldi bog'*"<sup>153</sup> matla'si bilan boshlansa, ulardan yana biri:

*Vahki, zamone topmadim anduhi hijrondin farog',*

*Bor doimo ko'zimda nam, ko'nglumda g'am, jonimda dog'.*

<sup>152</sup> Ғанихўжаев Ф. Аҳмад Табибий (ҳаёти ва ижоди). – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 18.

<sup>153</sup> O'zR FASHI. 3461 raqamli qo'lyozma. 25<sup>b</sup>-sahifa. ديوان طبيبي ترکی.

*Armon ul oshiqni nechuk qolg'usi ko'ngli ichrakim,  
Fasli bahor yetsa agar dildor birla sayri bog'<sup>154</sup>.*

Ushbu g'azallar biz tahlilga tortgan "bahor" radifli g'azallar mazmuni bilan hamohang. Negadir, bu g'azallar devonning mukammal nusxalariga kiritilmagan. Bundan tashqari, devonda "Sahni chamanda to bahor o'lg'och namoyon o'ldi gul, Bulbulg'a yaksar boisi faryodu afg'on o'ldi gul" matla'li g'azali, hazrat Alisher Navoiyning:

*Sahar xovar shahi charx uzrakim, xaylu xasham chekti,  
Shuoi xat bila ko'hsor uza oltun alam chekti, – matla'li  
g'azaliga tatabbu qilingan:*

*Shahi anjum shuo'yin ko'k uza chun subhidam chekti,  
Ufq lavhig'a ishratdin ishorat bir raqam chekti.*

*Ki ya'ni xush safo birla kelib fasli bahori gul,*

*Ulus olida g'abro xonida turluk ni'am chekti, - matla'li g'azal ham shu mazmundadir. E'tiborlisi ushbu g'azallar ham shoir she'rlari jamlangan qo'lyozma to'plamlar (terma devon)larda uchramaydi. Ushbu g'azallar tahlili ular bir paytda va bir xil sharoitda ijod etilganini, ko'plab lirik asarlar boshqa to'plamlardagi g'azallar ta'sirida ijod etilganini ko'rsatadi. Jumladan, devondagi "Vasl shukrin qilmag'ong'a dardu hijrondur evaz, Yor qadrin bilmagonga ranji hirmondur evaz", "Mehri jamoling qildi to pinhon musalsal kokuling, Boshing'a qildi dahrni zindon musalsal kokuling", "Kulbanga keldi shukrkim, ochib yuzin jonon bukun, Yorutdi tiyra ko'zlarim behaddi bepoyon bukun" matla'li g'azallar 1159 raqamli qo'lyozmadagi lirik asarlar ta'sirida ijod etilgan. Sababi bu to'plamdagi lirik asarlar shoir "Munisu-l-ushshoq" devoni tartib berilishidan oldin (1906-yilda) yozilgan.*

"Munisu-l-ushshoq" devonidagi "Bahor" radifi va "Bahor" fasli bilan bog'liq lirik asarlari shoirning keyingi turkiy devonlaridagi she'rlarning yuzaga kelishiga ham xizmat qilgan. Jumladan, shoir "Hayratu-l-ushshoq" devonidagi 219-g'azal:

---

<sup>154</sup> O'zR FASHI. 3461 raqamli qo'lyozma. 56<sup>a</sup> -sahifa. ديوان طبيبي ترکی

*To bo'ldi olam mulkida, ey do'stlar, paydo bahor,*

*Qildi tamomi yer yuzin chun jannatu-l-ma'vo bahor,*<sup>155</sup> - matla'i bilan boshlanadi. Yoki devondagi “*Ey sanam, bahor o'lmish azmi sayri bo'ston qil, Shohidi chamanlarg'a orazing namoyon qil*”<sup>156</sup>, “*Toki ayyomi bahor o'ldi guliston xurram, Bo'ldi bulbul chekibon nolavu afg'on xurram*”<sup>157</sup>, “*Bahor o'lg'och bo'lub paydo binafsha, Berur gulzorg'a oro binafsha*”<sup>158</sup>, “*Bihamdillahki, lutfi Haq jahona oshkor o'ldi, Yetib fayzu safo yer yuziga fasli bahor o'ldi*”<sup>159</sup> - matla'li g'azallar ham shu mazmundadir. Bu g'azallarning barchasi 11 baytdan iborat bo'lib, sahifalar hoshiyasiga ko'chirilgani e'tiboridan ular devonni takomillashtirish asnosida bir paytda ijod etilgan.

Shoirning “Tuhfatu-s-sulton” devonida ham shu mazmundagi lirik asarlar anchagina bo'lib, ularning devondagi tartibi quyidagi jadvalda keltirilgan:<sup>160</sup>

#### 4-jadval

№	Devondagi tartib raqami	G'azalning birinchi misrasi	Hajmi (bayt)	Izoh
1	282	Fasli bahor o'lmish ayon, ey lolarux, ey lolarux	9	
2	379	Agarchi har sori esgay bu lahza bodi bahor	9	
3	383	Bo'ldi to mulki jahon ichra bu yil paydo bahor	9	
4	384	Soqiyo, keturgil bodakim kelmishdurur	9	

<sup>155</sup> O'zR FASHI. 3460 raqamli qo'lyozma. 52<sup>b</sup>-53<sup>a</sup>-sahifalar hoshiyasi.

<sup>156</sup> Shu manba. 110<sup>b</sup>-111<sup>a</sup>-sahifalar hoshiyasi.

<sup>157</sup> Shu manba. 113<sup>b</sup>-sahifa hoshiyasi.

<sup>158</sup> Shu manba. 126<sup>b</sup>-127<sup>a</sup>-sahifalar hoshiyasi.

<sup>159</sup> Shu manba. 134<sup>b</sup>-sahifa hoshiyasi.

<sup>160</sup> Jadvalda Xiva “Ichan qal'a” davlat muzey-qo'riqxonasi fondidagi 5884/3 raqamli toshbosma manbadagi she'rlar keltirildi.

		fasli bahor		
5	652	Navbahor ayyomi bo‘lmishdur jinon osor bog‘	9	6949 raqamli qo‘lyozma asosida bosilgan.
6	653	Ko‘rki bu dam aylamish turluk shajar izhor bog‘	9	6949 raqamli qo‘lyozma asosida bosilgan.
7	654	Yetti ayyomi bahor sabzi rayon bo‘ldi bog‘	11	6949 raqamli qo‘lyozma asosida bosilgan.
8	655	Yetti ayyomi bahor sabzi rayon bo‘ldi bog‘	11	
9	781	Bahor ayyomi bo‘lmish, ey pari, sayri guliston qil	15	
10	809	Bahor ayyomi bo‘lmish bog‘ aro, ey mehribon, kelgil	11	

Ahmad Tabibiy devonlarida arab harflarining ayrimlariga 30 dan 50 tagacha g‘azallar bitilganini, o‘nlab bir xil radifli g‘azallar yozilganini kuzatish mumkin. Bundan shoir bir nechta devon tartib berishni maqsad qilgan. Shuning uchun ham shoir ijodida bir xil radif va bir xil mazmundagi lirik asarlar salmoqli o‘rinni egallaydi.

**Xuddi o‘sha sharoitda ijod qilgan boshqa mualliflarning asarlariga e‘tibor qaratish.** Avvalo shuni ta‘kidlash kerakki, Alisher Navoiy ijodi Tabibiy va unga zamondosh shoirlar uchun maktab vazifasini o‘tagan. Ma‘lumki, Feruz hukmronligi davrida hazrat Navoiy asarlari qayta-qayta kitobat qilingan, mutafakkir shoir merosini o‘rganish, undan ilhomlanib ijod qilish mumtoz adabiy an‘analar rivojiga xizmat qildi. Bundan tashqari, Tabibiy va uning zamondoshlari ijodida Muhammad Rizo Ogahiyning ta‘siri katta bo‘lgan. Negaki, Ogahiy mumtoz adabiy an‘analarni ham shaklan, ham mazmunan munosib davom ettirgan, yangi janrlarda qalam tebratgan, Xorazmdagi bir guruh ijodkorlarning yetishib chiqishi va



ularning adabiy soha rivojida muvaffaqiyatga erishishida o'zining munosib hissasini qo'shgan. Ma'lumki, Ogahiy lirik asarlari mumtoz she'riyatimiz ifoda imkoniyatlarini yanada kengaytirgani bilan qadrlil bo'lsa, uning betakror badiiy-tarixiy nasri hamda ko'plab tarjimalari adabiy merosimizning qimmatli durdonalari hisoblanadi. Shoh va shoir Feruz hukmronligi yillarida "Xiva adabiy muhiti"da yashab, ijod etgan 50 dan ortiq shoiru mutarjimlarning yetishib chiqishi tasodif bo'lmay, ularning badiiy ijoddagi muvaffaqiyatlari Navoiy, Munis, Ogahiydek ijodkorlar bilan bog'liq deyish mumkin. Zero, bu davr adabiy manbalarini kuzatar ekanmiz, har bir shoir o'zining aksariyat she'rlarini ulug' so'z san'atkorlari Alisher Navoiy va Muhammad Rizo Ogahiyga o'xshatmalar tarzida yozganining guvohi bo'lamiz. Ahmadjon Tabibiy Navoiy va Ogahiydek mutafakkir shoirlar ijod namunalari bilan yaqindan tanishib, uni o'zining ma'naviy ustoz deb bilgan ana shunday ijodkorlardan biridir. Shoir adabiy merosining aksariyatida Alisher Navoiyning ta'siri yaqqol sezilib turadi. Shuningdek, shoir lirik asarlarida Fuzuliy, Munis, Ogahiy, Feruz ijodidan ta'sirlanish holatlarini ko'rish mumkin. Tabibiy ijodida 100 dan ortiq ijodkorlarga o'xshatmalar yozish, muxammaslar bog'lash holatlari mavjud. Ushbu shoirlarning aksariyati shoirning zamondoshlaridir.

Ma'lumki, zamondosh shoirlarning ijodiy hamkorlikda qalam tebratishi muayyan adabiy muhitning xos xususiyatlaridandir. Xiva adabiy muhiti bu borada, ayniqsa, o'ziga xos an'anaga ega bo'lgan. Tabibiyning 1175, 1182, 1185, 1190, 1196, 2024, 2026, 6930 raqamli "Bayozi g'azaliyot", 1128, 1129, 1130, 1131, 1157 raqamli "Bayozi muxammasot", 1133 raqamli "Bayozi musaddasot" to'plamlaridagi ko'plab lirik asarlar ana shunday hamkorlik samarasidir. Ushbu to'plamlardagi Tabibiy lirik asarlarining aksariyati zamondosh shoirlar ijod namunalari ta'sirida yaratilgan. Zero, shoirning ko'plab lirik asarlari Feruz, Sultoni, Sa'diy, Sodiq, G'oziy, Asad, Bayoniy, Oqil, Nozir, Shinosiy, G'ulomiy, Purkomil, Kamoliy, Inoyat, Amir, Ojiz, Niyoziy, Habib, Xokiy, Rog'ib, Yusuf, Devoniy, Mutrib Xonaxarob, Avaz, Nadimiy, Xodim, Chokar, Muznib, Umidiy, Mirzo, Haqiriy kabi shoirlar g'azallariga tatabbu va taxmis sifatida yuzaga kelgan. Masalan, **1128 raqamli** "Bayozi muxammasot"da Tabibiy muxammaslari ko'chirilgan.

Ushbu to‘plamni “*Zilli subhon a’ni Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxoni soniy doma davlatuhu va shavkatuhuning farmoni oliylari bila ushbu muxammasotni faqir ul-haqir Muhammad Sharif Devon ibni Ollohbergan Devon marhumi muvofiq qo’y yili 1325 lanji yil rabi’us soniy oyining o’n beshlanchisi dushanba kuni yozib itmomg’a*” yetkazgan. To‘plamda shoirning fors-tojik va turkiy tilda yozilgan muxammaslari kiritilgan. Avvalo, undagi taxmislarning aksariyati zamondosh shoirlar g‘azallariga bog‘langan bo‘lsa, ulardan ayrimlari Tabibiy g‘azallariga zamondoshlarining taxmislari ekanini ta’kidlash kerak. Jumladan, to‘plamda Tabibiyning Sultoniy, Kamoliy, Ravnaq, Rojiy, Orif, Sa’diy, Mirzo, Tolib, Asad, G‘ulomiy, Fuzuliy, Hoziq, Adliy, Haydar, Suhayliy, Sayfiy, Fig‘oniy, Sobir (Fyuzot), Xon, Munis, Nadimiy, Balig‘o, Muhammad Hodiy Shirvoni (Maoliy), Lutfiy, Navoiy, Feruz, Husayniy, Nishotiy, Amir, Xatoiy, Xolis, Komil, Munis, Sodiq, Xayoliy, Avaz, Ojiz, Haqiriy, Devoni, Doiy, Chokar, Murodiy, Fano, Xokiy, Xodim, Rog‘ib, Niyoziy, Shinosiy, Yusuf, Mutrib Xonaxarob, Habibiy, Umidiy, Bayoniy, G‘oziy va o‘zining g‘azallariga bog‘langan. Ushbu muxammaslarning aksariyati shoir “Munisu-l-ushshoq” devoniga kiritilgan bo‘lsa, ularning ayrimlari devonlarda uchramaydi.

Ta’kidlanganidek, to‘plamda Tabibiyning “*So‘zung qil muxtasarkim, xotiri dildor nozik, Agarchi so‘z gavhardur lek ushbu tor nozikdur*” matla’li 7 baytli g‘azaliga Niyoziy, Ojiz, Doiylarning taxmis she’rlari ko‘chirilgan. Bu hol Tabibiy lirik asarlariga zamondosh ijodkorlar tomonidan o‘xshatmalar, taxmis she’rlar yozilganini ko‘rsatadi. 1128 raqamli qo‘lyozma (“Bayozi muxammasot”) tadqiqi ayrim anglashilmovchiliklarga aniqlik kiritgan. Jumladan, shoir “Munisu-l-ushshoq” devonidagi 9 banddan tarkib topgan bir muxammas “**Muxammasi Tabibiy g‘azali Fuyuzot**” deb sarlavhalanib, u quyidagi band bilan boshlanadi:

*Ey, loyiq erur zotinga na’t ila tahiyyot,  
Ey, keldi tufayling hama mavjudi samovot,  
Ey, topdi hadising bila jonlar tani amvot,  
Ey, so‘z navla dersam sango xurshidi samovot,  
Sandin oliyur yuz ziyoni hama zarrot.*

Devon matnidan ushbu muxammas kimning g‘azaliga bog‘langanini aniqlash qiyin. 1128 raqamli qo‘lyozma asosida ushbu muxammas “Sobir” taxallusli ijodkor g‘azaliga yozilganini aniqlash mumkin. Yoki devondagi yana bir muxammas esa “**Muxammasi Tabibiy g‘azali Maoliy**” deb sarlavhalangan. Ushbu muxammas ham 9 band bo‘lib, uning birinchi bandi:

*Tokay chekaram furqat aro ranju anoni,  
Ko ‘kka eturub har nafas afg‘onu navoni,  
Emdi tilaramkim xush edam dil ila joni,  
Soqiy ola ol jom safobaxshi ravoni,*

*Lutf ayla damodam biza ul ruhi ravoni*”, - tarzida boshlansa, uning oxirgi bandi quyidagicha:

*Har kimki baland esa oning fikru xayoli,  
Asnofi riyozatla zaif o ‘lg‘usi holi,  
Jon go ‘shig‘a olg‘usi Tabibiy bu maqoli:  
Rohatmu yashar ma ‘rifatando ‘zi Maoli,  
Aylarmu tabassum ruxi arbobi maoni.*

Matndan ushbu she‘r “Maoliy” ismli shoir g‘azaliga yozilganini ko‘rish mumkin. Biroq 1128 raqamli qo‘lyozmada ushbu muxammas sarlavhasida “Muhammad Hodiy Shirvoniy” degan ism qayd etilganini kuzatish mumkin. Bundan tashqari, **1129 raqamli “Bayozi muxammasot”** to‘plamida ham shoirning **xuddi o‘sha sharoitda ijod qilgan** Rog‘ib (Tabibiyning bir necha g‘azaliga ham yozgan), Oqil, Niyoziy, Doiy, Mutrib, Bayoniy, Habib, Shinosiy, Asad, Chokar, Avaz (Tabibiy g‘azaliga ham yozgan), Ojiz, Nadimiy, Nodir, Nodim, Nazmiy, Najot, Yusuf, Devoniy kabi shoirlar g‘azallariga bog‘langan taxmislari mavjud. Shuningdek, ushbu to‘plamda Rojiiy, Avazlarning Tabibiy g‘azallariga bog‘lagan muxammas she‘rlari kiritilgan.

**Muayyan asarning boshqa asarlarga ko‘rsatgan ta‘sirini izlash.** Avvalo shuni ta‘kidlash kerakki, Ahmad Tabibiy lirik asarlarining aksariyati o‘zigacha ijod qilgan ko‘plab shoirlar ta‘sirida yaratilgan. Shoir devonlaridagi she‘rlarning ko‘pchiligi boshqa shoirlar lirik asarlariga tatabbu’, muxammas, musaddas, mustazod tarzida ijod etilganini ko‘rsatadi.

Tabibiy ijodida **muayyan asarning boshqa asarlarga ko‘rsatgan ta‘siri** masalasi yuzasidan bir necha tadqiqot amalga

oshirish mumkin. Tadqiqot hajmini e'tiborga olib, ushbu masala yuzasidan shoir muxammaslari bilan bog'liq ayrim misollar keltirildi. Jumladan, shoirning "Munisu-l-ushshoq" devonida 53 ta muxammas mavjud bo'lib, ular Navoiy, Fuzuliy, Munis, Ogahiy, Feruz, Amir, Sultoniy, Mirzo, Ravnaq, Rojiy, Xayoliy, G'ulomiy, Adliy, Fyuzot (Sobir), Xon, Maoliy, Nadimiy, Balig'o va shoirning o'z g'azallariga bog'langan. "Hayratu-l-ushshoq" devonida esa Tabibiyning jami 114 ta muxammasi kiritilgan bo'lib, ular Ogahiy, Feruz, Lutfiy, Husayniy, Navoiy, Fuzuliy, Nishotiy, Rojiy, Amir, Xatoiy, Xolis, Komil, Ravnaq, Munis, Xayoliy, Avaz, Ojiz, Haqiriy, Devoniy, Kamoliy, Doiy, Chokar, Nadimiy, Rog'ib, Fano, Mirzo, Murodiy, Sultoniy, Xodim, Shinosiy, Niyoziy, Yusuf, Mutrib Xonaxarob, Habibiy, Umidiy, Bayoniy, G'oziy, Asad, Oqil, Purkomil, Vazir, Mushrif, Oshiq, Ado, Hoziq, Fazliy, Nola, Afsus, Xijlat, Vahmiy, Xotam, Ulviy, Vasfiy, Naf'iy, Nasib, G'aribiy, Boqiy, Avniy, Navras, Hoshim, Zotiy, No'iliy, Laylo, Zevar, Fitnat, Sham'iy, Mohir, Ayniy, Muhibiy, Somiy, Qudsiy, Muxlis, Adliy, Partav, Qoiliy, Sobir, Amir (jami 78 nafar ijodkor) va o'z g'azallariga taxmis qilingan. "Tuhfatu-s-sulton" devonida esa shoirning 140 ta muxammasi kiritilgan. Shoirning bu devonida yuqorida nomlari zikr etilgan shoirlar qatorida Muhiy, Inoyat, Omoniy kabi shoirlar g'azallariga bog'langan taxmislar mavjud.

Ma'lumki, muxammas yozish an'ana hisoblangan. Ayniqsa, boshqa so'z san'atkorlari g'azallariga taxmis qilish ijodkordan chuqur bilim va tajriba talab etgan. Bunda ijodkorlar, avvalo, o'zining dunyoqarashi, hayot haqidagi fikr-xulosalariga hamohang bo'lgan she'rlarga taxmis bog'lashga harakat qilganlar. Ikkinchidan, muayyan an'anaga ergashib bunday she'rlar ijod etilgan. Adabiyotshunos Y.Is'hoqov muxammas janri haqida shunday deydi: "Muxammas – g'azaldan keyin eng ko'p yaratilgan lirik janr. Muxammas yaratilish usuliga ko'ra ikki xil ko'rinishga ega: 1) Maxsus yozilgan mustaqil muxammas; 2) Taxmis yo'li bilan, ya'ni g'azal baytlariga uch misradan qo'shish yo'li bilan paydo bo'lgan muxammas<sup>161</sup> .

---

<sup>161</sup> Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. –Тошкент: O'zbekiston, 2014. – Б.126-127.

Ahmad Tabibiy lirik merosi tadqiqi muxammaslar uch xil yo‘l bilan ijod etilganini ko‘rsatadi. Bular: 1) *shoirning mustaqil tarzda yozilgan muxammaslari*; 2) *o‘z g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari*; 3) *boshqa shoirlar g‘azallariga bog‘langan muxammaslar*.

Tabibiyning ko‘plab lirik asarlari shaklan va mazmunan Navoiy asarlariga o‘xshatmalar tarzida yozilgan. Ahmad Tabibiy ijodini maxsus tadqiq etgan adabiyotshunos olim F.G‘anixo‘jayevning ta’kidlashicha, Tabibiy Navoiyning 20 dan ortiq g‘azaliga muxammas bog‘lagan.<sup>162</sup>

Shoir adabiy merosi sinchiklab kuzatilsa, uning ijodkor sifatida shakllanishida buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning ijodiy merosi kuchli ta’sir etgani kuzatiladi. Tabibiyning aksar lirik asarlari hazrat Navoiy g‘azallariga o‘xshatmalar, muxammaslar, musaddaslar tarzida bitilgan. Bu hol shoirning buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodiga naqadar ixlosmand bo‘lganini ko‘rsatadi. Hatto Ahmad Tabibiyning “Munisu-l-ushshoq” devoni debochasini o‘qir ekanmiz, beixtiyor hazrat Alisher Navoiyning o‘z devoniga yozgan debochasi ko‘z oldimizga keladi.

“Munisu-l-ushshoq” devonida Navoiy g‘azallariga yozilgan 5 ta muxammas ko‘chirilgan bo‘lib, ularning birinchisi “Navodir ushshabob”dagi 13 baytli:

*Sahar xovar shahi charx uzrakim, xaylu xasham chekti,  
Shioi xat bila ko‘hsor uza oltun alam chekti –*

matla’i bilan boshlanuvchi mashhur g‘azalga yozilgan taxmidir. Tabibiyning ushbu g‘azalga yozgan muxammasi ham 13 banddan iborat bo‘lib, u quyidagi band bilan boshlanadi:

*Shahi anjum hukumat tiyg‘ini chun subhidam chekti,  
Shafaqdin arsai olamaro gulgun hasham chekti,  
Ziyo nuri xaylini arabdin to ajam chekti,  
Sahar xovar shahi charx uzrakim, xaylu xasham chekti,  
Shioi xat bila ko‘hsor uza oltun alam chekti.*

Devondagi Navoiy g‘azaliga yozilgan ikkinchi taxmis “Favoyid ul-kibar”dagi “*Gul kerakmastur menga, majlisda sahbo bo‘lmasa, Naylayin sahboni, bir gul majlisaro bo‘lmasa*” matla’li;

<sup>162</sup> Ганихўжаев Ф. Аҳмад Табибий. – Тошкент: Фан, 1978. – Б.31.

uchinchisi esa “*Ko ‘nglum o ‘rtansun agar g ‘ayringg ‘a parvo aylasa, Aql yitsun gar siri ishqingni ifsho aylasa*”; to‘rtinchi muxammas “*G ‘aroyib us-sig ‘ar*”dagi “*Ko ‘zung ne balo qaro bo ‘luptur, Kim, jong ‘a qaro balo bo ‘luptur*” matla’li; beshinchisi esa “*Favoyid ul-kibar*”dagi “*Dayr aro mug ‘bachadin sog ‘ari mastona kerak, Nechakim tutsa ani to ‘ldurubon, yona kerak*” matla’li g‘azallariga bog‘langan. Ta’kidlash kerakki, Tabibiyning Navoiy, Munis, Ogahiy va boshqa ijodkorlar g‘azallariga yozgan muxammaslari matni mazkur ijodkorlarning asarlari nashrida ayrim tafovutlar borligini ko‘rsatadi. Masalan, Navoiyning “kerak” radifli g‘azali matla’i yuqorida keltirildi. Tabibiy muxammasida esa bu bayt:

*Borho oshiqizor uylaki parvona kerak,  
Kulfatu mehnat ila hamdamu hamxona kerak,  
Gar desangkim meni maxmurg ‘a, oyo, na kerak,  
Dayr aro mug ‘bachadin sog ‘ari mastona kerak,*

*Nechakim to ‘ldurubon tutsa oni yona kerak* – tarzida keladi. Tabibiy muxammasi ham yetti banddan iborat. Faqat Navoiy g‘azalining nashr varianti bilan Tabibiy muxammasi tarkibidagi bir so‘zning o‘rni almashgan. Bu holni boshqa shoirlar asarlari nashrlarida ham ko‘rish mumkin. Masalan, Tabibiy Ogahiyning “*Jonbaxsh la’ling uzra to xat qildi paydo orazing, Jam’ ayladi xurshid uza Xizru Masiho orazing*<sup>163</sup>, - matla’i bilan boshlanuvchi 9 baytli g‘azalining 7 baytiga muxammas bog‘langan. Ogahiy g‘azallari nashr varianti bilan Tabibiy muxammasi matni qiyoslanganda, ular orasida ayrim maniy tafovutlar borligi kuzatildi. Bu tafovutlar so‘zlar tarkibining o‘zgarishi va ayrim so‘zlarning o‘zgachaligi bilan bog‘liq. Bundan, Ogahiy lirik asarlarining asliyat va nashr variantlarini ham boshqatdan, matnshunoslik nuqtayi nazaridan amalga oshirish kerak, degan mulohazaga kelish mumkin.

Bundan tashqari, Tabibiyning ayrim musaddas she’rlari ham Navoiy, Munis, Ogahiy, Feruz, Rojiiy, G‘ulomiy kabi ijodkorlar g‘azallariga bog‘lagan. E’tiborli jihati, Tabibiy musaddaslari matni bilan o‘sha shoirlar she’rlari nashri matni orasida ayrim farqlar uchraydi. Masalan, Tabibiy “Hayratu-l-ushshoq” devonida shoirning Alisher Navoiy g‘azallariga yozilgan ikkita musaddasi

---

<sup>163</sup> Огахий. Асарлар. 6 жилдлик. 1 жилд. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1971. – Б. 295.

mavjud. Devondagi Tabibiy musaddasining birinchisi Navoiyning “*Gul kerakmastur menga, majlisda sahbo bo‘lmasa, Naylayin sahboni, bir gul majlisaro bo‘lmasa* – matla’si bilan boshlansa, ikkinchisi Navoiyning yozilgan “*Sho‘x ikki g‘izolingni noz uyqusidin uyg‘at, To uyqulari qochsun, gulzor ichida o‘ynat*” - matla’li hazaji musammani axrab vaznidagi g‘azaliga yozilgan. Tabibiy musaddasining birinchi bandi quyidagicha:

*Tokim mayi lutfingni bo‘ldum base mushtoqi,  
Ko‘zumga hubob oso ilmas bu falak toqi,  
Manzurim emas, jono bir husn eli behroqi,  
Lutf ila karam aylab oshomi qadah choqi  
Bazm ichra Navoiy ko‘p yig‘lar esa, ey soqiy,  
Hush eltkuchi doruni jomig‘a oning chayqat.*

Tabibiy muxammasi tarkibidagi Navoiyga tegishli “*qochsun*” so‘zi Navoiy g‘azalining nashr variantida “*ketsun*” tarzida, “*doruni*” so‘zi Navoiy g‘azalining nashr variantida “*doru*” tarzida berilgan.

Ahmad Tabibiy ko‘plab turkigo‘y va forsigo‘y so‘z san’atkorlari ijodidan ilhomlangan. Shoir devonlaridagi lirik asarlarni tahlil etar ekanmiz, Tabibiyning 100 dan ortiq shoirlarning she’rlariga o‘xshatma va muxammaslar yozganini ko‘rish mumkin.

Ahmad Tabibiyning ko‘plab lirik asarlari o‘z davrida turli to‘plamlar holida ko‘chirilgan. Bularning ayrimlari faqat shoir she’rlaridan tarkib topgan bo‘lsa, ayrimlari Feruz saroyi shoirlari she’rlari bilan birga ko‘chirilgan. Ta’kidlash kerakki, ushbu to‘plamlarda ham she’rlarning kattagina qismini Tabibiy lirik asarlari egallagan. Ushbu lirik asarlarning aksariyati shoir devonlari tarkibida uchramaydi. Ana shunday to‘plamlardan biri 1129 raqamli “Bayozi muxammasot” to‘plamidir. Bu to‘plam Xarrot tomonidan 1327 (1909)-yilda ko‘chirilgan. To‘plamda jami 222 ta muxammas kiritilgan bo‘lib, ular Tabibiy, Rog‘ib (Tabibiyning bir necha g‘azaliga ham yozgan), Oqil, Niyoziy, Doiy, Mutrib, Bayoniy, Habib, Shinosiy, Asad, Chokar, Avaz (Tabibiy g‘azaliga ham yozgan), Ojiz, Isiy (عسبى), Nadimiy, Nodir, Nodim, Nazmiy, Najot, Yusuf, Devoniy kabi shoirlarga tegishlidir.

To‘plamda Tabibiyning fors-tojik tilidagi va turkiy (o‘zbek) tilidagi 136 ta muxammasi mavjud. Shoirning turkiy (o‘zbek) tilidagi muxammaslari Fuzuliy, Doiy, Niyoziy, Haqiriy, Mutrib

Xonaxarob, Xayoliy, Yusuf, Rog‘ib, Kamoliy, Ojiz, Muznib, Asad, G‘oziy, Xokiy, Avaz, Xodim, Nadimiy, Xayoliy, Habibiy, Umidiy, Nishotiy, Muhibbiy, Quddusiy, Husayniy, Laylo, Somiy, Fazliy, Xotif, Amiriy, Feruz kabi shoirlar g‘azallariga bog‘langan. Qo‘lyozma matnida kotib tomonidan yo‘l qo‘yilgan ayrim kamchiliklarni kuzatish mumkin. Masalan, to‘plamdagi she‘rlardan biriga “Muxammasi Tabibiy g‘azali Muznib” deya sarlavha qo‘yilgan. Bu she‘r aslida Asad g‘azaliga taxmis ekanini muxammasning oxirgi bandidan bilib olish mumkin. Yoki boshqa bir muxammas sarlavhasida “Muxammasi Tabibiy g‘azali Fazliy” deyilgan. She‘r matnidan bu xotif g‘azaliga bog‘langan taxmis ekani aniqlashadi. Bundan tashqari, Quddusiy g‘azaliga bog‘langan muxammas matni to‘rtinchi va beshinchi bandlari tepasida “خ” va “م” harflari qo‘yilib ketilgan. Bu hol bandlar o‘rni almashtirib yuborilganini ko‘rsatadi.

Tabibiy Qo‘qon adabiy muhiti vakillari g‘azallariga o‘xshatmalar, muxammaslar yozgan. Ma‘lumki, Fazliyning:

*Durdkashlarmiz, erur paymonaga paymonamiz;  
Boda nobidin mudom obod erur vayronamiz;  
Roygondur ayshimiz, soqiy o‘la mehmonimiz;  
Jonimiz jononimiz, jononimizdur jonimiz;  
Borchadin ortuq xarobot ichra izzu shonimiz;  
Shoh lutfidin etar sarmoyai somonimiz;  
Sham‘dek har anjumanda bu erur burhonimiz;  
Shoh bizni shohimiz, Sulton bizin sultonimiz;  
Davr bizni davrimiz, davron bizin davronimiz, - tarzida  
boshlanuvchi bir mutassa‘ she‘ri bor<sup>164</sup>.*

“Munisu-l-ushshoq” devonida Ahmad Tabibiyning bir musabba‘ she‘ri bo‘lib, u quyidagi band bilan boshlanadi:

*Ey ko‘ngul, doim tuzar rasmi adolat xonimiz,  
Qilg‘amiz qurbon onga har dam dil ila jonimiz,  
Kim oni tutsun g‘ariqi bazl ila ehsonimiz,  
Qolmadi bir zarra asrida oning armonimiz,  
Fikri ash‘or aylabon sidq ila midhat xonimiz,*

<sup>164</sup> Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. –Тошкент: O‘zbekiston, 2014. – Б.126.



*Shoh bizning shohimiz, sulton bizing sultonimiz,  
Davr bizning davrimiz, davron bizing davronimiz.*

Demak, Ahmad Tabibiyning ushbu musabba' she'ri Fazliy mutassa'si bitilgan ramali musammani mahzuf (maqsur), foilotun, foilotun, foilotun, foilon (foilon) vaznida yozilgan. Shoir devonlari, Tabibiy lirik asarlari jamlangan to'plamlarda ijodkorning Amir (Amiriy) va Xon (Muhammad Alixon), Vazir, G'oziy, Mushrif, Oshiq, Ado, Hoziq, Fazliy, Nola, Afsus kabi ijodkorlar g'azallariga muxammaslari kiritilgan.

Ahmad Tabibiy ijodi tahlili shoir ijodida 5 baytdan 19 baytgacha bo'lgan g'azallar mavjud ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, ijodkor lirik asarlarida arabcha, forsha, o'g'uzcha so'zlar uchraydi. Jumladan, shoir lirikasida oyatlar, hadislar, iboralarni arab tilida keltirish holatlari mavjud. Tabibiy turk, ozarbayjonlik shoirlar g'azallariga bog'lagan taxmislarida esa o'g'uzcha terminlardan foydalanadi. Forsiy kalimalardan foydalanish Tabibiy davri uchun xos xususiyat. Bu hol uning nafaqat o'zbek va fors tili, adabiyotini, balki turk, tatar, hind, arab tili va adabiyotini ham puxta bilganini ko'rsatadi. Zero, shoirning forsiy devonlarida hind shoirlari she'rlariga bog'lagan muxammaslari ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Ahmad Tabibiyning mavjud manbalarda uchramaydigan yana bir she'ri Xivadagi "Shohimardon bobo" qabristonidagi qorixona peshtoqiga yozilgan ta'rix-g'azalidir. Ma'lumki, Xiva shahrining g'arbiy chekkasida "Shohimardon bobo" qabristoni bor. Mazkur qabriston hududida XX asr boshlarida ko'plab qorixonalar barpo etilgan. Ana shunday qorixonalardan biri Davlatmurod Mahram tomonidan qurilgan. Davlatmurod Mahram vafotidan so'ng shu yerga dafn qilingan. Qorixona kirish eshigi ustidagi marmar toshga Ahmad Tabibiyning quyidagi ta'rix she'ri yozilgan:



*Ulki bordur jahonda doim ishi,  
Bazlu juddur atou xayru saxo.*

*Fazlu donishg'a zoti ma'dan erur,  
Ki qilur she'r birla nukta ado.*

*She'ri dog'i latifu dilkashdur,  
Nasri ham inbisoti ruhafzo,*

*Shahi odilg‘a chunki davlatxoh,  
Edi ul barcha ishda subhu maso.*

*Bu sababdin jalisu mahram erur,  
Shohi olam pesh janobi aro.*

*Oti Davlatmurod Mahram deb,  
Yozdi iqboli xotamig‘a qazo.*

*Chunki bildi bu olam foniyni,  
Bo‘lg‘usi oqibat adimu fano.*

*Aylabon jaddu jahd beg‘oyat,  
Qildi bir buq‘ai baland bino,*

*Ki tilovat mudom aylarlar,  
Onda koyin bo‘lib necha qurro.*

*O‘ziga oxirat uchun dog‘i,  
Qildi ul buq‘a ichra bir ma‘vo.*

*Dedi tarixini Tabibiyi zor:  
“Ma‘dan fayz bul maoni duo”.*

*Xat dar varaq dahr bemonad sad sol,  
Bechora navisanda tahi xok ravad.*

*“Amali mulla Komil devon ibn mulla Ismoil devon g‘afarollohu zunubahumo<sup>165</sup>. Ta’rix moddasi quyidagicha:*

م ع د ن ف ی ض ب ؤ ل م ع آن د ع آ  
1+70+4+50+1+70+40+30+6+2+800+10+80+50+4+70+40 = 1328  
(1910)-yil. Demak, ushbu ta’rix-g‘azal shoir umrining so‘nggi paytlarida ijod etilgan. Ehtimol, shundandir mazkur g‘azal shoir adabiy merosi manbalariga kirmay qolgan. Yuqorida keltirilgan nazariy qarashlarga tayanib aytish mumkinki, Ahmad Tabibiy

<sup>165</sup> Ushbu ma’lumotni bizga taqdim etgani uchun Xiva “Ichan qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi ilmiy kotibi Komil Xudoyberganovga minnatdorlik bildiramiz.

merosi tadqiqida ham matn tarixi masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Lirik asarlari tadqiqi shoir ijodida matn tarixi masalasi bevosita va bilvosita ma'lumotlar asosida o'rganish mumkinligini ko'rsatadi. Bunda to'g'ridan to'g'ri manbaning o'zida aks etgan qaydlar, belgi va matnning tarkibiy qismlari (asarning muallifi, yaratilish sababi, vaqti, joyi, kotibi kabilar *bevosita*, o'rganilayotgan adabiy yodgorlikning nusxalari va unga yondosh manbalar – tazkiralar, tarixiy asarlar, devon (devonlar nusxalari), terma devonlar, bayozlar, to'plamlar va boshqa manbalar asosida aniqlangan yangiliklar *bilvosita* ma'lumotlar ekani nazarda tutiladi.

Xulosa qilib aytganda, “Munisu-l-ushshoq” devoni yig'ma matnini tayyorlashda devon nusxalari matnining mukammallik darajasiga ko'ra quyidagicha belgilash mumkin:

1) 6226 raqamli qo'lyozma nusxa – *A1*; 2) 3461 raqamli qo'lyozma nusxa – *A2*; 3) C-767 raqamli qo'lyozma nusxa – *A3*; 4) 8949 raqamli toshbosma nusxa – *A4*; 5) 1159 raqamli qo'lyozma nusxa – *B*.

“Hayratu-l-ushshoq” devoni nusxalari matnining mukammallik darajasiga ko'ra quyidagicha belgilash mumkin: 1) 3460 raqamli qo'lyozma nusxa – *A1*; 2) 8949 raqamli toshbosma nusxa – *A2*; 3) 1124 raqamli qo'lyozma – *V*; 4) 243 raqamli qo'lyozma nusxa – *S*; 5) 2033 raqamli qo'lyozma nusxa – *D*; 6) 5894/1 raqamli qo'lyozma nusxa – *Ye*.

“Tuhfatus-s-sulton” devoni nusxalari matnining mukammallik darajasiga ko'ra quyidagicha belgilash mumkin: 1) 5884/3 raqamli toshbosma nusxa – *A1*; 2) 1122 raqamli qo'lyozma nusxa – *A2*; 3) 1123 raqamli qo'lyozma – *V*; 4) 1148 raqamli qo'lyozma nusxa – *S*; 5) 6949 raqamli qo'lyozma nusxa – *D*.

Ahmad Tabibiy she'riyatida matn tarixi masalasi 1) *tadqiq etilayotgan matnning qaysi davrga mansubligi*; 2) *matnning tarixiy-adabiy va madaniy shart-sharoit bilan aloqasini belgilashi va kuzatishi*; 3) *o'rganilayotgan asar matnidagi barcha o'zgarishlarni hisobga olishi*; 4) *xuddi o'sha sharoitda ijod qilgan boshqa mualliflarning asarlariga e'tibor qaratishni*; 5) *muayyan asarning boshqa asarlarga ko'rsatgan ta'sirini izlash* kabi omillarga aniqlik kiritish nuqtayi nazaridan o'rganilishi yangi ilmiy xulosalarga olib keladi.

## IV BOB. MATNIY TAFOVUTLAR TAHLILI

### 4.1. “Munisu-l-ushshoq” devoni qo‘lyozmalari va toshbosma nusxalari qiyosiy tahlili

“Munisu-l-ushshoq” – Ahmad Tabibiyning ilk turkiy devoni ekani yuqorida asoslandi. Ushbu devon 1327/1909-yilda kotib Bobojon Tarro ibn Abdulaziz Maxsum tomonidan ko‘chirilgan. Devon 1328/1910-yilda Xivada toshbosmada bosilgan. Devonning qo‘lyozma va toshbosma variantlari O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida mavjud.

O‘zR FASHI qo‘lyozmalar fondida 6226 raqami va 3461 raqamlari bilan “Munisu-l-ushshoq”ning ikkita qo‘lyozmasi, 8949 raqami bilan bir toshbosma nusxasi saqlanadi. 6226 raqamli qo‘lyozma “Munisu-l-ushshoq”ning mukammal varianti ekani yuqorida asoslab o‘tildi. Mazkur qo‘lyozma hukmdor farmoniga ko‘ra ko‘chirilib, saroy kutubxonasi taqdim etilgan. Devonning toshbosma nusxasi aynan shu qo‘lyozma asosida bosilgan. Bunday devonlar haqida professor Sh.Sirojiddinov shunday yozadi: *“Devon qo‘lyozmasi matn va sarlavhalar, shuningdek, miniatyuralar atrofida tortiladigan jadvallar, shams, unvon – qo‘lyozmaning ilk sahifasi bosh qismida tilla suvi yugurtirib chizilgan naqsh-lavh, sahifalarga oltin suvi bilan jilo berish (tazhib) kabi bezaklar bilan ziynatlanadi. Albatta, bunday devonlar qimmatbaho bo‘lib, ular asosan, shoh farmoniga asosan saroy kutubxonasi yoki sovg‘a uchun tayyorlangan<sup>166</sup>”*. “Munisu-l-ushshoq”ning mazkur nusxasi ham ana shunday ziynatlanib ko‘chirilgan.

“Munisu-l-ushshoq” muallifning mumtoz she‘riyat va devonchilik an‘analari, shoirning adabiy-estetik qarashlarini aks ettirgan debocha bilan boshlanadi. Devonning tarkibida g‘azal (615 ta), mustazod (3 ta), murabba‘ (4 ta), muxammas (53 ta), musaddas (7 ta), musabba‘ (1 ta), musamman (1 ta), mutassa‘ (1 ta), muashshar (1 ta), masnaviy (5 ta), ruboiy (144 ta), qasida (2 ta),

---

<sup>166</sup> Сирожиддинов Ш. Матншунослик сабоқлари. – Тошкент: Navoiy universiteti, 2019. – Б. 39.

shiru shakar g‘azallar<sup>167</sup> (6 ta), varsoqi (2 ta) kabi lirik asarlar mavjud.

**6226 raqamli qo‘lyozma devon.** Ushbu qo‘lyozma manba qalin qora muqovada bo‘lib, muqovalarda an’anaviy o‘yma naqsh – shams mavjud. Mazkur manba Ahmad Tabibiyning o‘z devonlari uchun yozgan maxsus debochasi bilan boshlanadi. 1<sup>b</sup>-sahifa o‘rtasida qizil siyoh bilan “*Debochai Tabibiy*” deb sarlavha qo‘yilgan. So‘ng “*Bismillohir-Rahmonir-Rahim*” bilan debocha matni keltirilgan. Debocha matni 9<sup>a</sup>-sahifada tugaydi. Devon matni boshdan oxirigacha avval to‘q ko‘k siyohda, so‘ng tilla rangli jadval ichiga olingan. Ayrim sahifalarda poygilar berib borilgan. 9<sup>b</sup> va 10<sup>a</sup>-sahifalar bo‘sh qoldirilgan. 10<sup>b</sup> -sahifada qizil siyohda “*Devoni Tabibiyi turkiy musammo ba Munisu-l-ushshoq*” sarlavhasi bor. So‘ng pastda “*birlanchi safha*” degan eslatma va “*Bismillohir-Rahmonir-Rahim*” degan yozuvlar bor. So‘ng g‘azallar qizil siyoh bilan raqamlangan holda ko‘chirilgan bo‘lib, birinchi g‘azal:

*Ey vujudingg‘a emas zohir zamoni ibtido,  
Uylakim ermas ongo mavjud vaqti intiho,* - matla’i bilan boshlanadi.

G‘azallar 170<sup>a</sup>-sahifadagi 607 raqamdagi:

*Bahoroso jamoling to namoyon o‘ldi gulzori,  
Oning yuz ishtiyoq shavq birla bo‘ldi gulzori,* - matla’li g‘azal bilan yakunlanadi. Aslida ushbu qo‘lyozmada 608 ta g‘azal mavjud bo‘lib, g‘azallarni raqamlashda kotib bir g‘azalni qo‘shib yuborgan.

Shu sahifadagi mustazodlar bilan devon matni davom etadi. Mustazodlar ham qizil siyoh bilan sarlavhalanib, raqamlanib, shoirning uchta mustazodi yozilgan. So‘ng 172<sup>a</sup>-sahifadan 221<sup>b</sup>-sahifagacha Tabibiyning musammat she’rlari ko‘chirilgan. 172<sup>a</sup>-sahifada qizil siyoh bilan raqamlangan uchta murabba’ mavjud. Birinchi murabba’ 10 band, ikkinchi murabba’ 9 band, uchinchi murabba’ 18 banddan iborat. Murabba’lar 175<sup>a</sup>-sahifada yakunlanadi va shu sahifadan Tabibiyning o‘z va o‘zga shoirlar g‘azallariga bog‘lagan 53 ta muxammasi ko‘chirilgan. Muxammaslar bilan bog‘liq ma’lumotlar quyidagi jadvalda keltirildi:

---

<sup>167</sup> Devonda shiru shakar g‘azallar ajratib ko‘rsatilgan.

## 5-jadval

№	G'azal muallifi	Muxammasning birinchi misrasi	Hajmi
1	Ogahiy	Iloho, degali hamdingni tillarga adab paydo	9
2	Feruz	Qilg'usi ma'shuqni husn aro mumtoz noz	7
3	Ogahiy	Bo'lubon komi murodu hullasi deboj sango	7
4	Ogahiy	Ey, kelib zikri tahiyoting ko'ngilga g'amzudo	7
5	Navoiy	Shahi anjum hukumat tiyg'ini chun subhidam chekti	13
6	Fuzuliy	Rind fahm aylamas anduh ila motam na emish	5
7	Ogahiy	Borgohingda bo'lub Jibril shaxsi xokro'b	9
8	Fuzuliy	Xonaqahda zohido, behuda bu g'avg'o nedur	5
9	Ogahiy	Nafsi badtiynat ki jonim bordurur hamdam ango	7
10	Ogahiy	Ishrati olam qazoyi mubramig'a arzimas	6
11	Feruz	Ranju mehnat xirmanin boshimg'a xirvor aylading	7
12	Ogahiy	Gunah fikrini ko'nglumda namudor etmagil, yo Rab	11
13	Feruz	Topib nihon yo'l man sori ul kokuli sunbul bukun	7
14	Munis	To Haq sanga berdi bu ruxsori musaffoni	7
15	Feruz	Firoqingda parishonholu tiyra ro'zgoringman	9
16	Amir	Man xastadurman ko'yingiz sahnida bir avboshingiz	6
17	Feruz	Bo'lsun fido, ey, jon sangakim yori g'amxoring kelur	7
18	Feruz	Manga erkon visoli ul parini mug'tanam, yo Rab	7
19	Navoiy	Naylayin nargisni gar ul chashmi shahlo bo'lmasa	9
20	Feruz	Husn dilorosi kelib bu qaddi diljo' ustina	9
21	Navoiy	Til tutulsun o'zni juz madhingg'a go'yo aylasa	10
22	Amir	Kim sanga ayta olurkim huru g'ilmondur evaz	9
23	Sultoniy	Sochingdur ma'dani zulmat, ne zulmat zulmati savdo	7
24	Feruz	Man kim bo'lub hijron aro ranju alamg'a muftalo	6
25	Navoiy	O'qung yuragimda jo bo'lubdur	7
26	Munis	Ey, ishq birlan solg'on hamisha aylab tag'oful har yong'a yag'mo	8
27	Navoiy	Borho oshiqi zor uylaki pavona kerak	7
28	Ogahiy	Bo'ldi ko'zumga jilvagar bazm ichra to qoshu ko'zung	9
29	Munis	Altofi Haq yo'ldosh sanga man qo'ldoshingdin evrulay	7
30	Mirzo	Adadsiz dardu g'am pomoliman g'amxordin ayru	8
31	Ravnaq	Ne deb avval o'zingni, ey ko'ngul, ozora keltu	7
32	Rojiy	Ne sifat holin degay ushshoqi sargardon sango	9
33	Tabibiy (o'z g'azali)	Aylab tarahhum holima, ey dilrabo, xush keldingiz	9

34	Xayoliy	Nishiman qilib bog‘u gulzorlar	9
35	G‘ulomiy	Qilsa tamosho har qachon ahli muhabbat suvrating	7
36	Fuzuliy	So‘z ichra ishq ahlin fazl eli bechora yozmishlar	7
37	Tabibiy (o‘z g‘azali)	Qildim nazar yuzingga to, ey quyosh uzorim	9
38	Adliy	Orazingni oshiq ollida namoyon aylagil	7
39	Tabibiy (o‘z g‘azali)	Qaysi dilafgorni sho‘xi sitamgorisan	7
40	Taibiy (o‘z g‘azali)	Jonni tanda, ey, shakar guftor sensiz naylayin	9
41	Adliy	Havoi ko‘yingi jon aylayub sipand istar	7
42	G‘ulomiy	Kim degaykim ko‘yinga Firdavsi rizvondur evaz	7
43	Adliy	Dilbar albatta ado bobida cholok kerak	7
44	Adliy	Yo‘qdurur olamda monanding saning, ey dilrabo	7
45	Fyuzot (Sobir)	Ey, loyiq erur zotinga na‘t ila tahiyyot	9
46	Xon	Mani oyru etib ul sarvi xiromonimdin	9
47	Munis	Vahki, ahvoli xarobim yor bilmaydur hanuz	7
48	Rojiy	Boshima asru solib furqat aro savdoni	7
49	Rojiy	To g‘amingning o‘ti yaksar ustixonim o‘rtadi	7
50	Maoliy	Tokay chekaram furqat aro ranju anoni	9
51	Nadimiy	Qoshlaringni fikrati ondoqki nol aylar mani	9
52	Balig‘o	Magarkim, shavkatini har kecha taqrir etar mahtob	9
53	Fuzuliy	Yo Rab, tamomi orif ham avliyo haqi	7

Muxammaslar 213<sup>a</sup>-sahifada yakunlanib, shu sahifadan 218<sup>b</sup>-sahifagacha “*musaddasoti Tabibiy*” sarlavhasi bilan shoirning yettita musaddasi ko‘chirilgan. Birinchi musaddas – 8 band, ikkinchisi – 7 band, uchinchisi – 7 band, to‘rtinchisi – 7 band, beshinchisi – 7 band, oltinchisi – 7 band, yettinchisi – 6 band, jami 49 band musaddas berilgan.

218<sup>b</sup>-sahifada o‘n uch banddan iborat musabba’ ko‘chirilgan bo‘lib, ushbu yettilik she‘r:

*Ey ko‘ngul, doim tuzar rasmi adolat xonimiz,  
Qilg‘amiz qurbon onga har dam dil ila jonimiz,  
Kim oni tutsun g‘ariqi bazl ila ehsonimiz,  
Qolmadi bir zarra asrida oning armonimiz,*



*Fikri ash'or aylabon sidq ila midhat xonimiz,  
Shoh bizning shohimiz, sulton bizing sultonimiz,  
Davr bizning davrimiz, davron bizing davronimiz, - bandi bilan  
boshlanib, 220<sup>a</sup>-sahifada:*

*To Tabibiy zor ham topib farahlar behisob,  
Xizmatig'a aylabon jon birla sa'y irtikob,  
Bo'lg'ali lutfu inoyotidin damodam komyob,  
Axtarib doim zamiri daftarini bob-bob,  
Rishtai nazm uzra cheksun ro'zu shab durri xushob,  
Shoh bizning shohimiz, sulton bizning sultonimiz,  
Davr bizning davrimiz, davron bizning davronimiz, - tarzida  
yakunlanadi.*

220<sup>b</sup> -sahifada yetti banddan iborat “*Ohkim, kin aylabon man xastag'a yor, ey ko'ngul*” misrasi bilan boshlanuvchi musamman, 221<sup>b</sup>-sahifadan besh banddan iborat “*Ikki olam mulki bo'lmishdur sanga joyi makon*” mutassa' (to'qqizlik) she'r ko'chirilgan. Shu sahifada “*Oshiq ishi oh, zor ilandur, Ham diydai ashk bor ilandur*” misralari bilan boshlanuvchi to'rt bandlik muashshar berilgan.

223<sup>a</sup> -sahifadan 224<sup>a</sup> -sahifagacha besh bandli (birinchi band band – 14 misra, ikkinchi band – 16 misra, uchinchi, to'rtinchi, beshinchi bandlar – 14 misradan iborat) tarje'band matni keladi. 224<sup>a</sup>-sahifada “birlanchi masnaviy”, 225<sup>b</sup>-sahifada “ikilanchi masnaviy”, 227<sup>a</sup>-sahifada “uchlanchi masnaviy”, 229<sup>a</sup>-sahifada “to'rtlanchi masnaviy”, 231<sup>a</sup>-sahifada “beshlanchi masnaviy”lar ko'chirilgan.

Qo'lyozmaning 233<sup>a</sup> -sahifasidan “ruboiyoti Tabibiy” matni boshlanadi. Jami 143 ruboiy keltirilgan. Ruboiylar qizil siyohda raqamlangan bo'lib, 245<sup>a</sup>-sahifada tugaydi. 246<sup>b</sup> va 247<sup>b</sup>-sahifalarda ikkita qasida matni mavjud. Ularning birinchisi 42 bayt (84 misra), ikkinchisi 30 bayt (60 misra)ni tashkil qiladi. 247<sup>b</sup>-sahifadan esa “g'azali Tabibiy shirin shakar” sarlavhasi bilan shoirning oltita mulamma' g'azali ko'chirilgan.

Qo'lyozmaning 249<sup>a</sup>-249<sup>b</sup>-sahifaslari orasida shoirning ikkita “varsoqi” she'ri ko'chirilgan. Varsoqilar to'rtlik shaklida bo'lib, birinchisi 9 band, ikkinchisi 8 banddan iborat. Devon 250<sup>b</sup>-sahifada yakunlanadi. 6226 raqamli mazkur qo'lyozma quyidagi kolofon bilan yaunlanadi:

“Sayid Muhammad Rahim. Alhamdu val minna hazrat zilli as-Subhon xalifat ur-Rahmon boisi alaman val amon alhoqon va sulton ibn Sulton Abul Muzaffar val Mansur Abulg‘oziy Bahodirxon Soniy holadallah taoliy mulukuhu va davlatuhu va zayyada umruhu ul hazratning farmoni oliylari bila bu faqir al haqir kasir al tafsir Muhammad Ya‘qub devon mulaqqabi ba Xarrot bin usto Qurbonniyoz Xorazmiy devoni Tabibiyini bir ming uch yuz yigirma yettilanchi yil mohi ramazonning yigirmalanchisi chahorshanba kuni yozib itmomg‘a yetkurdi, muvofiq tovuq yili 1327”.

**3461 raqamli qo‘lyozma devon.** “Munisu-l-ushshoq” devonining yana bir qo‘lyozma nusxasi O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida 3461 raqam ostida saqlanadi. Qo‘lyozma devon 504 g‘azal, 3 mustazod, 3 murabba‘, 53 muxammas, 7 musaddas, 1 musabba‘, 1 musamman, 1 mutassa‘, 1 muashshar, 1 tarjeband, 5 soqiynoma (masnaviy), 145 ruboiy, 2 qasida, 6 mulamma g‘azal, 2 varsoqi, jami – 735 she‘rdan tarkib topgan. Bu she‘rlar qo‘lyozmada quyidagi sahifalarda keladi: g‘azal – 1<sup>b</sup>-130<sup>b</sup> sahifalarda, mustazod – 131<sup>a</sup>-132<sup>a</sup> sahifalarda, murabba‘ – 132<sup>a</sup>-134<sup>b</sup> sahifalarda, muxammas – 135<sup>a</sup>-165<sup>b</sup> sahifalarda, musaddas – 165<sup>b</sup>-170<sup>a</sup> sahifalarda, musamman – 171<sup>b</sup>-172<sup>b</sup> sahifalarda, mutassa‘ – 172<sup>b</sup>-173<sup>a</sup> sahifalarda, muashshar – 173<sup>a</sup>-173<sup>b</sup> sahifalarda, tarje‘band – 173<sup>b</sup>-174<sup>b</sup> sahifalarda, soqiynoma (masnaviy) – 174<sup>b</sup>-182<sup>a</sup> sahifalarda, ruboiy – 182<sup>a</sup>-192<sup>b</sup> sahifalarda, qasida – 192<sup>b</sup>-194<sup>b</sup> sahifalarda, mulamma g‘azallar – 194<sup>b</sup>-195<sup>b</sup> sahifalarda va varsaqilar – 195<sup>b</sup>-196<sup>b</sup> sahifalarda joylashgan.

Ushbu qo‘lyozma devon 1<sup>b</sup>-sahifadagi

ای وجودینگ غه ایماس ظاهر زمانی اپتیدا  
ایله کیم ارماس انگا موجود وقت انتها

Ya‘ni

*Ey vujudingg‘a emas zohir zamoni ibtido,*

*Uylakim ermas anga mavjud vaqti intiho, –*

matla‘si bilan boshlangan. Qo‘lyozmaning oxiri esa 196<sup>b</sup> - sahifadagi:

طبیعی دیک بولور البته گریان  
اول عاشق کیم یاری عتاب ایلامیش

*(Tabibiydek bo‘lur albatta giryon, Ul oshiqkim yori itob aylamish), - bayti bilan yakunlangan.*

Qo‘lyozmaning so‘ngida (197<sup>a</sup>-sahifa) esa quyidagi parcha keltirilgan. Ya‘ni qo‘lyozma kolofoni quyidagicha:

ظل السبحان خليفه الرحمن بافت الامن و الامان اعنى ابوالمظفر والمنصور ابوالغازى  
سيد محمد رحيم بهادر خان ثانى دام دولته و شوكته نينگ فرمان على لارى بيله اوشبو  
ديوان طبيى نى كيم سنه ۱۳۲۷ نچى ييلى ماه ربع الثانى نى يگرمه سكريدا سه شنبه  
كونى باباجان مخدوم ديوان طرا ابن عبدالعزیز مخدوم مرحومى يازيب اتمام غه  
بتكوردى

*(Zilli Subhon xalifai Rahmon bofasu-l-amni val-amon a‘ni Abulmuzaffar val-Mansur Abulg‘ozi Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxoni Soniy doma davlatuhu va shavkatuhuning farmoni oliylari bila ushbu devoni Tabibiynikim sanai 1327 nchi yili mohi rab‘iu-s-soniyni yigirma sakkizida seshanba kuni Bobojon Maxzum Devon Tarro ibn Abdulaziz Maxzum marhumi yozib itmomg‘a yetkurdi).*

Matn qora siyohda fabrika qog‘oziga ko‘chirilgan. Matn nasta‘liq xatida ikki ustunli jadval ichiga chiroyli husnixat bilan yozilgan bo‘lib, har sahifa o‘rtacha 21 satrdan tarkib topgan. Har bir sahifa raqamlangan. Sahifa raqami varaqning yuqori chap tomonida berilgan. Shuningdek, she‘rlar ham alohida raqamlangan.

Devondagi taxmislar ham sarlavhalangan. Ya‘ni shoir kimning g‘azaliga taxmis bog‘lagan bo‘lsa, o‘sha shoirlar nomini keltirib o‘tadi. Masalan, devonda Tabibiyning Navoiy, Fuzuliy, Munis, Ogahiy, Feruz, Sultoniy, Mirzo, Ravnaq, Rojiy, Hayoliy, G‘ulomiy, Adliy, Nadimiy va boshqa shoirlar g‘azallariga bog‘lagan taxmislar uchraydi.

6226 va 3461 raqamli qo‘lyozmalarning asosini “Munisu-l-ushshoq” devonida jamlangan she‘rlar tashkil etadi. Qiyosiy tahlil natijalari mazkur qo‘lyozmalar orasida ayrim farqlar uchrashini ko‘rsatadi. Ushbu qo‘lyozmlarning kotibi boshqa-boshqa bo‘lganidan bunday o‘zgarishlar bo‘lishi tabiiy. Jumladan, 3461 raqamli devondagi g‘azallar adadi biroz kamroq, ya‘ni ushbu manbada 504 ta g‘azalga raqam qo‘yilib ko‘chirilgan. devonning 6226 raqamli nusxasida esa g‘azallar 608 tani tashkil etadi. Aslida “Munisu-l-ushshoq” devonida 615 ta g‘azal mavjud. Bundan ko‘rinadiki, biz mukammal deb hisoblagan 6226 raqamli manbada

ham ayrim kamchiliklar mavjud. Bular she'rlarning to'liq emasligida, baytlarning tushib qolishida, so'z va misralarning noto'g'ri ko'chirilishi va boshqalarda namoyon bo'ladi. Jumladan, devonning 3461 raqamli yordamchi nusxasidagi ayrim g'azallar devonning tayanch manbasi bo'lgan 6226 raqamli qo'lyozmada uchramaydi. Ushbu g'azallar bilan bog'liq ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

#### 6-jadval

№	G'azal matla'si	Hajmi	Sahifasi
1	<i>To manda bordur bodai altofinga maxmurlig', Topsam oni etgay manga behaddi son masrurlig'</i>	5 bayt	55 <sup>a</sup> -sahifa
2	<i>Bihamdillahki, bo'ldi g'ayrati Firdavsi rizvon bog', Qilib asbobi bazm ayshini behad namoyon bog'</i>	11 bayt	55 <sup>a</sup> -sahifa hoshiyasi
3	<i>To latofatlar bila zebi guliston bo'ldi bog', Rangu bu fayzu safolar naqdig'a kon bo'ldi bog'</i>	11 bayt	55 <sup>b</sup> -sahifa
4	<i>Har bazmkim ishrat chog'i bo'lsa sharob toblig', Yetgusi borcha xalqg'a behjat bila shodoblig'</i>	5 bayt	55 <sup>b</sup> -sahifa
5	<i>Vahki, zamone topmadim anduhi hijrondin farog', Bor doimo ko'zimda nam, ko'nglumda g'am, jonimda dog'</i>	5 bayt	55 <sup>b</sup> -56 <sup>a</sup> - sahifalar
6	<i>Har kimki olam mulkida istar esa farzonalig', Ul hosil etsun avvalo, ishqing aro devonalig'</i>	7 bayt	56 <sup>a</sup> -sahifa
7	<i>Ey parivash, ko'rguzub bir dam manga dildorlig', Kulbam ichra kel so'rub holim qilib g'amxorlig'</i>	9 bayt	56 <sup>a</sup> -sahifa

Tabibiy sermahsul ijodkor hisoblanadi. Shoir ijodida ruboiy janri alohida o'ringa ega. 6226 ashyo raqamli manbaning 233<sup>a</sup> sahifasidan "ruboiyoti Tabibiy" (Tabibiy ruboiylari) boshlanadi. Bu manbadagi ruboiylarning soni 143 tani tashkil etadi. Ushbu manbadagi ruboiylar qizil siyohda raqamlangan bo'lib, ular qo'lyozmaning 245<sup>a</sup>-sahifasida tugaydi.

"Munisul-ushshoq" devonining 3461 inventar raqamli nusxasida esa ruboiylar soni 144 tani tashkil etadi. Qo'lyozmada 143 ta ruboiy raqamlangan holda ketma-ket keltiriladi. Bitta ruboiy hoshiyada ko'chirilgani sabab raqamlanmay ketilgan.

Ruboiylar qo'lyozmada 220<sup>a</sup>-sahifadan boshlanib, 235<sup>b</sup> sahifada yakunlanadi. Qo'lyozmaning 220<sup>b</sup>-sahifasi hoshiyasida ham

bir ruboiy ko‘chirilgan bo‘lib, u raqamlanmay ketilgan. Negadir, u ruboiy toshbosmada ham uchramaydi. Ushbu ruboiy quyidagicha:

*Faryodki, gardung ‘a bo ‘lub kaj davron,  
Qildi mani holim bo ‘ldi hijron,  
Rahm aylamayin holima, visoli jonon,  
Har lahza ishimni qildi ohu afg ‘on.*

“Munisu-l-ushshoq” devonining 8989 inventar raqamli toshbosma variantini kuzatsak, unda ruboiylar soni 142 tani tashkil etadi. Ushbu toshbosma “Munisu-l-ushshoq” devonining 6226 raqamli nusxasi asosida bosilgan bo‘lsa-da, 6226 raqamli manbadan bir ruboiy qisqartirilgan.

Ahmad Tabibiy asarlaridan ayrim namunalar o‘tgan asrda chop ettirilgan. Ularning adadi barmoq bilan sanarli darajada oz. Tabibiyning hozircha bizga ma‘lum bo‘lgan, 540ga yaqin turkiy tildagi ruboiylaridan 20 ga yaqini nashr etilgan<sup>168</sup>. Ta‘kidlash kerakki, shoir lirik asarlari, umuman, uning butun boshli adabiy merosi shu paytgacha tabdil etilib, ilmiy istifodaga olib kirilgan emas.

Qiyosiy tahlil natijalari “Munisu-l-ushshoq” devonining mavjud ikki qo‘lyozmasi (6226 va 3461 raqamli manbalar) orasida baytlarning tushib qolishi, so‘z va misralarning noto‘g‘ri ko‘chirilishi kabi jiddiy matniy o‘zgachaliklar borligini ko‘rsatadi. Masalan, devondagi “*Qachonkim aylasa nag‘motlar ayon dutor, Berur ko‘ngulga tarab beshumoru son dutor*” matla‘li g‘azal 6226 raqamli tayanch manbada ham, 8949 raqamli toshbosmada ham 10 bayt tarzida uchraydi. Ushbu g‘azal aslida 11 bayt bo‘lib, uning 8 bayti negadir qisqartirilgan. Ushbu bayt quyidagicha:

نیتانگ اگر آنگا من ایلسام موحبّت کیم  
سیور کیشی کیم ایرور اسرو نغمه دان دوتار  
*(Ne tong agar onga man aylasam muhabbatkim,  
Sevar kishikim erur asru nag‘madon dutor).*<sup>169</sup>

Yoki devondagi “*Dilrabolar mehrini dilda nihon etmak g‘alat, Mehnati bori bila qadni kamon etmak g‘alat*” matla‘li g‘azal 6226 va 8949 raqamli manbalarda 8 bayt tarzida keladi. 3461 raqamli

<sup>168</sup> Табибий. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи: Ф.Ғанихўжаев). – Тошкент: Бадий адабиёт, 1968. 228-бет.

<sup>169</sup> O‘zR F ShI. 3461 raqamli qo‘lyozma. 34<sup>a-b</sup>-sahifalar. دیوان طبیبی ترکی

manbada esa ushbu g‘azal 9 bayt bo‘lib quyidagi bayt 6226 va 8949 raqamli manbalarda yo‘q:

التيماس ايلب آلردين مرحمت آثاريني  
خلق ايچره اوزنى رسواى جهان ايتمك غلط

*(Ultimos aylab olardin marhamat osorini,  
Xalq ichra o‘zni rasvoyi jahon etmak g‘alat).*<sup>170</sup>

6226 va 8949 raqamli manbalarda yo‘l qo‘yilgan yana bir jiddiy xato shoirning “*Buki har tun bazm aro giryonu so‘zon o‘ldi sham’, Ul parining husniga go‘yo giryon o‘ldi sham*” matla’li g‘azali bilan bog‘liq. Ushbu manbalarda mazkur g‘azalning maqta’si berilmagan. Tabiiyki, bu hol she’r muallifligi masalasini shubha ostida qoldiradi. G‘azal maqtasini 3461 raqamli qo‘lyozma asosida:

*Oshiq o‘lg‘on kimsa ahvolini ma‘lum etgali,  
Ey Tabibiy, hujjat birla burhon o‘ldi sham*<sup>171</sup>, - tarzida tiklash mumkin. Bundan tashqari, devondagi:

*Ul dilrabo man xastag‘a gar qilmas ersa yorlig‘,  
Albatta hijroni aro bo‘lg‘umdurur ozorlig‘,* - matla’li g‘azal manbalarda 10 baytni tashkil etadi. Mazkur g‘azalning 3461 raqamli qo‘lyozmadagi varianti esa 11 bayt bo‘lib, uning quyidagi 7-bayti asossiz tushirib qoldirilgan:

عشاقنى يورماک تيريك امکانى بولغايمو ايکان  
مونداقكى دايم کوزلرى هر دم قيلور خونخوارليغ

*(Ushshoqni yurmak tirik imkoni bo‘lg‘oymu ekan,  
Mundoqki doim ko‘zlari har dam qilur xunxorlig‘).*<sup>172</sup>

Shuningdek, 3461 raqamli qo‘lyozmadagi shoirning “*qilg‘ung*” radifli g‘azalining 7-bayti (*Kelib har kecha bazmimga qachon so‘rmoqg‘a holimni, Labingdin lutf ila zohir kalomi jonfizo qilg‘ung*), “mening” radifli g‘azalining 6-bayti (*Dedim: “Ey mahbub, la’ling bergusidur toza jon”, Dedikim: “Qatl etgusi bu chashmi xunxorim mening”*), 19 baytli “*o‘lmisham*” radifli g‘azalining 7-bayti (*Qoshingu ruxsoringu la’li labing hijronida,*

<sup>170</sup> O‘zR FASHI. 3461 raqamli qo‘lyozma. 52<sup>a</sup>-sahifa. ديوان طبيبي ترکی

<sup>171</sup> O‘zR FASHI. 3461 raqamli qo‘lyozma. 53<sup>b</sup>-sahifa. ديوان طبيبي ترکی

<sup>172</sup> O‘zR FASHI. 3461 raqamli qo‘lyozma. 56<sup>b</sup>-sahifa. ديوان طبيبي ترکی

*Qaddi nun, holi zabunu ko'zi xunbor o'lmisham*), “bukun” radifli gʻalining 5 bayti (*Holi xarobimni so'rub rasmi tarahhum aylabon, Ahboblig' ohangini qildi yana barpo bukun*), yana bir “bukun” radifli gʻazalining 5 bayti (*Garchi qo'lig'a tig' olib kelgusi qatling qilg'oli, Hargiz demagil onda ham dilbar ayon keldi bukun*), “Yuzungni ochibon kelgilki mushtoqi uzoringman” misrasi bilan boshlanuvchi gʻazalning 4-bayti (*Qilib oyini dilbarlikni yod, ey sho'xi mahpaykar, Otingg'a bosdurub o'tkim yo'ling uzra g'uboringman*), “Toki bo'lmisham oshiq, ey pari, jamolingg'a” deb boshlanuvchi gʻazalning 3-bayti (*Bazmi vaslini, ey dil, istasang keturma hech, Ondin o'zga bir ishni fikr ila xayolingg'a*), “kelgusi” radifli gʻazalning maqta'si (*Bo'lg'oy Tabibiy maskaning jannat kibi gulshanki, ul, Gul orazu nargis ko'zu g'uncha dahoning kelgusi*), “Man xasta holin so'rg'oli bu kecha jonon kelgusi” misrasi bilan boshlanuvchi gʻazalning 4-bayti (*Yuz shukrkim, zohir qilib ul gulbadan lutfu karam, Kulbanga sarv oso qadin aylab xiromon kelgusi*) 6226 va 8949 raqamli manbalarda umuman uchramaydi. 3461 raqamli qo'lyozma ana shu fazilatlariga ko'ra devonning yordamchi manbasi bo'lib xizmat qiladi. Albatta, 3461 raqamli qo'lyozmaning ham o'ziga xos kamchiliklari bor. Bular avvalo, gʻazallar sonining kamligi, ayrim gʻazallar maqtasining ko'chirilmay qolishi, misralar tarkibida so'zlarning, baytlar tarkibida misralarning o'rni almashtirilib ko'chirilishi kabilar bilan izohlanadi.

**C-767-raqamli qo'lyozma.** Yuqorida ta'kidlanganidek, Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi qo'lyozmalar instituti fondidagi ushbu qo'lyozma tarkibidagi lirik asarlar 6226 raqamli qo'lyozmada to'liq uchraydi. Manbalar qiyosi ulardagi lirik asarlar matnida tafovutlar yo'qligini ko'rsatadi. Ushbu qo'lyozmadagi lirik asarlar yozilishiga ko'ra devon tuzilishidan qadimiyroq ekani hamda qo'lyozma kotibi muallifning o'zi bo'lishi mumkinligi bilan qimmatli hisoblanadi. Boshqa jihatdan manbaning o'ziga xos jihatlari yuq. Ma'lumotlarni qayta takrorlamaslik uchun mazkur manbani tahlilga tortmadik.

**8949 raqamli toshbosma manba.** O'zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida 8949 raqam ostida saqlanayotgan toshbosma manba

ikki qismdan iborat. Ushbu toshbosma manbada Ahmad Tabibiyning ikkita turkiy devoni jamlangan. Birinchi qism “Munisul-ushshoq”, ikkinchi qismda “Hayratu-l-ushshoq” devonlaridir. Ushbu manbada toshbosmaning qachon va qayerda bosilgani haqida hech qanday ma’lumot berilmagan bo’lsada, uning 1910-yilda Xivada toshbosmada bosilgani haqida ma’lumotlar bor<sup>173</sup>. Ushbu toshbosma manba shoir qalamiga mansub maxsus debocha “Debochayi Tabibiy” bilan boshlanadi. Matnga “*Debochayi Tabibiy*” deb sarlavha qo’yilib, so’ng “*Bismillohir-Rahmonir-Rahim*” bilan debocha boshlanadi. Debocha matni 11 sahifani tashkil etadi. Debocha matni o’rtacha bir sahifada 23 satrni tashkil etadi. Ushbu debocha nasriy va she’riy usulda yozilgan bo’lib, xuddi qo’lyozma singari “*Hamdi bag’oyat va sanoyi benihoyat ul mutakallimi kalomi ofarin va qoyili kitobi Furqoni mubiyn dargohig’a loyiq va sazovor va borgohig’a tuhfa va nisordurkim mumkinot nazmin adami tab’idin qudrat aruzi kamoli bila vujud devonig’a keltirdi inson vujudi majmuasi g’azaliyotig’a borcha masnuotdin ziyodaroq Badoye’ va sanoye’ izhor etib, tilin anvo’i suxanni sanjida qilmoqg’a loyiq erkanin bildurdi, nazm qodirikim hama jahon yaratib, onda har nav’ ins jon yaratib, borchadin ashraf aylab insonni, bildurub oncha roz pinhonni, ko’nglin yetti ulumg’a loyiq tilini qildi nuktaga notiq, toki hamdig’a bo’lsun ul zokir, borcha ahvolig’a bo’lub shokir, budurur qudrat Xudoyi Karimki erur vasf ongo sami’un aliym har nekim bordur oshkoru nihon borchasi keldi oni sun’i O’g’on shohidi sun’i keldi masnuot mazhar ilmi jumla ma’lumot jalla jalaluhu va ‘amma navaluhu bisyor salavot amta’si beshumor tahiyat madoyasi ul nubuvvat sariri amirining janobinig’a iysor va ul risolat haylining dilpazirishoni arsh maobig’a hadyai takror alat takrordurkim “Ana afsahu...” gulistonining bulbuli fasihul bayonidur va “Ana malihu...” shakkaristonining tutiyi shirin maqoli va malihlisonidur bo’vujud muncha fasohat va balog’at va muncha mu’allo daraja va rajha va martabat bila ham “Al faqru faxri” hadisig’a notiq “Ma ‘arafnaka haqqo ma’rifatika” mazmunig’a shoyiq erdi “ya ayyuhar rasulu ballig’ ma unzila ilayka...” karimasi mazmunining xitobi*

---

<sup>173</sup> Ганихўжаев Ф. Аҳмад Табибий (хаёти ва ижоди). – Тошкент: Фан, 1978. – Б.14.



*mustatobi mujibincha kutubi osmoni va suhufi Rabboniyning mazomini aynaqa va ma'niyi daqiqasinkim xotiri xurshid mazohiri ancha muttale' va muttabe' erdi...*" deb boshlanib, uning oxiri "... *Allohumma ur-zuqna min ne'matihi-l-uzma va ja'alni min davlatil kubro. Amin va yo Robba-l-a'lamin*" deb yakunlanadi. Debochadan keyin "ديوان طبيبي تركي مسما بمونس العشاق" (Devoni Tabibiy turkiy musammo ba Munisu-l-ushshoq) deyilib, so'ng "basmala" bilan hamd mazmunidagi g'azallar keltiriladi. Jumladan, birinchi g'azal matla'i quyidagicha bo'lib, u g'azalning qo'lyozma varianti bilan bir xil:

*Ey vujudingg'a emas zohir zamoni ibtido,  
Uylakim ermas ongo mavjud vaqti intiho.*

"Munisu-l-ushshoq"ning ushbu toshbosma variantida g'azallar soni 607 tani tashkil etadi. Devondan o'rin olgan oxirgi g'azal matni quyidagicha:

*Dedi: Ko'zung ravshan nedin? Guftamki: Zi ruxsori shumo,  
Dedi: Kim(n)ing maftunisan? Guftam: Giriftori shumo.*

*Dedi: Nechun bemorsan? Guftam: Zi dardi hajri tu,  
Dedi: Mahvashing oldi ne? Guftam: Giriftori shumo.*

*Dedi: Sanga ne etmadi? Guftam: Zi tui lutfi karam,  
Dedi: Sanga ne etgusi? Guftamki: Ozori shumo.*

*Dedi muroding ne erdi? Guftamki: Bazmi vasli tu,  
Dediki: Bu ish kimgadur? Guftamki: In kori shumo.*

*Dedi: Oningdek kimdurur? Guftam: Sagoni ko'yi tu,  
Dedi: Seni kim injitur? Guftamki: Ag'ori shumo.*

*Dedi: Mamoting ne erur? Guftam: Nigohi chashmi tu,  
Dedi: Nechuk jon topg'asen? Guftam: Zi guftori shumo.*

*Dedi: Tabibiy kim ekan? Guftamki: Noloni bulbulat,  
Dedi: Chekar qayda navo? Guftamki: Gulzori shumo.*

Savol-javob tarzida yozilgan ushbu mulamma g'azal *rajazi musammani solim* vaznida yozilgan. Ushbu she'r Tabibiyning

“Tanlangan asarlar”ida ham nashr etilgan<sup>174</sup>. Yetti baytli bu she’r nashrda nima uchundir olti yarim bayt bo‘lib qolgan. Asliyat bilan qiyoslash orqali she’r matnidan bir misra nashrda qisqartirilganini kuzatish mumkin. Ya’ni to‘rtinchi misra (*Dedi: Mahvashing o‘ldine? Guftam: Giriftori shumo*) nashrdan qolib ketgan. Shuni ham ta’kidlash zarurki, shoirning “Tanlangan asarlar”i adabiyotshunos F.G’anixo‘jayev tomonidan 1968- yilda nashrga tayyorlangan. Ushbu nashrga shoirning o‘sha mafkura mezonlariga mos keladigan 15 g‘azali, bittadan murabba’, muxammas, musaddas, musamman, muashshar va ruboiy, qit‘a kabi lirik asarlaridan namunalar kiritilgan. Bu nashrning asosiy qismi Tabibiyning “Vomiq va Azro” dostoniga bag‘ishlangan. Mazkur doston ham qisqartirishlar bilan nashr qilingan.

Shoirning ushbu devoni tarkibidagi lirik asarlar aruzning *hazaj, rajaz, ramal, muzori’, mutaqorib, munsarih, mujtass* vaznlarida yozilgan.

“Munisu-l-ushshoq” devonining toshbosmasi uning qo‘lyozma varianti kabi ikkita varsoqi va bir bahri tavil she’r bilan yakunlanadi. Ta’kidlash kerakki, ushbu toshbosma manba garchi shoirning hayotlik paytlarida bosilgan bo‘lsa-da, ko‘plab kamchiliklar bilan nashr etilgan. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, shoir asarlarining ilk nashri mazkur toshbosma manba hisoblanadi. Ushbu bosma-nashr matnida ham ko‘plab xatoliklar ko‘zga tashlanadi. Avvalo, mazkur toshbosma 6226 raqamli manba asosida bosilgani e’tiboridan, 6226 raqamli qo‘lyozmadagi kamchiliklar bunda ham takrorlanadi, ya’ni yuqorida ta’kidlangan baytlarning tushirilib qoldirilish holatlari bunda ham mavjud. Bundan tashqari, 6226 raqamli qo‘lyozma matni bilan qiyosiy tekshiruvlar toshbosma nashr matnida ko‘plab kamchiliklar borligini ko‘rsatadi. Bular so‘zlar tarkibidagi qo‘shimchalarning, harflarning tushib qolishi (“*ahlining*” so‘zi – “*ahli*”, “*duchor*” so‘zi – “*ducho*”, “*rahm*” so‘zi – “*ahm*”, “*meni*” so‘zi – “*sani*” tarzida bosilgan), so‘zlarning tushib qolishi (“*yo‘q*”, “*ko‘b*”, “*puya*” va boshqa so‘zlar misralar tarkibidan tushib qolgan), birikmalarni xato yozish (“*yuhibbuz-sobirin*” – “*yuhibbuz-zolimin*” tarzida), baytlarning tushib qolishi

---

<sup>174</sup> Табибий. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи: Фатхулла Ғанихўжаев). – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1968. – Б. 29.

(“Ekan” radifli g‘azalning 6-bayti: “*Buki derlar bir parivash azmi maydon qilg‘usi, Bir xabar oling bizing ul mohtobonmu ekan*”, “O‘lmasa” radifli g‘azalning ikki bayti, “Kelgusi” radifli g‘azalning 7 va 12-baytlari: “*Beravnaq erdi doimo kulbam xazoni bog‘dek, Vaslidin oni qilg‘oli emdi guliston kelgusi*”; “*Ul dilraboning vaslini shukrin agar bilmas esang, Ey jonu dil, qilg‘il hazar boshingg‘a hijron kelgusi*”, “*Muyassar aylagil bir tun mango, jono, visolingni*” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalning 9-bayti “*Suluki ishq aro pesha o‘zingga ayla sodiqlig‘, Yubormay har tarafga behuda fikru xayolingni*” tushirib qoldirilgan), baytlarning almashtirilib ko‘chirilishi (“*Ey qumri*” radifli g‘azalning 6 va 7-baytlari almashib ketgan) kabilar bilan bog‘liq.

Professor Nurboy Jabborov matnshunosligimizdagi dolzarb masalalar xususida to‘xtalib, adabiy manbalar nashri bilan bog‘liq muammolar to‘g‘risida quyidagilarni qayd etadi: “Hanuzgacha mumtoz adabiy merosimiz namunalarini tabdil qilishning ilmiy tamoyillarini ishlab chiqar olganimiz yo‘q. Turfa xilliklar, xatoliklar negizi shunga ham borib taqaladi. Eski o‘zbek yozuvini o‘zlashtirgan ba‘zi mutaxassislarimiz arab, fors tillaridan bexabar. Bularni bilganlarda adabiy idrok yetishmaydi. Bunga layoqatli bo‘lsa, mumtoz ijodkorlarimiz e’tiqodining asosi bo‘lgan islom arkonlari va tasavvuf bo‘yicha tasavvuri chala. Xullas, muammo yetarli”<sup>175</sup>. Mazkur muammolarning yechimi adabiy manbaning o‘quvchiga mukammal shaklda taqdim etilishida asosiy omildir. Aks holda, o‘quvchi noshir taqdim qilgan nuqsonli matnni qabul qilishga majbur.

Adabiyotshunoslikda Ahmad Tabibiyning “Munisu-l-ushshoq” devoniga murojaatlar qilingan. Yuqorida ta’kidlanganidek, oz bo‘lsa-da, ijodkor she’riyatidan namunalar sobiq mafkura talabari asosida nashr ettirilgan<sup>176</sup>. Biroq shoir adabiy merosi tadqiqi ana shu

---

<sup>175</sup> Жабборов Н. Ўзбек матншунослиги: муаммолар, истиқболдаги вазифалар/ Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Наманган, 2018. – Б.36.

<sup>176</sup> Ўзбек адабиёти. IV томлик. I китоб. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1960; Каримов Ғ. Ўзбек адабиёти тарихи. III китоб. – Тошкент, 1966; Ўзбек адабиёти. V томлик. II китоб. – Тошкент: Бадий адабиёт. 1968; Табибий. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи: Фатхулла Ғанихўжаев). – Тошкент: Бадий адабиёт, 1968.

nashrlarning ham talab darajasida emasligini ko'rsatmoqda. Birgina misol. Devondagi 119-g'azal:

*Bu olamda kishikim pok qalbu sof botindur,*

*Hamisha faqr kunjida qanoat birla sokindur,* - matla'i bilan boshlanadi. Ushbu g'azal asliyatda 7 bayt bo'lgani holda nashrda u 6 baytni tashkil etadi. Negadir, g'azalning quyidagi 3-bayti nashr<sup>177</sup>dan qisqartirilgan:

*Agar oqil esang ko'rsa(ng) g'amu mehnatni gardundin,*

*Ki boshingg'a nekim yetgusi taqdiri Xudodindur.*

Mustaqillikdan keyin shoirning devonlari uchun yozilgan debochasi yuzasidan qisman fikrlar bildirildi<sup>178</sup>, Tabibiy soqiy nomalaridan ayrim parchalar tabdil qilinib, tahlilga tortildi<sup>179</sup>. Albatta, shoir ijodi tadqiqi bilan bog'liq ishlar quvonarli hol. Biroq bunday ishlarning uzuq-yuluq holda, qo'l uchida amalga oshirilishini oqlab bo'lmaydi. Shu paytgacha shoirning birorta she'riy devoni to'liq tadqiq etilmadi, ulardan birortasi nashr qilinmadi. Shoir ijodi bilan bog'liq tadqiqotlarda ham Tabibiy asarlari matni ayrim nuqsonlar bilan tabdil qilinmoqda.

Shoir devonlarida 5 baytdan 19 baytgacha bo'lgan g'azallardir. Umuman, shoir lirik asarlari matnida Qur'on oyatlari, hadisi shariflar, arabcha, o'g'uzcha, fors-tojikcha so'z va so'z birikmalari uchraydi.

Adabiyotshunos F.G'anixo'jayev Tabibiy asarlaridan ayrim namunalarni kirill alifbosida nashr qilgan<sup>180</sup>. Shoirning mazkur "Tanlangangan asarlar"iga "Munisul-ushshoq" devonidan ham she'rlar kiritilgan. She'rlarning asliyat va nashr nusxalarini qiyoslash natijalari ular orasida matniy muqsonlar borligini ko'rsatadi. Masalan, "Tanlangan asarlar" to'plamiga kiritilgan g'azallarning biri:

*Bu olamda kishikim pok qalbu sof botindur,*

*Hamisha faqr kunjida qanoat birla sokindur,* - matla'i bilan boshlanadi. Ushbu g'azal 6226 raqamli qo'lyozmadagi 119 raqamli

<sup>177</sup> Ўзбек адабиёти. IV томлик. Биринчи китоб. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1960. – Б. 157.

<sup>178</sup> Каримова Ф. Навоийдан кейинги даврда яратилган дебочалар. – Наманган, 2007; Қосимов Б. ва бошқ. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004.

<sup>179</sup> Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Тошкент: Тафаккур, 2020.

<sup>180</sup> Табибий. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи: Фатхулла Ғанихўжаев). – Тошкент: Бадий адабиёт, 1968. 228-бет.

gʻazaldir. Ushbu gʻazal asliyatda 7 bayt, nashrda esa 6 bayt<sup>181</sup>ni tashkil etadi. Yaʼni quyidagi bayt nashrdan qolib ketgan:

*Agar odam esang, ogʻritma odam koʻnglini zinhor,  
Ki ahli maʼrifat nazdida: “Kaʼba qalbi moʻmindur”.*

Aslida Tabibiy lirikasining aksariyatini Qurʼon oyatlari, hadisi shariflar, arabcha birikmalar tashkil etadi. Bu hol sobiq tuzum davrida shoir lirik asarlarining toʻliq nashrini amalga oshirish imkonini bermagan. Demak, bu oʻrinda ham mafkura talabiga koʻra ushbu baytni qisqartirib nashr ettirishga toʻgʻri kelgan.

“Munisul-ushshoq” devonida Tabibiyning yettita musaddas sheʼri kiritilgan. Musaddaslarning ikkinchisi:

*Zoru rasvoyi jahon etgali jonona mani,  
Dardu ranj ila qilib hamdamu hamxona mani,  
Oʻrtanur holima koʻrgan chogʻi parvona mani,  
Qildi bir jilva bila ishqida devona mani,  
Tong emas xalq agar aylasa afsona mani,  
Kim xiraddin gʻami ishq ayladi begona mani, - bandi bilan*

boshlanadi.

Mazkur musaddas qoʻlyozmada 7 banddan tarkib topgan boʻlib, uning nashr varianti 5 bandni<sup>182</sup> tashkil etadi. Musaddasning toʻrtinchi va beshinchi bandlari nashrdan qoldirib ketilgan. Tushirib qoldirilgan bandlar quyidagicha:

*Boʻluram bexud ichib hajr tunida xunob,  
Yoʻq bu ikkisidin oʻzga manga bir xoʻrdu xob,  
Mundin oʻlmishki koʻzim sorigʻu jismim betob,  
Boʻlmisham algʻaraz, ey doʻstlar ahvoli xarob,  
Tong emas xalq agar aylasa afsona mani,  
Kim xiraddin gʻami ishq ayladi begona mani.*

*Labining hasrati har lahza berib bimi hayot,  
Boʻlmisham koʻzlarining fikrida maqruni mamot,  
Qoshlari yodida deb holima hayhot-hayhot,  
Oldi mandin belining riqqati oromu sabot,*

---

<sup>181</sup> Табибий. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи: Фатхулла Ғанихўжаев). – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1968. – Б. 14.

<sup>182</sup> Табибий. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи: Фатхулла Ғанихўжаев). – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1968. – Б. 51-52.

*Tong emas xalq agar aylasa afsona mani,  
Kim xiraddin g'ami ishq ayladi begona mani.*

Matniy tafovutlar asliyat manbalar orasida ham ko'zga tashlanadi. Qo'lyozmalar matnida kotiblar xatosi ham tez-tez ko'zga tashlanib turadi. Jumladan, 6226 raqamli qo'lyozmaning 225-g'azali 7 bayt bo'lib, u quyidagi matla' bilan boshlangan:

*Mani, ey do'stlar, yor ohu afg'onimg'a rahm etmas,  
G'ami hijronida holi parishonimg'a rahm etmas.*

Qo'lyozmada g'azalning beshinchi va oltinchi baytlari quyidagicha ko'chirilgan.

*Agar rahm etmasa zohir tanim zaxmig'a tong yo'qkim,  
Dilu jonimg'a etkon chiqg'oli jonimg'a rahm etmas.*

*Jafo uzra jafo doim sitam uzra sitam aylab,  
G'ami hajrida etkon chiqg'oli jonimg'a rahm etmas*<sup>183</sup>.

Ko'rinadiki, ushbu baytlarning ikkinchi misrasi deyarli bir xil bo'lib qolgan. Bunday noqislik shoir tomonidan emas, balki kotib tomonidan yuzaga kelgan. Devonning boshqa nusxasida mazkur g'azalning beshinchi va oltinchi baytlari boshqacha:

*Agar rahm etmasa zohir tanim zaxmig'a tong yo'qkim,  
Dilu jonimg'a etkon dog'pinhonimg'a rahm etmas.*

*Jafo uzra jafo doim sitam uzra sitam aylab,  
G'ami hajrida ekan chiqg'oli jonimg'a rahm etmas*<sup>184</sup>.

Xulosa qilib aytganda, Ahmad Tabibiyning turkiy tilda tartib bergan birinchi devoni "Munisu-l-ushshoq" bo'lib, hozirda uning ikkita qo'lyozmasi mavjud. Ular 6226 va 3461 raqamlari bilan saqlanadi. Bulardan 6226 raqamli qo'lyozma "Munisu-l-ushshoq" devonining mukammal varianti hisoblanadi. Devonning yagona 8949 raqamli toshbosma nusxasi ham aynan 6226 raqamli qo'lyozma asosida bosilgan. Manbalar qiyosi matni orasida jiddiy o'zgarishlar mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, manbalardagi lirik asarlar soni, she'rlar hajmi, misra, bayt va bandlar tarkibidagi so'zlarning tushib qolishi, almashtirib yuborilishi, noto'g'ri

<sup>183</sup> O'zR FASHI. 6226 raqamli qo'lyozma. 69<sup>a</sup>-sahifa. ديوان طبيبي

<sup>184</sup> O'zR FASHI. 3461 raqamli qo'lyozma. 47<sup>ab</sup>-sahifalar. ديوان طبيبي ترکی

yoʻzilishi, qoʻshimchalarning tushib qolish holatlari kuzatiladi. Bunday kamchiliklarning aksariyati kotiblar va noshirlarning eʼtiborsizligi tufayli yuzaga kelganini taʼkidlash kerak. Ahmad Tabibiy adabiy merosi, jumladan, shu paytgacha shoirning “Munisu-l-ushshoq” devonidagi bir-ikkita lirik asarlari nashr qilingan. Biroq shoirning birorta devoni shu paytgacha maxsus tadqiq etilmagan, ular nashrga tayyorlanmagan. “Munisu-l-ushshoq” devoni manbalari qiyosi asosida ilk bor mazkur devonning mukammal nashri amalga oshirildi.

#### **4.2. “Hayratu-l-ushshoq” devoni manbalaridagi matn tafovutlari**

OʻzRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qoʻlyozmalar fondida 3460 raqami bilan saqlanayotgan qoʻlyozma manbada Ahmad Tabibiy ijodiga mansub asarlar jamlangan. Ushbu qoʻlyozma manba qalin moshrang muqovada boʻlib, muqovalar naqlangan. Qoʻlyozmaning 1<sup>b</sup>- sahifasi oʻrtasida “*Ikilanchi devoni Tabibiy turkiy musammo bahayratu-l-oshiqin*” deb qizil siyohda yozilgan. Matn qora siyohda, avvalo, “*Bismillohir-Rahmonir-Rahim*”, soʻng esa Tabibiyning “Hayratu-l-ushshoq” devonidagi lirik asarlari koʻchirilgan. Ahamiyatli jihati shundaki, OʻzFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qoʻlyozmalar fondida Ahmad Tabibiy “Munisu-l-ushshoq” devonining ikkita qoʻlyozmasi boʻlsa, “Hayratu-l-ushshoq”ning bitta nusxasi mavjud. Fondagi manbalarni oʻrganish natijalari shoir “Hayratu-l-ushshoq” devonining yagona toʻliq nusxasi mana shu 3460 raqamli qoʻlyozma ekanini koʻrsatadi. Mazkur qoʻlyozmaning tashqi va ichki tuzilishi ushbu manbaning shohga yoki saroy kutubxonasiga taqdim etish uchun tuzilmagan, degan taxminga asos beradi. Sababi ushbu manba ziynatlanmagan, sahifalar jadvallanmagan, unvon yoʻq, sheʼrlar tartibsiz, ularning aksariyati sahifalarning hoshiyalariga koʻchirilgan. Shunday boʻlsa-da, ushbu qoʻlyozma nodir manba hisoblanadi.

Ahmad Tabibiy lirik merosi tadqiqi shoirning mumtoz adabiyotimizning barcha janrlarida ijod etganini koʻrsatadi. Biroq shoir turli janrlardagi sheʼrlarini devonlariga taqsimlab kiritgan.

Shunga ko‘ra, ijodkor “Hayratu-l-ushshoq” devoni tarkibiga g‘azal, mustazod, murabba’, muxammas, musaddas, musamman, tarje‘band, masnaviy, ruboiy, qit‘a, bahri tavil, qasida kabi 12 ta janrdagi lirik asarlarini joylashtirgan. Ushbu lirik asarlar aruzning hazaj, rajaz, ramal, mujtass, muzori’, mutaqorib, komil, xafif vaznlarida yozilgan.

Shoirning ushbu devoni maxsus debochasiz, “basmala”, hamd va na‘t g‘azallar bilan boshlangan. G‘azallar devonning 1<sup>b</sup>-138<sup>b</sup>, mustazodlar 138<sup>b</sup>-139<sup>b</sup>, murabba‘lar 140<sup>a</sup>-143<sup>a</sup>, muxammaslar 143<sup>a</sup>-193<sup>a</sup>, musaddaslar 193<sup>a</sup>-200<sup>b</sup>, musammanlar 200<sup>b</sup>-205<sup>b</sup>, tarj‘bandlar 205<sup>b</sup>-213<sup>b</sup>, masnaviylar 213<sup>b</sup>-220<sup>a</sup>, ruboiylar 220<sup>a</sup>-235<sup>b</sup>, qit‘alar 235<sup>b</sup>-244<sup>a</sup>, bahri tavil 244<sup>a-b</sup>, qasida 244<sup>b</sup>-245<sup>a</sup> sahifalarida ko‘chirilgan. Lirik asarlarning berilishi arab alifbosi va janrlar ketma-ketligi devon tuzish me‘yorlariga to‘la mos keladi.

**G‘azal.** Devonning mazkur yagona qo‘lyozmasida shoirning 636 ta g‘azali o‘rin olgan bo‘lib, dastlabki g‘azal:

ثنا بولسون آنگا كيم باردور اول قادر يكتا  
قيلور بير امر ايكي حرف ايله هم كون و مكان پيدا

*Sano bo‘lsun ongakim bordurur ul Qodiri Yakto,*

*Qilur bir amr ikki harf ila kavnu makon paydo,* - matla‘si bilan boshlanadi. Devondagi g‘azallar arab harflarining barchasiga yozilgan bo‘lib, ayrim harflarga 50 ga yaqin g‘azal yozilgan. G‘azallar turli mavzularda. Devonning ushbu qo‘lyozmasi tarkibida g‘azallar soni to‘liq emas. Aslida devonda g‘azallar soni 639 ta bo‘lishi kerak. Bu haqda quyida batafsil to‘xtalamiz.

**Mustazod.** Qo‘lyozmaning 138<sup>b</sup>-sahifasida g‘azallar yakunlanadi. Shu sahifada “Mustazodi Tabibiy” sarlavhasi bilan shoirning 5 ta mustazodi ko‘chirilgan. Ma‘lumki, “mustazodda har misra yoxud baytlarning oxirida vazndan ortiqcha so‘z yoki ibora keltiriladi. Birinchi baytda misra bilan misra va ortirma qismlar o‘zaro qofiyalangan. Keyingi baytlarning ikkinchi misralari matla‘dagi misralar bilan, orttirilgan qismlar esa orttirmalar bilan qofiyalanib boradi”<sup>185</sup>. Mustazodlar 138<sup>b</sup>-139<sup>ab</sup>-sahifalarda va shu sahifalar hoshiyasida yozilgan. Tabibiy “Munisu-l-ushshoq”

<sup>185</sup> Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: O‘zbekiston, 2014. – Б. 123-124.



devonida ham 3 ta mustazod bo‘lib, ularning ikkitasida Ogahiy uslubidagi<sup>186</sup> bittadan orttirilgan misra, bittasida esa ikkitadan orttirilgan misra mavjud. “Hayratu-l-ushshoq” devonida ham mustazodning bu ikki ko‘rinishi uchraydi. Devondagi mustazodlarning birinchisi 11 band bo‘lib, u quyidagi band bilan boshlanadi:

*Rahm aylagil ahvolima, ey nozaninkim,  
hajr aro bo‘lmish ishim chekmak fig‘on,  
La‘li labingdin emdi bir bo‘sa manga qilg‘il ato,  
kim etmish ul bag‘rimni qon.*

Ushbu mustazod matni uning toshbosma va 654 raqamli bayoz-to‘plam varianti bilan bir xil. Devondagi ikkinchi mustazod esa:

*To tushdi jamoling uza bu zulfi parishon,  
ey sho‘xi, sumanbar,*

*Boshimg‘a erur yog‘duyi jahon uylaki zindon,  
shabu ro‘z barobar, - bandi bilan*

boshlanib, u jami 11 banddan iborat. uchinchi va to‘rtinchi mustazodlar esa 7 banddan iborat bo‘lib, ular quyidagi bandlar bilan boshlanadi:

*Kel, ey dilbar, bu oqshom bazmim ichra o‘zni mehmon qil,  
qilib altof ila ehson,*

*Quduming fayzi birla maskanim rashki guliston qil,  
etib yuz noz ila javlon.*

*Nechun, ey pari, jafolar qilasan manga mudomo,  
dame, aylamay inoyat,*

*Ki g‘ami firoqing ichra tushubon boshimg‘a savdo,  
chekaram azobu kulfat.*

Devondagi so‘nggi mustazod ham 7 banddan tarkib topgan bo‘lib, u ikkita orttirilgan yarim misradan iborat. Mustazod quyidagi band bilan boshlanadi:

*Husning guli to bo‘ldi jahon bog‘ida paydo,  
topib necha ziynat,  
ey sho‘xi parizod,*

---

<sup>186</sup> Ўша жойда.

*Soldi oni ishqı boshıma kulfati savdo*

*aylab manga odat,  
bulbul kabi faryod.*

E'tiborlisi, ushbu mustazod matni keyinchalik Chokar qalamiga mansub mashhur "Mustazod" qo'shig'ini yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

**Murabba'**. Qo'lyozmaning 139<sup>b</sup>-142<sup>b</sup>-sahifalari orasida murabba' she'rlar ko'chirilgan. Murabba'lar jami to'rtta bo'lib, ularning birinchisi:

*Uqubatgohi hajringda hamisha o'rtanur jonim,  
Falakka etti sansiz har kecha faryodu afg'onim,  
Savodi zulfingga qilg'och nazzora uchti iymonim,*

*Habibim, rozdorim jumlai dardimga darmonim,* - tarzida boshlanadi. Devondagi birinchi murabba' yetti band, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi murabba'lar esa 11 banddan iborat bo'lib, ular jami 40 bandni tashkil etadi.

**Muxammas.** Ma'lumki, devonlarning asosiy qismini g'azallar tashkil etadi. "Hayratu-l-ushshoq" devonining salmoqli qismini ham g'azallar, shu bilan birga, muxammas she'rlar egallaydi. Qo'lyozmaning 143<sup>a</sup>-sahifasidan 192<sup>b</sup>-sahifasigacha Tabibiy muxammaslari ko'chirilgan. Ta'kidlash kerakki, Ahmad Tabibiy ijodida "muxammas" alohida kattagina bir mavzu. Shoir ijodidagi ushbu mavzu yuzasidan alohida bir tadqiqot olib borish mumkin. Sababi adabiyotimiz tarixida hech bir ijodkor Ahmad Tabibiy singari 100 dan ortiq ijodkor g'azallariga muxammaslar bog'lamagan bo'lsa kerak. 3460 raqamli qo'lyozma devonda Tabibiyning jami 114 ta muxammas she'ri ko'chirilgan bo'lib, ular Ogahiy, Feruz, Lutfiy, Husayniy, Navoiy, Fuzuliy, Nishotiy, Rojiy, Amir, Xatoiy, Xolis, Komil, Ravnaq, Munis, Xayoliy, Avaz, Ojiz, Haqiriy, Devoniy, Kamoliy, Doiy, Chokar, Nadimiy, Rog'ib, Fano, Mirzo, Murodiy, Sultoniy, Xodim, Shinosiy, Niyoziy, Yusuf, Mutrib Xonaxarob, Habibiy, Umidiy, Bayoniy, G'oziy, Asad, Oqil, Purkomil, Vazir, Mushrif, Oshiq, Ado, Hoziq, Fazliy, Nola, Afsus, Xijlat, Vahmiy, Xotam, Ulviy, Vasfiy, Naf'iy, Nasib, G'aribiy, Boqiy, Avniy, Navras, Hoshim, Zotiy, No'iliy, Laylo, Zevar, Fitnat, Sham'iy, Mohir, Ayniy, Muhibiy, Somiy, Qudsiy, Muxlis, Adliy,

Partav, Qoiliy, Sobir, Amir (jami 78 nafar ijodkor) va o‘z g‘azallariga taxmis qilingan.

Ahmad Tabibiy ko‘plab turkigo‘y va forsig‘o‘y so‘z san‘atkorlari badiiy mahoratidan ilhomlangan. Shoir ijodini tahlil etar ekanmiz, uning ijodkor sifatida shakllanishida, ayniqsa buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning ijodiy merosi kuchli ta‘sir etgani kuzatiladi. Tabibiyning ko‘plab turkum asarlari aynan Navoiy asarlariga o‘xshatmalar tarzida yozilgan. Bu hol shoirning buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodiga naqadar ixlosmand bo‘lganini ko‘rsatadi.

Shoh va shoir Feruz hukmronligi yillarida “Xiva adabiy muhiti”da yashab, ijod etgan 50 dan ortiq shoir-u mutarjimlarning yetishib chiqishi tasodif bo‘lmay, ularning badiiy ijoddagi muvaffaqiyatlari aynan Navoiy va Ogahiydek ijodkorlar bilan bog‘liq, deyish mumkin. Zero, bu davr adabiy manbalarini kuzatar ekanmiz, har bir shoir o‘z she‘rlarini, avvalo, ulug‘ so‘z san‘atkori Alisher Navoiy, so‘ng Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Ogahiyga o‘xshatmalar bilan boshlaganiga guvoh bo‘lamiz. Ahmad Tabibiy ham Navoiy, Munis, Ogahiydek mutafakkir shoirlar ijod namunalari bilan yaqindan tanishib, ularni o‘zining ma‘naviy ustozlari deb bilgan.

Ta‘kidlanganidek, shoir buyuk Navoiy ijodiga ixlosmand bo‘lgan. Bu hol, ayniqsa, Tabibiy devonlarining tuzilishida, o‘xshash janrlardagi lirik asarlarning ijod etilishida yorqin namoyon bo‘ladi. Qolaversa, Tabibiyning aksar lirik asarlari hazrat Navoiy g‘azallariga o‘xshatmalar, muxammaslar tarzida bitilgan. Hatto Ahmad Tabibiyning “Munisul-ushshoq” devoni debochasini o‘qir ekanmiz, beixtiyor hazrat Alisher Navoiyning o‘z devoniga yozgan debochasi ko‘z oldimizga keladi.

Tabibiyning ko‘plab lirik asarlari shaklan va mazmunan Navoiy asarlariga o‘xshatmalar tarzida yozilgan. Ahmad Tabibiy ijodini maxsus tadqiq etgan adabiyotshunos olim F.G‘anixovning ta‘kidlashicha, Tabibiy Navoiyning 20 dan ortiq g‘azaliga muxammas bog‘lagan.<sup>187</sup>

---

<sup>187</sup> Ганихўжаев Ф. Аҳмад Табибий. –Тошкент: Фан, 1978. – Б.31.

“Munisu-l-ushshoq” devonida Navoiy g‘azallariga yozilgan 5 ta muxammas ko‘chirilgan. Tabibiyning “Hayratu-l-ushshoq” devonida esa Navoiy g‘azallariga bog‘langan 10 ta muxammas ko‘chirilgan.

“Munisu-l-ushshoq” devonidagi Navoiy g‘azallariga bog‘langan birinchi muxammas “*muxammasi Tabibiy g‘azali Navoiy*” degan sarlavha bilan keladi. Bu she‘r “Navodir ushshabob”dagi 13 baytli:

*Sahar xovar shahi charx uzrakim, xaylu xasham chekti,*

*Shioi xat bila ko‘hsor uza oltun alam chekti –*

matla‘i bilan boshlanuvchi mashhur g‘azalga yozilgan taxmisdir. Tabibiyning ushbu g‘azalga yozgan muxammasi ham 13 banddan iborat bo‘lib, u quyidagi band bilan boshlanadi:

*Shahi anjum hukumat tiyg‘ini chun subhidam chekti,*

*Shafaqdin arsai olamaro gulgun hasham chekti,*

*Ziyoi nuri xaylini arabdin to ajam chekti,*

*Sahar xovar shahi charx uzrakim, xaylu xasham chekti,*

*Shioi xat bila ko‘hsor uza oltun alam chekti.*

Ko‘rinadiki, Tabibiy muxammasi Navoiy g‘azali yozilgan aruzning *hazaji musammani solim (mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun)* vaznida yozilgan.

Devondagi Navoiy g‘azaliga yozilgan ikkinchi taxmis ham sarlavhalangan (“*muxammasi Tabibiy g‘azali Navoiy*”). Bu muxammas “Favoyid ul-kibar”dagi:

*Gul kerakmastur menga, majlisda sahbo bo‘lmasa,*

*Naylayin sahboni, bir gul majlisaro bo‘lmasa, - matla‘i bilan boshlanib:*

*Ey Navoiy, gar nasibingdur abad umre, kerak,*

*Xotiringda yordin o‘zga tamanno bo‘lmasa, - maqta‘i bilan tugallanuvchi 9 baytli g‘azalga yozilgan. Ma‘lumki, Navoiyning bu g‘azali aruzning ramali musammani mahzuf (foilotun, foilotun, foilotun, foilun)* vaznida yozilgan. Tabibiy taxmisi ham shu vaznda bitilgan. Ushbu g‘azalga yozilgan Tabibiy muxammasining birinchi bandi quyidagi misralar bilan boshlanadi:

*Naylayin nargisni gar ul chashmi shahlo bo‘lmasa,*

*Hojat ermas sarv (ham) ul qaddi ra‘no bo‘lmasa,*

*Sudi yo‘q sunbulni ul zulfi sumanso bo‘lmasa,*

*Gul kerakmastur menga, majlisda sahbo bo'lmasa,  
Naylayin sahboni, bir gul majlisaro bo'lmasa.*

“Munisu-l-ushshoq” devonidagi Navoiy g‘azaliga bog‘langan uchinchi muxammasga ham “*muxammasi Tabibiy g‘azali Navoiy*” degan sarlavha qo‘yilib, ushbu muxammas ham *ramali musammani mahzuf* vaznida. Ushbu she‘r quyidagi band bilan boshlanadi:

*Til tutulsun o‘zni juz madhingg‘a go‘yo aylasa,  
Ruh kuysun o‘zgaga mayli taqozo aylasa,  
Aql yitsun gar siri ishqingni ifsho aylasa,  
Ko‘nglum o‘rtansun agar g‘ayringg‘a parvo aylasa,  
Har ko‘ngul hamkim sening shavqungni paydo aylasa.*

Bu muxammas hazrat Alisher Navoiy “Xazoyin ul-ma‘oniy” kulliyotining birinchi bo‘limi bo‘lmish “G‘aroyib us-sig‘ar”dagi yigirma uchinchi “aylasa” radifli g‘azalga bog‘langan. Jumladan, Alisher Navoiyning ushbu g‘azali 10 baytdan tarkib topgan bo‘lib, u quyidagicha boshlanadi:

*Ko‘nglum o‘rtansun agar g‘ayringg‘a parvo aylasa,  
Har ko‘ngul hamkim sening shavqungni paydo aylasa.*

Tabibiyning muxammasi ham o‘n banddan tarkib topgan bo‘lib, bu she‘r quyidagi band bilan yakunlanadi:

*Charxdin bir dam Tabibiy g‘ofil o‘lma nechakim,  
G‘uncha yanglig‘ ko‘rguzub ushshoqg‘a vaslichakim,  
Goh guldek barq ofat birla so‘lg‘unchakim  
Dahr sho‘xig‘a, Navoiy, sayd bo‘lma nechakim,  
Kun uzori uzra tun zulfin mutarro aylasa.*

Ta‘kidlash kerakki, ayrim mumtoz shoirlar ijodida o‘xshatma tarzida yozilgan she‘rlar vazni o‘zgargan yoki taxmis bog‘langan she‘rlar o‘sha g‘azal baytlariga to‘liq yozilmasligi kuzatiladi. Ammo Ahmad Tabibiyning hazrat Navoiy g‘azallariga yozgan o‘xshatmalari, g‘azallariga bog‘lagan muxammaslarida vazn, qofiya va baytlarga to‘liq javob yozilgan holatda keladi.

Ahmad Tabibiy “Munisu-l-ushshoq” devonidagi to‘rtinchi muxammas “G‘aroyib us-sig‘ar”dagi:

*Ko‘zung ne balo qaro bo‘luptur  
Kim, jong‘a qaro balo bo‘luptur - deb boshlanuvchi  
“bo‘luptur” radifli g‘azalga yozilgan. Ushbu muxammas ham*

Navoiy g‘azali kabi yetti banddan iborat bo‘lib, uning birinchi bandi quyidagi misralar bilan boshlanadi:

*O‘qung yuragimda jo bo‘lubdur,  
Ul vajhdin ul yaro bo‘lubdur,  
Chekmak manga ish jafu bo‘lubdur,  
Ko‘zung ne balo qaro bo‘lubdur,  
Kim, jong‘a qaro balo bo‘lubdur.*

Tabibiyning ushbu devondagi Navoiy g‘azallariga bog‘lagan so‘nggi muxammasi “Favoyid ul-kibar”dagi “kerak” radifli etti baytli g‘azalga yozilgan. Jumladan, Navoiyning ushbu g‘azali:

*Dayr aro mug‘bachadin sog‘ari mastona kerak,  
Nechakim **tutsa ani** to‘ldurubon, yona kerak, – matla’i bilan boshlanib:*

*Kim Navoiy kibi bu dayr aro tutsa vatan,  
Hushu zuhdu xiradu din ila begona kerak, – maqta’i bilan yakunlansa, Tabibiy muxammasi esa:*

*Borho oshiqizor uylaki parvona kerak,  
Kulfatu mehnat ila hamdamu hamxona kerak,  
Gar desangkim meni maxmurg‘a, oyo, na kerak,  
Dayr aro mug‘bachadin sog‘ari mastona kerak,  
Nechakim **to‘ldurubon** tutsa oni yona kerak, - tarzida boshlanadi. Tabibiy muxammasi ham yetti banddan iborat. Faqat Navoiy g‘azalining nashr varianti bilan Tabibiy muxammasi tarkibidagi bir so‘zning o‘rni almashgan.*

Tabibiyning “Hayratu-l-ushshoq” devonida ham shoirning Navoiy g‘azallariga bog‘lagan muxammas va musaddaslari ko‘chirilgan. Jumladan, “Hayratu-l-ushshoq” devonidagi Navoiy g‘azallariga bog‘langan birinchi muxammas “*muxammas g‘azali Navoiy*” degan sarlavha bilan keladi. Bu she‘r “Navodir un-nihoya”dagi yetti baytli:

*Ey mug‘anniy, chun nihon rozim bilursen soz tuz,  
Tortibon munlug‘ navo sozing bila ovoz tuz, – matla’i bilan boshlanuvchi g‘azalga yozilgan muxammasdir. Tabibiyning ushbu g‘azalga yozgan muxammasi ham yetti banddan iborat bo‘lib, u quyidagi band bilan boshlanadi:*

*Mutribo majlisda emdi nag‘mai mumtoz tuz,  
Gah Rahoviyyu Iroq, gahi Chapandoz tuz,*

*Xoh tuzgil nag 'mai itnob, xoh ijoz tuz,  
Ey mug 'anniy, chun nihon rozim bilursen soz tuz,  
Tortibon munglug 'navo sozing bila ovoz tuz.*

Ma'lumki, ramali musammani maqsur mumtoz adabiyotda eng ko'p qo'llangan vaznlardan biridir. "Xazoyin ul-maoniy"dagi 2600 ta g'azaldan 334 tasi shu vaznda yozilgani qayd etiladi<sup>188</sup>. Tabibiy muxammasi ham Navoiy g'azali yozilgan aruzning *ramali musammani maqsur (foilotun, foilotun, foilotun, foilon)* vaznida yozilgan bo'lib, bu muxammas:

*Ki Tabibiydek chekar ohi fig 'on munglig 'ko 'ngul,  
Begumon bo 'lg 'usi rasvoi jahon munglig 'ko 'ngul,  
Nogahon dildoridin topsa nishon munglig 'ko 'ngul,  
Bazm aro o 'rtar Navoiyni nihon munglug 'ko 'ngul,  
Ey mug 'anniy, chun nihon rozim bilursen soz tuz – tarzida yakunlanadi.*

Devondagi Navoiy g'azaliga yozilgan ikkinchi taxmis ham sarlavhalangan ("muxammasi g'azali Navoiy"). Bu muxammas ham "Navodir un-nihoya"dagi 266-g'azalga yozilgan. Jumladan, Navoiyning bu g'azali ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan:

*Do 'stlar, olam eliga yoru hamdam bo 'lmangiz.  
Yor ila hamdam demaykim, oshno ham bo 'lmangiz - matla'i bilan boshlanib:*

*Gar Navoiy hajr aro bo 'ldi zalil, ey ahli vasl,  
Emdi navbat sizgadur, muncha muazzam bo 'lmangiz - maqta'i bilan tugallanuvchi to'qqiz baytli g'azaldir. Ushbu g'azalga yozilgan Tabibiy muxammasining birinchi bandi esa:*

*Zinhor el g 'urbatin topib mukarram bo 'lmangiz,  
So 'ng ko 'rub zillat alardin asru mulzam bo 'lmangiz,  
Tortibon mehnatlarini rohati kam bo 'lmangiz,  
Do 'stlar, olam eliga yoru hamdam bo 'lmangiz,  
Yor ila hamdam demaykim, oshno ham bo 'lmangiz – tarzida boshlanib:*

*Ishq aro chun bor Tabibiydek asil, ey ahli vasl,  
G'am emas, g'am shomi bo 'lsa ham tavil, ey ahli vasl,  
Sabr bo 'lg 'usi anga oxir dalil, ey ahli vasl,*

---

<sup>188</sup> Hojiahmedov A. Aruz nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 48.

*Gar Navoiy hajr aro bo'ldi zalil, ey ahli vasl,*

*Emdi navbat sizgadur, muncha muazzam bo'lmangiz - tarzida yakunlanadi.* Ma'lumki, Navoiyning bu g'azali aruzning *ramali musammani mahzuf (foilotun, foilotun, foilotun, foilun)* vaznida yozilgan. Ramal bahrining bu vaznida yozilgan she'rlar ham mumtoz adabiyotda keng iste'molda bo'lgan. Tabibiy taxmisi ham shu vaznda bitilgan.

“Hayratu-l-ushshoq” devonidagi Navoiy g'azaliga bog'langan uchinchi muxammasga ham “*muxammas g'azali Navoiy*” degan sarlavha qo'yilib, bunda Tabibiy hazrat Navoiyning “hanuz” radifli g'azaliga taxmis bog'lagan. Ushbu she'r quyidagi band bilan boshlanadi:

*Muddai xaylig'a qatlim ittifoqidur hanuz,  
Uylakim ko'nglumda hijron ihtiroqidur hanuz,  
Ko'ksuna kirguvchi zulmining pichoqidur hanuz,  
Yor mehri o'zga bo'ldi menda boqi(y)dur hanuz,  
Notavon ko'nglumda ul oy ishtiyoqidur hanuz.*

Aruzga oid nazariy tadqiqotlarda, bu vazndagi she'rlarda qofiyalanuvchi misralari ramali musammani maqsur vaznida bo'lishi shartligi, qolgan misralar ko'p hollarda ramali musammani mahzuf vaznida kelishi ta'kidlanadi<sup>189</sup>. Yetti baytli ushbu g'azalga Tabibiy ham shu hajmda taxmis bog'lagan. Tabibiyning ushbu muxammasi ham Navoiy g'azali yozilgan aruzning *ramali musammani maqsur* vaznida bo'lib, bu she'r quyidagi band bilan yakunlanadi:

*To Tabibiydek ul oyning ishqig'a bo'ldim duchor,  
Chekkamen tinmay dame hasrat bila afg'onzor,  
Bu sifat holimni ko'rgan birla ham laylu nahor,  
Ey Navoiy, garchi meni mehrsiz der erdi yor,  
O'zga bo'ldi yoru mehri menda boqiydur hanuz.*

Ahmad Tabibiy “Hayratu-l-ushshoq” devonidagi keyingi muxammas “Badoye' ul-vasat”dagi:

*Ulki solg'ay shu'la a'zosig'a o'tlig'ohlar,  
Qayda bilgay kuymakin zarboft kiygan shohlar - deb*  
boshlanuvchi g'azalga yozilgan. Jumladan, ushbu muxammas:

---

<sup>189</sup> Hojiahmedov A. Aruz nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B.47.



*Bilmagay himmat rusumin har nazar ko'tohlar,  
Aylakim ishq emas majmu'i chehragohlar,  
Lek mundoq nuktaog'oz aytdilar ogohlar,  
Ulki solg'ay shu'la a'zosig'a o'tlig'ohlar,  
Qayda bilgay kuymakin zarboft kiygan shohlar – bandi bilan*  
boshlanib:

*Komron el xotirida benavolar fikri yo'q,  
Dardsizlarga atibbo davolar fikri yo'q,  
Aqldin begonalarga oshnolar fikri yo'q,  
Ey Navoiy, shohlarga chun gadolar fikri yo'q,  
Aylagil ham tangri dargahiga shay an lil-lohlar - tarzida*  
yakunlanadi. Tabibiyning mazkur devonidagi beshinchi muxammasi Navoiyning “*Ishq jurmig'a meni, ey do'stlar, yozg'urmangiz, Begunah men xud kuyarmen, siz dag'i kuydur mangiz*” matla'i bilan boshlanadigan g'azaliga yozilgan. Tabibiyning taxmisi quyidagi band bilan boshlanadi:

*Ta'na tiyg'ini dilu jonimg'a har dam urmangiz,  
Ohu fig'onim o'tini charxdin oshurmangiz,  
Hajr ranji ustiga kulfat manga yeturmangiz,  
Ishq jurmig'a mani, ey do'stlar yozg'urmangiz,  
Begunah men xud kuyarman, siz dag'i kuydur mangiz.*

Bu she'r aruzning ramali musammani mahzuf vaznida bo'lib:

*Har kishining bor esa ganji malomat maskani,  
Bo'lg'usidur doim el ta'nini chekmaklik fani,  
Aylab asbobi alam birla Tabibiyning g'ani,  
Ishq olamidin surub soldi Navoiydek, mani  
Kuyiga, ey ishq ahli, siz ham ondin surmangiz.*

“Hayratu-l-ushshoq” devonidagi Navoiy g'azaliga yozilgan Tabibiyning navbatdagi oltinchi muxammasi “*Meni ushshoq jonbozi qatoridan hisob aylab*” misrasi bilan boshlanadi. Shoirning bu taxmisi “Navodir un-nihoya”dagi Navoiyning “*Tun oqshom keldi kulbam sari ul gulrux shitob aylab, Xiromi sur'atidin gul uza xo'ydin gulob aylab*” bayti bilan boshlanadigan g'azaliga bitilgan.

Devondagi Navoiyning to'qqiz baytli g'azaliga yozilgan Tabibiyning yettinchi muxammasi:

*Husni yanglig' bo'lmag'usidur jahon oro quyosh,  
Hosil etmay buyla faton ko'z ila qosh to quyosh,*

*Emdi tong yo 'q g 'arq xijolat bo 'lsa sar to po quyosh,  
Shomkim tun pardasida ayladi ixfo quyosh,*

*Parada olib yuzdin ul oy ayladi ifsho quyosh* - bandi bilan boshlanadi. Tabibiy muxammasi ham to'qqiz banddan iborat. Faqat Tabibiy muxammasi tarkibidagi Navoiyga tegishli "*pardasida ayladi*" birikmasi Navoiy g'azalining nashr variantida "*pardasidin istadi*" tarzida berilgan. Bu she'r aruzning ramali musammani maqsur vaznida yozilgan bo'lib, quyidagi band bilan yakunlanadi:

*To Tabibiydek manga uchrashi bir ruxsori mah,  
Boshim o 'lmushur tunu kun ko 'yi uzra hoki rah,  
Aylagan chog 'da tasavvuf mandin orom gah,  
Bil, Navoiykim, tafovutdur quyoshdin oyg 'acha,  
Aylasang nazzora ul oy orazidin to quyosh.*

Tabibiy "Hayratu-l-ushshoq" devonida Navoiy g'azaliga yozilgan yana ikkita muxammas bo'lib, sakkizinchi muxammas "*Kelib husni malohat ichra ul oy xo 'b a 'losi, Hamisha ishq eli boshidadur ishq malolosi, Olib jon xalq jismidan nigoh chashmi shahlosi, O 'lukka jon berur chun nukta aytur la 'li guesi, Masiho mimidin go 'yo chiqar jonbaxsh anfosi*" bandi bilan boshlanadi. Ko'rinadiki, Tabibiyning ushbu she'ri Navoiyning hazaji musammani solim vaznida yozilgan "*O 'lukka jon berur chun nukta aytur la 'li guesi, Masiho mimidin go 'yo chiqar jonbaxsh anfosi*" matla'i bilan boshlanadigan g'azaliga taxmis sifatida bitilgan. Navoiyning:

*Har gadokim, bo 'ryoyi faqr erur kisvat anga,*

*Saltanat zarbaftidin hojat emas xil 'at anga* - matla'si bilan boshlanadigan ramali musammani mahzuf vaznidagi g'azaliga yozilgan Tabibiyning to'qqizinchi muxammasi:

*Odamikim gar tavakkul bor esa odat anga,  
Ikki olam ichra ham yetgusidur rohat anga,  
Kimga himmatlig ' esa bo 'lg 'usi amniyat anga,  
Har gadokim, bo 'ryoyi faqr erur kisvat anga,*

*Saltanat zarbaftidin hojat emas xil 'at anga* - bandi bilan boshlanib, quyidagicha yakunlanadi:

*Iltifoti shah bila hosil qilib ayshu tarab,  
Jomi ishratni Tabibiydek ichib ham labbalab,  
Buyla holatg 'a yetushgach shavq birla ro 'zi shab,*

*Gar Navoiy so‘z uzatti, faqrdin ermas demang ajab,  
Bo‘l mag‘uncha hukm shahdin, qayda bu jur‘at anga?*

Ko‘plab zamondosh ijodkorlar singari Ahmad Tabibiy ham buyuk mutafakkir Muhammad Rizo Ogahiyning o‘zining ma‘naviy ustozini deb bilgan, uning ijodiga hurmat bilan qaragan, undan ta’sirlangan. Ahmad Tabibiy ijodiy merosi tadqiqida, uning Ogahiy ijodiga ixlosmand bo‘lgani yaqqol ko‘rinadi. Bu hol, ayniqsa, Tabibiy devonlarining tuzilishida, o‘xshash janrlardagi lirik asarlarning ijod etilishida yorqin namoyon bo‘ladi. Tabibiy she‘riyatini ham shaklan, ham mazmunan Ogahiy lirikasiga yaqin turadi. Bu o‘z navbatida, uning buyuk mutafakkir shoir Ogahiy she‘riyatining takrorini anglatmaydi. Zero, Tabibiy ham ijodda Ogahiy singari deyarli barcha janrlarda qalam tebratgan va buni muvaffaqiyatli uddalagan.

Tabibiyning Ogahiy g‘azallariga bog‘lagan muxammas she‘rlari shoirning “Hayratu-l-ushshoq” devonidan ham o‘rin olgan. Aynan Tabibiyning ikkinchi turkiy devonidagi birinchi muxammas ham Ogahiy g‘azaliga yozilgan. Shoirning birinchi devonida bo‘lmish “Munisu-l-ushshoq” devonidagi birinchi muxammas ham Ogahiy “Ta‘vizu-l-oshiqin” devoni nashr nusxasida “*Ayshu tarab paydo*”<sup>190</sup> deb sarlavhalangan:

*Zihi jonlarg‘a vasling shavqidin ayshu tarab paydo,  
Gahi dardu firoqing xavfidin ranji ta‘b paydo,-*  
matla‘i bilan boshlanib:

*Ne tong ogoh bo‘lsa Ogahiy ishqing siridinkim,  
Anga behuda ermas osmondin bu laqab paydo,-*  
maqta‘i bilan tugaydigan 9 baytli ilk g‘azalga bog‘langan<sup>191</sup>. Tabibiyning “Hayratu-l-ushshoq” devonidagi ilk muxammasi Ogahiyning:

*Ey joni g‘amgin mujdakim, bu kecha jononing kelur,  
G‘uncha dahonu gulbadan sarvi xiromoning kelur*<sup>192</sup>, -  
matla‘li g‘azalga bog‘langan. Ma‘lumki, ushbu lirik asar Ogahiy badiiy mahoratining yuksak namunasi hisoblanadi. Zulqofiyatayn

<sup>190</sup> Огахий. Асарлар. 6 жилдлик. 1 жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1971. – Б. 51.

<sup>191</sup> Бу haqda qarang. Амонов Ш. Огахий – шоир, муаррих, таржимон (илмий-назарий анжуман материаллари). – Урганч. 2019. 16-17 декабр. – Б. 128-132.

<sup>192</sup> Огахий. Асарлар. 6 жилдлик. 1 жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1971. – Б. 187.

usulidagi bu g‘azal aruzning rajazi musammani solim (*mustaf’ilun, mustaf’ilun, mustaf’ilun, mustaf’ilun*) vaznida yozilgan. Tabibiy muxammasining birinchi bandi:

*Puru nur bo‘l, ey tiyra ko‘z, xurshidi ruxsoring kelur,  
Xursand bo‘l, ey xasta dil, darding‘a darmoning kelur,  
Ey jism, top osudalig‘ sho‘xi suxandoning kelur,  
Ey joni g‘amgin mujdakim, bu kecha jononing kelur,  
G‘uncha dahonu gulbadan sarvi xiromoning kelur,* - deb boshlanadi.

Ogahiy g‘azali 9 bayt bo‘lgani holda, Tabibiyning ushbu muxammasi hajmi 7 bandni tashkil etadi. Negadir, Tabibiy Ogahiy g‘azalining ikkinchi va yettinchi baytlariga javob yozmagan. Bundan tashqari, devondagi Ogahiy g‘azaliga yozilgan yana bir muxammas:

*Har kimsa ko‘rsa shavq ila bir yo‘l musaffo orazing,  
Qilg‘usi ishqingda oni, albatta, shaydo orazing,  
Husningg‘a aylab tozadin xo‘blig‘ huvaydo orazing,  
Jonbaxsh la‘ling uzra to xat qildi paydo orazing,  
Jam‘ ayladi xurshid uza Xizru Masiho orazing,* - tarzida boshlanadi. Bu muxammas Ogahiyning:

*Jonbaxsh la‘ling uzra to xat qildi paydo orazing,  
Jam‘ ayladi xurshid uza Xizru Masiho orazing*<sup>193</sup>, - matla‘i bilan boshlanuvchi 9 baytli g‘azaliga yozilgan. Bu muxammaslar ishqiy mavzuda yozilgan bo‘lib, negadir, Ogahiyning ushbu g‘azalining ham etti baytiga Tabibiy muxammas bog‘lagan.

Yana bir e‘tiborga molik jihat, Ogahiy g‘azallari nashr varianti bilan Tabibiy muxammasi matni qiyoslanganda, ular orasida ayrim matniy tafovutlar kuzatildi. Bu tafovutlar so‘zlar tarkibining o‘zgarishi va ayrim so‘zlarning o‘zgachaligi bilan bog‘liq. Bundan, Ogahiy lirik asarlarining asliyat va nashr variantlarini ham matnshunoslik nuqtayi nazaridan amalga oshirish kerakdir, degan mulohazaga kelish mumkin.

XIX asr oxiri – XX asr boshlari adabiy muhitlar orasida adabiy hamkorlik yuqori darajaga ko‘tarilgan. Bu davr shoirlari ijodida

---

<sup>193</sup> Огаҳий. Асарлар. 6 жилдлик. 1 жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1971. – Б. 295.

adabiy ta'sir masalasi yaqqol sezilib turadi. Bu holni Qo'qon va Xiva adabiy muhiti vakillari ijodida ham kuzatish mumkin.

Ta'kidlanganidek, Ahmad Tabibiyning "Munisu-l-ushshoq" devonida 53 ta, "Hayratu-l-ushshoq" devonida esa 114 ta, "Tuhfatu-s-sulton" 140 ta muxammas she'ri bo'lib, ularning ayrimlari XIX asr birinchi yari Qo'qon adabiy muhitida yashab, ijod etgan shoirlarning g'azallariga bog'langan. Ma'lumki, Fazliy tomonidan tuzilgan tazkirada bir mutassa' she'r bo'lib, u:

*Durdkashlarmiz, erur paymonaga paymonamiz;  
Boda nobidin mudom obod erur vayronamiz;  
Roygondur ayshimiz, soqiy o'la mehmonimiz;  
Jonimiz jononimiz, jononimizdur jonimiz;  
Borchadin ortuq xarobot ichra izzu shonimiz;  
Shoh lutfidin etar sarmoyai somonimiz;  
Sham'dek har anjumanda bu erur burhonimiz;  
Shoh bizni shohimiz, Sulton bizin sultonimiz;  
Davr bizni davrimiz, davron bizin davronimiz, - tarzida  
boshlanadi<sup>194</sup>.*

Ahmad Tabibiyning "Munisu-l-ushshoq" devonida ham shu mazmundagi bir musabba' she'ri bo'lib, u quyidagi band bilan boshlanadi:

*Ey ko'ngul, doim tuzar rasmi adolat xonimiz,  
Qilg'amiz qurbon onga har dam dil ila jonimiz,  
Kim oni tutsun g'ariqi bazl ila ehsonimiz,  
Qolmadi bir zarra asrida oning armonimiz,  
Fikri ash'or aylabon sidq ila midhat xonimiz,  
Shoh bizning shohimiz, sulton bizing sultonimiz,  
Davr bizning davrimiz, davron bizing davronimiz.*

Demak, Ahmad Tabibiyning ushbu musabba' she'ri Fazliy mutassa'si bitilgan ramali musammani mahzuf (maqsur) – *foilotun, foilotun, foilun* (foilon) vaznida yozilgan.

Tabibiyning "Munisu-l-ushshoq" devonida Navoiy, Fuzuliy, Munis, Ogahiy, Feruz, Sultoniy, Mirzo, Ravnaq, Rojiy, Xayoliy, G'ulomiy, Adliy, Fyuzot, Maoliy, Nadimiy, Balig'o kabi ijodkorlar qatorida Qo'qon adabiy muhiti vakillari bo'lmish Amir (Amiriy) va

---

<sup>194</sup> Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. –Тошкент: O'zbekiston, 2014. – Б. 126.

Xon (Muhammad Alixon) gʻazallariga bogʻlangan uchta muxammas mavjud. Ularning ikkitasi Amir gʻazallariga va bittasi Xon gʻazaliga bogʻlangan.

Ahmad Tabibiy “Munisu-l-ushshoq” devonidagi Amir gʻazaliga bogʻlangan birinchi muxammas quyidagi band bilan boshlanadi:

*Man xastadurman koʻyingiz sahnida bir avboshingiz,  
Balkim hama avboshlar ichra kamin qalloshingiz,  
Ne boʻlgʻay emdi lutfingiz bir kun boʻlub yoʻldoshingiz,  
Kulbam sori gar kelsangiz jon naqdidur podoshingiz,  
Koʻz ashki birla suv sepib mujgon boʻlur farroshingiz.*

Ishqiy mavzudagi mazkur muxammas jami olti band boʻlib, quyidagicha yakunlanadi:

*Tokim Tabibiy zordek koʻrdi jamoli olingiz,  
Ishq ichra Majnundek boʻlub tun-kun parishon holingiz,  
Nazzora qilmoq istabon har dam xat ila xolingiz,  
Ey sarvqadlar sarvari, istar Amir iqbolingiz,  
Boshimgʻa savdo soldingiz boʻlsun salomat boshingiz.*

Tabibiy “Munisu-l-ushshoq” devonidagi Amir gʻazaliga yozilgan ikkinchi muxammas, 9 band boʻlib, u:

*Kim sanga ayta olurkim huru gʻilmondur evaz,  
Koʻyiga deb boʻlmagʻay Firdavsi rizvondur evaz,  
Vaslinga topilmoq, ey dilbar, ne imkondur evaz,  
Bazm aro har dam labing maxmurigʻa qondur evaz,  
Kechalar tong otgʻuncha xunobi hijrondur evaz, - bandi bilan boshlanib:*

*To shuoyi orazing qildi jahon mulkin munir,  
Ayladi jahd ishqing ichra boʻlgʻali mehnat pazir,  
Chun Tabibiydek boʻlub jonu dili gʻamgʻa asir,  
Kokuling savdosida jamʻiyat istaydur Amir,  
Xotiri oshuftavu tabʻi parishondur evaz, - tarzida yakunlangan.*

Tabibiy devonidagi Xon gʻazaliga bogʻlangan muxammas:

*Mani oyru etib ul sarvi xiromonimdin,  
Qumrini munfail aylab dili nolonimdin,  
Hazar etmay nafase nolavu afgʻonimdin,  
Ohkim doʻkdi falak qonimi mijgonimdin,  
Qilmadi bok damodam doʻkulon qonimdin, - deb boshlanadi.*

Ushbu muxammas toʻqqiz banddan tarkib topgan boʻlib, u:

*Ey Tabibiy, ichibon boda ko 'ngil shod edaram,  
Ki xayoli bila g'amdin o 'zim ozod edaram,  
Nazm fikrini qayu vaqtiki, bunyod edaram,  
Xon kibi mohvashim sham 'i ruxin yod edaram,  
Yonajakdur falak ohi dili so 'zonimdin, - tarzida tugaydi.*

Amiriy g'azali ifoda usuli ham g'azal tarkibidagi so'zlar ham tushunarli, o'sha davr adabiy tiliga xos, biroq Xon g'azali negadir, o'g'uz lahjasiga xos uslubda bitilgani bilan taajjub uyg'otadi.

“Hayratu-l-ushshoq” devonida shoirning Vazir, G'oziy, Mushrif, Oshiq, Ado, Hoziq, Fazliy, Nola, Afsus, Amiriy kabi Qo'qon adabiy muhiti vakillari g'azallariga yozgan muxammaslari kiritilgan. Tabibiy mazkur devonida Vazirning:

*La'ling orzusida ko 'zlarim to 'kub qonlar,  
Bo'ldi shox marjondek hasratda marjonlar, - deb*

boshlanuvchi 7 baytli g'azaliga, G'oziyning esa:

*Ko 'ngul ko 'rgoch yuzungni mayli gulzororam qilmas,  
Ne gulzororam yodi guli Firdavs ham qilmas, - tarzida*

boshlanuvchi 7 baytli g'azallariga muxammas bog'lagan. Mushrif g'azaliga bog'langan Tabibiy muxammasi devonning 170<sup>b</sup>-sahifasida ko'chirilgan bo'lib, u quyidagi band bilan boshlanadi:

*Ko 'rmangiz tong o 'lmakim jodu ayyorin ko 'rung,  
Ne ajab jon toza topsam shahdi guftorin ko 'rung,  
Holima qilmay tamasxur husni ruxsarin ko 'rung,  
Ey ko 'zum mardumlar, oyina asrorin ko 'rung,  
Hasrat aylang ixtiyor yor diydorin ko 'rung.*

Tabibiyning navbatdagi muxammasi 7 banddan iborat bo'lib, u Oshiqning:

*Mani Oshiqni bas pinhon g'ami hijroning o 'lturdi,  
Visol ichra tarahhum aylagilkim oshkor o 'ltur, - deb*

yakunlanadigan g'azaliga bog'langan. Keyingi muxammas she'r qo'lyozmaning 172<sup>a</sup>-sahifasida keladigan Adoning:

*Ko 'rsun ul nur allida zulfi parishon o 'ynamoq,  
Ulki hargiz ko 'rmamish kufr ila iymon o 'ynamoq, – deya*

boshlanuvchi g'azaliga, undan keyingisi Hoziqning “etmas” radifli g'azaliga taxmis qilingan.

Devonning 172<sup>a</sup>-sahifasida Tabibiyning Fazliyning “hanuz” radifli g‘azaliga yozgan muxammasi ko‘chirilgan bo‘lib, u quyidagi band bilan boshlanadi:

*Rahm qilkim firoqingda zoru giryonman hanuz,  
Ro‘zu shab tinmay ishi faryodu afg‘onman hanuz,  
Lek bu nukta bila doim xush alxonman hanuz,  
Shom sen birla may ichsam subh xandonman hanuz,  
Subhu shom furqat o‘ldi masti hayronman hanuz.*

Devonning 173<sup>b</sup>-sahifasida Nolaning “tamosho qil” radifli g‘azaliga yozilgan Tabibiy muxammasi ko‘chirilgan bo‘lib, u olti banddan tarkib topgan. *Afsus* g‘azaliga bog‘langan muxammas devonning 174<sup>a</sup>-sahifasidagi:

*Man nechuk bo‘lmay g‘ami ishqingg‘a zoru muftalo,  
Kim bori kimsa saning husningg‘adur angushtxo,  
Bu so‘zimni tinglag‘il, ey mahvash shirinliqo,  
Ey, boshingdin aylanib xurshid, subh ila maso,*

*Dargahing tufrog‘idin kasb etgusi nuri ziyo,* - deb boshlanuvchi taxmis bo‘lsa, keyingisi Xijlat g‘azaliga yozilgan 7 baytli muxammasdir. Mazkur muxammas devonning 174<sup>b</sup>-sahifasida ko‘chirilgan bo‘lib, u quyidagi band bilan boshlanadi:

*Man nechuk bo‘lmay g‘ami ishqingg‘a zoru muftalo,  
Kim bori kimsa saning husningg‘adur angushtxo,  
Bu so‘zimni tinglag‘il, ey mahvash shirinliqo,  
Ey, boshingdin aylanib xurshid, subh ila maso,  
Dargahing tufrog‘idin kasb etgusi nuri ziyo.*

Tabibiyning mazkur devonida Qo‘qon adabiy muhiti bilan bog‘liq so‘nggi muxammasi Amariy g‘azaliga bog‘langan bo‘lib, ushbu muxammas devonning 156<sup>b</sup> va 157<sup>a</sup>-sahifalari hoshiyasida ko‘chirilgan. Tabibiyning mazkur muxammas she‘ri jami 6 band bo‘lib, u:

*Tushub ishq ichra ahvolimg‘a hayrondurman, ey soqiy,  
Tunu kun muftaloyi dardi hijrondurman, ey soqiy,  
Bukun mayxona sorig‘a shitobondurman, ey soqiy,  
Qo‘limda sog‘ari sarshor giryondurman, ey soqiy,  
Xumoru oludai ul la‘li xandondurman, ey soqiy,* - tarzida

boshlanadi. E‘tibor berilsa, Ahmad Tabibiyning Qo‘qon adabiy muhiti vakillari g‘azallariga yozilgan muxammaslari tartib bilan



ketma-ket ko‘chirilgan. Qolaversa, yuqorida nomlari qayd etilgan Qo‘qon muhiti vakillari Fazliyning tazkirasida ham tilga olinadi, ijod namunalari Fazliyning tazkirasidan ham o‘rin olgan. Bundan ayon bo‘ladiki, Ahmad Tabibiy ham o‘z tazkirasini tartib berishda Fazliy tomonidan tuzilgan “Majmuai shoiron” bilan yaqindan tanish bo‘lgan. Shundan bo‘lsa kerak, shoir o‘zining ko‘plab lirik asarlarini yozishda Qo‘qon muhiti vakillari ijodidan ilhomlangan. So‘z san’atkorlarining ijodiy hamkorlikda qalam tebratishi adabiy muhitlarga xos bo‘lgan xususiyatdir. Tabibiyning Qo‘qon adabiy muhiti vakillari g‘azallariga bog‘lagan yuqoridagi muxammaslari ham ana shunday hamkorlik samarasidir.

**Musaddas.** 3460 raqamli qo‘lyozmaning 193<sup>a</sup>-200<sup>b</sup>-sahifalarida musaddaslar ko‘chirilgan. Devondagi musaddas she‘rlar jami 11 ta bo‘lib, ularning birinchisi Ogahiyning “suvrating” radifli g‘azaliga bog‘langan. Quyidagi jadvalda musaddaslar haqidagi ma’lumotlar keltirilgan:

**7-jadval**

<b>№</b>	<b>G‘azal muallifi</b>	<b>Musaddasning birinchi misrasi</b>	<b>Qo‘lyozma sahifasi</b>
1	Ogahiy	Jono, raqibi shumg‘a ko‘rsatma aslo suvrating	193 <sup>a</sup> -sahifa
2	G‘ulomiy	Olam elini oylamish g‘arqobi hasrat suvrating	193 <sup>b</sup> -sahifa
3	Rojiy	Qilib ko‘b jahd o‘zni muddaiylardin nihon aylab	194 <sup>a</sup> -sahifa
4	Navoiy	Odam ermas ul kishi ishq ichra shaydo bo‘lmasa	195 <sup>b</sup> -sahifa
5	Navoiy	Ushshoqg‘a ruxsoring, ey mahliqo ko‘rsot	196 <sup>b</sup> -sahifa
6	Munis	Ko‘rgan chog‘i bazm ichra san sho‘xi diloni	197 <sup>a</sup> -sahifa
7	O‘z g‘azaliga	Ko‘b vaqtkim, ko‘rmak edi ko‘nglumda armon suvrating	198 <sup>a</sup> -sahifa
8	Feruz	Ag‘yordin topib nihon mani xasta sori yo‘l bukun	198 <sup>b</sup> -sahifa
9	O‘z g‘azaliga	Tobakay go‘shai g‘am ichra iqomat qiloli	199 <sup>a</sup> -sahifada
10	O‘z g‘azaliga	Ohkim, hajr aro ikki ko‘zum giryondur	199 <sup>b</sup> -sahifada
11	O‘z g‘azaliga	Avval ul sho‘xni ruxsori safosini ko‘rung	200 <sup>a</sup> -sahifa

**Musamman.** Qo‘lyozmaning 200<sup>b</sup>-205<sup>b</sup>-sahifalarida shoirning *musamman* she‘rlari ko‘chirilgan. Musammanlar jami 5 ta bo‘lib, uning dastlabkisi:

*Zoli falakka suvratan dilbari xushnamo erur,  
Lek nazora aylasang siyrati behayo erur.  
Har kim esa muhib ongo baxti oning qaro erur,  
Negaki zulmidin oning zor shahu gado erur.  
Borchag‘a odati oning javr bila jafo erur,  
Gar sango hush ila xirad rahbaru rahnamo erur.  
Qo‘yma, ko‘ngulki bu jahon qasri alamsaro erur,  
Onda nekim ayon erur, jumlası bebaqo erur, - bandi bilan  
boshlanadi.*

**Tarje‘band.** Devonning 205<sup>b</sup>-213<sup>b</sup>-sahifalari orasida shoirning 5 ta tarje‘band she‘ri kiritilgan. Ahmad Tabibiy ijodiy merosida tarje‘band she‘rlar alohida o‘rin tutadi. Shoir o‘zining chuqur mazmun va badiiy jihatdan yuksak tarje‘bandlari bilan mumtoz adabiyotda mazkur janr rivojiga munosib hissa qo‘shgan. Ma‘lumki, tarje‘band bitish shoirdan yuqori badiiy mahorat, jiddiy tayyorgarlikni talab etadi. Xususan, Taroziyning “Fununu-l-balog‘a” asarida ham tarje‘bandga quyidagicha ta‘rif beriladi:

“Tarje‘ ul bo‘lurkim, she‘re ayturlar, band-band barchasi bir bahrda, har bandning ozi besh bayt bo‘lur va ko‘pi to‘qquz bayt va har birining oxirında bir o‘zga baytni takror qilurlar... Ul baytni tarje‘ derlar”<sup>195</sup>. “Navoiy asarlari lug‘ati”da esa tarje‘band quyidagicha izohlangan: “Tarje‘ (arabcha) – qaytarish, takrorlash; tarje‘band – she‘rda bandning takrorlanishi (bunda shoir vazni bir, qofiyasi turlicha bo‘lgan bir necha band she‘rning har bandi orasida ma‘lum bir baytni takrorlab boradi; takrorlangan bayt har band oxiridagi bayt bilan bog‘lanib borishi shart)”<sup>196</sup>.

Tarje‘bandda odatda ijodkorning falsafiy qarashlari ifoda etiladi. Turkiy adabiyotda tarje‘bandlarning ilk namunalari “Hofiz Xorazmiy ijodida uchraydi. Uning devoniga 3 ta tarje‘band

---

<sup>195</sup> Шайх Ахмад ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға (Масъул муҳаррир Б.Насанов). – Тошкент: Ҳазина, 1996. – Б. 46.

<sup>196</sup> Навоий асарлари луғати (тузувчилар: П.Шамсиев, С.Иброҳимов). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1996, – Б. 596.

kiritilgan”<sup>197</sup>. Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida 4 ta tarje’band bo‘lib, ular har bir devonga bittadan joylashtirilgan<sup>198</sup>. Mumtoz adabiyot vakillari Nodira, Uvaysiy, Muhayyir, Furqat, Ogahiy, Avaz, Ravnaq va boshqa ijodkorlar tomonidan bu janr yanada rivojlantirilgan. Alisher Navoiy tarje’bandlari zamiridagi chuqur falsafiy-tasavvufiy mazmun, mukammal shakliy uyg‘unlik keyingi davr shoirlari uchun ibrat bo‘ldi. Shoirlar imkon qadar an’anani davom ettirish va an’ana ichida yangicha poetik topilmalar qo‘llashga, mazmunni takomillashtirishga intildilar. Ahmad Tabibiy ham ustoz ijodkorlarga ergashib, mazkur janrda barakali ijod qildi. “Hayratu-l-ushshoq” devonida shoirning beshta tarje’band she’ri mavjud bo‘lib, ularning to‘rttasi yetti bandli va bittasi to‘qqiz bandlidir. Tarje’bandlarning jami hajmi 273 bayt (546 misra)ni tashkil qilib, ular 3460 raqamli qo‘lyozma manbaning 407-423-sahifalariga ko‘chirilgan va har bir tarje’bandga raqam, sarlavha qo‘yilgan.

Shayx Ahmad fikriga ko‘ra, tarje’band she’rlar necha banddan tarkib topishi shoirning ixtiyorida bo‘lib, lekin tarje’band she’rda kamida uch band bo‘lmog‘i shart: “...*Va muning bandi muqarrar ermas. Ixtiyor shoirg‘adur. Vale uch banddin o‘ksuk yaxshi kelmas*”<sup>199</sup>.

Ta’kidlash kerakki, shoir adabiy merosi haligacha matnshunoslik va adabiy manbashunoslik aspektida tadqiq etilmagani, shoirning butun boshli devonlari matniy tadqiqi amalga oshirilmagani bois, ilmiy jamoatchilik Tabibiy lirik merosi haqida aniq tasavvurga ega emas. Shunga ko‘ra, Tabibiy tarje’bandlari matni ilk bora aslyatdan tabdil etilib, ularning birinchi va oxirgi bandlari tahlilga tortildi.

Shoir tarje’bandlari tasavvufiy, ma’rifiy-axloqiy mazmunda. Tabibiy tarje’bandining dastlabkisi quyidagi mazmunda bo‘lib, u:

*Xumor ichra kulfat chekib beshumor,  
Qilib har nafas necha faryodi zor.  
Tanimda g‘am o‘qi bila ko‘b yaro,  
Bo‘lib xotirimda base xor-xor.*

---

<sup>197</sup> Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – B. 354.

<sup>198</sup> O‘sha joyda.

<sup>199</sup> Шайх Ахмад ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға (Масъул муҳаррир Б.Ҳасанов). – Тошкент: Ҳазина, 1996. – Б. 53.

*Ko 'zimdin ketub nur birla ziyo,  
Ko 'nglumdin borib aylakim ixtiyor.  
Gahi har taraf bemisl javlon etib,  
Gahikim bo 'lub yo 'l uzra xoksor.  
Qilib tark nomusi nang ila nom,  
Bo 'lub jumla xalq ichra majnun shior.  
Bu holatda baxtim bo 'lub yovarim,  
Qila olg 'ali lahza daf' i xumor.  
**Vatan ayladim kunji mayxonani,  
Ketur, soqiyo, to 'lo paymonani** - bandi bilan boshlanib:*

*Bo 'lub g 'olib ishq ichra savdo mango,  
Erur vasli doim tamanno mango.  
Necha kunki, bir sho 'x hijronidin,  
Ko 'ngul volau ruh shaydo mango.  
Aningdek qotig 'dur aning ko 'nglikim,  
Tarahhum ayon etmas aslo mango.  
Yutarman tun-kun alam zahrini,  
Itob etdi og 'oz ul oy mango.  
Tabibim agar chand ro 'zi erur,  
Vale lutfi ermas mudovo mango.  
Baharhol shod o 'lmoq istab mudom,  
Bo 'lub yuz tuman shavq paydo mango.  
**Vatan ayladim kunji mayxonani,  
Ketur, soqiyo, to 'lo paymonani** - tarzida yakunlanadi.*

Aruzning mutaqoribi musammani mahzuf (maqsur) vazni (V - / V - - / V - - / V -)da yozilgan ushbu tarje'band to'qqiz band 126 misradan tarkib topgan. Tarje'band mazmuniga ko'ra lirik qahramonning ishq shiddatida kechgan bezovta holati, yordan yetgan ozorlar, natijada berahm yor jafosi tufayli o'z ko'nglini mayxona sari burishi va soqiydan may talab qilishi ma'nosini ifodalab keladi. Tarje'bandda shaklan har bir bandda mazmun yangidan boshlanib, davom etib, soqiyga murojaat bilan xotimalanadi.

Tabibiy qalamiga mansub ikkinchi tarje'band ham yuqoridagi tarje'bandga hamohang mazmunda bo'lib, u quyidagicha boshlanadi:

*Ketur, soqiy, qadahkim dahr aro fasli bahor o'ldi,  
 Safou nazhat ichra yer yuzi jannat shior o'ldi.  
 Qilib yuz noz birla jilvalar sarvu dilorolar,  
 Oni ko'rgach qumorining ishi faryodu zor o'ldi.  
 Ochilmish ko'b tarovatlari bila gulshan chaman ichra,  
 Anodilning fig'oni shavq birla beshumor o'ldi.  
 Bo'lub labrez barcha havzlar sofi zilol ila,  
 Ulus komig'a Kavsardek va lekin xushkvor o'ldi.  
 Ko'ngulni qilg'ali xurram nishoti haz qilib zohir,  
 Olib havz uzra borcha aysh ahlig'i qaror o'ldi.  
 G'araz altofi Xoliq tozadin bu yil jahon ichra,  
 Aoliy to asofil jumla elga oshkor o'ldi.  
**Ochildi g'uncha tumoriyu ma'lum o'ldi mazmuni,  
 Budurkim favt qilmang mavsumi gul jom gulguni.***

Aruzning hazaji musammani solim (V - - - / V - - - / V - - - / V - - -) vaznida yozilgan. Tarje'band soqiyga murojaat bilan boshlanadi. Misralarda ifodalanayotgan bahor tasviri oshiqning shaxsiy holati, kechinmalari bilan bog'lanib borgan. Bahor faslida yer yuzini yashillik qopladi va jannat misol qiyofaga kirdi, sarvqomat dilorolarning nozu tamannosidan qumrilar faryod qildi, deya tabiatdagi ranglar, holatlardagi ko'tarinkilik oshiqning holatiga muvofiq tasvirlangan. Oxirgi misralarda takrorlanib keluvchi vosila misralarda gulning tumordek tugilib g'unchalaganini aytar ekan, shoir bu gul g'uncha ochilishi bilan sirlari – mazmuni ma'lum bo'ldi, ta'na qilmangki, zero, bu bahor mavsumida gulning g'unchalashi jom kabi ilohiyot manbaini o'zida saqlab yig'ayotgan gulga o'xshaydi, deya ta'riflaydi. Butun sirni, dardini bag'rida saqlagan g'unchani ochilishi ishqni qalbida saqlagan oshiqning ishq tug'yoni elga oshkor bo'lganiga o'xshaydi. 98 misradan iborat tarje'bandning har bir bandi yaxlit o'z boshlanmasi, ta'rif-tavsif va takrorlanib keluvchi xotimasiga ega. Dastlabki banddagi badiiy tasvir ohangi, tadrijiy mazmun barcha bandlarning izchilligini ta'minlagan. Band oxiriga qarab lirik qahramonning maqsadi oydinlashib boradi va quyidagicha yakunlanadi:

*Ketur, soqiy, qadahkim huznima yo'qdur haddi poyon,  
 Chekarman kasrati mahzunlig' ila ro'zu shab afg'on.  
 Qachong'a tegru tortarman balou ranj gardundin,*

*Bo 'lub ofoq aro, ey do 'stlar, har yong 'a sargardon.  
 Tilarman emdi tark nomi nang etsam jahon ichra,  
 Ki shoyad ushbu pasha birla topsam muhabbati jonon.  
 Xususankim qilurg 'a no 'sh ishrat jomidin boda,  
 Munosib bilgaliq borcha odamlarg 'a bu ovon.  
 Tabibi hoziq o 'lmish dofe 'i amroz uchun yaksar,  
 Nasimi ruhparvarlar esib gulshan aro har yon.  
 G 'araz har vajah birla mushkuloti g 'ussai g 'amni,  
 Qilurg 'a fayzni andoza birla sar-basar oson.  
**Ochildi g 'uncha tumoriyu ma 'lum o 'ldi mazmuni,  
 Budurkim favt qilmang mavsumi gul jom gulguni.***

Mazkur tarje'band *ruhinga parvarish beruvchilar gulshanda esayotgan nasim kabi ko 'nglimdagi g 'amlarni olib ketsalar* tarzidagi vosila baytlar bilan tugallanadi.

“Hayratu-l-ushshoq” devonidagi uchinchi tarje'band she'r ishqiy mavzuda bo'lib, uning birinchi bandi quyidagicha boshlanadi:

*Ey yori sumanbari, gulandom,  
 Xo 'blar oro dilkashi dilorom.  
 Vaslingni tilab jahonda doim,  
 Har sorig 'a urg 'amen yurub gom.  
 Man qon yutaram ming hasrat ila,  
 San g 'ayr ila no 'sh aylasang jom.  
 Ishqingg 'a ne nav' erdi og 'oz,  
 Kim yo 'q anga g 'ayri hajr anjom.  
 Nechun mani rashk o 'tig 'a yoqg 'ung,  
 Ag 'yorg 'a bo 'sa aylab in 'om.  
 Ne sharh g 'amim sanga birov der,  
 Ne oni o 'zum qilurman e 'lom.  
 Har nav esa ham vale yaqin bil  
 Kim, olam aro saboh ila shom.  
**Ishqing mangadur jalisu hamdam,  
 Andoqki g 'aming anisu mahram.***

Shoirning ushbu tarje'band she'ri yetti band, har bandi 18 misra (jami 126 misra)dan tarkib topgan. U aruzning *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf (maqsur)* vazni (- - V / V - V - / V - - )da bitilgan. She'rdagi *gulandom, dilorom, gom, jom, anjom,*

*e'lom, shom* kabi soʻzlari oʻzaro qofiyalanib, misralarning shaklan ohangdor boʻlishini taʼminlagan. Oshiqona mazmundagi mazkur band toʻliq yor taʼrifiga bagʻishlangan. Baroati istihloldan iborat muqaddima misralarda yorga murojaat qilinib, tavsiflanadi, soʻngra oshiq yor bilan bogʻliq tarzda oʻz kechinmalariga oʻtib boradi. Tarjeʼband quyidagi band bilan yakunlanadi:

*Ey yori sumanbari, gulandom,  
Xoʻblar oro dilkashi dilorom.  
Vaslingni tilab jahonda doim,  
Har sorigʻa urgʻamen yurub gom.  
Man qon yutaram ming hasrat ila,  
San gʻayr ila noʻsh aylasang jom.  
Ishqinggʻa ne navʻ erdi ogʻoz,  
Kim yoʻq anga gʻayri hajr anjom.  
Nechun mani rashk oʻtigʻa yoqgʻung,  
Agʻyorgʻa boʻsa aylab inʻom.  
Ne sharh gʻamim sanga birov der,  
Ne oni oʻzum qilurman eʻlom.  
Ne mehnatim oʻldikim zamone,  
Ne shafqating oʻldi dafʻ aʻlom.  
Har nav esa ham vale yaqin bil  
Kim, olam aro saboh ila shom.  
**Ishqing mangadur jalisu hamdam,  
Andoqki gʻaming anisu mahram.***

Quyida keltirilayotgan toʻrtinchi tarjeʼbandni shoirning hasbi holi tarzida ham qabul qilish mumkin. Lirik qahramon shoirning oʻzi boʻlib, unda dunyo hoyu-havaslariga aldanmaslik, nafsni tiyish, qalb tozaligi ulugʻlanadi. Shoirning oʻzi bevosita ana shu axloqiy meʼyorlarga rioya etolmaganidan ranjiydi, oʻz holatiga achinadi. Mazkur fikrlar bevosita shoir tilidan aytilgan hasbi holdek koʻrinsada, kitobxonni maʼnaviy poklanishga, achchiq xulosalardan ibrat olishga undaydi. Yangi poetik topilmalar, jummalardagi tugal mazmun sheʼrdagi ohangdorlikni yanada kuchaytirgan. Uning birinchi bandi quyidagicha:

*Vah, netaykim, havasu hirs bila zor oʻldum,  
Ham tamaʻ xanjaridin siynasi afgor oʻldum.*

*Orzui behuda aylab tunu kun siym ila zar,  
 Bir tunganmas alamu g'amg'a giriftor o'ldum.  
 Beshu kam fikrig'a jon boricha sarf aylab umr,  
 O'lgudek ushbu baliyat bila bemor o'ldum.  
 Or-nomus bila maqsadima sharar oh,  
 Aning atrofida man uylaki purkor o'ldum.  
 Dahrning husn ila qubhatig'a mumayyizlik yetib,  
 Bag'ri qon, ishi fig'on, diydasi xunbor o'ldum.  
 Qaytarib rohati dil sorig'a o'zni ahbob,  
 Emdikim borchasidin jon bila bezor o'ldum.  
**No'sh etay, piri mug'onning qadahi sar shorin,  
 Jong'a etdim chekibon hushu xirad ozorin.***

Aruzning ramali musammani maxbuni maqtu' (- V - - / V V - - / V V - - / - -) vaznida yozilgan, yetti band 98 misradan tarkib topgan ushbu tarje'band quyidagicha yakunlanadi:

*Naylayin hajrida jismim aro jon qolmas esa,  
 Sirri ishqim dog'i olamda nihon qolmas esa,  
 Ko'ngluma kulfati dunyo bo'lubon mustavli,  
 Ki tabiat manga nazm ichra ravon qolmas esa,  
 Oshiqikim chekadur man kibi hijron g'amini,  
 Anga ne ayb agar nomu nishon qolmas esa,  
 Hodisa toshi bila jismi jarohatlig' bo'lub,  
 Charxning kulfatidin ko'ngli omon qolmas esa,  
 Yaxshidur har nechuk o'lsa dag'i ishq ahliga,  
 Ishq oyini aro oti yomon qolmas esa,  
 Manga ham yor jafosi bila andoqki, Tabib,  
 Tanu jon ichra agar tobu tovon qolmas esa,  
**No'sh etay, piri mug'onning qadahi sar shorin,  
 Jong'a etdim chekibon hushu xirad ozorin.***

Ko'rinadiki, tarje'bandning so'nggi qismida shoirning yuqoridagi bandlarda ifoda etilgan fikr-mulohazalariga xotima sifatida lirik qahramonning xulosalari aks ettirilgan.

"Hayratu-l-ushshoq"dagi beshinchi, ya'ni so'nggi tarje'band ham falsafiy mazmunda, bo'lib u:



*Falak qasriga bir oliy binodur,  
Nazarg'a suvrati ko 'b dilkushodur,  
Qilur har lahza behad ishrat haz,  
Kishikim onda sohib inzivodur,  
Taammuq birla qilsang gar nazora,  
Ulusg'a ma'dani fayzu safodur,  
Qayu majlisg'akim borsang zamone,  
Hama asbobi hazz beintihodur,  
Aning soqiylari dilbarlig' ila,  
Adou noz behad dilrabodur,  
Vale ne sudkim oxirda ondin,  
Tuman hasrat bila borcha judodur,  
**Jahon mulki erur asru baqosiz,**  
**Nechukkim dahr zolidur vafosiz** - bandi bilan boshlanib:  
Qani Jamshidu Bahromu Faridun,  
Qani Iskandar iqboli maymun,  
Qani hikmatni qilg'onlar musaxxar,  
Arastu birla Sugrotu Falotun,  
Qani Layli bila Shirinu Azro,  
Qani Vomiq bila Farhodu Majnun,  
Qani sohib saxovat Hotami Toy,  
Qani ko 'b mol qilg'on jam' Qorun,  
Qani jumlai rusulning podshohi,  
Qani sohib karomat shayx Zunnun,  
G'araz, ey do'stlar, bilgurgusidur  
Hama ins ila jing'a ushbu mazmun,  
**Jahon mulki erur asru baqosiz,**  
**Nechukkim dahr zolidur vafosiz.***

*Bas emdi, buyla bo'lsa kori dunyo,  
O'zungni aylamay pomol savdo,  
Havou hirsg'a pobasta bo'lma,  
Tama'ni aylabon ko'nglingda paydo,  
Muhabbat rishtasini uzgil, ondin  
Jahong'a urmayin dast istig'no,  
Tavakkalni o'zingg'a peshga aylab,  
Rizou sabr odat qil mudomo,*

*Tabibiydek ichib rindona boda,  
O'zing o'z dardinga ayla madoro,  
Eshitkim, va'z birla ushbu so'zni,  
Saning oldingda qilg'um oshkoro,  
**Jahon mulki erur asru baqosiz,***

***Nechukkim dahr zolidur vafosiz*** - bandlari bilan yakunlanadi.

Aruzning hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf (maqsur) vazni (- - V / V - V - / V - - )da yozilgan ushbu tarje'band hajmiga ko'ra etti band, har bandi 14 misradan tarkib topgan bo'lib, jami 98 misrani tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, shoir tarje'bandlarining barchasida bandlar oxirida takrorlanib keluvchi baytlar (vosila bayt<sup>200</sup>) o'zaro qofiyalangan misralardan tashkil topgan bo'lib, ular bandlar so'nggida o'zgarishsiz takrorlanib keladi. Ahmad Tabibiy tarje'bandlari mazmunan teran, badiiyat jihatidan ham barkamol lirik asarlardir.

**Soqiynoma.** Qo'lyozmaning 213<sup>b</sup>-sahifasi 220<sup>a</sup>-sahifagacha shoirning beshta "masnaviyi soqiynoma"lari ko'chirilgan. devondagi soqiynomalarning dastlabkisi aruzning *sari'i musaddasi matviyi makshuf (mavquf)* vaznida yozilgan bo'lib, u:

*Soqiy, ketur ul qadahi xushkvor,  
Kim manga g'olib erur asru xumor.*

*Ranji xumorimnidur ul dofi'i,  
Dard ila xazonimni dog'i moni'i.*

*Soqiy, ketur ul mayi gulfomni,  
Kim beradur qalbg'a oromni.*

*Hajri oromi dilimdur adam,*

*Yor manga zulm qilur dam badam,* - baytlari bilan boshlanadi. Soqiynomalarni maxsus o'rgangan adabiyotshunos M.Asadov bu haqda shunday yozadi: "XIX asrda yaratilgan o'zbekcha soqiynomalar esa vazniga ko'ra ham bir-biridan farqlanadi. Masalan,

---

<sup>200</sup> Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Akadernashr, 2020, – B. 356.

Ahmadjon Tabibiyning soqiynomalari sari bahri (sari'i musaddasi matviyi mavquf)da yozilgan..."<sup>201</sup>. M.Asadov Tabibiy soqiynomalari yuzasidan teran tahlillarni amalga oshirganini ta'kidlash zarur. Biroq adabiyotshunos M.Asadov shoir soqiynomalaridan misollarni Tabibiy "Hayratu-l-ushshoq" devonining toshbosma nusxasi (O'zRFASHI, №8949) asosida keltiradi. Biroq qo'lyozma va toshbosma manbalardagi soqiynomalar matni qiyosiy o'rganilganda, toshbosma manba matni nuqsonli ekani ayon bo'ldi. Qo'lyozmadagi soqiynomalar matni uning toshbosmasi bilan solishtirilsa, toshbosma nusxa nuqsonli ekani ayonlashadi. Avvalo, Tabibiy devonidagi soqiynomalar birinchisining hajmi 47 bayt, ikkinchi soqiynoma 48 bayt (*vazni hazaji musaddasi mahzuf (maqsur)*), uchinchi 53 bayt (*vazni mutaqoribi musammani mahzuf (maqsur)*), to'rtinchisi 53 bayt (*vazni hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf (maqsur)*), beshinchisi 52 bayt (*vazni ramali musaddasi maxbuni mahzuf*) bo'lib, ularning jami hajmi 253 baytdan iborat. Jumladan, devondagi ikkinchi soqiynoma:

*Ketur, soqiy, hamul jomi musaffo,*

*Ki kelmish xosiyatda daf'i savdo,* – tarzida boshlanadi. Aruzning *hazaji musaddasi mahzuf (maqsur)* vaznida yozilgan ushbu soqiynoma qo'lyozmada jami 48 bayt. Toshbosmada esa u jami 47 baytni tashkil etadi. Ya'ni devonning toshbosmasida ushbu soqiynomaning 29-bayti asossiz ravishda qisqartirilgan. Ushbu qisqartirilgan bayt quyidagicha:

*Hama davridadur mamnuni ehson,*

*Hama ayyomidadur shodu xandon*<sup>202</sup>.

**Ruboiy.** Qo'lyozmaning 220<sup>a</sup>-sahifasidan 235<sup>b</sup>-sahifagacha 201 ta ruboiyga raqam qo'yib ko'chirilgan. Qo'lyozmadagi ruboiylar soni aslida 202 tani tashkil etadi. Ya'ni 220<sup>b</sup>-sahifa hoshiyasida ham bir ruboiy ko'chirilgan bo'lib, u kotib tomonidan raqamlanmay ketilgan. Ushbu ruboiy quyidagicha:

فريادكى گردونغه بولوب كج دوران  
قىلدى منى حاصيلىم بلاى حجران  
رحم ايلاميين حاليمه اصلا جانان  
هر لحظه ايشيمنى قىلدى آه افغان

<sup>201</sup> Asadov M. Soqiyнома: тарих ва поэтика. – Тошкент: Тафаккур, 2020. – Б. 28.

<sup>202</sup> O'zR FASHI. 3460 raqamli qo'lyozma. 215<sup>b</sup>-sahifa. ديوان طبيبي تركى

*(Faryodki, gardung ‘a bo ‘lub kaj davron,  
Qildi mani hosilim baloi hijron,  
Rahm aylamayin holima aslo jonon,  
Har lahza ishimni qildi ohu afg ‘on).<sup>203</sup>*

Ushbu qo‘lyozma matnini ko‘chirishda kotib so‘zlarning ustiga, tagiga mos harakatlar (zir, zabar, tashdid va boshqalar)ni qo‘yib ko‘chirgan. Ushbu qo‘lyozmada 201 ta ruboiyga raqam qo‘yilib ko‘chirilgan. Aslida ruboiylar soni 202 tani tashkil etadi. Qo‘lyozmaning 220<sup>a</sup>-235<sup>b</sup>-sahifalarida o‘rtacha olti yarimtadan ruboiy ko‘chirilgan. Ta‘kidlash kerakki, ruboiylar devon tuzish qoidasiga muvofiq tartiblangan. Ya’ni ular arab alifbosi ketma-ketligida ko‘chirilgan. 202 ta ruboiydan faqatgina “ر” harfiga yozilgan ruboiylar ichiga qo‘shilib ketgan 194- quyidagi ruboiyning o‘rni almashtirilib ko‘chirilgan:

*Kajrav falakka saning qo ‘lingdin faryod,  
Kim vasl ila qilmading zamirimni shod,  
Rohat bila ayshimni, base, kam aylab,  
Anduhi g ‘amimni kun-bakun qildi ziyod.*

Aslida bu ruboiy “خ” harfiga yozilgan so‘ngi (53-ruboiy) ruboiydan keyin joylashtirilishi kerak edi. Qolgan ruboiylar arab alifbosi ketma-ketligiga to‘la mos keladi. Devondagi ilk ruboiy quyidagicha:

*Hamd o ‘lsun ongaki qudrat aylab ifsho,  
Olamni iki harfdin etti paydo,  
Olam neki insu jin, vahsh ila tuyur,  
Maxluq anga keldilar bori sar to po.*

*Ul Zotg ‘a aliq demakim hamdu sano,  
Kim bordurur ul Xoliqi arz ila samo,  
Zohidg ‘a nasib etib, base, zuhdu riyo,  
Rind ahlini qildi sohibi fayzu safo.*

**Qit’a.** Devonning 235<sup>b</sup>-sahifadan 244<sup>a</sup> -sahifagacha 75 ta raqamlangan qit’a ko‘chirilgan. Aslida qit’alar soni bundan ko‘proq. Ular jami 77 ta bo‘lishi kerak, ya’ni qo‘lyozmaning 236<sup>b</sup>-sahifa hoshiyasida ham 2 ta 5 baytli qit’a ko‘chirilgan bo‘lib, ular

<sup>203</sup> O‘zR FASHI. 3460 raqamli qo‘lyozma. 220<sup>b</sup>-sahifa. دیوان طبیبی ترکی

raqamlanmagan. Shoirning “Hayratu-l-ushshoq” devonidagi qit’alar 2, 3, 4, 5, 6 va 7 baytlardan tarkib topgan.

**Bahri tavil.** Qo‘lyozmaning 244<sup>a</sup>-sahifasida shoirning bir bahri tavil she’ri ko‘chirilgan bo‘lib, u quyidagicha boshlangan:

*“Yurur erdim firoqi shomida qayg‘u chekib tinmay dame  
kuymak bo‘lub odat manga,  
Ey do‘stlar, holi zabunlig‘lar bila ohi fig‘on aylab malomat  
toshidin jismim  
Bo‘lub majruh, jonimg‘a yetib illat, zamiring‘a necha kulfat  
tushub o‘lmakka maqrun  
Aylabon bag‘rimni qon aylab. Va lekin shukrkim, ushbu kecha  
ul nozanin gulbadan  
Rasmi vafou mehr-shafqatni qilib zohir meni mahzunig‘a  
behaddi son ag‘yordin pinhon..”.*

**Qasida.** Tabibiy “Munisu-l-ushshoq” devonida ham ikkita qasida ko‘chirilgan bo‘lib, uning ikkinchisi:

*Shohim manga hukm ayladi xizmatda degil bir g‘azal,  
Bo‘lsun badiha lafzlig‘ ichra va lekin bebadal,* – bayti bilan boshlanadi. Ushbu qasida devonning qo‘lyozma nusxasida jami 60 misra bo‘lib, toshbosma manbada bu qasida 54 misrani tashkil etadi. Ya’ni olti misra devonning toshbosma variantidan tushirib qoldirilgan.

“Hayratu-l-ushshoq” devoni qo‘lyozmasi 244<sup>b</sup>-sahifasida shoirning quyidagicha boshlanuvchi bir qasida she’ri ko‘chirilgan:

*Shukrkim, behad karam aylab shahi Jam iqtidor,  
Berdi Mashhad sayrin et deb, man hazing‘a ixtiyor.*

*Sayr yo‘q balkim ziyorat qilg‘ali farmon qilib,  
Zodi roh etmakka qildi bazli ehson beshumor.*

*Man bo‘lub xushhol bu amri farah farjomdin,  
Sur‘at ila qat‘i manzil aylabon laylu nahor.*

*Bir nafas ham nazm fikridin farog‘at topmayin,  
Ko‘rguzur erdim g‘azal demakka asru iqtidor.*

*Garchi ranji rohu garmu sarddin behad edi,  
Lek shah lutfi manga bo'lg'on uchun hamroh yor.*

Ushbu qasida jami 29 bayt (58 misra)dan iborat bo'lib, uning bir misrasi devonning toshbosma nusxasida uchramaydi. Ya'ni qasidaning “*Assalom, ey xayiru mushkulkusho hojat baror*” tarzidagi 28-misrasi toshbosma variantdan tushib qolgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Ahmad Tabibiy lirik asarlari jamlangan 3460 raqamli qo'lyozma to'rt qismdan tarkib topgan. Ushbu manbaning birinchi qismi 245<sup>a</sup>-sahifada tugaydi. Birinchi qismda poygilar (paginatsiya) umuman qo'yilmagan.

3460 raqamli qo'lyozma tuzilishiga ko'ra to'rt qismdan iborat. Birinchi va to'rtinchi qismda shoirning lirik she'rlari, ikkinchi va uchinchi qismda Tabibiy tomonidan tarjima qilingan dostonlar matni ko'chirilgan. Qo'lyozmadagi asosiy matn:

*Sano bo'lsun ongakim bordurur ul Qodiri Yakto,*

*Qilur bir amr ikki harf ila kavnu makon paydo,* - bayti bilan boshlanib, g'azallar (I qism, 620-g'azal) 138<sup>b</sup> - sahifadagi:

*Bu sifatkim, zor qilmish mehnatu hijron mani,*

*Jismdin o'rtangusidur chiqmay asru jon mani,* - matlasi bilan boshlanuvchi 11 baytli g'azal bilan yakunlanadi.

Yuqorida alohida qayd etganimizdek, devonning salmoqli qismini g'azallar tashkil etadi. “Hayratu-l-ushshoq” devoniga jami 639 ta g'azal kiritilgan. 8949 raqamli toshbosma manbaning ikkinchi qismi “Hayratu-l-ushshoq” devonidir. Ta'kidlash kerakki, devon qo'lyozmasi uning toshbosma variantidan biroz farq qiladi. Bular butun boshli g'azallarining toshbosmaga kiritilmay qolgani, g'azallar matnidagi qo'shimchalarning toshbosmada tushib qolishi (masalan, devondagi 218, 403, 532-g'azallar), toshbosmada misralar tarkibidagi so'zlarning tushib qolishi (92, 193, 329-g'azallar), toshbosmada so'zlarning o'rnini almashtirib yuborish (426, 427, 459, 461, 608-g'azallar), qo'lyozmada yo'q so'zlarning toshbosmada ishlatilishi (368, 372, 543, 600, 602-g'azallarda) kabi holatlarda ko'rinadi. Ta'kidlanganidek, 3460 raqamli qo'lyozmadagi 3 ta g'azal devonning bosma nusxasida mavjud emas. Ularning birinchisi devondagi 310 raqamli 11 baytli g'azal bo'lib, u:

*Ul quyosh aylasa bazmimda namoyon oraz,  
Yorutur ko'zni chu xurshidi duraxshon oraz*<sup>204</sup>, - matla'i bilan boshlanadi. Toshbosmadan qolib ketgan keyingi g'azal ham 11 baytdan iborat bo'lib, ushbu g'azalning boshlanish bayti quyidagicha:

*To labing ustida qilmish, ey sanam, orom xat,  
Ayladi ishq ichra ravshan kunduzimni shom xat*<sup>205</sup>.

Qo'lyozmadagi 348-g'azal ham 11 baytdan iborat bo'lib, bu g'azal:

*Mango berdi bu tun haz bir parivash dilrabo hofiz,  
Ki oning mislidek hargiz topilmas dahr aro hofiz*<sup>206</sup>, - bayti bilan boshlanadi. Ushbu g'azal ham devonning toshbosma nashrida uchramaydi.

Devonning toshbosma nusxasi shoirning hayotlik paytida nashr etilgan. Bundan muallif she'rlarni tanlab bosma nashrga kiritgan bo'lishi mumkin degan, taxminni bildirish mumkin. Abdulla Abdurasulovning quyidagi fikrlari ushbu taxminni asoslaydi: "Muhammad Rahimxon II 1874-yilda O'rta Osiyoda birinchi marta Xivada toshbosma tashkil qiladi. Shu davrgacha barcha kitoblar mohir xattotlar tomonidan qo'lda ko'chirilib, juda kam nusxani tashkil etardi. Ko'hna Arkda toshbosmaning ishga tushirilishi bilan imkoniyat chegaralari kengaydi, mumtoz adabiyotimizning o'lmas namunalarini ko'p nusxada chop etish, o'quvchilarga yetkazib berish mumkin bo'ldi. Toshbosmada ilk bor eronlik Ibrohim Sulton degan kishi matbaachilik qilib, bu shu'baning boshlig'i shoir Tabibiy bo'lgan. Chop etilgan kitoblar savdoga chiqarilmas, faqat olim, fuzalolarga, madrasalarga berilardi"<sup>207</sup>. Demak, devonlarni toshbosmada nashr ettirishda shoirning o'zi muharrir sifatida ishtirok etgan bo'lishi mumkin.

Toshbosma manbaning ham qo'lyozmadan afzalliklari bor. Masalan, toshbosmadagi 3 ta g'azal 3460 raqamli devon qo'lyozmasida uchramaydi. Ushbu g'azallar faqat devonning toshbosma nusxasida mavjud bo'lib, ular:

<sup>204</sup> O'zR FASHI. 3460 raqamli qo'lyozma. 75<sup>b</sup>-sahifa. ديوان طبيبي.

<sup>205</sup> O'zR FASHI. 3460 raqamli qo'lyozma. 81<sup>a</sup>-sahifa. ديوان طبيبي.

<sup>206</sup> O'zR FASHI. 3460 raqamli qo'lyozma. 86<sup>a</sup>-sahifa. ديوان طبيبي.

<sup>207</sup> Абдурасулов А. Хива (тарихий-этнографик очерклар). – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 97.

1. *Yuzungkim bordurur husnu latofat avjini mohi,  
Chiqar gardun uza hajrida oning ishq eli ohi (7 bayt);*

2. *Toki kulbam sorig‘a ul mohtal‘at kelmadi,  
Boshima hajri aro g‘ayri malomat kelmadi (9 bayt);*

3. *Yor la‘li furqatida obi hayvonni netay,*

*Qadining hijroni ichra sarvu bo‘stonni netay*<sup>208</sup> (9 bayt) - matla‘lari bilan boshlanuvchi g‘azallardir. Demak, bu ma‘lumotlardan “Hayratu-l-ushshoq” devonining shohga yoki saroy kutubxonasiga taqdim qilingan boshqa mukammal nusxasi ham bo‘lgan, degan xulosaga kelish mumkin.

8949 raqamli manbada toshbosmaning qachon va qayerda bosilgani haqida hech qanday ma‘lumot berilmagan bo‘lsada, uning 1910-yilda Xivada litografiyada bosilgani haqida ma‘lumotlar bor<sup>209</sup>.

3460 raqamli devonning qo‘lyozma nusxasida she‘rlar qizil siyohda raqamlangan. Ayrim sahifalarning hoshiyalarida ham she‘rlar ko‘chirilgan bo‘lib, ular raqamlanmay ketilgan. Tabibiy devon tartib berishda she‘rlar hajmini Navoiy devonlari tarkibidagi she‘rlarga etkazishga harakat qilgani seziladi. Shu o‘rinda ta‘kidlash zarurki, Tabibiy ijodda o‘ziga xos yangiliklarga intilgan. Bu hol uning devonlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ana shunday o‘ziga xosliklardan biri – shoir “Hayratu-l-ushshoq” devonini tuzar ekan, unga faqat 11 baytli g‘azallarini jamlashni maqsad qilgan ko‘rinadi. To‘g‘ri, devonda oz bo‘lsa-da 5, 7, 8, 9, 10, 12, 13, 14, 15 baytli g‘azallar bor. Biroq 639 ta g‘azalning 591 tasi 11 baytdan iborat. Tabibiyning mazkur devonidagi g‘azallar aruzning *hazaj, rajaz, ramal, mujtass, muzori‘, mutaqorib, komil, xafif* bahrlarida yozilgan. Devonning qo‘lyozma va toshbosma nusxalari qiyosi ularning matnida jiddiy tafovutlar uchrashini ko‘rsatadi. Bunday farqlar asosan g‘azallar matni bilan bog‘liq. Yana bir o‘ziga xos jihat, ayrim g‘azallar matni toshbosma (8949 raqamli)da noqis bo‘lsa, ayrim g‘azallar matni qo‘lyozma (3460 raqamli)da mukammal emas. Bu hol ushbu ikkita manba bir-birini to‘ldirishi jihatidan

<sup>208</sup> O‘zR FASHI. 8949 raqamli toshbosma. 713-715-sahifalar.

<sup>209</sup> Ганихўжаев Ф. Аҳмад Табибий (хаёти ва ижоди). – Тошкент: Фан, 1978. – Б.14.



muhim ekanini ta'kidlash zarur. Masalan, devondagi 19-g'azal 11 bayt bo'lib, u "*Jamolingg'a bo'lubman toki shaydo, Ishim qilmoq junun dashtida g'avg'o<sup>210</sup>*" - matla'i bilan boshlanadi. Ushbu g'azal toshbosmada 10 baytni tashkil etadi. G'azal matnini qiyosiy tekshirish natijalari uning yettinchi bayti toshbosmadan qolib ketganini ko'rsatadi. Ushbu bayt quyidagicha:

*Quyundek istabon gulzori husning,  
Makonimdur hamisha dashtu sahro.*

Devonning qo'lyozma va toshbosma nusxalarida baytlarning tushib qolishi holatlari ko'plab uchragani bois, bunday tafovutlarni jadvalda ko'rsatishni lozim topdik. Quyidagi jadvalda toshbosmadan tushib qolgan baytlar to'liq keltirildi:

### 8-jadval

№	G'azal matla'si	G'azal tarkibidagi o'rni va tushib qolgan bayt
1	<i>Shukrkim, ul sho'x o'zni mehribon etmish mango, Dilrabolig' rasmini bilkul ayon etmish mango</i>	<b>4-bayt:</b> <i>Furqat ichra tiyra bo'lg'on ko'zlarim yorutg'oli, Orazini ochibon xurshidson etmish mango.</i>
2	<i>Toki dilbarg'a erur subhu maso yor raqib, Beradur jonu ko'ngulga necha ozor raqib</i>	<b>9-bayt:</b> <i>Dilbarim lutf mango etkoch ayon pinhoni, Shukrkim, ondin emas hech xabardor raqib</i>
3	<i>Qachon no'sh aylasang, ey mah, mayi nob, Labing bo'lg'usi chun yoquti serob</i>	<b>3-bayt:</b> <i>Ko'zimni ravshan etmakka bir oqshom, Kelib bazmimda och, ruxsori mahtob</i>
4	<i>Kel, ey dilbar, bu oqshom man sori lutf oshkor aylab, Ki hajring o'rtadi jonimni ko'nglum beqaror aylab</i>	<b>10-bayt:</b> <i>Qachonkim bog' aro nozu ado birla xirom etsang, Xijolatdin qilursan sarvni xam sharmisor aylab</i>
5	<i>Ul sho'x qilg'on, ey ko'ngul, javru jafolarni unut, Ishqi g'amida ro'zu shab chekkon balolarni unut</i>	<b>3-bayt:</b> <i>Bazmi visolin istabon doim firoqi shomida, Qilg'on hamisha so'z ila ohu navolarni unut</i>
6	<i>Jununimg'a erur bir dilbar nomehribon bois, Fig'onimg'a balovu kulfat behaddi son bois</i>	<b>7-bayt:</b> <i>Bukim tinmay yutub qon chekkamen faryodu afg'onlar, Onga ul mahvashi guloraz, g'uncha dahon bois</i>
7	<i>Fig'onimg'a erur ul yor bois,</i>	<b>9-bayt:</b> <i>Mani yoqmoqg'a nori</i>

<sup>210</sup> O'zR FASHI. 3460 raqamli qo'lyozma. 7<sup>a</sup>-sahifa. ديوان طبيبي

	<i>Azobimg'a g'amu ozor bois</i>	<i>orzug'a, Erur bu xotiri afgor bois</i>
8	<i>Erurman vaslinga ishq ichra, ey nomehribon muhtoj, Labingdin bo'sa olmoqg'a dog'i behaddi son muhtoj</i>	<b>8-bayt:</b> <i>Ne tong boshingdin evrulgusidur subhu maso tinmay, Jamoling mehriqga ermas olar gar bir zamon muhtoj</i>
9	<i>Ey pari, jon komig'a shirin maqolingdur laziz, Balki jon birla jahondin ham visolingdur laziz</i>	<b>8-bayt:</b> <i>Ne ajab fikringdin emin bo'lmasam bir lahzakim, Xotiring'a borho fikru xayolingdur laziz</i>
10	<i>Ey, sharbati la'ling erur koming'a shakkardin laziz, Shakkar ne qo'y, balkimdurur insong'a Kavsardek laziz</i>	<b>5-bayt:</b> <i>Chora mening dardim uchun qaydadur, ey mahbubkim, Kim lablaring bordur mango qandu shakkardek laziz</i>
11	<i>Ey, orazingdin husn aro xurshidi raxshon o'rgulur, Dame kokuling har toridin yuz sunbuliston o'rgulur</i>	<b>5-bayt:</b> <i>Sham'i ruxingg'a borho ko'nglum qushi parvonadur, La'li labingni sadqasi bo'lmoq uchun jon o'rgulur</i>
12	<i>Ey jon g'amgin mujdakim, ul yori g'amxoring kelur, Siymin saqog'u nozanin la'li shakarboring kelur</i>	<b>5-bayt:</b> <i>Ham xotiring shod etkali, qayg'udin ozod etkali, Suhbatlar aylab ketgali yori vafodoring kelur</i>
13	<i>Birovkim hajr dardig'a asiru notavon bo'lmish, Ne tong oning ishi subhu maso fig'on bo'lmish</i>	<b>11-bayt:</b> <i>Bihamdillah, shahanshah iltifoti kasrati birla, Tabibiy olam ichra shoiri jovid bayon bo'lmish</i>
14	<i>Kishi qo'ysa qadam har ishga ham aylab agar ixlos, Murodi naxlini qilg'oy hamisha borvar ixlos</i>	<b>3-bayt:</b> <i>Agar ixlos etar bo'lsang qil, jonu dil birla, Ki solikg'a suluk ichra emas ixlos har ixlos</i>
15	<i>Yuzinga kokuli duto moni', Ganjga misli ajdaho moni'</i>	<b>7-bayt:</b> <i>Vahki, bo'lg'usi toli' iqbol, Vaslig'a etgali mango moni'</i>
16	<i>Vasl ichra qilsam tong emas gar la'li dilbardin tama', Kim jannat ahli etgusi albatta Kavсарdin tama'</i>	<b>3-bayt:</b> <i>Qadi xiromikim olur hush ila sabrimni tamom, Ne nav' oni qilg'umdurur sarvu sanuvbardin tama'</i>
17	<i>Gulshan aro gul bir taraf, ul sho'xi yakto bir taraf, Sarvu sanuvbar bir taraf, ul qaddi zebo bir taraf</i>	<b>8-bayt:</b> <i>Ne nav' emdi asrag'um jonimnikim, har dam erur, G'amza ko'zidin bir taraf, qoshidin imo bir taraf</i>
18	<i>Tong emas, qilsam fig'on chekmakni odat, ey rafiq, Kim</i>	<b>7-bayt:</b> <i>Sho'xlarning ishqig'a gar moyil o'lsang shavq ila,</i>

	<i>damodam etgusi anduhi furqat, ey rafiq</i>	<i>Chekgasen ranju alam behaddi g'oyat, ey rafiq</i>
19	<i>Kelsa edi bazmim aro lutf aylabon yor, ey rafiq, Chekgaymu erdim bu sifat hajrida ozor, ey rafiq</i>	<b>10-bayt:</b> <i>Xohi gadovu xohi shah aylar bori holin batah, Solib quloq bu nuktag'a bo'lg'il xabardor, ey rafiq</i>
20	<i>Mundoqki qisturmish boshi atrofing'a jonona gul, Go'yo jamoli sham'ig'a bo'lmishdurur parvona gul</i>	<b>9-bayt:</b> <i>Yolg'uz ne bulbul holini qilg'usidurur gardun xarob, Kim dahr zulmidin bo'lur oshuftavu vayrona gul</i>
21	<i>Ey nozanin, ushbu kecha bazmim sori ko'rguz xirom, To no'sh ikovlon ayloli suhbat tuzub sahbovu jom</i>	<b>5-bayt:</b> <i>Ushshoqi mahzuningg'a ko'b qilg'il inoyat, ey pari, Bo'lmoq tilarsan xo'blar ichra agar sen neknom</i>

Ushbu jadvalda g'azallardan tushirib qoldirilgan bittadan baytlar ko'rsatib o'tildi. Bundan tashqari, qo'lyozmadagi ayrim g'azallardan ikki va undan ortiq baytlar toshbosmada qisqartirilgan. Masalan, devondagi 460-g'azal jami 11 baytdan iborat bo'lib, u:

*Gulgun yuzimu yo guli Firdavsi rizvondurmu ul,*

*Tokim latofat avjida xurshidi raxshondurmu ul,*<sup>211</sup> – matla'i bilan boshlanadi. Negadir, bu g'azal toshbosmada 7 baytni tashkil etadi. G'azalning 2, 3, 4, 5-baytlari toshbosmada yo'q. Yoki devondagi 471-g'azal:

*Ey ko'ngul, rizoyi Haq istamakka jur'at qil,*

*Ya'ni nahyidin qochib amriga itoat qil,* - matla'si bilan boshlanadi. G'azal matni toshbosma varianti bilan solishtirilsa, undan ikki bayt qisqargani ayon bo'ladi. Ya'ni g'azalning quyidagi uchinchi va to'rtinchi baytlari toshbosma nusxada mavjud emas:

*Har nekim sango ro'zi bersa peshakim Razzoq,*

*Sidq birla shukrini sabhu shom odat qil.*

*Istasang g'ani bo'lmoq siymu zarsiz olamda,*

*Ilkinga nekim etsa, sen ongo qanoat qil*<sup>212</sup>.

Tadqiqotning ikkinchi bobida ta'kidlanganidek, ushbu devondagi lirik asarlarning ayrimlari alohida to'plam-bayoz

<sup>211</sup> O'zR FASHI. 3460 raqamli qo'lyozma. 110<sup>ab</sup>-sahifalar. ديوان طبيبي

<sup>212</sup> O'zR FASHI. 3460 raqamli qo'lyozma. 331<sup>b</sup>-sahifalar. ديوان طبيبي

tartibida ham jamlangan. Masalan, O‘zRFAShI fondidagi 1124 raqamli qo‘lyozma, O‘zRFA Davlat adabiyot muzeyidagi 243 raqamli qo‘lyozmaga “Hayratu-l-ushshoq” devonidagi she’rlar kiritilgan. Masalan, devondagi 59-g‘azal:

*Mango ul pari javr bilkul qilib,*

*Nazar aylamaydur tag‘oful qilib,* - matla’si bilan boshlanadi. 1124 raqamli qo‘lyozma esa mana shu g‘azal bilan boshlanib, 214 raqamdagi:

*Bo‘l, ey ko‘ngul, xushnudkim ul dilrabo bu kun kelur,*

*Ahdiga zohir aylabon mehru vafo bu kun kelur,* - matla’li g‘azal bilan yakunlanadi. O‘zRFA Davlat adabiyot muzeyidagi 243 raqamli qo‘lyozma esa devondagi 215 tartib raqamidagi:

*Dahr aro kimsa boshig‘a ranju ano kelur-ketur,*

*Ko‘ngliga ham muning kibi fayzu safo kelur-ketur,* - matla’li g‘azal bilan boshlanadi. Bundan 1124 raqamli to‘plam-bayozning davomi 243 raqamli qo‘lyozma ekani ayon bo‘ladi. Yuqoridagi toshbosmadan tushirib qoldirilgan baytlarni tiklashda O‘zRFAShI fondidagi 1124 raqamli qo‘lyozma va O‘zRFA Davlat adabiyot muzeyidagi 243 raqamli qo‘lyozmalar qiyosiy o‘rganildi. Shu asosda tushirib qoldirilgan baytlar tiklandi. Ayrim o‘rinlarda devonning toshbosma nusxasi qo‘lyozmadagi kamchiliklarni to‘ldirishi jihatidan ahamiyatli. Bir misol. Devonda aruzning hazaji musaddasi mahzuf (*mafoiylun, mafoiylun, fauvlun*) vaznida yozilgan “Murabbo” radifli bir g‘azal mavjud bo‘lib, u toshbosmada 9 bayt, qo‘lyozmada esa 7 baytni tashkil etadi. Qo‘lyozmada g‘azalning yettinchi va sakkizinchi baytlari ko‘chirilmagan. Bu esa qo‘lyozmaning ham kamchiliklardan xoli emasligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, devondagi ko‘plab g‘azallar sahifalar hoshiyasida bitilgan. Jumladan, devondagi 169 ta g‘azal 3460 raqamli qo‘lyozmaning sahifalari hoshiyasida bitilgan. Sahifalar hoshiyasida bitilgan g‘azallar to‘plam-bayozlar (1124, 243 raqamli qo‘lyozmalar)da uchramaydi. Qo‘lyozma hoshiyasidagi g‘azallar devonning toshbosma nusxasiga kiritilgan. Biroq hoshiyada bitilgan g‘azallarning aksariyati toshbosmada qisqartirilib bosilgan. Bunday tafovutlar, ya’ni toshbosmadan qolib ketgan baytlar bilan bog‘liq ma’lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

## 9-jadval

№	G‘azal matla’si	G‘azal tarkibidagi o‘rni va tushib qolgan bayt	Sahifasi
1	<i>Bo‘lg‘och ko‘zimga jilvagar, ey moh siymo, kokuling, Soldi boshimg‘a beadam oshubu savdo kokuling</i>	<b>3-bayt:</b> <i>Sajda qoshing mehrobig‘a qilmoqni pesha etmisham, Islomu dinim aylagoch toroju yag‘mo kokuling</i>	104 <sup>a</sup> -105 <sup>a</sup> - sahifalar hoshiyasi
2	<i>Xurshidi anvar bo‘lmasa gar, ey mahtobon, yuzing, Nechun ko‘zimni yorutur behaddi bepoyon yuzing</i>	<b>11-bayt:</b> <i>Boqg‘och sango nechun topar, jono, nishot ila tarab, Gar yo‘q Tabibiy xastaning dardi uchun darmon yuzing</i>	106 <sup>ab</sup> - sahifa hoshiyasi
3	<i>Shum muddaiyg‘a demagil, ey sho‘x, siyminbar so‘zing, Kim purfe‘l o‘zin tutmag‘il, gar bo‘lsa ham gavhar so‘zing</i>	<b>3-bayt:</b> <i>Lutfu karam birla mango qilsang takallum, ey habib, Solg‘oy raqibi ro‘siyah joni uza axgar so‘zing</i>	106 <sup>b</sup> - sahifa hoshiyasi
4	<i>Bo‘lmas esa lazzat aro gar chashmai hayvon labing, Bir so‘rmoq ila ne uchun berdi tanimga jon labing</i>	<b>4-bayt:</b> <i>Gavhar bahosin qilg‘usi suvdin ham arzon dahr aro, Bo‘lsa takallum chog‘ida, jono guharafshon labing</i>	107 <sup>b</sup> - sahifa hoshiyasi
5	<i>Tokim labing la‘li bila behisht aylamish izhor la‘l, Tutmay qaror o‘z joyida bo‘lmishdurur afgor la‘l</i>	<b>4-bayt:</b> <i>Angushtarin ondin qilib, solib qo‘lig‘a har kishi, Bergusi har nazorada xushlig‘ ongo hamvor la‘l</i>	111 <sup>b</sup> - sahifa hoshiyasi
6	<i>Necha zulfing‘a monand o‘lg‘usi, ey dilrabo, sunbul, Ki beqadr o‘ldi gulshanda subh ila maso sunbul</i>	<b>6-bayt:</b> <i>Tamosho kokulingni aylabon topg‘um farah behad, Ne hojat xotirim tafrihig‘a emdi mango sunbul</i>	111 <sup>b</sup> - 112 <sup>a</sup> - sahifalar hoshiyasi
7	<i>Ul sho‘xki to qildi boqib mango tabassum, Yetkurdi ishq o‘tini jonim aro tabassum</i>	<b>10-bayt:</b> <i>Diltang o‘lub man andog‘kim xurram o‘lmag‘umdur, La‘li labingdin izhor o‘lg‘uncha to tabassum</i>	114 <sup>a</sup> - sahifa hoshiyasi

Yuqorida ta’kidlanganidek, 3460 raqamli qo‘lyozmaning birinchi va to‘rtinchi qismida shoir lirik asarlari ko‘chirilgan. Jumladan, to‘rtinchi qismda 34 ta g‘azal ko‘chirilgan bo‘lib, ushbu g‘azallar O‘zRFASHI fondidagi 654 raqamli bayoz-to‘plamda ham

uchraydi. Ma'lumki, 654 raqamli bayoz-to'plamda faqat Tabibiy lirik asarlari jamlangan bo'lib, u 1325 (1907)-yilda tuzilgan. Qo'lyozmaning birinchi qismida asosan 11 baytli g'azallar jamlangan, to'rtinchi qismdagi g'azallar hajmiga ko'ra har xil.

Qo'lyozmaning 329<sup>a</sup>-337<sup>a</sup>-sahifalari to'rtinchi qism hisoblanadi. Bu qismdagi g'azallar matni ham, negadir, devonning toshbosma nusxasida tahrirga uchragan. Jumladan, qo'lyozmaning to'rtinchi qismidagi:

*Yuz uzra xoling shaklimu, ey sho'x, ma'dumu-l-masal,*

*Safha uza yo nuqtalar qo'ymish Qadiri Lamyazal,* - matla'li g'azal qo'lyozmada jami 14 baytni tashkil etadi. Ushbu g'azal toshbosma variantida 11 baytga qisqargan. Ya'ni toshbosmada g'azalning 11, 12, 13-baytlari tushib qolgan.

G'azallar tahlili "Hayratu-l-ushshoq" devonining qo'lyozma nusxasidagi jami 38 bayt toshbosma variantida mavjud emasligini ko'rsatadi. Bu holat kelgusida Tabibiyning "Hayratu-l-ushshoq" devoni yuzasidan olib borilajak tadqiqotlar uchun muhim bo'lib, aksariyat qo'lyozma yoki toshbosma asosida bajariladigan tadqiqotlar o'zini oqlamasligini ko'rsatadi. Shuningdek, Tabibiy "Hayratu-l-ushshoq" devonini nashr ettirishda mavjud manbalarning barchasini qiyosiy o'rganish vazifasini kun tartibiga qo'yadi.

Xulosa shuki, Ahmad Tabibiyning turkiy tilda tartib bergan birinchi devoni "Munisu-l-ushshoq" 1327/1909-yilda kotib Bobojon Tarro ibn Abdulaziz Maxsum tomonidan ko'chirilgan. Devon 1328/1910-yilda Xivada toshbosmada bosilgan. O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondida Ahmad Tabibiy "Munisu-l-ushshoq" devonining ikkita qo'lyozmasi 6226 va 3461 raqamlari bilan, ushbu devonning toshbosma nusxasi 8949 raqami bilan saqlanadi. Bulardan 6226 raqamli qo'lyozma "Munisu-l-ushshoq" devonining mukammal varianti hisoblanadi. Shuningdek, Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi qo'lyozmalar instituti fondida C-767 raqami bilan devonning to'liq bo'lmagan yana bir nusxasi mavjud.

"Munisu-l-ushshoq" devonining qo'lyozma va toshbosma nusxalari orasida jiddiy matniy farqlar mavjud. Bular lirik asarlar soni, she'rlar hajmi, misra, bayt va bandlar tarkibidagi so'zlarning

tushib qolishi, almashtirib yuborilishi, noto‘g‘ri yozilishi, qo‘shimchalarning tushib qolishi va boshqalar bilan izohlanadi.

Ahmad Tabibiy adabiy merosi, jumladan, shoirning “Munisul-ushshoq” devonidagi bir-ikkita lirik asar nashr ettirilgan. Biroq shoirning ushbu devoni shu paytgacha maxsus tadqiq etilmagan, devon nashrga tayyorlanmagan.

O‘zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo‘lyozmalar fondidagi 3460 raqamli manba shoir “Hayratul-ushshoq” devonining yagona qo‘lyozmasi hisoblanadi.

Tabibiyning “Hayratul-ushshoq” devoni tarkibida *g‘azal, mustazod, murabba’, muxammas, musaddas, musamman, tarje’band, masnaviy, ruboiy, qit’a, bahri tavil, qasida* janrlaridagi lirik asarlar mavjud. Ushbu lirik asarlar aruzning *hazaj, rajaz, ramal, mujtass, muzori’, mutaqorib, komil, xafif* vaznlarida yozilgan.

“Hayratul-ushshoq” devoniga jami 639 ta g‘azal kiritilgan. Ta’kidlash kerakki, devon qo‘lyozmasi uning toshbosma variantidan biroz farq qiladi. Bunday farqlar butun boshli g‘azallarning toshbosmaga kiritilmay qolganida, g‘azallar matnidagi qo‘shimchalarning, misralar tarkibidagi so‘zlarning tushib qolishida, so‘zlarning o‘rnini almashtirib yuborilishida, qo‘lyozmada yo‘q so‘zlarning toshbosmada ishlatilishida namoyon bo‘ladi.

## XULOSA

Tadqiqotda erishilgan natijalardan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xivada yashab ijod etgan, o‘zidan boy adabiy meros qoldirgan, ijodiy faoliyati bugungacha to‘liq o‘rganilmagan zullisonayn shoir, tazkiranavis, dostonnavis, mutarjim, tarixnavis Ahmadjon Tabibiy o‘zbek adabiy an‘analarini munosib davom ettirgan sermahsul ijodkordir. Shoir biografiyasiga doir ma‘lumotlar shoirning devonlari debochasida, lirik asarlarida, shu paytgacha ilm ahliga ma‘lum bo‘lmagan “Tavorix al-xavonin” asarida, zamondoshlarining tarixiy va tazkira asarlarida uchraydi. Shoir biografiyasiga doir manbalarni: 1) shoir zamondoshlari tomonidan tuzilgan tarixiy asarlar va tazkiralari; 2) ijodkorning o‘z asarlari; 3) antologiyalar, akademik tadqiqotlar, darslik va dissertatsiyalar tarzida tasnif etish mumkin.

2. Shoir zamondoshlari tomonidan keltirilgan ayrim manbalarda Tabibiy biografiyasiga doir noto‘g‘ri ma‘lumotlar ham uchraydi. E‘tiborlisi, shu paytgacha yaratilgan o‘quv adabiyotlarida shoir biografiyasi bilan bog‘liq noto‘g‘ri ma‘lumotlar berib kelingan. Ishda Laffasiy tazkirasida berilgan Tabibiyning afg‘onistonlik ekanligi, to‘rt devon tuzgani, taxallusini Muhammad Rahimxon soniy bergani haqidagi ma‘lumotlar haqiqatga zid ekani, shoir asli eronlik bo‘lib, besh devon tartib bergani, taxallusini tabiblik faoliyatidan kelib chiqib, o‘zi tanlagani asoslandi.

3. Tabibiy jami besh devon tuzgan bo‘lib, ulardan uchta – “Munisu-l-ushshoq”, “Hayratu-l-ushshoq” hamda “Tuhfatu-s-sulton” turkiy tildagi she‘rlarini o‘z ichiga olgani, ikkitasi – “Mir‘otu-l-ishq” va “Mazharu-l-ishtiyoq” forsiy tildagi lirik asarlaridan tartib berilgan. Shoir ijodida mumtoz lirik janrlarning deyarli barchasi – g‘azal, murabba‘, muxammas, musaddas, musabba‘, musamman, mutassa‘, muashshar, mustazod, tarje‘band, ta‘rix, masnaviy, masnaviy-soqiynoma, masnaviy-dahrnoma, shiru shakar, fard, tuyuq, chiston, qit‘a, ruboiy, bahri tavil, qasida, munojot, varsoqi kabilar mavjud. Ijodkor she‘rlarini mavzu jihatdan diniy-tasavvufiy, ishqiyy, ilm-ma‘rifat, hasbi hol, musiqa va san‘at, tabiat tasviri, ijtimoiy-falsafiy mavzularga tasnif etish mumkin.



4. Shoir lirikasida aruz bilan birga barmoq vaznida yozilgan lirik asarlar ham mavjud. Nazmiy asarlari aruzning *hazaj, rajaz, ramal, muzori', mutaqorib, munsarih, mujtass, komil, xafif* singari bahrlarida yozilgan. Tabibiy mumtoz she'r nazariyasi, qonun-qoidalarini juda yaxshi bilgan hamda o'z ijodida mahorat bilan qo'llagan. Bu hol uning devonlari tarkibiy tuzilishida, janrlar qamrovida yaqqol namoyon bo'ladi.

5. Ahmad Tabibiy adabiy merosi manbalari O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, O'zR FA Davlat adabiyot muzeyi va Xivadagi "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi fondlarida, shaxsiy arxivlarda hamda Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi qo'lyozmalar instituti fondida saqlanadi. Ushbu fond va arxivlarda Tabibiyning she'riy devonlari, lirik asarlaridan iborat terma devonlari, to'plam-bayozlari, dostonlari, tarjimalari, tazkira va tarixiy asari ham mavjud. O'zR FA Sharqshunoslik instituti va Xivadagi "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi fondidagi shoir asarlari manbalarini *ikki guruhga* ajratish mumkin: 1) *Tabibiy lirik asarlaridan tarkib topgan manbalar*; 2) *XIX asr oxiri XX asr boshlari Xorazm adabiy muhiti shoirlari ijod namunalari to'plangan bayozlar*. Ushbu manbalarga kirgan she'rlar shoir ijodining janrlar qamrovi haqidagi mavjud tasavvurlarni boyitadi, lirik merosining ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda asos vazifasini o'taydi. Ijodkor asarlari qo'lyozmalari genealogiyasini, manbalar shajarasini aniqlashda muhim o'rin tutadi.

6. Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondidagi 1122 raqamli qo'lyozma "Tuhfatu-s-sulton"ning terma devoni, 1123, 1129, 1148, 6949, "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi fondidagi 5894/4 raqamli qo'lyozmalar "Tuhfatu-s-sulton"ning protodevonlaridir. Mazkur qo'lyozmalardagi lirik asarlar shoirning turkiy devonlari – "Munisul-ushshoq"da ham, "Hayratul-ushshoq"da ham uchramaydi. Ushbu qo'lyozmalardagi lirik asarlarning aksariyati janrlariga ko'ra hamda shaklan va mazmunan o'ziga xosdir. Qo'lyozmalardagi lirik asarlar tuzilishi, ularning devon tartibiga o'xshash ketma-ketligi qaysidir devon uchun asos vazifasini o'tagan.

7. Tabibiyning birinchi turkiy devoni sifatida “Tuhfatu-s-sulton” devoni ko‘rsatiladi. Biroq shorning ushbu devoni umrining so‘ngida, ya’ni 1910-yilda ko‘chirilgan. Devonning yagona qo‘lyozmasi Tojikistonda saqlanishi haqida ma’lumotlar bor. Biroq hozircha “Tuhfatu-s-sulton” devoni qo‘lyozmasi taqdiri noma’lum. Xiva “Ichan qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi fondidagi 5884/3 raqamli toshbosma manba “Tuhfatu-s-sulton” devoni tartib berilgandan so‘ng, o‘sha yili toshbosmada ham bosilgan. Ushbu manbadagi she’rlar boshqa devonlarga kirmagani e’tiborga olinsa, uni “Tuhfatu-s-sulton”ning toshbosma nusxasi sifatida belgilash mumkin.

8. O‘zR FA Davlat adabiyot muzeyidagi 243 raqamli qo‘lyozma Ahmad Tabibiy lirik asarlaridan tuzilgani bilan qimmatlidir. Jami 184 sahifadan iborat ushbu bayozda shoirning 200 ta g‘azali alifbo tartibida ko‘chirilgan. Mazkur bayozdagi g‘azallar to‘liq holda “Hayratu-l-ushshoq”qa kiritilgan bo‘lib, u “Hayratu-l-ushshoq”ning protodevoni hisoblanadi.

9. O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondidagi 1127, 1128, 1129 raqamli manbalardagi Tabibiy lirik she’rlarning aksariyati “Munisu-l-ushshoq” devoniga kiritilgani ularning mazkur devon tuzilishiga asos bo‘lganidan dalolat beradi. Institut fondidagi 1133 raqamli qo‘lyozma kolofonidagi ma’lumotga ko‘ra, 1327/1909-yilda tuzilgan bo‘lib, unga Tabibiyning jami 7 ta forsiy va 19 ta turkiy musaddasi kiritilgan. Bayozdagi turkiy musaddaslarning aksariyati “Munisu-l-ushshoq” devonida ham mavjud. Ular shoirning devonlarida uchramasligi ushbu bayozning ham devonni boyitishda muhim manba bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu ma’lumotlar shoir devon tuzayotganda o‘zining she’rlari jamlangan to‘plamlardan unumli foydalanganini tasdiqlaydi.

10. Ijodkor devonlarining tayanch manbalarini aniqlashda sohaga oid nazariy qarashlardan foydalanildi. Tabibiy lirik asarlari ko‘chirilgan manbalarni 1) kitobat holatining darajasi; 2) sahifalar va lirik asarlar hajmining to‘liqligi; 3) devon tarkibidagi lirik janrlar ketma-ketligiga rioya qilinishi; 4) matnning nuqsonlardan xolilik darajasi tarzida tahlil etildi. Natijada shoir asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini tuzishga asos bo‘ladigan tayanch manbalari

aniqlandi. Jumladan, “Munisu-l-ushshoq” devoni yig‘ma matnini tayyorlashda devon nusxalari matnining mukammallik darajasiga ko‘ra quyidagicha tasnif etildi: 1) 6226 raqamli qo‘lyozma – A1 nusxa; 2) 3461 raqamli qo‘lyozma – A2 nusxa; 3) C-767 raqamli qo‘lyozma – A3 nusxa; 4) 8949 raqamli toshbosma – A4 nusxa; 5) 1159 raqamli qo‘lyozma – B nusxa.

“Hayratu-l-ushshoq” devoni nusxalari matni mukammallik darajasi quyidagicha ekani aniqlandi: 1) 3460 raqamli qo‘lyozma – A1 nusxa; 2) 8949 raqamli toshbosma – A2 nusxa; 3) 1124 raqamli qo‘lyozma – V nusxa; 3) 243 raqamli qo‘lyozma – S nusxa; 4) 2033 raqamli qo‘lyozma – D nusxa; 5) 5894/1 raqamli qo‘lyozma – Y nusxa. “Tuhfatus-s-sulton” devoni nusxalari matnining mukammallik darajasiga ko‘ra quyidagicha belgilandi: 1) 5884/3 raqamli toshbosma – A1 nusxa; 2) 1122 raqamli qo‘lyozma – A2 nusxa; 3) 1123 raqamli qo‘lyozma – V nusxa; 4) 1148 raqamli qo‘lyozma – S nusxa; 5) 6949 raqamli qo‘lyozma – D nusxa.

11. Ahmad Tabibiy she‘riyatida matn tarixi masalasi 1) *tadqiq etilayotgan matnning qaysi davrga mansubligi*; 2) *matnning tarixiy-adabiy va madaniy shart-sharoit bilan aloqasini belgilashi va kuzatishi*; 3) *o‘rganilayotgan asar matnidagi barcha o‘zgarishlarni hisobga olishi*; 4) *xuddi o‘sha sharoitda ijod qilgan boshqa mualliflarning asarlariga e‘tibor qaratishni*; 5) *muayyan asarning boshqa asarlarga ko‘rsatgan ta‘sirini izlash* kabi omillar asosida tadqiq qilindi. Shoir asarlarining matn tarixi lirik asarlari yaratilishi jarayonidagi ijodkor rejasining amalga oshishidan, qo‘lyozma va toshbosma manbalardagi matn tadrijigacha, she‘rlarni ko‘chirgan kotib dunyoqarashidan asliyat va nashr nusxalarining yuzaga kelishigacha o‘rganilib, ularning ishonchli matnlarini tiklashga erishildi.

12. Ahmad Tabibiyning mavjud manbalarda uchramaydigan yana bir she‘ri Xivadagi “Shohimardon bobo” qabristonidagi qorixona peshtoqiga yozilgan ta‘rix-g‘azaldir. Xivada XX asr boshlarida ko‘plab qorixonalar barpo etilgan. Ana shunday qorixonalardan biri Davlatmurod Mahram tomonidan qurilgan. Davlatmurod Mahram vafotidan so‘ng shu yerga dafn qilingan. Qorixona kirish eshigi ustidagi marmar toshga Ahmad Tabibiyning 12 baytli bir ta‘rix g‘azali yozilgan.

13. Ahmad Tabibiy asarlaridan ayrim namunalar o'tgan asrda chop ettirilgan. Ularning adadi barmoq bilan sanarli darajada oz. Yana ham aniqrog'i, shoirning hozircha bizga ma'lum bo'lgan 540 ga yaqin turkiy tildagi ruboiylaridan 20 ga yaqini nashr etilgan. Umuman, shoir adabiy merosi shu paytgacha matnshunoslik aspektida o'rganilmagan. Shoir asarlarini o'rganish jarayonida uning 23 she'riy janr va shakllarga oid 30 ming misradan ortiq she'rlari ilmiy istifodaga olib kirilgani Tabibiy adabiy merosi haqidagi mavjud tasavvurlarni boyitadi.

14. Qiyosiy tahlil natijalari "Munisu-l-ushshoq" devonining mavjud ikki qo'lyozmasi (6226 va 3461 raqamli manbalar) orasida ham jiddiy o'zgarishlar borligini ko'rsatadi. Bular bir qo'lyozmadagi g'azallarning boshqa qo'lyozma variantda uchramasligi, g'azallar tarkibidagi baytlarning tushib qolishi, so'z va misralarning noto'g'ri ko'chirilishi kabi jiddiy matniy tafovutlardir. Mazkur devonning qo'lyozma va toshbosma manbalari muqoyasasi ularga kirgan she'rlar matnida jiddiy matniy farqlar borligini ko'rsatadi. Bular so'zlarning va ular tarkibidagi qo'shimchalar va harflarning tushib qolishi, so'z birikmalarini xato yozish, baytlarning qisqarishi va almashtirilib ko'chirilishi, butun boshli lirik asarlarning tushib qolishi kabilarda namoyon bo'ladi.

15. O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondidagi 3460 raqamli manba shoir "Hayratu-l-ushshoq" devonining yagona qo'lyozmasi hisoblanadi. Mazkur devondan *g'azal*, *mustazod*, *murabba'*, *muxammas*, *musaddas*, *musamman*, *tarje'band*, *masnaviy*, *ruboiy*, *qit'a*, *bahri tavil*, *qasida* janrlariga oid lirik asarlar o'rin olgan. Shoirning jami 639 ta g'azali kiritilgan devon qo'lyozmasi uning toshbosma variantidan biroz farq qiladi. Bunday farqlar butun boshli g'azallarning toshbosmaga kiritilmay qolishi, g'azallar matnidagi qo'shimchalar va so'zlarning tushib qolishi, so'zlarning o'rni almashtirilishi, qo'lyozmada yo'q so'zlarning toshbosmada ishlatilishi kabilarda namoyon bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.

2. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Президент Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи. 2017 йил, 4 август.

3. Мирзиёев Ш.М. “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқи ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ–2995-сонли қарори, 2017 йил, 24 май.

4. Мирзиёев Ш.М. “Фанлар академияси фаолияти, илмий тадқиқот ишларини ташкил этиш, бошқариш ва молиялаштиришни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2789-сонли қарори, 2017 йил, 17 февраль.

5. Мирзиёев Ш.М. “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги” ПФ-5850-сонли фармони, 2019 йил, 21 октябрь.

6. Мирзиёев Ш.М. “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ПФ-60-сон фармони, 2022 йил, 28 январь.

### II. MANBALAR

#### 1. Qo‘lyozma va toshbosma manbalar

7. Qo‘lyozma. دیوان طبیی O‘zR FAShI Asosiy fond. Inv. №6226.

8. Qo‘lyozma. دیوان طبیی O‘zR FAShI Asosiy fond. Inv. №3460.

9. Qo‘lyozma. طبیی کولیات Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi qo‘lyozmalar instituti fondi. Inv. №C-767.

10. Qo‘lyozma. دیوان طبیی O‘zR FAShI Asosiy fond. Inv. №3461.

11. Qo‘lyozma. ديوان طبيبي O‘zR FAShI Asosiy fond. Inv. №654.
12. Qo‘lyozma. ديوان طبيبي O‘zR FAShI Asosiy fond. Inv. №678/I.
13. Qo‘lyozma. ديوان طبيبي O‘zR FAShI Asosiy fond. Inv. №678/II.
14. Qo‘lyozma. ديوان طبيبي O‘zR FAShI Asosiy fond. Inv. №678/III.
15. Qo‘lyozma. ديوان طبيبي O‘zR FAShI Asosiy fond. Inv. №927/I.
16. Qo‘lyozma. ديوان طبيبي O‘zR FAShI Asosiy fond. Inv. №927/III.
17. Qo‘lyozma. ديوان منتخب طبيبي O‘zR FAShI Asosiy fond. Inv. №1122.
18. Qo‘lyozma. ديوان منتخب طبيبي O‘zR FAShI Asosiy fond. Inv. №1123.
19. Qo‘lyozma. ديوان منتخب طبيبي O‘zR FAShI Asosiy fond. Inv. №1124.
20. Qo‘lyozma. ديوان منتخب طبيبي O‘zR FAShI Asosiy fond. Inv. №1144.
21. Qo‘lyozma. ديوان منتخب طبيبي O‘zR FAShI Asosiy fond. Inv. №1147.
22. Qo‘lyozma. ديوان منتخب طبيبي O‘zR FAShI Asosiy fond. Inv. №1148.
23. Qo‘lyozma. ديوان منتخب طبيبي O‘zR FAShI Asosiy fond. Inv. №1159.
24. Qo‘lyozma. ديوان منتخب طبيبي O‘zR FAShI Asosiy fond. Inv. №2033.
25. Qo‘lyozma. ديوان منتخب طبيبي O‘zR FAShI Asosiy fond. Inv. №6949.
26. Qo‘lyozma. غزل طبيبي O‘zR FA DAM fondi. Inv. №243.
27. Bayozi muxammasot. Qo‘lyozma. O‘zR FAShI Asosiy fond. Inv. №1127.
28. Bayozi muxammasot. Qo‘lyozma. O‘zR FAShI Asosiy fond. Inv. №1128.
29. Bayozi muxammasot. Qo‘lyozma. O‘zR FAShI Asosiy fond. Inv. №1129.

30. Bayozi muxammasot. Qo'lyozma. O'zR FAShI Asosiy fond. Inv. №11230.

31. Bayozi muxammasot. Qo'lyozma. O'zR FAShI Asosiy fond. Inv. №1131.

32. Bayozi muxammasot. Qo'lyozma. O'zR FAShI Asosiy fond. Inv. №1132.

33. Bayozi muxammasot. Qo'lyozma. O'zR FAShI Asosiy fond. Inv. №1133.

34. Bayozi muxammasot. Qo'lyozma. O'zR FAShI Asosiy fond. Inv. №1157.

35. Bayozi g'azaliyot. Qo'lyozma. O'zR FAShI Asosiy fond. Inv. №1175.

36. Bayozi g'azaliyot. Qo'lyozma. O'zR FAShI Asosiy fond. Inv. №1182.

37. Bayozi g'azaliyot. Qo'lyozma. O'zR FAShI Asosiy fond. Inv. №1185.

38. Bayozi g'azaliyot. Qo'lyozma. O'zR FAShI Asosiy fond. Inv. №1190.

39. Bayozi g'azaliyot. Qo'lyozma. O'zR FAShI Asosiy fond. Inv. №1196.

40. Bayozi g'azaliyot. Qo'lyozma. O'zR FAShI Asosiy fond. Inv. №2024.

41. Bayozi g'azaliyot. Qo'lyozma. O'zR FAShI Asosiy fond. Inv. №2026.

42. Qo'lyozma. بياض طبيى O'zR FAShI Asosiy fond. Inv. №2033.

43. Bayozi g'azaliyot. Qo'lyozma. O'zR FAShI Asosiy fond. Inv. №6930.

44. Bayozi g'azaliyot. Qo'lyozma. O'zR FAShI Asosiy fond. Inv. №9572.

45. Bayozi g'azaliyot. Qo'lyozma. "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi fondi. Inv. №5894/1.

46. Bayozi g'azaliyot. Кўлэзма. "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi fondi. Inv. № 5894/4.

47. Toshbosma. ديوان طبيى. O'zR FAShI Asosiy fond. Inv. № 8949.

48. Toshbosma. دیوان طبیی. “Ichan qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi fondi. Inv. № 5884/3.

49. O‘zR FAShI. اثر حسنمراد قارى. خيوه. تذكرة شعرا. Asosiy fond. Inv. №12561.

50. O‘zR FAShI. شجرة خوارزمشاهى. بيانى. Asosiy fond. Inv. №9596.

51. Devoni Komil. Qo‘lyozma. O‘zR FAShI Asosiy fondi. Inv. №1949.

52. Devoni Munis. Qo‘lyozma. O‘zR FAShI. Inv. № 940.

53. Laffasiy. Tazkirai shuaro (Xiva shoir va adabiyotchilarining ahvollari). Qo‘lyozma. O‘zR FAShI. Inv. № 12561, № 9494, № 11499.

54. O‘zR FAShI fondida saqlanayotgan qo‘lyozma bayoz va majmualar: Inv №:909, 1127, 1128, 1130, 1131, 1132, 1133, 1135/V, 1154, 1155, 1157, 1161, 1166, 1918, 3326, 5058, 6977, 6985, 6996, 7050.

55. O‘zR FAShI Hamid Sulaymon fondida saqlanayotgan qo‘lyozma bayoz va majmualar: Inv. №797/II, №1569/VI.

## **2. Badiiy adabiyotlar, kataloglar va tabdil nashrlar**

56. Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. Ўн жилдлик. III жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2011. – 764 б.

57. Алишер Навоий. Наводируш-шабоб. IV жилдлик. II жилд. – Тошкент: Фан, 1959. – 784 б.

58. Алишер Навоий. Бадоеъул-васат. IV жилдлик. III жилд. – Тошкент: Фан, 1959. – 780 б.

59. Алишер Навоий. Фавойидул-кибар. IV жилдлик. IV жилд. – Тошкент: Фан, 1959. – 856 бет.

60. Алишер Навоий. Мезон ул-авзон (Нашрга тайёрловчи: Иззат Султонов). – Тошкент: Фан, 1949. – 96 б.

61. Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. Илмий-критик текст (Нашрга тайёрловчи: Порсо Шамсиев). – Тошкент: Фан, 1956. – 764 б.

62. Дмитриева Л.В. Описание тюркских рукописей института востоковедения. III. (Поэзия и комментарии к поэтическим сочинениям, поэтика) – М.: Наука, 1980. – 126 с.



63. Дмитриева Л.В. Тюркоязычная арабописьменная рукописная книга по ее ареалам // Рукописная книга в культуре народов Востока. Очерки. Книга первая. – М.: Наука, 1987. – 428 с.

64. Комил. Девон (Нашрга тайёрловчилар: А.Ҳайитметов, В.Мўминова). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги АСН, 1975. – 224 б.

65. Лаффасий, Ҳасанмурод. Тазкираи шуаро. – Урганч: Хоразм, 1992. – 120 б.

66. Мунис. Сайланма. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. 368 б.

67. Нуралийева Таҳире. Еязма коллексиялари каталогу. Баку: Нурлан. 2006. – 683 с.

68. Огаҳий. Девон. Асарлар. VI жилдлик. I жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1971. – Б. 392.

69. Огаҳий. Девон. Асарлар. VI жилдлик. II жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. 424 б.

70. Сиёев С. Аваз Ўтар. – Тошкент: Наврўз, 2019. 350 б.

71. Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР. Т.II. – Ташкнт: Издательство АН РУз, 1954. – 592 с.

72. Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР. Т.VII. – Ташкент: Издательство АН РУз, 1964. – 556 с.

73. Табибий. Танланган асарлар. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1968. – 228 б.

74. Феруз. Элга шоҳу ишққа кул. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1994. – 160 б.

75. Феруз гулшани. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2016. – 84 б.

76. Фузулий. Қалб гавҳари. – Тошкент: Ҳилол-нашр, 2014. – 432 б.

77. Халлиева Г., Эшмуҳаммедова М, Адамбаева Н. Санкт–Петербург ва Тошкент фондларидаги Хоразм туркий-адабий манбалари. – Тошкент: Муҳаррир, 2018. – 85 б.

78. Ходим, Бобожон Тароҳ. Хоразм шоир ва навозандалари (Табдил қилиб, нашрга тайёрловчилар

А.Отамуродова, О.Абдурахимов). – Тошкент: Тафаккур қаноти, 2011. – 224 б.

79. Хоразмий, Рожий Муҳаммад Юсуф. Жамолинг гулшанининг булбулиман. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – 176 б.

80. Эркинов А.С., Полвонов Н. Т., Аминов Ҳ.А. Муҳаммад Раҳимхон II-Феруз даври феҳристи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – 384 б.

81. Ўзбек адабиёти тарихи хрестоматияси. II томлик. III том. – Тошкент: Ўздавнашр, 1945. – Б.411-416.

82. Ўзбек адабиёти. IV томлик. III том. – Тошкент: Ўздавнашр, 1945. – 800 б.

83. Ўзбек поэзиясининг антологияси. – Тошкент: Ўздавнашр, 1948. – 370 б.

84. Фанихўжаев Ф. Огаҳий асарларининг тавсифи. – Тошкент: Фан, 1986. – 126 б.

85. غریبه های آشنا. شعر فارسی ماوراء النهر قرن بیست با تکیه بر محیط های ادبی خوقند و خوارزم تألیف: دکتر ابراهیم خدایار. تهران. موسسه مطالعات ملی. ۱۳۸۴

86. هدایت رضاقلی خان (۱۳۵۶). سفارتنامه خوارزم. به کوشش علی حصوری. چ اول. تهران: کتابخانه طهوری. ۵۴-۵۵.

87. ناظر و منظور. وحشی بافقی. تنظیم: علی مصطفوی – تهران. ۱۳۸۶.

### 3. Lug‘atlar

88. Абдулхайр М. Навоий асарларининг изоҳли луғати. – Тошкент: “ЎЗМЭ” Давлат илмий нашриёти, 2018. – 560 б.

89. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. I-IV томлар. – Тошкент: Фан, 1983, 1984, 1985. – 1235 б.

90. Баранов Х. Арабско-русский словарь. – М.: Русский язык, 1985. – 926 с.

91. Лапасов Ж. Мумтоз адабий асарлар ўқув луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 272 б.

92. Навоий асарлари луғати (Тузувчилар: П.Шамсиев, С.Иброҳимов). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – 782 б.

93. Навоий асарлари учун қисқача луғат (Тузувчи: Б.Ҳасанов). – Тошкент: Фан, 1993. – 324 б.

94. Персидско-русский словарь. Под редакцией Ю.А.Рубинчика. В 2-х томах, Том I. – М.: Русский язык, 1985. – 800 с.

95. Персидско-русский словарь. Под редакцией Ю.А.Рубинчика. Том II. – М.: Русский язык, 1985. – 864 с.

96. Раҳмонов В. Ўзбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғат. –Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 200 б.

97. Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ. Иборат аз 2 ҷилд. Ҷилди 1.

Душанбе: Пажӯҳишгоҳи забон ва адабиёти Рӯдакӣ, 2008. – 950 с.

98. Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ. Иборат аз 2 ҷилд. Ҷилди 2. – Душанбе: Пажӯҳишгоҳи забон ва адабиёти Рӯдакӣ, 2008. – 946 с.

99. Хоксор, Муҳаммад Ризобек. Алишер Навоӣ асарлари луғати. – Тошкент: Академнашр, 2017. – 416 б.

100. Ўзбек тилидаги арабча ва форсча сўзлар луғати (Тузувчилар: Р.Сапоев, Ш.Авезметов). – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 192 б.

101. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – 392 б.

102. Ҳақимов М. Шарқ манбашунослиги луғати. – Тошкент: Давр пресс, 2013. – 496 б.

103. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият луғати. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. – 194 б.

104. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 222 б.

### **III. Monografiya, ilmiy maqolalar va ilmiy to‘plamlar**

#### **1. Monografiya, darslik va risolalar**

105. Абдулхайров М. Тимсол тадрижи (XV-XXI аср адабий манбалари мисолида). – Тошкент: Yashil yarroq, 2021. – 244 б.

106. Абдулхайров М. Адабий манбани матний тадқиқ этиш усуллари ва тамойиллари. – Тошкент: Adast Poligraf, 202. – 132 б.

107. Abdulxayrov M. Asliyat va tabdil muammolari. – Toshkent: Adast Poligraf, 2023. – 205 b.

108. Абдурасулов А. Хива (тарихий-этнографик очерклар). – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 98 б.

109. Айёмий (Юнус Юсупов). Ўт чакнаган сатрлар. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги АСН, 1983. – 184 б.

110. Амийн Муҳаммад Козим. Ўзбек адабиётида шеърнинг шакл ва мазмун жиҳатдан турлари. – Афғонистон-Форёб (1389 ҳижрий-шамсий). 2007. 117 б.

111. Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Тошкент: Тафаккур, 2020. – 352 б.

112. Афоқова Н., Ражабзода М. Шеърят ва сабабият. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 52 б.

113. Баёний, Муҳаммад Юсуф. Шажарайи Хоразмшоҳий. Мерос. – Тошкент: Камалак, 1991. – 265 б.

114. Баёний, Муҳаммад Юсуф. Шажарайи Хоразмшоҳий. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги АСН, 1994. – 104 б.

115. Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул. Феруз: шоҳ ва шоир қисмати. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги НМИУ, 1993. – 67 б.

116. Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул. Феруз. – Тошкент: Ехтремум пресс, 2011. 354 б.

117. Жалилов О. Ҳасанмурод Лаффасий. – Тошкент: Ўзбекистон, 1983. – 24 б.

118. Жувонмардиев А. Ҳарфлар рақамларга айланганда. – Тошкент: Фан, 1966. – 60 б.

119. Жумаев Н. Мунис ғазалиёти. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги АСН, 1991. – 158 б.

120. Жумахўжа Н. Феруз маданият ва санъат ҳомийси. – Тошкент: Фан, 1995. – 92 б.

121. Жумахўжа Н. Адизова И. Сўздин бақолироқ ёдгор йўқдур. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – 156 б.

122. Зоҳидов Р. “Саботул ожизин”. (Манбалар, шарҳлар, илмий-танқидий матн). – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – 256 б.

123. Зоҳидов Р. Матншунослик ва адабий манбашунослик асослари. – Тошкент: Яшил япроқ, 2023. – 223 б.

124. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. –Тошкент: Фан, 1983. – 167 б.
125. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – 320 б.
126. Каримов Ғ. Ўзбек адабиёти тарихи. III китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – 327 б.
127. Каримова Ф. Навойдан кейинги даврда яратилган дебочалар. – Наманган: 2007. – 32 б.
128. Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – 271 б.
129. Лаффасий. Тазкираи шуаро. – Урганч: Хоразм, 1992. – 120 б.
130. Лихачев Д.С. Текстология на материале русской литературы X – XVII веков. – Санкт-Петербург: Алетейя, 2001. – 230 с.
131. Лихачев Д.С. Текстология. М.-Л.: Издательство АН СССР, 1962. – 606 с.
132. Лихачев Д. С. Текстология. Краткий очерк. – М.-Л.: Наука, 1964. – 104 с.
133. Мажидий Р. Огахий лирикаси. – Тошкент: Фан, 1963. – 138 б.
134. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. (Б.Қосимов, У.Долимов, Ш.Юсупов, С.Аҳмедов, Ш.Ризаев). – Тошкент: Маънавият, 2004. – 458 б.
135. Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Тошкент: Фан, 1971. – 158 б.
136. Мунис ва Огахий. Фирдавс ул-икбол (Нашрга тайёрловчилар: Ш.Воҳидов, И.Бекжонов, Н.Полвонов). – Тошкент: Фан, 1971. – 520 б.
137. Мўминова В. Ўзбек демократик адабиётида лирика. – Тошкент: Фан, 1979. – 104 б.
138. Носиров О. Ўзбек адабиётида ғазал. – Тошкент: Ғафур Гулом номидаги АСН, 1972. – 136 б.
139. Носиров О., Жамолов С., Зиёвиддинов М. Ўзбек классик шеърляти жанрлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 184 б.

140. Нуриддинов Ш. Комил Хоразмий девони манбалари генеалогияси ва матн танқиди муаммоси. – Тошкент: Фан ва таълим, 2022. – 264 б.

141. Огаҳий. Зубдату-т-таворих (Нашрга тайёрловчи: Н.Жабборов). – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – 240 б.

142. Огаҳий. Шоҳиду-л-икбол (Нашрга тайёрловчи: Н.Шодмонов). – Тошкент: Мухаррир, 2009. – 336 б.

143. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Тошкент: Фан, 1976. – 120 б.

144. Орзибеков Р. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Адабиёт жамғармаси, 2006. – 272 б.

145. Орзибеков Р. Ўзбек классик шеърлятида мураббаъ. – Тошкент: Ўзбекистон, 1981. – 22 б.

146. Орзибеков Р. Ўзбек поэзиясида мураккаб структурали жанрлар. – Самарқанд: СамДУ, 1984. – 52 б.

147. Очилов Н. Ўзбек лирикасининг кичик жанрлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1981. – 22 б.

148. Пардаев Қ. Муқимий шеърляти: матн тарихи, таҳрири ва талқин. – Тошкент: Мухаррир, 2019. – 220 б.

149. Пирназаров М. Поэтик жанрлар типологияси (XIX ва XX аср бошлари туркий халқлар поэзиясида ғазал). – Тошкент: Фан, 1989. – 125 б.

150. Ражабов И. Мақомлар. – Тошкент: Санъат, 2006. – Б.40.

151. Рейсер С.А. Основы текстологии. – Л.: Просвещение: УзСЭ, 1978. – 176 с.

152. Рейсер С.А. Палеография и текстология. – М., 1970. – 336 с.

153. Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. – 214 б.

154. Санкт-Петербург ва Тошкент фондларидаги Хоразм туркий-адабий манбалари (Нашрга тайёрловчи: Г.Халлиева ва бошқ). – Тошкент: Мухаррир, 2018. – 80 б.

155. Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. – Тошкент: Тамаддун, 2020. – 520 б.

156. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Тошкент: Академнашр, 2011. – 326 б.

157. Сирожиддинов Ш. Матншунослик сабоқлари. – Тошкент: Навоий университети, 2019. – 128 б.

158. Содиков Қ. Матншунослик ва манбашунослик асослари. – Тошкент: ТДШИ, 2017. – 220 б.

159. Солаева М. Навоий ва Хоразм шоирлари. – Урганч: Мураббий, 1993. – 116 б.

160. Сулаймон Ҳ. “Хазойин ул-маоний” текстларини ўрганиш ва нашрга тайёрлашнинг асосий масалалари. /Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. – Тошкент: ЎзР ФА нашриёти, 1959, – 98 б.

161. Тарозий, Шайх Аҳмад ибн Худойдод. Фунун ул-балоға. – Тошкент: Хазина, 1996. – 212 б.

162. Томашевский Б.В. Писатель и книга. Очерк текстологии. Изд. 2-е, – М., 1959, – 148 с.

163. Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожиб ва туркий халқлар фольклори. – Тошкент: Баёз, 2013. – 116 с.

164. Фитрат Абдурауф. XVI асрдан сўнгра ўзбек адабиётига умумий бир қараш. Танланган асарлар. II жилд. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 208 б.

165. Хоразмда битилган қўлёзмалар (Тузувчи: Г.Машарипова). – Тошкент, 1997. – 84 б.

166. Хажиева И. Хоразм миллий-маънавий мероси дурдоналари. – Тошкент. Турон замин зиё, 1991. – 92 б.

167. Хоразм давлатчилиги тарихи. – Урганч, 2009. – 321 б.

168. Худойберганов К. Хива дунёдаги энг кўхна қалъа. – Тошкент, 2012. – 348 б.

169. Шайхзода М. Асарлар. Олти томлик. V том. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1973. – 92 б.

170. Шайх Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Тошкент: ТИУ НМБ, 2016. – 624 б.

171. Шамсиев П. Ўзбек матншунослигига оид тадқиқотлар. – Тошкент: Фан, 1986. – 164 б.

172. Шодмонов Н. “Шоҳиду-л-иқбол” – адабий манба. – Тошкент: Фан, 2009. – 232 б.

173. Эркинов А. Алишер Навоий “Хамса”си талқини (XV – XX аср боши). – Тошкент: Тамаддун, 2018. – 156 б.

174. Эркинов А. ва бошқ. Муҳаммад Раҳимхон II – Феруз кутубхонаси фехристи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – 384 б.

175. Эркинов А.С. Матншуносликка кириш. – Тошкент: Республика таълим маркази, 1997. – 50 б.

176. Юнусов М. Барҳаёт мерос саҳифалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – 128 б.

177. Юнусов М. Комил Хоразмий. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1960. – 104 б.

178. Юсупов Ю. Хоразм шоирлари. – Тошкент: Ғафур Гулом номидаги АСН, 1967. – 140 б.

179. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври). – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б.47.

180. ЎЗМЭ. 2-жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ Давлат илмий нашриёти, 2001. – 704 б.

181. ЎЗМЭ. 9-жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ Давлат илмий нашриёти, 2005. – 704 б.

182. Ўзбек адабиёти. IV томлик. I том. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1959. – 553 б.

183. Ўзбек адабиёти. IV томлик. III том. – Тошкент: Бадиий адабиёт. 1959. – 804 б.

184. Ўзбек адабиёти. V томлик. I китоб. – Тошкент: Бадиий адабиёт. 1966. – 332 б.

185. Ўзбек адабиёти. V томлик. II китоб. – Тошкент: Бадиий адабиёт. 1968. – 352 б.

186. Ўзбек адабиёти тарихи. V томлик. V том (Тузувчи: О.Шарафуддинов). – Тошкент: Фан, 1980. – 420 б.

187. Ўзбек адабиёти тарихи. Учинчи китоб (Нашрга тайёрловчи: Ғ.Каримов). – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – 482 б.

188. Қайюмов П. Тазкираи Қайюмий. Уч жилдлик. – Тошкент: Қўлғезмалар институти, 1998. – 560 б.

189. Қосимов Б. Излай-излай топганим. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983. – 272 б.



190. Куръони Карим маъноларининг таржимаси. – Тошкент: Ислом университети, 2001. – 617 б.

191. Ғайипов Д. Отаниёз Ниёзий. – Тошкент: Фан, 2010. – 140 б.

192. Ғафур Ғулом архивидаги араб ёзувида битилган кўлёмалар каталоги. – Тошкент: Адабиёт учкунлари, 2014. – 414 б.

193. Ғафур Ғулом уй-музейидаги кўлёмма, тошбосма ва нодир нашрлар каталоги. – Тошкент: Бизнес полиграф, 2020. – 244 б.

194. Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншунослик. – Тошкент: 2000. – 134 б.

195. Ҳайитметов А. Адабий меросимиз уфқлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – 240 б.

196. Ҳайитметов А. Табаррук излар изидан. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги АСН, 1979. – 152 б.

197. Ҳакимов М. Алишер Навоий асарлари кўчирган хаттотлар. – Тошкент: 1991. – 52 б.

198. Ҳамидова М. Манбашуносликнинг баъзи масалалари. – Тошкент: Шарқ машъали туркуми, 1999. – 220 б.

199. Ҳамидова М. Кўлёмма баёзлар – адабий манба. – Тошкент: Фан, 1981. – 124 б.

200. Ҳамроева О. XX аср бошлари ўзбек матншунослиги тараққиётида Фитрат мажмуаларининг ўрни. – Тошкент: Академнашр, 2019. – 208 б.

201. Ҳасаний М., Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншуносликнинг назарий масалалари. – Тошкент: ТДШИ, 2012. – 136 б.

202. Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 160 б.

203. Ҳожиаҳмедов А. Аруз назарияси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2018. 78-бет.

## **2. Dissertatsiya va avtoreferatlar**

204. Абдулхайров М.Ҳ. Навоий асарлари матни табдилини амалга ошириш усуллари, тамойиллари ва амалий масалалари. Филол. фан. доктори ... дисс. – Тошкент, 2020. – 251 б.

205. Адамбаева Н. Инглиз, рус ва ўзбек адабиётшунослигида Хоразм адабий манбалари тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 2021. – 50 б.

206. Алимов О. “Хамсат ул-мутаҳайирийн” асарининг қиёсий-матний тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2023. – 56 б.

207. Амонов Ш. Ҳамза шеърятининг манбалари, матний тадқиқи. Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2010. – 156 б.

208. Бердимуродова М. Муҳаммад Юсуф Рожий Хоразмий адабий мероси. Филол. фан. номз ... дисс. 2010. – 160 б.

209. Жабборов Н.А. Фурқат асарларининг қўлёзма манбалари. Филол. фан. ном... дисс. – Тошкент, 1994. – 156 б.

210. Жабборов Н.А. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2004. – 298 б.

211. Жумахўжа Н. Миллий мустақиллик мафкураси ва адабий мероси (XVII–XIX асрлар ўзбек шеърятини). Филол. фан. док. дисс... автореф. – Тошкент, 1999. – Б. 47.

212. Жўрабоев О. Ҳазиний Хўқандий ҳаёти ва ижодий мероси. Филол. фан. ном. дисс. – Тошкент, 2003. – 163 б.

213. Жўраев Ж. Комёб ҳаёти ва ижодий мероси манбалари тадқиқи. Филол. фан. номзоди ... дисс. – Тошкент, 2010. – 200 б.

214. Зоҳидов Р. “Саботул ожизин” асарининг манбалари, шарҳлари ва илмий-танқидий матнини комплекс ўрганиш муаммолари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2018. – 240 б.

215. Исмоилова Г. Феруз даври адабий муҳити. Филол. фан. ном. дисс. – Тошкент, 1995. – 139 б.

216. Исҳоқов Ё. Алишер Навоийнинг илк лирикаси. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1963. – 224 б.

217. Маткаримова С. “Табибий – тазкиранавис”. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2007, – 136 б.

218. Маҳмудов Ж. Паҳлавон Маҳмуд ҳаёти ва адабий меросининг матний тадқиқи. Филол. фан. номзоди ... дисс. – Тошкент, 2006. – 155 б.

219. Махаммадиева Ю. Ферузнинг бадиий маҳорати. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2021. 132 б.

220. Мирзараҳимова А.Ш. Ўрта Осиёда тошбосма китоб тарихи. Тарих фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 49 б.

221. Муталлибов С. “Ҳайрат ул-аброр”нинг танқидий матни. Филол. фан. номзоди. дисс. – Тошкент, 1945. – 44 б.

222. Мўминова В. Ўзбек адабиётида лирика. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1979. – 134 б.

223. Намозова З. Навоий лирикаси матншунослиги тадқиқи тадрижи (Ҳамид Сулаймон илмий фаолияти асосида). Филол. фан. бўйича фал. доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2021. – 143 б.

224. Нуриддинов Ш. Комил Хоразмий девони манбалари генеалогияси ва матн танқиди муаммоси. Филол. фан. д-ри... дисс. – Қарши, 2022. – 257 б.

225. Пиримқулов А.Э. Огаҳий маснавийлари: Филол. фанлари номзоди дисс. – Тошкент, 1999. – 133 б.

226. Пардаев Қ. Муқимий шеърятининг матн тарихи, таҳрири ва талқини. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2020. – 309 б.

227. Рашидова М. Алишер Навоий “Назм ул жавоҳир” асарининг матний тадқиқоти. Филол. фан. номзоди дисс. – Тошкент, 1991. – 222 б.

228. Самандарова С. XX аср ўзбек тазкиралари. Филол. фан. номзоди дисс... автореф. – Тошкент, 1996. – 20 б.

229. Сирождинов Ш. Алишер Навоий ҳаёти ва фаолиятига доир XV–XIX асрларда яратилган форс-тожик манбалари. Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 45 б.

230. Сулейман Хамид. Текстологическое исследование лирики Алишера Навои. Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент: ИЯЛАН РУз, 1961. – 34 б.

231. Тўхтамуратов Ф. Муҳсиний адабий мероси: манбалари, матн тарихи ва таҳрири. Филол. фан. бўйича фал. доктори. дисс. – Тошкент, 2023. – 137 б.

232. Шамсиев П. Навоий асарлари матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари. Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 1969. – 89 б.

233. Шодмонов Н. “Шоҳиду-л-иқбол”нинг ўзбек бадиий-тарихий насри тараққиётидаги ўрни, манбалари ва матний тадқиқи. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2009. – 283 б.

234. Шодмонов Ғ. Порсо Шамсиев илмий лабораторияси: тадқиқ усуллари, тамойиллари, матншунослик тараққиётидаги ўрни. Филол. фан. бўйича фалс.доктори. дисс. – Тошкент, 2021. – 171 б.

235. Эркинов А. Алишер Навоий “Хамса”си талқинининг XV – XIX аср манбалари. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1998. – 296 б.

236. Юнусов М. XIX аср шоири Комил Хоразмий ижодиёти. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1948. – 161 б.

237. Юсупов Ш. Фурқат ва ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг янги босқичи. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1990. – 234 б.

238. Қурбон Т. Залилий ҳаёти ва ижодий мероси. Филол. фан. номзоди ... дисс. – Тошкент, 2008. – 133 б.

239. Қурбонов С. Носир Бухорий форсий девонининг илмий-танқидий матни ва тадқиқи. Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 52 б.

240. Ғанихўжаев Ф. Огаҳийнинг “Таъвиз ул-ошиқин” девони ва унинг илмий-танқидий матни. Филол. фан. д-ри... дис. – Тошкент, 1998. – 123 б.

241. Ҳамидова М. Алишер Навоий “Садди Искандарий” достонининг илмий-танқидий матни ва матний тадқиқи. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1994. – 175 б.

### **3. Ilmiy maqolalar va ilmiy to‘plamlar**

242. Абдуғафуров А. Комил Тошкентда // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1983. – №1. – Б.10-16.

243. Аминов Ҳ. Муҳаммад Раҳимхон Соний даври маданияти тарихидан // Шарқшунослик. – 2008. №13. – Б.177-181.

244. Амонов Ш. Аҳмад Табибий таржеъбандларининг матний хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2022, – №2. – Б. 48-52.

245. Аҳмадхўжаев Э. Мерос дурдоналари (Лутфий девонининг илмий-танқидий матнини тузишга жалб қилинган қўлёзма нусхалар) // Адабий мерос. 1985 йил №2. – Б.46.

246. Аҳмедов А. Комил– зуллисонайн шоир // Адабий мерос. – 1983. – №2 (26). – Б.80-85.

247. Жабборов Н. Матншуносликнинг айрим назарий масалалари. / Ўзбек матншунослигининг назарий ва амалий муаммолари. Республика илмий анжумани материаллари. – Қарши, “Насаф”, 2019. – Б.3-8.

248. Жабборов Н. Адабий манбаларда матн таҳрири масаласи. /Адабий манба: ўрганишнинг замонавий тамойиллари ва нашр муаммолари (Илмий мақолалар тўплами). – Қарши, “Насаф”, 2013. – Б.6-13.

249. Жабборов Н. Бадиий матн таҳрирининг хос хусусиятлари. /“Ўзбек адабиётшунослигида талқин ва таҳлил муаммолари” мавзуидаги илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2014. – Б.28-32.

250. Жабборов Н. Ўзбек матншунослигининг долзарб муаммолари. / “Замонавий ўзбек адабиётшунослигининг янгилашиш тамойиллари” мавзуидаги Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2016. – Б.99-105.

251. Жабборов Н. Матн тарихи ва унинг генезисига доир айрим мулоҳазалар. /Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. 1-китоб. – Наманган, 2021. – Б. 5-12.

252. Жабборов Н. Матн тарихини ўрганиш – илмий ҳақиқат мезони // Илмий мақолалар тўплами: Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари. – Наманган, 2020. – Б.50-57.

253. Жабборов Н. Матн тарихини ўрганишнинг муқобала услуби // Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганишнинг назарий ва манбавий асослари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2020. – Б.20-25.

254. Жабборов Н. Ўзбек матншунослиги ва унда *матн танқиди, илмий-танқидий матн* истилоҳларининг ўрни /Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганишнинг назарий ва манбавий асослари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2019. – Б. 9-16.

255. Жабборов Н. Ўзбек матншунослиги: муаммолар, истиқболдаги вазифалар //Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Наманган, 2018. – Б. 34-40.

256. Жўрабоев О. Девои ва девиончилик таснифи (XX аср ўзбек адабиётшунослиги. Мумтоз адабиёт). – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2016. – Б. 525-526.

257. Исҳоқов Ё. Баёз ва баёзчилик тарихи. // Ўзбек адабиёти тарихи масалалари (тўплам), 1976, 4-сон. – Б.78-100.

258. Каримов Ғ. Эзгу ниётлар куйчиси // Шарқ юлдузи. – 1976. – №1. – Б.218-223.

259. Каримова Ф. Хоразм адабий муҳитида дебочанавислик // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2004. – №3. – Б.36-37.

260. Мажидий Р. Комил Хоразмий // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – 1961. – №2. – Б. 23-27.

261. Мўминова В. Аҳмад Табибий // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1982. – №1. – Б. 69-71.

262. Мўминова В. Комил Хоразмий – таржимон //Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – 1962. – №1. – Б. 75-77.

263. Нагиева Ж. Ўзбек шоири Табибий ва унинг дастхати // Адабий мерос. – Тошкент, 1991. – № 4. –Б. 19-24.

264. Хўжаева У. Муҳаммаднийёз Комил девионининг Тошкент нусхалари //Адабий мерос. – 1998. – №3-4(69-70). – Б.43-45.

265. Шодмонов Н., Имомова Г. Адабий манба ва матн тасарруфи //Адабий манба: ўрганишнинг замонавий тамойиллари ва нашр муаммолари. Мақолалар тўплами. Қарши, “Насаф”, 2013. – Б.13-21.

266. Эркинов А. Поездка А.Н.Самойловича в Хивинское ханство в 1908 году и оценка им литературной среды. II

Востоковедческие чтения памяти Н.П.Остроумова. Сборник материалов. – 2010. – С.116-126.

267. Эркинов А. «Российская империя и Хивинское ханство (русские: ученый А.Н. Самойлович и путешественник В.Г.Ян в Хивинском дворце в начале XX в.)» // Проблемы востоковедения. – 2013. – №3(61) – С.84-91.

268. Эркинов А. Муҳаммад Раҳимхон II (1864–1910) ва унинг сарой адабий муҳити / Республика илмий анжумани материаллари (2011 йил 20 май, Урганч–Ҳазорасп). Хива, 2011. – Б.104-106.

269. Эркинов А. Муҳаммад Раҳимхон II (1864 – 1910) сарой маданият муҳитида перфекционизмга интилиш – Россия протекторатига қарши восита // Ўзбек давлатчилиги тизимида даргоҳ ва девонлар. – Тошкент: Академнашр, 2019. – Б.255-260.

270. Юнусов М. Комил Хоразмий //Шарқ юлдузи. – 1956. – №11. – Б.89-102.

271. Ўрозбоев А. Комил девони қўлёзмасининг мухтасар мундарижаси // Ўзбек тили ва адабиёти. Журнали. – 2020. – №6. – Б.34-37.

272. Қобулов Ф. Комил Хоразмий ҳақида яна бир янги маълумот // Адабий мерос. – 1991. – №2(56). – Б.61-63.

273. Ғанихўжаев Ф. Табибий тузган икки мажмуа Адабий мерос. – 1971. – №2. – Б. 211-219.

274. Ғанихўжаев Ф. Табибий // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – 1962. – №6. – Б. 8-13.

275. Ғанихўжаев Ф. Муҳаммаси мустазод // Адабий мерос. –1981. – №3(19). – Б. 87-93.

276. Ҳайитметов А. Матншунослик муаммолари // Шарқ юлдузи, 1982. №3. – Б.167-171.

277. Ҳамроев У., Каримов У. Хива шоирлари тазкирасининг нусхалари // Адабий мерос. – 1981. – №4. – Б. 77-80.

278. Ҳожиева Р. Комил Хоразмий – хаттот ва ношир // Адабий мерос. – 1978. – №11. – Б.61-63.

279. Ҳамидова М. Нодир манбалар // Шарқ машъали. – 1999. № 1-2. – Б.34-35.

#### **IV. Xorijiy adabiyotlar**

286. Adeeb Khalid. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Tzarist Central Asia. PhD, Madison, 1993. V. 512

280. A.Zeki Velidi Togan. Bugunku Turkili: Turkistan ve yakin tarihi. Istanbul: 1981.

281. Dürdane Tekin. 19. Yüzyıldan Çağatayca Bir Divan: Harezmî Kâmil Divani'nin Transkripsiyonu ve Incelemesi. Boğaziçi Üniversitesi, 2019. – 448 s.

282. Yedward Allworth. Uzbek literary politics. London-Paris, 1964, r. 340.

283. Janos Yeckmann. Harezm, kipcak ve cagatay turkcesi uzerine arastirmalar. Ankara: 1996.

#### **V. Internet manbalari**

284. <https://bulletin-history.kaznu>

285. <https://scribe.su/school literature>

286. <https://dic.academic.ru>

287. <https://www.istanbul.edu.tr/>

288. <http://www.was'hington.edu/>

289. <http://www.uva.nl/en/home/>

290. <http://www.uop.edu.pk/>

291. [www.ivran.ru](http://www.ivran.ru)<http://elm/az/><http://elm/az/>

292. [www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz) fondidagi 8949 raqamli toshbosma.



## MUNDARIJA

**KIRISH ..... 3**

### **I BOB. SHOIR ILMIY BIOGRAFIYASINI YARATISHNING MANBAVIY ASOSLARI VA ADABIY MEROSI KO‘LAMI**

- 1.1. Ilmiy biografiya yaratishda manbalarning o‘rni ..... 8  
1.2. Shoir adabiy merosining ko‘lami va janriy tasnifi..... 30

### **II BOB. IJODKOR DEVONLARI QO‘LYOZMALARI GENEALOGIYASI VA MONOGRAFIK TAVSIFI**

- 2.1. Shoir devonlari qo‘lyozmalari genealogiyasi ..... 56  
2.2. Ijodkor devonlari qo‘lyozmalarining monografik tavsifi..... 95

### **III BOB. DEVONLARNING TAYANCH MANBALARINI ANIQLASH MEZONLARI VA SHOIR SHE‘RLARINING MATNI TARIXI**

- 3.1. Tayanch manbalarni aniqlash mezonlari ..... 124  
3.2. Shoir asarlarini o‘rganishda matn tarixining o‘rni ..... 142

### **IV BOB. MATNIY TAFOVUTLAR TAHLILI**

- 4.1. “Munisu-l-ushshoq” devoni qo‘lyozmalari va toshbosma  
nusxalari qiyosiy tahlili ..... 173  
4.2. “Hayratu-l-ushshoq” devoni manbalaridagi matn tafovutlari 191

**XULOSA ..... 232**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR..... 237**

**Shermuxammad Amonov**

**AHMAD TABIBIY TURKIY DEVONLARI  
QO‘LYOZMALARINING QIYOSIY-MATNIY  
TADQIQI**

**Monografiya**

**“Bookmany print” nashriyoti**

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 08.11.2023.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 <sup>1</sup>/<sub>8</sub>

Nashriyot bosma tabog‘i 12,3. Shartli bosma taboq 12,7.

Adadi 100 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: [bookmany\\_print@mail.ru](mailto:bookmany_print@mail.ru)

t.me/ Bookmanyprint ☎ +998 99 180 97 10